

# **EQUINOX**

**Avtomobildan  
foydalanish qo'llanmasi**



# **FAQAT TAVSIYA ETILADIGAN NOETILLANGAN BENZINNI MUQARRAR TARZDA QO'LLANG!**



Mazkur avtomobilning dvigateli avtomobil ixtirolari sohasida eng oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va qurilgan.

Bu tejamkor, texnik tomondan takomillashtirilgan va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga muvofiq keluvchi model.

Dvigatelni o'rnatilgan tarzda ishlashi uchun faqat noetilirlangan yuqori sifatli yonilg'ini qo'llash zarur.

8-51-betdagi "Avtomobilni haydash va boshqarish - Yonilg'i" bo'limini ko'ring. Boshqa turdagi yoqilg'ilarni qo'llash avtomobilning ishlatish xususiyatlarini yomonlashtirilishiga olib kelishi va kafolatni bekor qilinishi sababi bo'lib qolishi mumkin!

## KIRISH

**Mazkur qo'llanmada eslatib etiluvchi nomlanishlar, logotiplar, firma belgilari, shiorlar, avtomobil modellarining nomlanishi va avtomobil kuzovida joylashtiriluvchi naqshlar, jumladan GM nomlanishi, GM logotipi, CHEVROLET nomlanishi, CHEVROLET firma belgisi, EQUINOX nomlanishi va EQUINOX firma belgisi General Motors LLC kompaniyasi, uning sho'ba korxonalari, filiallari yoki litsenziyalarining ro'yxatdan o'tkazilgan savdo belgilari va (yoki) xizmat ko'rsatish belgilari hisoblanadi.**

**Ushbu qo'llanmada ta'riflangan funksiyalar mazkur foydalanuvchi qo'llanmasi nashrdan chiqishidan so'ng tatbiq etilgan, sizning xaridingiz yokida modifikatsiya tarkibiga kirmagan qo'shimcha variantlar hisoblanganligi munosabati bilan sizning avtomobilingizda mavjud bo'lmasligi mumkin. Avtomobilda aniq funksiyaning mavjudligini tasdiqlash uchun o'zingizni aniq avtomobilingizni sotib olishga sizning hujjatlaringizga murojaat qiling.**

**Mazkur qo'llanmani undan zarurat bo'lganida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun avtomobil salonida saqlang.**

**Siz Chevrolet avtomobilini xarid qilganingizdan minnatdormiz.**

## MUNDARIJA

1.	Kalitlar, eshiklar va oynalar .....	1-1
2.	O'rindiqlar va himoya tizimlari .....	2-1
3.	Buyumlarni saqlash uchun joylar .....	3-1
4.	Boshqaruv uskunalari va organlari .....	4-1
5.	Yoritish .....	5-1
6.	Axborot-ko'ngilochar tizimi .....	6-1
7.	Iqlim-nazoratini boshqarish organlari .....	7-1
8.	Avtomobilni haydash va boshqarish .....	8-1
9.	Avtomobilni parvarishlash .....	9-1
10.	Texnik ma'lumotlar .....	10-1

## EGASINING E'TIBORIGA

### Mazkur qo'llanmadan qanday foydalaniladi

- Mazkur qo'llanmada ushbu modelning barcha opsiyalari asbob-uskunalarini tavsiflangan. Alohida elementlar va menyu funksiyalarining tavsifi har xil hududlar uchun modifikatsiyalarning va ishlanmalarning farq qilishi, hamda qo'shimcha asbob-uskunalar va aksessuarlarning mavjud emasligi yoki mavjudligi sababli sizning avtomobilingizga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.
- Qo'llanmaning birinchi sahifalaridagi va har bir bo'limning boshlanishidagi mundarija qo'llanma qanday tuzilganini tushinishda sizga yordam berishi mumkin.
- Avtomobilning axborot tizimi displeyidagi ma'lumotlar sizning ona tilingizda aks ettirilmasligi mumkin.

### Xavf, ogohlantirish va e'tibor

Avtomobilning yopishtirma yorliqlarida va mazkur qo'llanmada mavjud bo'lgan ogohlantirishli xabarlar xavflarni va ushbu xavflardan saqlanish maqsadida yoki ularni pasaytirish uchun nimalarni qilish kerakligi haqida tavsiflaydi.

#### XAVFLI

Xavf jiddiy jarohatlarga yoki o'limga olib keladigan yuqori darajadagi xavfga ko'rsatadi.

#### OGOHLANTIRISH

"Ogohlantirish" belgisi jarohatlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarga ko'rsatadi.

#### DIQQAT!


"Diqqat" belgisi moddiy zarar yetkazilishiga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfga ko'rsatadi.





Ustidan chizilgan aylana - bu taqiqni bildiruvchi xavfsizlik belgisi: "Taqiqlanadi", "Bajarish taqiqlanadi" yoki "Ushbu holat sodir bo'lmasligi uchun ta'minlash zarur".

### Shartli belgilanishlar

Avtomobilning ba'zi komponentlari va ularda o'rnatilgan jadvalchalar matnli xabarlar o'rniga shartli belgilanishlarni saqlaydi. Quyida keltirilgan belgilar harakat tartibini tasniflovchi yoki aniq komponentlar, tizimlar/boshqaruv organlari, xabarlar, uskunalar yoki indikatorlarga taalluqli bo'lgan matnli ma'lumotlarni to'ldiradi.

 : ushbu belgi Avtomobilni ishlatish bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq axborot yoki yo'riqnomalar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.












 : ushbu belgi Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq axborot yoki yo'riqnomalar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

 : ushbu belgi boshqa sahifada saqlanuvchi ancha batafsil axborot bilan tanishib chiqish zarurati bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

### Avtomobilida qo'llaniluvchi shartli belgilanishlar

Quyida avtomobilida qo'llaniluvchi shartli belgilanishlar, va ularning ma'nosining ta'rifi keltiriladi. Avtomobil tizimlari haqida ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun mazkur Qo'llanmaning muvofiq bo'limlarini ko'ring.

## EGASINING E'TIBORIGA

-  : Konditsionerlash tizimi
-  : Konditsionerlash tizimi xladagenti
-  : Xavfsizlik yostiqlari tizimining nazorat lampasi
-  : Antibloklash tizimi (ABS)
-  : Tormoz tizimining nazorat lampasi
-  : Xizmat qilib bo'lgan komponentlarni o'rnatilgan tarzdgagi utilizatsiyasi
-  : Yuqori bosim ostidagi suv oqimi ta'siriga uchratilmasin
-  : Dvigatelni sovutish suyuqligi harorati
-  : Ochiq alangadan foydalanilmasin!
-  : Yong'indan xavfli!
-  : Ehtimolli frontal to'qnashuvni oldini olish tizimi
-  : Saqlagichlar bloki qopqog'i qulfining joylashishi
-  : Saqlagichlar
-  : ISOFIX/LATCH bolalar o'rindiqlarini mahkamlash tizimi
-  : Saqlagichlar bloki qopqog'ini shonchli yoping
-  : Lane Change Alert (qatorni almashtirishda yordam tizimi)
-  : Egallab turilgan qatordan bexosdan chiqish haqida ogohlantirish tizimi
-  : Egallab turgan qatordan chiqib ketishni oldini olish tizimi
-  : Nosozlik nazorat lampasi ("Dvigatelni tekshiring" nazorat lampasi)
-  : Motor moyining bosimi
-  : To'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi
-  : Oldindagi piyodani aniqlash indikator
-  : Oziqlanish
-  : Ko'ndalang yo'nalishda orqada harakatlanayotgan obyektlar haqida ogohlantirish tizimi
-  : Vakolatlangan texnik mutaxassis
-  : Dvigatelni masofadan turib ishga tushirish
-  : "Kamarni taqib oling" nazorat lampasi
-  : Ojiz zonalarni nazorat tizimi
-  : Avtomatik to'xtash/avtomatik dvigatelni ishga tushirish tizimi
-  : Shinalarda havo bosimi monitori
-  : Shatakisrashga qarshi tizim/ StabiliTrak tizimi/yo'nalish turg'unligini qo'llab turish tizimi (ESC)
-  : Yuqori bosim!
-  : Oldindagi avtomobilni aniqlash indikator

## Yonilg'i



Avtomobilni, minimum, muvofiq, 95dan past bo'lmagan oktan sonli yuqori nav noetilirlangan benzin bilan to'ldiring. Avtomobilni nosoz holga keltirish va yonilg'ini ortiqcha sarflanishidan saqlanish maqsadida oktan soni ko'rsatilgandan past bo'lgan benzindan foydalanmang. Yonilg'i ⇨ 8-51ni ko'ring.





# 1

## KALITLAR, ESHIKLAR VA OYNALAR

---

- KALITLAR VA QULFLAR ..... 1-2
- ESHIKLAR ..... 1-11
- AVTOMOBILNI HIMOYALASH ..... 1-14
- TASHQI KO'ZGULAR ..... 1-16
- ICHKI KO'ZGULAR ..... 1-17
- OYNALAR ..... 1-18
- TOM ..... 1-20
- IZOHLAR ..... 1-22

## KALITLAR VA QULFLAR

### Kalitlar

#### OGOHLANTIRISH!

Bolalarni avtomobilda qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogi bilan birgalikda qoldirish xavfli - bu bolalarga qanday bo'lsa, atrofdegilarga ham xuddi shunday jarohatlar yetkazilishiga, hattoki o'lim oqibatlarigacha olib kelishi mumkin.

Bola elektr oyna ko'targichlarini, boshqaruvning boshqa organlarini yoki hattoki avtomobilni o'zini ham harakatga keltirishi mumkin. Qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogi avtomobil salonida bo'lgan vaqtda, oyna ko'targichlariga oziqlanish uzatib turiladi, bu esa ko'tarilayotgan oyna bilan bolalarning yoki atrofdegilarning qo'llarini qisilib qolishiga olib kelishi mumkin. Bolalarni avtomobilda qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogi bilan birgalikda qoldirmang.



Qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogidagi kalit eshiklarning barcha qulflari bilan ishlaydi.



RKE radiobrelogining pastki qismida yon tomonidagi tugmaga bosib va kalitni tashqariga chiqarib olib kalitni sug'urib oling.

Ushbu tugmaga bosmasdan hech qachon kalitni chiqarmang.

Agar sizga yangi radiobrelok zarur bo'lsa, o'z dileringizga murojaat qiling.

### Eshikning qulflarini masofadan boshqarish tizimi (kalitsiz kirish)

Eshiklarni qulflarini masofadan boshqarish radiobrelogini biron bir o'zgartirishlarga yoki takomillashtirishlarga uchratmang. Takomillashtirilgan uskunalarni qo'llash taqiqlangan.

Eshiklarni qulflarini masofadan boshqarish tizimining ta'sir radiusi pasayganda:

- Oraliq masofani tekshiring. Ehtimol, brelok avtomobildan juda uzoqda joylashtirilgan.
- Avtomobilning joylashishini tekshiring. Boshqa avtomobillar yoki obyektlar signalni bloklashlari mumkin.
- Brelokda batareykani tekshiring. "Batareykalarni almashtirish" paragrafini ushbu bo'limda quyida ko'ring.
- Agar brelok baribir noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, o'z dileringizga yoki attestatsiyalangan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi

Qulflarni masofadan boshqarish tizimi, agar radiobrelok 1 metrgacha (3 fut) uzoqlikda joylashganida, avtomobil eshiklarini qulflarini blokdan chiqarishga imkon beradi. "Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimining ishi" paragrafini quyida ko'ring. RKE brelogi avtomobildan 60 m (197 fut) oraliq masofada ishlashi mumkin. Brelokning ishiga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimi (kalitsiz kirish) ⇨ 1-2 bo'limni ko'ring.



Brelokda quyidagi tugmalar joylashtirilgan bo'lishi mumkin:

🔒 : Barcha eshiklarning qulflarini va yonilg'i bakining lyuki qopqog'ini bloklash uchun bosib. Qulflarni qulflash indikatsiyasi burilishni ko'rsatkichlarining yorishishi va (yoki) tugmaga birinchi bosishda tovushli signalning yoqilishi bilan amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring.

🔓 : Agar tugmani bosish paytida haydovchining eshigi ochiq va qulflarni tasodifan bloklashdan himoya funksiyasi faollashtirilgan bo'lsa, barcha eshiklarning qulflari bloklanadi, bundan so'ng haydovchi eshigining qulfi blokdan chiqariladi. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring.

🔑 : Agar tugmani bosishda yo'lovchilarning biron bir eshigi ochiq bo'lsa, barcha eshiklar qulflanadi.

🔒 : tugmani bosish bilan shu bilan birga olib qochishga qarshi signalizatsiyani yoqish mumkin. Avtomobil signalizatsiyasi ⇨ 1-14 bo'limni ko'ring.

🔑 : tugmani, toki oynalar to'liq ochilmagunicha, bosib va ushlab turing.

Agar oynalarni masofadan boshqarish tartibi yoqilmagan bo'lsa oyna ko'targichlar harakatga kelmaydi. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring.

🔒 : Haydovchi eshiklarning qulflarini va yonilg'i bakining lyuki qopqog'ini blokdan chiqarish uchun bosib.

Barcha eshiklarni ochish uchun, besh soniya davomida yana bir marta bosib. Qulflarni masofadan boshqarish tizimini 🔑 tugmani birinchi galda bosish bilan barcha eshiklarni blokdan chiqarilishini dasturlashtirib qo'yish mumkin (Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring). Eshiklar ochilganligiga ko'rsatib, burilish ko'rsatkichlari indikatorlari miltillashi mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring.

🔒 : tugmani bosish bilan shu bilan birga olib qochishga qarshi signalizatsiyani o'chirish mumkin. Avtomobil signalizatsiyasi ⇨ 1-14 bo'limni ko'ring.

Orqa ko'tariluvchi eshikning elektr uzatmasi bo'lmagan avtomobillarda barcha eshiklarni ochishda orqa ko'tariluvchi eshik ham ochiladi.

🔑 : Agar orqa ko'tariluvchi eshik elektr uzatmasi bilan jihozlangan bo'lsa, orqa ko'tariluvchi eshikni ochish yoki yopish uchun, qisqa ikki marta bosib.

Orqa ko'tariluvchi eshikning harakatini to'xtatish uchun yana bir marta bosib.

🔑 : Avtomobil tomonidan signalni uzatilishini faollashtirish uchun, bir marta bosib va qo'yib yuboring. Qisqa vaqtga tashqi yoritish uskunalarini yorishadi va uch karrali tovushli signal jaranglaydi. 🔑 tugmani bosib va favqulodda signalizatsiyani yoqish uchun uch soniyadan kam bo'lmagan vaqtga uni bosib ushlab turing. 30 soniyaga yoki toki 🔑 tugma qayta bosilmagunicha yoki dvigatel ishga tushirilmagunicha, tovushli signal va burilish ko'rsatkichlari yoqiladi.

### Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimi ishi


Qulflarni masofadan boshqarish tizimi eshiklarni qulflash va ochishga, hamda cho'ntakdan, ayollar sumkachasidan, portfeldan va shunga o'xshashlardan radiobrelokni chiqarmay orqa ko'tariluvchi eshikni ochishga imkon beradi. Qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogi salonning ochiluvchi eshigi yoki yukxona bo'linmasidan 1 m (3 fut) gacha masofada joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Oldingi eshiklarning tashqi tutqichlari tugmalarga ega bo'lishi mumkin.

Kalitsiz kirish tizimini shunday tarzda dasturlashtirish mumkinki, bunda haydovchi eshidagi ochish/yopish tugmasiga birinchi bosish bilan barcha eshiklarni qulfdan ochish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limni ko'ring.

### Haydovchi eshididan kalitsiz qulflash/qulfdan yechish

Eshiklar qulflangan va radio-brelog haydovchining eshigini tutqichidan 1 m (3 fut) gacha masofada joylashtirgan vaqtda, bu eshik tutqichdagi qulflash/qulfdan yechish tugmasini bosish bilan ochiladi. Agar qulflash/qulfdan yechish tugmasini kamida besh soniya o'tgandan so'ng takroran bosilganda, salonning barcha eshiklari qulfdan yechilgan bo'ladi.



### Haydovchining tomoni ko'rsatilgan, yo'lovchining tomoni shunga o'xshash

Qulflash/qulfdan yechish tugmasini bosish, agar quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biri bajarilgan bo'lsa, barcha eshiklarning qulflanishiga olib keladi:

- Qulflash/qulfdan yechish tugmasini birinchi bosishdan so'ng ko'pi bilan besh soniya o'tdi.
- Barcha eshiklarni qulfdan yechish uchun qulflash/qulfdan yechish tugmasini ikki marta bosish amalga oshirildi.
- Avtomobilning biron bir eshigi ochilgan, hozir esa barcha eshiklar qulflangan.

### Oldingi yo'lovchi eshigi tomonidan kalitsiz qulflarni qulflash/qulfdan yechish

Eshiklar qulflangan, va radiobrelok esa eshik tutqichidan 1 m (3 fut) gacha masofada joylashtirilgan vaqtda, ushbu tutqichdagi qulflash/qulfdan yechish tugmasini bosish bilan barcha eshiklar qulfdan yechiladi.

Qulflash/qulfdan yechish tugmasini bosish, agar quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biri bajarilgan bo'lsa, barcha eshiklarning qulflanishiga olib keladi:

- Qulflash/qulfdan yechish tugmasi yordamida barcha eshiklarning qulfdan yechilishi bajarilgan.
- Avtomobilning biron bir eshigi ochilgan, hozir esa barcha eshiklar qulflangan.



### Passiv qulflash

Agar avtomobil kalitsiz kirish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, barcha eshiklarning qulflari barcha eshiklar qulflangandan keyin, agar bunda o't oldirish o'chirilgan va hech bo'lmaganda minimum bitta radiobrelok avtomobil salonini tark etgan yoki salonda birona radiobrelok qolmagan bo'lsa, bir necha soniya o'tib avtomatik qulflanadi.

Yonilg'i bakining lyuki qopqog'i ham qulflanadi. Agar begona elektron qurilmalar radiobrelok signaliga to'siqlar hosil qilayotgan bo'lsa, avtomobil salonda joylashtirilgan eshiklarni masofadan boshqarish tizimi brelogini aniqlashtirmasligi mumkin. Qulflarni passiv

bloklanishi yoqilgan vaqtda eshiklar salonda joylashtirilgan masofadan boshqarish tizimi brelogi bilan birgalikda qulflanishi mumkin. Eshiklarni masofadan boshqarish tizimi brelogini avtomobil salonida qarovsiz qoldirmang. Avtomobildan chiqib ketishda qulflarni avtomatik bloklanishini sozlash tartibini Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limning "Masofadan bloklash, blokdan chiqarish, ishga tushirish" bandida ko'ring.

#### **Qulflarni passiv bloklash funksiyasini vaqtinchalik o'chirish**

Qulflarni passiv bloklanish funksiyasini vaqtinchalik o'chirish uchun, eshikda o'chirgichlar blokida  tugmani kamida to'rt soniya bosilgan holda yoki toki zummerning uch martalik signali jaranglagunicha ushlab turib, unga ochiq eshiklarda bosish zarur. Qulflarni passiv bloklash funksiyasi toki eshik qoplamasi paneli eshigidagi o'chirgichlar blokida tugma bosilmagunicha  yoki toki o't oldirish yoqilmagunicha o'chiq holda qoladi.

#### **Avtomobil salonida unutilib qoldirilgan radiobrellok haqida ogohlantirish**

Dvigateli o'chirilgan avtomobil salonida unutilib qoldirilgan radiobrellok haqida uch martalik tovushli signal ogohlantiradi, u barcha eshiklar yopilganidan so'ng jaranglaydi. Ushbu funksiyani yoqish yoki o'chirish tartibi Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limida ko'ring.

#### **Avtomobil salonida radiobrellokning mavjud emasligi haqida ogohlantirish**

Agar dvigatel ishga tushirilgan va avtomobilning biron bir eshigi ochilgan bo'lsa, so'ngra esa barcha eshiklar yopilsa, tizim salondagi radiobrelloklarning izlanishini avtomatik bajaradi. Agar radiobrellok aniqlanmagan bo'lsa, haydovchining axborot markazi displeyida MASOFADAN BOSHQARISH KALITI ANIQLANMADI xabari aks ettiriladi va zummerning uch martalik signali jaranglaydi. Avtomobilni har bir ishga tushirishda bunday ogohlantirish faqat bir marta uzatiladi. Ushbu funksiyani yoqish va o'chirish tartibi Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limida ko'ring.

#### **Orqa ko'tariluvchi eshikni masofadan ochish**

Eshiklar qulflangan vaqtda, orqa ko'tariluvchi eshik tutqichida qulflash/qulfdan chiqarish tugmasiga bosish orqali orqa ko'tariluvchi eshik, agar RKE brelok 1 m (3 fut) radiusda joylashtirilgan bo'lsa, ochiladi.

#### **Kalit yordamida kirish**

Radio-brellokning batareykasi quvvatsizlangan holatda avtomobilga kirish tartibini Eshiklarning qulflari ⇨ 1-7 paragrafda ko'ring.

#### **Avtomobilida masofadan boshqarish pultlarini dasturlash**

Faqat avtomobilni boshqarish blokida aniqlashtirilgan eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish breloklari ishlaydi. Brelokning yo'qotilishida yoki o'g'irlanishida, sizning dilingizda boshqa brelokni xarid qilish va dasturlashtirish mumkin. Avtomobilni yo'qotilgan yoki o'g'irlangan masofadan boshqarish pultlari boshqa ishlamaydigan qilib qayta dasturlashtirish mumkin. Har bir avtomobilda sakkiztagacha brelok qayd etilgan bo'lishi mumkin.

**Masofadan boshqarish pultining quvvatsizlangan batareyasida avtomobilni dvigatelni ishga tushirish**

Agar radiobrelokning batareyasi quvvatsizlangan bo'lsa, avtomobilni ishga tushirishda haydovchining axborot markazida MASOFADAN BOSHQARISH KALITI ANIQLANMADI yoki NO REMOTE KEY WAS DETECTED PLACE KEY IN TRANSMITTER POCKET THEN START YOUR VEHICLE (RADIOBRELOK ANIQLANMAGAN, RADIOBRELOKNI BO'LMACHAGA JOYLASHTIRING VA AVTOMOBILNI ISHGA TUSHIRING) xabarlarini paydo bo'lishi mumkin. Haydovchining axborot markazi displeyida shu bilan birga MASOFADAN BOSHQARISH KALITINING BATAREYASINI ALMASHTIRING xabari aks ettirilishi mumkin.

Dvigatelni ishga tushirish uchun:



1. Radiobrelokni (larni) stakandonga joylashtiring.

2. O'YUQ dastagini P (to'xtab turishga joylashtirish) yoki N (neytral yuritma) holatiga o'tkazib, tormoz pedalini bosib va ENGINE START/STOPni bosib.

Masofadan boshqarish pultidagi batareyani iloji boricha tezroq almashtiring.

**Batareyani almashtirish**

Agar haydovchining axborot markazida MASOFADAN BOSHQARISH KALITIDA BATAREYKANI ALMASHTIRING xabari aks ettirilsa, radiobrelokdagi oziqlantirish elementini almashtiring.


**⚠ DIQQAT!**

Batareyani almashtirishda uzatgichdagi sxemalarga teginmang. Sizingning tanangizdan statik zaryad datchikni shikastlashi mumkin.

Batareya qayta quvvatlanmayapti. Batareyani almashtirish uchun:



1. Radiobrelok biqinida tugmaga bosib kalitni chiqarib oling. Ushbu tugmaga bosmasdan hech qachon kalitni chiqarmang.



2. kalit uchun uyacha yonidagi sohaga yassi instrumentni kiritish orqali radiobrelok korpusini ikki qismga ajrating.



3. Batareykaning ustiga bosib va radiobrelokning pastiga siljitib, batareykani chiqarib oling.

4. Yangi batareykani orqa qopqoqqa musbat qutb bilan o'rnatib. Batareykani joyida qayd etish uchun uning ustiga bosib. Almashtirish uchun CR2032 bataryasini yoki shunga o'xshashini qo'llang.

5. Radiobrelok qopqog'ini joyiga o'rnatib.

6. Kalitni o'rnatib.

### Eshiklarning qulflari

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!




Qulflanmagan eshiklar xavf keltirishi mumkin.

• Yo'lovchilar, ayniqsa bolalar, eshiklarni osongina ochishlari va yurib ketayotgan avtomobildan tushib qolishlari mumkin. Eshiklarni yurib ketayotganda qulfdan yechish va ochish mumkin. Agar eshik bloklanmagan bo'lsa, u holda avariya vaqtida avtomobildan uchib chiqib ketish imkoniyatlari oshadi. Shunday qilib, yo'lovchilar xavfsizlik kamarlari bilan o'rnatilgan tarzda tang'ib qo'yilgan bo'lishi, eshiklar esa avtomobilning harakatlanishi vaqtida doimo bloklangan bo'lishi kerak.

• Eshiklari bloklanmagan avtomobil ichiga tushib qolgan bolalar uning ichida chiqib keta olmasliklari sodir bo'lishi mumkin. Bola qizib ketishni his etishi mumkin, bu surunkali oqibatlar bilan shikastlanishlarni yoki hattoki issiq urishdan halok bo'lishni chaqirishi mumkin. Avtomobildan chiqib ketayotganda har doim uni qulflang.



• Siz tezlikni pasaytirganingizda yoki to'xtayotganligingizda begona shaxslar qulflanmagan eshiklar orqali ichkariga osongina kirishlari mumkin. Eshiklarni bloklash buni oldini olishga yordam berishi mumkin.

Eshiklarning qulflarini tashqaridan bloklash yoki blokdan chiqarish tartibi:

• Qulflarni masofadan boshqarish brelogida  yoki  tugmasini bosib. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi  1-3 bo'limni ko'ring.

• Haydovchi eshigidagi qulfnı qulflang. Qulf silindrini qopqoq bilan yoping.


Eshiklarning qulflarini ichkaridan bloklash yoki blokdan chiqarish tartibi:

• Eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida  yoki  ni bosib.

• Faqat bir eshikni qulflash uchun, eshik tutqichini pastga bosib.


• Qulfnı blokdan chiqarish uchun eshik tutqichini bir marta torting. Eshikni ochish uchun, tutqichni yana bir marta torting.

### Kalitsiz kirish



Qulflarni masofadan boshqarish tizimi brelogi, agar u mavjud bo'lsa, u saloning ochiladigan eshigidan yoki yukxonaning ko'tariluvchi eshigidan 1 m (3 fut) dan ko'p bo'lmagan masofada joylashgan bo'lishi kerak. Eshikni ochish uchun, eshik tutqichining tugmasiga bosing. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-3 bo'limni ko'ring.


### Haydovchi eshigining qulfi silindriga etib borish (oziqlantirish elementi quvvatsizlanishi holatida)




Haydovchi eshigining qulfi silindriga kirib borishni olish tartibi:

1. Eshik tutqichini (1) torting va uni qulf tsilindri qoplamasini yechib olish muolajasi yakunlangunicha tortilgan holatda ushlab turing.
2. Kalitni qoplamaning (2) pastki tomonidagi chuqurlikka (3) o'rnatg va unim tepaga torting.
3. Qopqoqni (2) orqaga siljitib, uni yechib oling.
4. Kalitni silindrga o'rnatg. Qopqoqni almashtirish tartibi:


1. Eshik tutqichini (1) torting va uni qulf tsilindri qoplamasini o'rnatish muolajasi yakunlangunicha tortilgan holatda ushlab turing.



2. Zichlagich (5) va metal asos (4) orasidagi qoplama orqasiga ikki tilchani (6) o'rnatg.








3. Qoplamani oldinga siljiting va qayd etib qo'yish uchun uning oldingi chetiga bosing.
4. Eshik tutqichini qo'yib yuboring.
5. Qopqoqni ishonchli mahkamlanganligini tekshiring.


### Qulf silindrining erkin aylanishi


Agar qulfga to'g'ri kelmaydigan kalit o'rnatilsa yoki to'g'ri keladigan kalit to'liqligicha o'rnatilmagan bo'lsa, silindr qulfga hech qanday ta'sir qilmasdan erkin aylanadi. Bu qulfning ruxsat etilmagan ochilishidan himoya qilishga imkon beradi. Qulf qayta ishlashi uchun, to'g'ri keladigan kalitni tiralguniga qadar o'rnatib, u yordamida silindrni vertikal holatga aylantiring.

Kalitni chiqarib oling va uni qayta o'rnatib. Agar bu qulfning ish qobiliyatini tiklashga yordam bermagan bo'lsa, u holda kalitni yarim burashga aylantiring va yuqorida tavsiflangan harakatlarni takrorlang.

### Eshiklarning qulflarini elektr blokirovkasi




 : Eshiklarni qulflash uchun bosing. Eshikni qulflashda o'chirgichdagi indikator yorishib turadi.

 : Eshiklarni ochish uchun bosing.



### Kechikish bilan eshiklarni bloklash


Ushbu funksiya barcha eshiklarni yopilgandan so'ng besh soniyagacha vaqtga eshiklarni qulflanishini kechiktiradi.

Kechikish bilan eshiklarni qulflash funksiyasi faqat ochilgan eshikni qulflanishini oldini olish funksiyasi yoqilganda amal qiladi.

Eshik ochiq holda bo'lganida eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida  ni bosilishida, bloklashni kechiktirish funksiyasi faolashtirilganligiga ko'rsatuvchi uch marta tovushli signal uzatiladi.

Barcha eshiklar yopilgandan so'ng besh soniya o'tib eshiklar avtomatik bloklanadi. Agar eshik ushbu besh soniya davomida ochilsa, u holda barcha eshiklar yopilganidan so'ng ular ham besh soniya o'tib qulflanadi.

Kechikishsiz eshiklarning qulflarini bloklash uchun, eshiklar o'chirgichida  ga yoki radiobrelokda tugmani yana  bir marta bosing.


Kechikish bilan eshiklar bloklanishini dasturlab qo'yish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash  4-23 bo'limida ko'ring.

### Avtomatik qulflash

Barcha eshiklar yopilgan, o't oldirish yoqilgan va YUO'Q dastagi R (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazilganida eshiklar avtomatik qulflanadi.

Agar biron bir eshikni qulfdan chiqarilsa, so'ngra esa uni ochib va yopilsa, eshiklarning qulflari tormoz tepkisidan oyoqlar olinganda yoki avtomobil harakat tezligini 13 km/soat (8 mil/soat)ga oshirilganda avtomatik qulflanadi.

Eshiklarni blokdan chiqarish uchun:

- Eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida  ni bosib.
- Yuritmalar o'zgartirgichini to'xtab turishga joylashtirish (R) holatga o'rnatib.


Eshiklarni avtomatik qulflanishini o'chirish imkoni yo'q.

Eshiklarni avtomatik qulfdan chiqarilishini dasturlab qo'yish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limni ko'ring.

### **Bloklashni himoyalash**

Agar o't oldirish yoki yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish tartibi yoqilgan va haydovchining eshigi ochilgan vaqtda eshiklarning qulflarini elektr bloklash tugmasi bosilsa, haydovchi eshigidan tashqari, barcha eshiklarning qulflari bloklanadi.

Agar avtomobil ochiq eshik bilan ishlamayotgan holatga keltirilsa, so'ngra esa yopilgan eshiklarni bloklashga so'rov kelib tushsa, salondagi radiobreloklarning izlashi avtomatik bajariladi. Agar radiobrelok aniqlansa, salondagi radiobreloklarning soni esa oshmagan bo'lsa, u holda haydovchi eshigi qulfdan yechiladi va uch marta tovushli signal uzatiladi.

Tasodifiy qulflanishdan himoyani eshiklarning elektr qulfining o'chirgichida  ni bosib va ushlab turilsa, uni qo'lda bekor qilish mumkin.

### **Ochilgan eshikning qulfini tasodifiy qulflanishdan himoyalash**

Agar ochilgan eshikning qulfini tasodifiy qulflanishdan himoyasi yoqilgan, avtomobil haydovchining ochilgan eshigi bilan o'chirilgan va bunda eshiklarni qulflashga so'rov uzatilayotgan bo'lsa, u holda haydovchining eshigidan tashqari, barcha eshiklar qulflanadi.

Haydovchining eshigini qulfini bloklab qo'yish uchun tugmani yana bir marta bosib. Ochilgan eshikni tasodifiy bloklanishdan himoyalash funksiyasini o'z istagi bo'yicha yoqish yoki o'chirish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limida ko'ring.

### **Bolalar xavfsizligi uchun qulflar**

Saqlagich qulflar avtomobilida bo'lgan yo'lovchilarning orqa eshiklarini ochishga to'sqinlik qiladi.

### **Qulf tutqichlarini mexanik bloklash**



Agar saqlagich qulf o'rnatilgan bo'lsa, u orqa eshiklarning ichki zihning yonida joylashtirilgan. Saqlagich qulfini qo'llash tartibi:

1. Dastakchani oldinga bloklangan holatga o'tkazib.
2. Eshikni yopib.
3. Xuddi shu harakatlarni boshqa orqa eshik bilan bajaring.

Yoqilgan himoya bloklanishida orqa eshikni ochish uchun:

1. Eshikni eshiklarni elektr bloklash o'chirgichiga bosish bilan ichkari tutqich bilan yoki eshiklarni masofadan boshqarish tizimi radiobrelogi (RKE) bilan blokdan chiqarish mumkin.

## ESHIKLAR

### Orqa ko'tarma eshik

#### **OGOHLANTIRISH!**

Agar harakatlanish vaqtida yukxona bo'linmasining orqa eshigini yoki yukxona qopqog'ini ochiq holda qoldirilsa, hamda kuzov va yukxona qopqog'i yoki yukxona bo'linmasining orqa eshigi orasidagi zichlagich orqali o'tayotgan yukni yuklab tashishda avtomobil saloniga ishlagan gazlar kirib qolishi mumkin.

Ishlagan gazlar hidga ega bo'lmagan ko'rinmas is gazini (SO) saqlaydi. Gaz xushni yo'qotish yoki o'limni chaqirishi mumkin.

Yukxonaning orqa eshigi yoki yukxona qopqog'i ochilgan holda safar qilish zarurati bo'lganida:

- Barcha oynalarni yoping.
- Asbob-uskunalar paneli ustida yoki ostida bo'lgan havo o'tkazgichlarni to'liq ochib qo'ying.
- Iqlim-nazorat tizimida havoning tashqaridan kirishini eng yuqori darajasiga o'tkazing va ventilyatorning maksimal tezligini o'rning. Ko'rsatkichda "Iqlim-nazorat tizimlari"ni ko'ring.
- Agar avtomobil elektr uzatmali ko'tariluvchi orqa eshik bilan jihozlangan bo'lsa, eshikning elektr uzatmasini o'chirib qo'ying. Ishlagan gazlar ⇨ 8-17 bo'limni ko'ring.

2. Eshikni tashqaridan oching.

Saqlagich qulf harakatga kelitirilgan vaqtda, orqa eshikni kattalar ham, katta yoshdagi bolalar ham ichkaridan ochish imkoniga ega bo'lmaydilar. Eshikni ichkaridan ochish uchun, saqlagich qulflarni blokdan chiqarish zarur.

Saqlagich qulfn blokdan chiqarish tartibi:

1. Eshikni blokdan chiqaring va uni tashqaridan oching.

2. Dastakchani orqaga blokdan chiqarilgan holatga o'tkazing. Xuddi shu harakatlarni boshqa eshik bilan ham qiling.

#### **DIQQAT!**

Yukxonaning eshigini va oynasini shikastlanishidan saqlanish uchun tepadan va orqadan ochish uchun to'siqlar mavjud emasligiga ishonch hosil qiling.

### Elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshik ishi

#### **OGOHLANTIRISH!**

Elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshikning yopilish trayektoriyasiga tushib qolish vaqtida jarohat olish mumkin.

Eshikni ochishda va yopishda uning yo'lida hech kim turmaganligiga ishonch hosil qiling.

#### **DIQQAT!**

Orqa ko'tariluvchi eshikning ochiq yoki mahkamlanmagan holatida harakatlanish eshikning elektr uzatmasini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.





Elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshik bilan jihozlangan avtomobillarda, ushbu o'zgartirgich haydovchining eshigida joylashgan. Avtomobil P (to'xtab turishga joylashtirish) tartibida bo'lishi kerak.

Ochishning quyidagi tartiblari mavjud:


- **MAKS:** Maksimal balandlikka ochiladi.
- **3/4:** Eng past balandlikka ochiladi, uni to'liq ochilguncha 3/4 chegarasida sozlash mumkin. Ushbu sozlamadan orqa ko'tariluvchi eshik ochilishida avtomobil ustidagi to'siqlarga, masalan, garaj eshigiga yoki tomga mahkamlangan yukka urilmasligi uchun foydalaning.
- Bunda eshikni har galgidek qo'lda to'liq ochish mumkin.

• **O'CHIRISH:** Faqat qo'lda ochiladi. Elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshikni ochish uchun, **MAKS** yoki **3/4** tartibni tanlang.

So'ngra:

- **RKE radiobrelogida** qisqa ikki marta  ni bosib; orqa ko'tariluvchi eshik harakatlanishni boshlaydi.
- Haydovchining eshigida  ni bosib. Haydovchi eshigi qulflangan yoki qulfdan chiqarilgan bo'lishi kerak, ammo olib qochishga qarshi tizimni faollashtirmasdan.
- Barcha eshiklarning qulflarini qulfdan chiqaring va orqa ko'tariluvchi eshikning tutqichini pastki tomonidagi bosish paneliga bosib. RKE radiobrelogi 1 m (3 fut) radiusda joylashgan bo'lishi kerak.



Yopish uchun tutqich bilan yonma-yon orqa ko'tariluvchi eshikning pastki qismida joylashgan  ni bosib.

Orqa ko'tariluvchi eshikning har qanday tugmasiga yoki orqa ko'tariluvchi eshikning harakati vaqtida bosish paneliga bosishda uning to'xtashiga olib keladi. Takroran bosishda eshik qarama-qarshi tomonga qarab harakatlanishni boshlaydi. Orqa ko'tariluvchi eshikni tutqichdagi panelga bosish bilan yopish imkoni yo'q.

**⚠️ DIQQAT!**

Avtomatik harakatlanish vaqtida orqa ko'tariluvchi eshikni ochish yoki yopish urinishi avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomatik ochish yoki yopish sikli yakunlanguniga qadar kuting.

Orqa ko'tariluvchi eshikning elektr uzatmasi juda past haroratda yoki qisqa vaqt mobaynida yoqish/o'chirish bir nechta sikllardan keyin vaqtinchalik o'chishi mumkin. Ushbu holatlarda uni qo'lda ochish mumkin.

Agar orqa ko'tariluvchi eshikning elektr uzatmasi ishlash vaqtida yuritmalarni o'zgartirish dastagi R (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga chiqarilsa, eshikning harakati yakunlangunicha davom etadi. Agar orqa ko'tariluvchi eshik harakatlanishni yakunlagunicha gaz tepkisiga bosilsa, orqa

ko'tariluvchi eshik to'xtab qolishi yoki teskari tomonga harakatlanishni boshlashi mumkin. Harakatlanishni boshlashdan avval, orqa ko'tariluvchi eshik yopilgan va qulflanganligiga ishonch hosil qiling.

### **Orqa ko'tariluvchi eshikni tushib ketishini aniqlash**

Agar orqa ko'tariluvchi eshik elektr uzatma yordamida ochishdan keyin avtomatik yopilsa, tizim orqa ko'tariluvchi eshikka ortiqcha og'irlikka ta'sir ko'rsatadi yoki gaz prujinasining nosozligiga ko'rsatadi. Orqa ko'tariluvchi eshikning tushib ketishini aniqlashtirish funksiyasining ishlashi takrorlanuvchi tovushli signal bilan kuzatib boriladi. Eshikdan ortiqcha og'irlikni olib tashlang. Agar elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshik ochishdan keyin avvalgidек avtomatik yopilayotgan bo'lsa, elektr uzatmadan foydalanmang va ta'mirlash uchun dilerlik markaziga murojaat qiling. Elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshikning harakatiga qo'l bilan aralashuv yoki uni elektr uzatma bilan ochishdan keyin qo'lda juda tez yopishda gaz prujinasining nosozligini eslatuvchi simptomlarga olib kelishi mumkin. Bunda shu bilan birga orqa ko'tariluvchi eshikning tushib ketishini aniqlash funksiyasi ishlashi mumkin. Orqaga ko'tariluvchi eshikni

qo'lda yopishdan avval, elektr uzatmada ishlash siklini yakunlanishiga imkon bering va bir necha soniya kuting.

### **To'siqlarni aniqlashtirish funksiyalari**


Agar elektr uzatma yordamida ochish yoki yopishda orqa ko'tariluvchi eshik to'siq bilan uchraganida, u harakatlanish yo'nalishini avtomatik o'zgartiradi va to'siqdan katta bo'lmagan oraliq masofaga suriladi. To'siqni olib tashlab, elektr uzatmali orqa ko'tariluvchi eshikdan qayta foydalanish mumkin. Agar eshik bir tsikl davomida bir nechta to'siqlarga uchrasa, u holda elektr uzatma o'chadi. To'siqlarni olib tashlagandan so'ng orqa ko'tariluvchi eshikni qo'lda yoping; bundan so'ng elektr uzatma o'zining me'yordagi ishini tiklaydi.

Agar orqa ko'tariluvchi eshikni yopish vaqtida avtomobil yopilgan bo'lsa va orqa ko'tariluvchi eshik harakatlanishi jarayonida uning to'liq yopilishiga halaqit beruvchi to'siqlarga duch kelsa, orqa ko'tariluvchi eshik yopilmaganligini xabarini berib klakson signali jaranglaydi. Siqilib qolish datchiklari orqa ko'tariluvchi eshikning biqindagi zihlarda joylashtirilgan. Agar avtomobil kuzovi va orqa ko'tariluvchi eshik orasida datchikka bosim ko'rsatuvchi buyum siqilib qolsa, eshik harakatlanish

yo'nalishini o'zgartiradi va to'liq ochiladi. Orqa ko'tariluvchi eshik elektr uzatma takroran yoqilguniga yoki qo'lda yopilgunga qadar ochiq holda qoladi.

### **3/4 tartibni sozlash**


Orqa ko'tariluvchi eshik ochiladigan holatgacha holatni o'zgartirish uchun:


1. MAK5 yoki 3/4 tartibni tanlang va orqa ko'tariluvchi eshikni elektr uzatma yordamida oching.
2. Eshikni boshqarish o'zgartirgichiga bosib, eshikni kerakli balandlikda to'xtating. Agar zarur bo'lsa, eshik holatini qo'lda sozlang.
3. Orqa ko'tariluvchi eshikning tashqi tomonidagi tutqich bilan yonma-yon  ni, toki burilish chiroqlari miltillashni boshlaguniga va tovushli signal jaranglaguniga qadar bosing va ushlab turing. Bu sozlama saqlanganligini bildiradi.

Orqa ko'tariluvchi eshikning ochilish balandligini pastki dasturlanuvchi chegaradan pastga o'rnatish mumkin emas. Agar burilish signallari mil tallamayotgan va tovushli signal bo'lmasa, bu balandlik sozlamasa juda ham pastga o'rnatilganligini anglatadi.

### Qo'l tartibida boshqarish

Orqa ko'tariluvchi eshikni qo'lda boshqarish uchun O'CHIRILGAN ni tanlang.

Orqa ko'tariluvchi eshikni qulfdan yechish uchun, elektr qulfnig o'zgartirgichiga bosing yoki qulflarni masofadan boshqarish brelogida (RKE)  tugmani besh soniya davomida ikki marta bosing.



Orqa ko'tariluvchi eshikni ochish uchun, orqa ko'tariluvchi eshik tutqichi ostidagi panelni bosing va eshikni tepaga ko'taring.

Orqa ko'tariluvchi eshikni ochish va yopish uchun, eshikning ichki tomonidagi tutqichni pastga torting. Orqa ko'tariluvchi eshikni yopishda sensor panelga bosmang. Bu orqa ko'tariluvchi eshikning qulfdan chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Harakatlanishni boshlashdan avval har doim orqa ko'tariluvchi eshikni yoping.

### **DIQQAT!**

Orqa ko'tariluvchi eshikni kuch bilan yoki juda katta tezlik bilan ochishga urinish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

## AVTOMOBILNI HIMOYALASH

Avtomobil olib qochishga qarshi funksiyalar bilan jihozlangan, ular, biroq, har doim ham olib qochishni oldini olmaydi.

### Avtomobil signalizatsiyasi

Avtomobil olib qochishga qarshi signalizatsiya bilan jihozlangan.



Old oyna bilan yonma-yon asbob-uskunalar panelida joylashtirilgan indikator tizimning holatlariga ko'rsatadi:

**Yorishmagan:** Signalizatsiya o'chirilgan.

**Doimo yoqilgan:** Avtomobil tizim yoqilishida kechikish vaqtiga himoyalangan.

**Tez miltillash:** Avtomobil himoyasiz. Salon, kapot yoki orqa ko'tariluvchi eshik ochilgan.

**Sekin miltillash:** Signalizatsiya yoqilgan.

### Signalizatsiyani yoqish


1. Avtomobilni o'chiring.
2. Quyidagi uch usuldan biri bilan avtomobil qulflarini bloklab qo'ying:
  - Masofadan boshqarish brelogidan foydalaning.
  - Eshik ochilganida ichkaridagi tugmani  bosing.
3. 30 soniya o'tib borishi bo'yicha signalizatsiya o'chiriladi, asbob-uskunalar panelida signalizatsiya ishlashiga ko'rsatuvchi indikator asta-sekin miltillashni boshlaydi. Radiobrelokda tugmani takroran bosishda  signalizatsiya 30-soniyalik kechikishsiz asta-sekin yoqiladi. Agar eshiklar kalit yordamida qulflanayotgan bo'lsa, signalizatsiya yoqilmaydi. Agar haydovchining eshigi masofadan boshqarish radiobrelogi yordamida oldindan blokdan chiqarishsiz ochilsa, tovushli signal yoqiladi va oldindan signalizatsiya sifatida chiroqlar miltillashni boshlaydi. Agar avtomobil ishga tushirilmagan yoki 10 soniya davomida masofadan boshqarish  brelogida oldindan signalizatsiyani bosish bilan

eshik blokdan chiqarilmagan bo'lsa, signalizatsiyaning yoqilishi amalga oshadi.


Agar signalizatsiyani oldindan o'chirishsiz yon tomon eshigi, kapot yoki orqa ko'tariluvchi eshik ochilsa, taxminan 30 soniyaga burilish ko'rsatkichlari va tovushli signal yoqiladi. Bundan so'ng agar keyingi shtatdan tashqari vaziyat sodir bo'lishi holatiga qo'riqlashga signalizatsiya tizimini takroran o'rnatish amalga oshadi.

### Signalizatsiyani o'chirish

Qo'riqlashdan signalizatsiyani yechish yoki uning ishlashida signalni o'chirish uchun, quyidagi harakatlardan birini bajaring:

- Qulflarni masofadan boshqarish brelokida  tugmani bosing.
  - Dvigatelni ishga tushiring.
- Signalizatsiyaning tasodifan ishlashidan saqlanish uchun:
- Barcha yo'lovchilar avtomobilni tark etganidan keyin va barcha eshiklar yopilganidan so'ngina avtomobilni qulflang.
  - Eshiklarni har doim masofadan boshqarish radiobrelogi yordamida qulfdan chiqaring.
- Kalit yordamida haydovchi eshigini ochilishi tizimni himoyadan yechmaydi va signalizatsiyani o'chirmaydi.

### Ichkariga kirishga urinishni qanday aniqlash mumkin

Agar radiobrelokda  ni bosishda tovushli signal uzatilsa, burilish ko'rsatkichlari esa uch marta miltillasa, demak, avtomobil signalizatsiyada turgan vaqtda uning ichiga kirish urinishi sodir etilganligini bildiradi. Signalizatsiya ishlaganida haydovchining axborot markazi displeyiga ogohlantirish chiqariladi.

### Immobilayzerning ishi

Ushbu avtomobil passiv olib qochishga qarshi tizim bilan jihozlangan. Bu tizimni qo'lda o'rnatish yoki signalizatsiyadan yechish kerak emas. Immobilayzer dvigatel o'chirilganda avtomatik yoqiladi. Immobilayzer tizimi avtomobil ishga tushirilganida yoki agar o't oldirish yordamchi uskunalarni oziqlantirish tartibida bo'lganida va avtomobilida amaldagi radiobrelok bo'lganida o'chadi.



Olib qochishga qarshi tizimning yoqilishi yoki o'chirilishi bilan muammolarning mavjudligida uskunalar majmuasida olib qochishga qarshi tizimning nosozligiga signalizator yorishadi.

Tizimda sizning avtomobilingizdagi immobilayzer bilan boshqariluvchi blokda qayd etilgan RKE brelogining kamida bittasi mavjud. Avtomobilni faqat to'g'ri tanlangan RKE brelogi yordamida ishga tushirish mumkin. Agar brelok har qanday tarzda shikastlangan bo'lsa, u holda avtomobil ishga tushmasligi mumkin. Avtomobilni ishga tushirish urinishida olib qochishga qarshi tizimning lampochkasi o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yorishishi mumkin.

Agar dvigatel ishga tushmayotgan bo'lsa, lampochka esa yorishib turishda davom etayotgan bo'lsa, tizimda nosozlik mavjud. O't oldirishni o'chiriv va qayta urinib ko'ring.

Agar o't oldirish tartiblari o'zgarmasa, RKE brelogi esa shikastlanmagan ko'rinishga ega bo'lsa, boshqa brelokni sinab ko'ring. "Masofadan boshqarish pultining quvvatsizlangan batareyasida avtomobilning dvigatelini ishga tushirish"ni Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-3 da ko'ring. Shu bilan birga radiobrelokni stakandon ichiga solib qo'yish mumkin.

Agar o't oldirish tartibi ikkinchi radiobrelok paydo bo'lishida yoki radiobrelokni stakandonga joylashtirishda o'zgarmasa, sizning avtomobilingiz ta'mirlashni talab qiladi.

Agar o't oldirish tartiblari o'zgarsa, u holda birinchi brelok nosoz bo'lishi mumkin.

Olib qochishga qarshi tizimga xizmat ko'rsatishi va ushbu avtomobilda qo'llash uchun qayd etilgan yangi RKE brelogini taqdim etishi mumkin bo'lgan dilerga murojaat qiling.

Immobilayzer bilan boshqarish tizimida yangi yoki ehtiyot RKE breloklarini ro'yxatdan o'tkazish mumkin. Avtomobil uchun sakkiztagacha brelokni ro'yxatdan o'tkazish mumkin. Qo'shimcha masofadan boshqarish breloklarning ro'yxatdan o'tkazilishiga nisbatan ma'lumotlarni Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-3 bo'limidagi "Avtomobilda breloklarni ro'yxatdan o'tkazish" bandida ko'ring.

Olib qochishga qarshi tizimni o'chiradigan yoki faolsizlashtiradigan radiobrelokni yoki qurilmani avtomobilda qoldirmang.

## TASHQI KO'ZGULAR


### Manzarali toshoynalar

#### OGOHLANTIRISH!

Obyektlar, masalan, boshqa avtomobillar, manzarali toshoynalarda ular haqiqatda bor bo'lgan joyga qaraganda uzoqroq ko'rinadi. O'ngga keskin qatorni o'zgartirishda o'ngda ketayotgan avtomobilni urib yuborish mumkin. Qatorni o'zgartirishdan avval salondagi orqani ko'rish toshoynasiga yoki yelka orqali orqaga qarang.

Yo'lovchi tomonidagi toshoyna qavariq shaklga ega. Manzarali toshoynaning yuzasi haydovchining o'rindig'idan yaxshi manzara ko'rinishini ta'minlash uchun shunday tarzda qavariq ishlangan.



### Elektr uzatmali toshoynalar






## ICHKI KO'ZGULAR



Toshoyalarning holatini sozlash uchun:

1. Haydovchi yoki yo'lovchi tomonidagi toshoynani tanlash uchun,  yoki  ni bosib
2. Ko'p funksiyali tugmada strelkaga bosib, toshoynani kerakli yo'nalishda o'zgartiring.

### Taxlanuvchi toshoynalar



#### Toshoyalarni taxlash elektr uzatmasi



Toshoyalarni taxlash uchun,  bosib, agar bunday funktsiya mavjud bo'lsa. Ularni yoyish uchun,  ni yana bir marta bosib.

### Isitiluvchi toshoynalar

Agar avtomobil orqani ko'rish tashqi toshoyalarni isitgichiga ega bo'lsa, toshoyalarning yuzasidan namlikni yoki qirovni olib tashlash uchun orqa oynaning antiterchilagichi yoqilishida faollashtiriladi.

 : Tugma iqlim-nazorat panelida joylashgan. "Orqa oynani isitish" bandini Iqlim-nazoratning avtomatik ikki zonali tizimi  7-2 bo'limida ko'ring.

### Orqani ko'rish ichki toshoynasi

Avtomobil orqasidagi bo'shlikni yaxshi ko'rish uchun toshoyalarning holatini sozlang. Tozalovchi vositani bevosita toshoynaning yuzasiga sepmang. Suv bilan namlantirilgan yumshoq sochiqdan foydalaning.

### Orqani ko'rishning mexanik toshoynasi

Agar orqani ko'rish toshoynasi qo'lda o'zgartirish tartiblariga ega bo'lsa, kunduzgi vaqtda qo'llash uchun o'zgartrigichni oldinga yoki orqada harakatlanayotgan transportni yorug'ligi bilan ko'zni qamashtirilishidan saqlanish uchun sutkaning qorong'u paytida qo'llash uchun orqaga siljiting.

### Orqani ko'rish toshoynalarida shu'lalarni avtomatik singdirish rejimi

Avtomatik qorong'ulashtirish funksiyasi (muvofig jamlanmada) orqada harakatlanib kelayotgan transport vositalarini faralari yorug'ligi bilan haydovchining ko'zlarini qamashtirishdan saqlanishga imkon beradi. Toshoyalarni avtomatik qorong'ulashtirish funksiyasi dvigatel ishga tushirilishida avtomatik yoqladi.

## OYNALAR

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Bolalarni, ishga qobiliyatiga ega bo'lmagan kattalarni yoki uy hayvonlarini mashinada, ayniqsa iliq yoi issiq ob-havoda yopiq oynalar bilan yolg'iz o'zlarini qoldirmang. Ular qizib ketishni his etishlari mumkin, bu jarohat olishga yoki hattoki issiq urishidan halok bo'lishga olib kelishi mumkin.




Avtomobilning aerodinamik xususiyatlari yonilg'ini tejash maqsadida loyihalashtiriladi. Bu orqani ko'rish oynasi tushirilgan, old oynalar esa yopilgan vaqtda uziq tovush chiqarilishini chaqirishi mumkin. Tovushni so'ndirish uchun, old oynalarni yoki shift lyukini oching

### Elektr oyna ko'targichlari

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!


Oyna bilan qisilib qolish bolalarga jiddiy jarohat yoki hattoki o'lim bilan tahdid soladi. Kalitlarni mashinada bolalar bilan qoldirmang. Orqa o'rindiqlarda bolalarni tashishda oyna ko'targichlarni ishlatish imkoniyatini bloklash uchun oynalarni bloklash tugmasini qo'llang. Kalitlar ↻ 1-2 bo'limni ko'ring.



Elektr oyna ko'targichlar yoqilgan o't oldirishda, yordamchi uskunalarni oziqlanirish tartibida, hamda qo'shimcha uskunalarning oziqlanishini o'chirilishini kechikish tartibida ishlashi mumkin.

Oynani ochish uchun oyna ko'targichni boshqarish tugmasini bosib yoki oynani yopish uchun uning zihidan torting. Oynalarni juda tez-tez ko'tarish va tushirishda oyna ko'targichlari ba'zi vaqtga o'chishi mumkin.

### Oynalarni bloklash



Bu funksiya orqa yo'lovchi oynalarini o'chirgichlarini bloklaydi. Orqa oynalarning bloklanishini amalga keltirish uchun, ☒ ni bosib. Bloklashda indikator yoqiladi. Oynalarni blokdan chiqarish uchun, yana bir marta ☒ bosib.

### Deraza oynalarini yarim avtomatik ko'tarish va tushirish

Eshiklarning barcha oynalarini o'zgartirgichning tugmasini doimo ushlab turmasdan ochish mumkin.

Bir teginishda oynani to'liq ochish uchun, o'chirgich tugmasini tiralgunicha bosing va darhol qo'yib yuboring.

Bir teginishda oynalarni to'liq yopish uchun (agar ushbu funksiya jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa), o'chirgich tugmasini tiralgunicha torting va darhol qo'yib yuboring.

Xuddi o'sha yo'nalishda o'chirgich tugmasini qisqa muddatli bosilishi yoki tortilishi oyna ko'targichning ishini to'xtatadi.

### Qisilib qolishdan himoya

Agar derazani yarim avtomatik yopish vaqtida oyna to'siq bilan uchrashsa, u tushishni boshlaydi. Bunday holat ayozda yoki muz bilan qoplanishda amalga oshishi mumkin. To'siq bartaraf qilinganidan so'ng oyna odatiy tarzda ishlashni boshlaydi.

### Siqilib qolishdan himoya funksiyasini o'chirish

#### **OGOHLANTIRISH!**

Agar siqilib qolishdan himoya funksiyasi o'chirilgan bo'lsa, oyna to'siq bilan uchrashishda avtomatik pastga tushishni boshlamaydi. Bunda siz yoki boshqa odamlar jarohat olishi, oyna esa shikastlangan bo'lishi mumkin.

Siqilib qolishdan himoya funksiyasini o'chirib qolishdan avval, oynaning harakatlanish traektoriyasida odamlar ham, boshqa to'siqlar ham yo'qligiga ishonch hosil qiling.


Agar ishlab turgan dvigatelda oyna siqilib qolishga qarshi himoyaning ishlashi sababli to'liq yopilmasa, oyna ko'targich o'zgartirgichi tugmasini tortish va ushlab turish kerak bo'ladi.

### Elektr oyna ko'targichlarini dasturlashtirish


Agar avtomobilning akkumulyator batareyasining o'chishi yoki quvvatsizlanishi amalga oshgan bo'lsa, dasturlashtirish talab etilishi mumkin. Agar oyna avtomatik ko'tarilmasa, oynani quyidagi tarzda dasturlashtiring:

1. Barcha eshiklarni yoping.
2. O't oldirishni yoki qo'shimcha uskunalarni oziqlantirish tartibini yoqing.
3. Dasturlanuvchi oynani oxirigacha ochmasdan, uni yoping, bundan so'ng oyna o'chirgichini takroran torting.
4. Oynani oching va oyna to'liq tushib bo'lganidan so'ng yana bir qancha vaqtga o'chirgich tugmasini bosing.

### Oynalarni masofadan boshqarish

Agar ushbu funksiya mavjud bo'lsa, u avtomobil oynalarini masofadan turib ochishga imkon beradi. Agar avtomobilning shaxsiy sozlamalarga muvofiq sozlama tanlangan bo'lsa, RKE radiobrelogida va  ni bosing va ushlab turing. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 bo'limini ko'ring.


### Quyoshdan himoyalash soyabonlari



To'g'ri quyosh yorug'ligi tushishidan ko'zlarni himoyalash uchun soyabonni tushiring. Quyoshdan himoyalash soyabonini yon tomon oynasiga burash yoki, agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, sterjen bo'ylab itarib chiqarish uchun, uni markaziy sharnir mahkamlagichdan uzib oling.

### TOM

### Tomning ventilyatsion lyuki



1. Tomdagi lyuk o'zgartirgichi
  2. Quyoshdan himoyalash ekrani o'zgartirgichi
- Agar avtomobil tomda shaffof lyukga ega bo'lsa, lyuk uzatmasi faqat o't oldirish o'zgartirgichi qo'shimcha uskunalarni oziqlantirish (ACC/ACCESSORY) yoki qo'shimcha uskunalarni oziqlanishdan o'chirilishini kechiktirish (RAP) holatida bo'lganida ishlaydi. Zaxira oziqlantirish moduli ↻ 8-15 bo'limga ko'ring.

### Tomdagi lyukning o'zgartirgichi

**Bir teginishda ochish va yopish:** Shaffof lyukni bir teginishda ochish uchun ↻(1) bosing va ushlab turing.

Lyukning harakatini to'xtatish uchun, o'zgartirgichni yana bir marta bosing.

Bir teginishda shaffof lyukni yopish uchun ↻(1) ni bosing va ushlab turing. Lyukning harakatini to'xtatish uchun, o'zgartirgichni yana bir marta bosing.



**Ochish/yopish (qo'l tartibi):** Shaffof lyukni ochish uchun, ↻(1) o'chirgichni, toki lyuk istalgan holatga erishmagunicha bosing va ushlab turing. Yopish uchun ↻(1)ni bosing va ushlab turing.


**Qulay holatda to'xtatish:** Shaffof lyuk qulay holatda to'xtatish funksiyasiga ega, u lyukga to'liq ochilish imkonini bermaydi. Shaffof lyukni qulay holatgacha ochish uchun, ↻ ni orqa qismini bosing va ushlab turing. ↻ orqa qismiga takroran bosishda lyuk to'liq ochiladi. Agar takroran bosishda quyoshdan himoyalash pardachasi to'liq ochilmagan bo'lsa, u avtomatik to'liq ochiladi.

**Shamollatish:** Shaffof lyukni shamollatish holatida ochish uchun ↻(1) ni yopiq holatdan bosing.

### Quyoshdan himoyalash pardachasining o'zgartirgichi

**Tez ochish va yopish:** Quyoshdan himoyalash pardachasini bir teginish bilan ochish uchun ushbu tugmani bosing va ushlab turing:

 (2). Quyoshdan himoyalash pardachasini bir teginishda yopish uchun  (2) ni bosing va ushlab turing. Lyukning harakatini to'xtatish uchun, o'zgartirgichni yana bir marta bosing.


**Ochish/yopish:** Quyoshdan himoyalash pardachasini ochish uchun, o'zgartirgich  (2) ni bosing va ushlab turing, toki pardacha istalgan holatga etgunga qadar. Shaffof lyukni ochishda shamol deflektori avtomatik ko'tariladi. Lyuk yopilishida shamol deflektori olinadi.

### Orqa yurishning avtomatik tizimi

Shaffof lyuk/quyoshdan himoyalash pardachasi orqaga yurishning avtomatik tizimiga ega, u faqat ekspress-yopish tartibida faol. Agar ekspress-yopilish jarayonida shaffof lyuk yoki quyoshdan himoyalash pardachasi to'siqlarga uchrashida, orqa yurish tizimi buni aniqlashtiradi va harakatni to'xtatadi.

Agar yopilish bilan qiyinchiliklar ayoz bilan yoki shunga o'xshash holat bilan chaqirilgan bo'lsa, orqaga yurish tizimini vaqtinchalik o'chirib qo'yish mumkin.

Orqaga yurish tizimini vaqtinchalik o'chirish uchun, oddiygina lyukni yoki ekranni qo'lda yoping. Lyuk yoki ekranning harakatini to'xtatish uchun, o'chirgichni qo'yib yuboring.



Tomning zichlagichlarida va lyuk yo'naltirgichlarida chang va iflosliklar to'planib qolishi mumkin. Bu tomning lyuk bilan ishlatilishida nosozlik, hamda shovqinning paydo bo'lishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Shu bilan birga suvni olib tashlash tizimining tiqilib qolish ehtimoli bor. Vaqti-vaqti bilan lyukni oching va barcha begona buyumlarni va qatqaloq ifloslarni olib tashlang. Lyuk zichlagichi va tomni zichlash zonasini yumshoq sovun eritmasida namlangan toza latta bilan arting. Lyukdan moylanmani olib tashlamang. Suvni chiqarib yuborish tizimiga suvning oqib tushishi me'yordagi holat hisoblanadi.



# 2

## O'RINDIQLAR VA HIMOYA TIZIMLARI

---

- BOSH TAGLIKLARI ..... 2-2
- OLDINGI O'RINDIQLAR ..... 2-3
- ORQA O'RINDIQLAR ..... 2-6
- XAVFSIZLIK KAMARLARI ..... 2-8
- ISHIRILADIGAN XAVFSIZLIK  
YOSTIQCHALAR TIZIMI ..... 2-16
- BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI .. 2-23

## BOSH TAGLIKLARI

Avtomobilning oldingi o'rindiqlari sozlanuvchi, suyanchiq bilan birlashtirilmagan bosh tagliklariga ega.

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki noto'g'ri sozlangan bo'lsa, to'qnashuv vaqtida bo'yin va umurtqaning jarohat olishining yuqori xavfi mavjud. Agar barcha bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki sozlanmagan bo'lsa, avtomobilni boshqarish taqiqlanadi.


Agar avtomobilning orqa o'rindiqlari tushiriluvchi taxlanuvchi bosh tagliklari bilan jihozlangan bo'lsa, o'rindiqlarni yo'lovchilar egallagan har gal ularni tiralguniga qadar ko'tarishni unutmang.



Bosh tagligining tepa qismi yo'lovchi boshining tepa qismi bilan bir xil balandlikda bo'lishi uchun ularni shunday sozlang. Bosh tagligining bunday holatida to'qnashuv paytida bo'yin jarohatlanishining xavfi pasayadi.

### Old o'rindiqlar

Avtomobilning oldingi o'rindiqlari sozlanuvchi, suyanchiq bilan birlashtirilmagan bosh tagliklariga ega.



Bosh tagliklarining balandligini sozlash mumkin. Bosh tagligini ko'tarish yoki tushirish uchun, bosh tagligining biqinida joylashtirilgan tugmani bosib, bosh tagligini tepaga torting yoki uni pastga tushiring, so'ngra esa tugmani qo'yib yuboring. Tugma qo'yib yuborilganidan

so'ng, bosh tagligiga bosib va u joyida mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun uni tepaga torting.

Oldingi yon tomon o'rindiqlarining bosh tagliklari yechilmaydigan.

### Orqa o'rindiqlar

#### Orqa bosh tagligini sozlash

Avtomobilning orqa o'rindiqlari yon tomon joylarida sozlanuvchi bosh tagliklariga ega.

Bosh tagliklarining balandligini sozlash mumkin. Bosh tagligini ko'tarish uchun, uni tepaga ko'tarish kerak. Bosh tagligi joyida mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun bosh tagligini joyidan qo'zg'atishga urinib ko'ring.





**OLDINGI O'RINDIQLAR**

Bosh tagligini tushirish uchun, o'rindiqlarning tepa qismida joylashtirilgan tugmani bosish va bosh tagligini pastga o'tkazish kerak.

Tugma qo'yib yuborilganidan so'ng, bosh tagligi joyida mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun bosh tagligini joyidan qo'zg'atishga urinib ko'ring.

**O'rindiqlarni sozlash****⚠ OGOHLANTIRISH!**

Harakatlanish vaqtida haydovchi o'rindig'ini sozlashga urinish avtomobil boshqaruvi yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Haydovchi o'rindig'ini faqat harakatlanmayotgan avtomobilda sozlang.




O'rindiq holatini sozlash uchun:

1. O'rindiq yostig'ining oldingi qismi oldidagi tutqichni blokdan chiqarish uchun, uni torting.
2. O'rindiqlarni oldinga siljitib va tutqichni qo'yib yuboring.
3. O'rindiq mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun uni oldinga-orqaga surib ko'ring.

**O'rindiqlarni sozlashning elektr uzatmasi****⚠ OGOHLANTIRISH!**

Elektr uzatmalı o'rindiqlar o't oldirish o'chirilgan vaqtda ishlaydi. Bolalar elektr uzatmalı o'rindiqlarni harakatga keltirishi va jarohat olishlari mumkin. Avtomobilida bolalarni qarovsiz hech qachon qoldirmang.



Elektr uzatmalı o'rindiqlarning holatini sozlash (muvofiq jamlanmada):

- Sozlash tutqichini oldinga yoki orqaga siljitib, o'rindiqlarni oldinga yoki orqaga qo'zg'ating.

- O'rindiq yostig'ining old qismini ko'tarish yoki tushirish uchun, sozlovchi tutqichning old qismini tepaga yoki pastga o'tkazing.
- Sozlagichning orqa qismini ko'tarib yoki tushirib, barcha o'rindiqlarni ko'taring yoki tushiring.

O'rindiq suyanchig'ini sozlash - O'rindiq suyanchig'ining qiyaligi ⇨ 2-4 da ko'ring.

### O'rindiq suyanchig'ining qiyaligi

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Safar qilish vaqtida egik holat xavfli bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda hattoki taqilgan xavfsizlik kamarlari ham zarur bo'lgan himoyani ta'minlay olmasligi mumkin.

Kamarining yelka qismi tanani tutib turmaydi. Buning o'rniga u Sizning oldingizda joylashadi. To'qnashuv holatida uning ustida dumalab tushish va bo'yin jarohatini yoki boshqa shikastlanishlarni olish mumkin.

Xavfsizlik kamarining bel sohasi qismi tepaga ko'tarilib ketishi va qorinni ezib qo'yishi mumkin. Butun yuklama tos sohasi suyagiga emas, balki ushbu sohaga to'g'ri kelishi mumkin. Bu ichki a'zolarning jiddiy shikastlanishlariga olib kelishi mumkin.

Harakatlanish vaqtida xavfsizlik maqsadida o'rindiq suyanchig'i vertikal holatga o'rnatilgan bo'lishi kerak. So'ngra o'rindiqning suyanchig'iga qulay tiralib olish va o'rnatilgan tarzda xavfsizlik kamarini taqib olish kerak.



Avtomobil harakatlanishi vaqtida suyanchiqni engashtirish mumkin emas.

### Egilganlikni qo'lda sozlashli o'rindiq suyanchiqlari

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Bloklangan suyanchiq to'qnashuv yoki keskin to'xtash vaqtida oldinga surilib ketishi mumkin, bu ushbu o'rinda o'tirgan odamga jarohatlar keltirishi mumkin. Suyanchiqni itarib va uni tortib, uning mahkamlanganligini har doim tekshirish kerak.



Qo'lda sozlanishli o'rindiqli suyanchig'ini orqaga surish uchun:

1. Pishangini ko'taring.
2. O'rindiqli suyanchig'ini kerakli holatga o'rnatish va suyanchiqni mahkamlash uchun pishangni qo'yib yuboring.
3. Suyanchiq mahkamlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.

O'rindiqli suyanchig'ini vertikal holatga qaytarish:

1. O'rindiqli suyanchig'iga bosmasdan pishangni chetki tepa holatga ko'taring, va uning o'zi vertikal holatga qaytadi.
2. Suyanchiq mahkamlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.


### Elektr uzatmali o'rindiqli suyanchig'i



Elektr uzatmali o'rindiqli suyanchig'ini sozlash uchun (agar u mavjud bo'lsa):

- Suyanchiqni orqaga engashtirish uchun, boshqaruv dastagining tepa qismini orqaga engashtiring.
- Suyanchiqni vertikal holatga qaytarish uchun, boshqaruv dastagining tepa qismini oldinga engashtiring.

### Bel tayanchini sozlash




Agar jamlanma bilan bel tayanchini sozlash imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, tayanchning holatini sozlash uchun, klavishaning oldingi yoki chetki hoshiyasini bosish va ushlab turing.



### Isitish va shamollatirish old o'rindiqlar.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar terining harorat o'zgarishlarini yoki og'riqli sezish qobiliyati susaygan bo'lsa, o'rindiqlarning isitilishi kuyishlarning sababchisi bo'lib qolishi mumkin. Kuyishlar xavfini pasaytirish uchun isitish funksiyasida o'ta ehtiyotkor, ayniqsa uzoq vaqt davomi davomida foydalaning. O'rindiqlarni yopinchiq, yostiq, jildlar va shunga o'xshashlar kabilar bilan issiqlik izolyatsiyasi buyumlari bilan yopmang. Bu o'rindiqli isitilishining ortiqcha qizib ketishiga olib kelishi mumkin. O'rindiqli isitgichining ortiqcha qizib ketishi natijasida kuyish yoki o'rindiqli shikastlanish sodir bo'lishi mumkin.





Agar ushbu funksiya mavjud bo'lsa, boshqaruv tugmalari iqlim-nazorat panelida joylashtirilgan. O'rindiqlarni isitilishi faqat o'qilgan dvigatelda ishlaydi.

Haydovchi yoki yo'lovchining o'rindiq yostiqlarini va suyanchiqlarini isitilishini yoqish uchun  yoki  ni bosing. Tugmadagi indikator nurdiodlari tanlangan tartibga ko'rsatadi.

Tugmani bir marta bosish vaqtida maksimal tartib tanlanadi. Har bir keyingi bosish bilan sozlamalar eng pastiga deyarli isitish funksiyasining o'chirilishgacha o'zgaradi.

Indikator lampalar: uchtasi eng yuqori daraja uchun, bittasi eng past uchun. Yo'lovchining o'rindig'ini isitish uchun ko'proq vaqt talab etilishi mumkin.


Haydovchi yoki yo'lovchini o'rindig'i ventilyatsiyasini yoqish uchun  yoki  bosing. Ventilyatsiya qilinuvchi o'rindiq ventilyator bilan jihozlangan, u o'rindiqning yostig'i va suyanchig'i orqali havoni eltib turadi. Havo sovutilmaydi.

Tugmani bir marta bosish vaqtida maksimal tartib tanlanadi. Har bir keyingi bosish bilan sozlamalar eng pastiga deyarli ventilyatsiya funksiyasining o'chirilishgacha o'zgaradi. Indikator lampalar: uchtasi eng yuqori daraja uchun, bittasi eng past uchun.

## ORQA O'RINDIQLAR

### O'rindiq suyanchig'ining tushirilishi

O'rindiq suyanchig'ini tushirish uchun:



1. O'rindiq suyanchig'ining qiyaligini sozlash dastagidan torting.
2. O'rindiq suyanchig'ini kerakli holatga o'rnatish va suyanchiqni mahkamlab qo'yish uchun dastakni qo'yib yuboring.
3. Mahkamlanishni tekshirish uchun suyanchiqni oldinga-orqaga siljitib ko'ring.

### O'rindiq suyanchig'ini taxlash


O'rindiqning ikkala qismini yuk uchun bo'shliqni oshirish uchun tushirish mumkin. O'rindiqlarning suyanchiqlarini faqat harakatsiz avtomobilda taxlashga ruxsat beriladi.

**⚠ DIQQAT!**

Xavfsizlik kamarlari taqilgan orqa o'rindiqlarni taxlashda, siz o'rindiqlarni yoki kamarni shikastlashingiz mumkin. Orqa o'rindiqni taxlashdan avval xavfsizlik kamarlarini yechib qo'yish va ularni odatiy yig'ishtirilgan holatga qaytarish zarur.


O'rindiq suyanchig'ini taxlash:

1. Bosh qo'ygichlarni oxirigacha tushuring. ⇨  
Bosh qo'ygichlar bo'limi.



2. Tutqichni bloklash uchun o'rindiqliq suyanchig'ini tepa qismida joylashgan tutqichni tepaga ko'taring. Suyanchiq blokdan chiqarilgan paytda, mahkamligichning tutqichi bilan yonma-yon tugma ko'tariladi.

3. O'rindiq suyanchig'ini oldinga tushiring.



4. Xavfsizlik kamarini maxsus tutqich bilan mahkamlang. Zarurat tug'ilganida o'rindiq suyanchig'ini ikkinchi qismini taxlash uchun xuddi shu harakatlarni takrorlang.

**O'rindiq suyanchig'ini ko'tarish****⚠ OGOHLANTIRISH!**

Bloklanmagan suyanchiq to'qnashuv paytida yoki keskin to'xtashda oldinga siljib ketishi mumkin, bu ushbu joyda o'tirgan odamning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Suyanchiqni itarib va uni tortib, uning mahkamlanganligini har doim tekshirish kerak.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Noto'g'ri joylashtirilgan, yomon ulangan yoki buralib qolgan xavfsizlik kamari avariya vaqtida zarur bo'lgan himoyani ta'minlamaydi. Xavfsizlik kamarini noto'g'ri qo'llaydigan odam og'ir jarohat olishi mumkin. Orqa o'rindiqliq suyanchig'ini dastlabki holatga o'rnatib, xavfsizlik kamarlari to'g'ri joylashtirilganligiga, ishonchli ulanganligiga va buralib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

### XAVFSIZLIK KAMARLARI

O'rindiq suyanchig'ini ko'tarish uchun:



1. Xavfsizlik kamari tutqichda mahkamlanganligini kuzating.
2. O'rindiq suyanchig'ini ko'taring va joylashtirilgan holatda mahkamlab qo'yish uchun uning ustiga asta bosib.
3. Bosh tagliklarini vertikal holatga ko'taring. Bosh tagliklari ⇨ 2-2 ni ko'ring.
4. O'rindiq suyanchig'i mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun uning tepa qismidan oldinga-orqaga tebrating.
5. Zarurat tug'ilganida suyanchiqning ikkinchi qismini ko'tarish uchun xuddi shu harakatlarni takrorlang. Agar o'rindiq ishlatilmayotgan bo'lsa, suyanchiqni vertikal holatda mahkamlab, uni yo'yish zarur.

Ushbu bo'limda siz xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalanish va nimalarni qilish kerak emasligini bilib olasiz.

#### OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik kamarini o'rnatilgan tarzda qo'llash imkoniyati bo'lmagan joyda odamlarni tashishga ruxsat etilmaydi. Agar siz yoki sizning yo'lovchingiz/yo'lovchilaringiz tomonidan xavfsizlik kamarlari qo'llanilmasa, u holda avariya vaqtida siz yoki ular xavfsizlik kamarlari qo'llanilgan holatdagiga qaraganda juda ancha og'irroq jarohatlar olishingiz mumkin. Avtomobil ichida biron bir narsaga urilib yoki undan otib chiqarilish oqibatida jiddiy jarohat olish yoki hattoki halok bo'lish mumkin. Bundan tashqari, tang'ib qo'yilmagan odam salondagi boshqa yo'lovchilarni jarohatlashi mumkin. Yukxona bo'linmasida, avtomobil ichkarisida yoki tashqarisida safar qilish favqulodda xavfli. Avariya vaqtida yukxona bo'linmasining ichida bo'lgan yo'lovchilar og'ir hattoki halokatli jarohatlar olish ehtimoli katta. O'rindiqlar va xavfsizlik kamarlari bilan jihozlanmagan avtomobilning biron bir zonasida yo'lovchilarning safar qilishiga ruxsat bermang. Barcha holatlarda xavfsizlik kamarlarini taqib olish kerak va yo'lovchi/yo'lovchilar o'rnatilgan tarzda taqib qo'yilganliklariga ishonch hosil qilish kerak.

Avtomobilda xavfsizlik kamarlari haqida eslatib turuvchi lampalar mavjud. Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari ⇨ 4-11 ni ko'ring.

#### Xavfsizlik kamarlari qanday ishlaydi



Avtomobilda safar qilganingizda avtomobil qanday tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, Siz ham xuddi shunday tezlik harakatlanasiz. Agar avtomobil to'satdan to'xtab qolganida, odam harakatlanishda davom etadi, toki uni harakatini biron bir to'siq to'xtatib qolmagunicha. Bu old oyna, asbob-uskunalar paneli yoki xavfsizlik kamari bo'lishi mumkin! Agar siz xavfsizlik kamari bilan tang'ib qo'yilgan bo'lsangiz, u holda sizning harakatingiz avtomobilning sekinlashishi bilan birga sekinlashadi. Bu vaziyatda to'xtash vaqti

oshadi, chunki u katta masofada sodir bo'ladi, va agar siz tang'ib qo'yilmagan bo'lsangiz, u holda xavfsizlik kamaridan kuch sizning tanangizning eng mustahkam suyaklariga uzatiladi. Aynan shuning uchun xavfsizlik kamarlari shunchalik samarali.

### Xavfsizlik kamarlariga taalluqli savollar va javoblar

**Q: Agar odam xavfsizlik kamarlaridan foydalanayotgan bo'lsa, u avariya vaqtida mashinada bloklanib qolinishi mumkinmi?**

**A:** Mumkin, u xavfsizlik kamaridan foydalanayotganiga yoki foydalanmayotganiga qaramasdan ham. Biroq agar odam xavfsizlik kamarlaridan foydalanayotgan bo'lsa, to'qnashuvdan so'ng u hushini yo'qotmasligi va kamarni yechib olishi va avtomobildan chiqib olishining imkoniyati juda katta.

**Q: Agar avtomobil xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlanmagan bo'lsa, kamarlardan foydalanishning nima foydasi bor?**

**A:** Xavfsizlik yostiqlari faqat qo'shimcha xavfsizlik tizimi hisoblanadi.

Ular xavfsizlik kamarlari bilan birga ta'sir qiladi - ammo kamarlarni o'rnini bosmaydi. Yostiqlar bor yoki yo'q bo'lsa, haydovchi va barcha yo'lovchilar o'zlariga maksimal xavfsizlikni ta'minlash uchun xavfsizlik kamarlari bilan tang'ib qo'yilgan bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda qonun xavfsizlik kamarlarini qo'llanilishini talab qiladi.

### Xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalaniladi


Avtomobildagi barchaning xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu qoidalarga rioya qiling. Sizga xavfsizlik kamarlari va bolalar, jumladan chaqaloqlar va go'daklar haqida yana ba'zi bir narsalarni bilishingiz kerak.

Agar avtomobilda bola ketayotgan bo'lsa, Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-23 yoki Kichik bolalar va go'daklar ⇨ 2-25 bo'limlarni ko'ring.

Quyidagi qoidalarga qo'shimcha sifatida bolalar uchun amal qiluvchi qoidalarni o'rganib chiqing va rioya qiling.

Avtomobilda bo'lganlar uchun kamarlar bilan tang'ib qo'yilganlik o'ta muhim bo'ladi. Kim xavfsizlik kamarlaridan foydalanmayotganlar, to'qnashuv vaqtida ko'proq jarohatlar olishlarini statistika ko'rsatmoqda.



Xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak.





- To'g'ri o'tirish va albatta o'z oldingizga oyoqlarni polga qo'yishingiz kerak (agar buning imkoni bo'lsa).
- Tang'ish uchun to'g'ri to'qa/qulfni albatta qo'llang.
- Bel kamari yon boshga ozgina teginib, belning past sohasiga zich yopishib turishi kerak. To'qnashuv vaqtida yuklama tos suyagi sohasiga to'g'ri keladi, va odam kamar ostiga sirpanib ketish ehtimoli kam. Agar kamar teparoqqa siljib ketgan bo'lsa, u holda yuklama qoriga to'g'ri keladi. Bu jiddiy va hattoki halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Yelka kamari yelka va ko'krak sohasi orqali o'tishi kerak. Tananing bu qismlari boshqalarga nisbatan kamarning taranglashish kuchiga bardosh beradi. To'satdan to'xtashda yoki to'qnashuvda yelka kamari bloklaydi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**


Agar xavfsizlik kamari to'g'ri tang'ib qo'yilmagan bo'lsa, jiddiy jarohat olish yoki hattoki halok bo'lish mumkin.



Bel yoki yelka xavfsizlik kamarining buralib yoki bo'shashib qolishiga hech qanday vaziyatda yo'l qo'ymang.




Yelka xavfsizlik kamari ikki qo'l ostidan yoki orqadan o'tishi uchun hech qanday holatda yo'l qo'ymang.





Tang'ib olish uchun to'g'ri to'qa/qulfdan albatta foydalaning.



Bel yoki yelka xavfsizlik kamari tirsakqo'ygich ustidan o'tishiga hech qanday vaziyatda yo'l qo'ymang.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar xavfsizlik kamarini o'rindiqlarning plastmassa qoplama ostidan, masalan, orqa o'rindiq suyanchig'ining taxlash pishangisini atrofidagi qoplama ostidan yoki yon tomon xavfsizlik yostig'ining qoplamasi ostidan, olib o'tilsa, kamar qisilib qolishi mumkin.


To'qnashuv paytida qisilib qolgan kamar yetarlicha himoyani ta'minlamasligi mumkin. Xavfsizlik kamarlarini plastmassa qoplamalari ostidan o'tkazish taqiqlanadi.

**Bel-yelka xavfsizlik kamari**

Avtomobildagi barcha o'rindiq bel-yelka xavfsizlik kamari bilan jihozlangan.


Quyida bel-yelka xavfsizlik kamarini to'g'ri qo'llash bo'yicha yo'riqnoma keltirilgan.

1. Vertikal holatni olish uchun o'rindiqlarni shunday sozlang (agar u sozlanuvchan bo'lsa). Muolajaning tavsifi - Ko'rsatkichda "O'rindiqlar" bo'limini ko'ring.



2. Lo'kidon tilchasini torting va o'zingizga qaratib kamarni tortib chiqaring. Kamarning buralib qolishiga yo'l qo'ymang.


Agar bel-yelka xavfsizlik kamarini keskin tortilsa, u bloklanib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda kamarni blokdan chiqarish uchun, uni ozgina qo'yib yuborish zarur. So'ngra kamarni asta-sekin torting.



3. Til chertki bilan mahkamlanishi uchun, uni qulfga kiriting.

Tilning mahkamlanishini tekshirish uchun, lo'kidonning tilini torting.

Kamarni zarurat tug'ilganida tez yechib olish uchun, to'qada kamarni bo'shatish tugmasini toping.



4. Kamarning bel qismi zich yopishib turishi uchun, kamarning yelka qismini tortish kerak.



Kamarni yechib olish uchun, qulfdagi tugmani bosish kerak. Kamar yig'ishtirilgan holatga qaytishi kerak.

Xavfsizlik kamarini yechayotganingizda, hech qanday holatda shoshilmang. Agar xavfsizlik kamarining biron bir qismi yig'ishtirilgan holatga juda tez qaytayotgan bo'lsa, taranglashtirgich harakatlanmay qolishi, kamar esa - tiqilib qolishi mumkin. Agar bu sodir bo'lgan bo'lsa, kamarni kuch bilan to'g'ri yo'nalish bo'ylab torting va taranglashtirgichni blokdan chiqarish uchun uni shu zahotiy oq qo'yib yuboring. Agar tiqilib qolgan taranglashtirgichdan kamarni tortib chiqarishning uddasidan chiqilmasa, sizga xizmat ko'rsatuvchi avtosalonga murojaat qiling. Eshikni yopishdan avval, kamar eshik o'rnida osilib turmaganligiga ishonch hosil qilish zarur. Agar uni qattiq eshik bilan qisib olinsa, eshikni ham, xavfsizlik kamarini ham shikastlash mumkin.

### **Xavfsizlik kamarlarining oldindan taranglashtirgichi**

Sizning avtomobilingiz birinchi qator o'rindiqlarida va ikkinchi qator yon tomon o'rindiqlarida xavfsiz kamarlari oldindan taranglashtirgichlari bilan jihozlangan.

Oldindan taranglashtirgichlar yashirinmaganligiga qaramasdan, ular xavfsizlik kamarlarining qismi hisoblanadi. Ular oldindan to'qnashuvning dastlabki bosqichi, oldindan to'qnashuvga yaqin yoki o'rtacha yoki katta kuch bilan orqadan to'qnashuv davomida, xavfsizlik kamarlarining faollashtirilishi uchun ostona sharoitlari yaratilayotgan vaqtda ularni taranglashtirishga yordam beradi. Agar avtomobil o'rindiqqa o'rnatilgan yon tomon xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan bo'lsa, u holda xavfsizlik kamarlarining oldindan taranglashtirgichlari yon tomondan zarba bilan avariya ham xavfsizlik kamarlarining taranglashishiga yordam beradi.

Taranglashtirgichlar bir martalik mexanizm hisoblanadi. Agar avariya natijasida oldindan taranglashtirgichlar harakatga keltirilgan bo'lsa, ular, balki, va xavfsizlik kamarlari tizimining boshqa komponentlari ham almashtirilishi kerak. Avariya keyin xavfsizlik kamarlari tizimining komponentlarini almashtirish ⇨ 2-15 ni ko'ring.

Avtomobildan chiqayotganda yoki unga o'tirayotganda, hamda salonda bo'la turib, chetki o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari ustiga o'tirmang. Xavfsizlik kamariga o'tirib, uning tasmasini va furniturasini shikastlash mumkin.

## Orqa o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari yo'naltirgichlari

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Noto'g'ri qo'llaniluvchi xavfsizlik kamari to'qnashuv vaqtida zarur bo'lgan xavfsizlikni ta'minlamasligi mumkin. Xavfsizlik kamaridan noto'g'ri foydalanayotgan odam og'ir jarohatlar olishi mumkin. Yelka kamari yelka va ko'krak orqali o'tishi kerak. Tananing bu qismlari boshqalarga nisbatan kamarning taranglashish kuchiga yaxshiroq bardosh beradi.


Orqa o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlarini qo'shimcha yo'naltirgichlari maxsus bolalar o'rindiqlari (busterlar) to'g'ri kelmay qolgan katta yoshdagi bolalarni, hamda ba'zi kattalarni o'tirg'iz qulayligi uchun xizmat qiladi. Kamarga o'rnatilgan yo'naltirgich o'tiruvchining bo'yin va boshidan kamarning yelka tasmasini chetlashtiradi.

Sizning avtomobilingiz o'rindiqlarning orqa qatorining yon tomonlari joylarida xavfsizlik kamarlarining qo'shimcha yo'naltirgichlariga ega.


O'rnatish tartibi:




1. O'rindiq suyanchig'ining yon tomonidagi cho'ntakdan yo'naltirgichni, u saqlanadigan joydan, chiqarib oling.



2. Yo'naltirgichni kamarga o'rnatib va kamarning chetlarini yo'naltirgichning o'yiqlariga o'rnatib.



3. Kamar tekis joylashishi va buralib qolmagan bo'lishi kerak. Elastik shnur xavfsizlik kamarining teskari tomonida bo'lishi, yo'naltirgichning o'zi esa - yuz tomonda joylashtirilgan bo'lishi kerak.



4. Xavfsizlik kamarining tortilishi, taqilishi va yechib olinishini ushbu bo'limning yuqorisida tavsiflangandek bajarish kerak. Yelka kamari yelka orqali o'tishini kuzating. Kamar bo'yin ustida emas, balki uning yonida bo'lishi kerak. Yo'naltirgichni yechish va uni saqlashga cho'ntakka olib qo'yish uchun, kamarni yo'naltirgichdan chiqarib olish mumkin bo'lishi uchun uning chetlarini siqing. Yo'naltirgichni o'rindiqning suyanchig'ini yon tomonidagi saqlash uchun cho'ntakka olib qo'ying.

### **Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamarining qo'llanilishi**

Xavfsizlik kamarlari barcha uchun, jumladan homiladorlar uchun ham mo'ljallangan. Avtomobilda safar qilayotganlarning barchasi kabi, agar ular xavfsizlik kamarlariga nisbatan befarqlik bildirsalar, ular jiddiy jarohatlar olishi mumkin.



Homilador ayol ham bel-yelka xavfsizlik kamaridan foydalanishi kerak, bunda kamarning bel qismi iloji boricha qorin ostidan o'tishi kerak.

Bolani himoyalashning yaxshi usuli - bu onaning xavfsizligini ta'minlashdir. Agar xavfsizlik kamari to'g'ri qo'llanilayotgan bo'lsa, homila, ehtimol, avtomobilning to'qnashuvi vaqtida jarohat olmaydi.

Homilador ayol uchun, barcha boshqalar uchun kabi, xavfsizlik kamarlarining samaradorligi ularning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq.

### **Xavfsizlik tizimini tekshirish**

Muntazam ravishda xavfsizlik kamari indekatorini, xavfsizlik kamarlarini, qulflar va kamarlarning mahkamligichlari, inertsiya halqalarni va xavfsizlik kamarlaridan ekranga ko'rsatkichni tekshiring. Ularning barchasi ish tartibida bo'lishi kerak.

Xavfsizlik kamarlari tizimining ish qobiliyatini buzishi mumkin bo'lgan qismlar va detallarning bo'shshishi yoki shikastlanishi predmetiga kamarlarni ko'rikdan o'tkazing. Ta'mirlash masalalari bilan dilerga murojaat qiling. Yirtilgan, sidirilgan yoki buralib ketgan xavfsizlik kamarlari avariya paytida samarali bo'lmaydigi mumkin.

Yirtilgan yoki sidirilgan xavfsizlik kamarlari zarba kuchi ta'siri ostida uzilib ketishi mumkin. Yirtilgan yoki osilib ketgan kamarlarni darhol almashtiring. Agar kamar buralib ketgan bo'lsa, kamar tasmasida lo'kidon tilchasining teskari tomonga burash bilan uni tekislash mumkin. Agar buralib ketgan kamarni to'g'irlash imkoni bo'lmasa, yordam uchun dilerga murojaat qiling. Xavfsizlik kamari haqida eslatib turuvchi nurlu indikatorning sozligiga ishonch hosil qiling.

Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari ⇨  
4-11 ni ko'ring.

Xavfsizlik kamarlarining toza va quruq holatda saqlang. Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash ⇨  
2-15 ni ko'ring.

### Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash

Kamarlarni toza va quruq holatda saqlang. Xavfsizlik kamarlarini qo'llash va ularni parvarishlar qoidalariga rioya qiling. Kamarlarning mexanizmlari quruq holatda qolishi kerak. Ularda iflosliklar va chang to'planib qolmasligini kuzatib boring. Zarurat bo'lganida qulflarning tashqi yuzalari va kamarlarning o'zlarini sovunli eritma bilan artib chiqish mumkin. Qulfning mexanizmiga chiqindilar va chang tushib qolmasligi ustidan nazorat olib boring. Agar qulf chiqindilar yoki changlar bilan tiqilib qolgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling. Tizimning me'yorda ishlashini ta'minlash uchun ba'zi ehtiyot qismlarni almashtirish talab etilishi mumkin.

#### OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik kamarlarini oqlash yoki bo'yash taqilganadi. Bu ularning mustahkamligini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. To'qnashuv paytida ular yetarlicha himoyani ta'minlamasligi mumkin. Kamarlarni tozalash uchun faqat iliq suvdagi engil sovun aralashmasini qo'llashga ruxsat etiladi. Kamarga mustaqil qurishga imkon bering.

### Avariya dan keyin xavfsizlik kamarlari tizimining komponentlarini almashtirish

#### OGOHLANTIRISH!

Avtomobilning to'qnashuvi vaqtida xavfsizlik kamarlari tizimi shikastlanishi mumkin. Shikastlangan xavfsizlik kamarlari tizimidan foydalanyotgan odam, avariya paytida og'ir va hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin, chunki u o'rnatilgan tarzda himoyani ta'minlashga qodir emas. To'qnashuvdan so'ng xavfsizlik kamarlari tizimining to'g'ri faoliyat yuritishini kafolatlash uchun, ularni darhol tekshirish va zarurat bo'lganida komponentlarini almashtirish zarur.

Ahamiyatsiz hodisalardan so'ng kamarlarni almashtirish kerak bo'lmisligi mumkin. Biroq avariya paytida jalb qilingan xavfsizlik kamarlari bog'lamalari bo'shashgan yoki shikastlangan bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik kamarlari bog'lamlarini ko'rikdan o'tkazish va zarurat bo'lsa komponentlarini almashtirish uchun dilerga murojaat qilish kerak.

Komponentlarning ta'mirlanishi va almashtirilishi hattoki agar xavfsizlik kamarlari tizimidan avariya paytida foydalanilmagan bo'lsa ham kerak bo'lishi mumkin.

Avariya dan so'ng yoki xavfsizlik yostiqlarining tayyorligi indikatorlari ishga tushirishdan so'ng yoki avtomobilning harakatlanishi vaqtida yorishib turishni davom ettirayotgan bo'lsa, xavfsizlik kamarlarining oldindan taranglashtirgichlarini tekshirish zarur. Ishiriladigan xavfsizlik kamarlarining signal lampalari ⇨ 4-12 ni ko'ring.

#### OGOHLANTIRISH!

Avtomobil yoki uning qismlari utilizatsiya qilinganida har doim xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak bo'ladi. Atrof-muhitga va salomatlikka zarar etkazmaslik uchun, utilizatsiyani ro'yxatdan o'tkazilgan servis markazi bajarishi kerak.

### ISHIRILADIGAN XAVFSIZLIK YOSTIQCHALAR TIZIMI

Avtomobilida quyidagi xavfsizlik yostiqchlari mavjud:

- Haydovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i
- Haydovchi o'rindig'ida yon tomon xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchining o'rindig'ida yon tomon xavfsizlik yostig'i
- Haydovchi va haydovchi orqasidagi yo'lovchi uchun tomoning ko'ndalang brusida xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchi va uning orqasida o'tirgan yo'lovchi uchun tomoning ko'ndalang brusida xavfsizlik yostig'i

Avtomobilida barcha xavfsizlik yostiqchlari ustida AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) yozuvi yoyish uchun tirqishning yonida mahkamlangan o'ymada yoki yorliqda mavjud.

Oldingi xavfsizlik yostiqchlari rul chambaragida (haydovchi uchun) va asbob-uskunalar panelida (yo'lovchi tomonida) "AIRBAG" yozuvlari bilan belgilangan.

O'rindiqlarda joylashtirilgan yon tomondagi xavfsizlik yostiqchlari eshikka yaqin bo'lgan o'rindiqning yon tomonida AIRBAG yozuvi bilan belgilangan.

Tomoning ko'ndalang brusidagi xavfsizlik yostiqchlari shiftda yoki qoplamada "AIRBAG" yozuvlari bilan belgilangan.

Xavfsizlik yostiqchlari xavfsizlik kamarlari tomonidan ta'minlanadigan himoyaga qo'shimcha hisoblanadi.

Zamonaviy xavfsizlik yostiqchalarining konstruksiyasi yoyilishda jarohatlanish xavfini kamaytiradi, shunga qaramay, barcha yostiqchalar samarali himoyani ta'minlash uchun juda tez ishirilishi kerak.

Xavfsizlik yostiqchlari haqida eng muhim ma'lumot:

#### OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik kamarini taqib olmagan odam to'qnashuvda, hattoki avtomobilida xavfsizlik yostiqchlari bo'lsa ham, og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlar olishi mumkin. Xavfsizlik yostiqchlari xavfsizlik kamarlarini almashtirmaydi, balki ular bilan hamrohlikda harakat qiladi. Xavfsizlik yostiqchlari har qanday to'qnashuvda ishlash uchun mo'ljallanmagan.

Ba'zi avariya holatlarida himoyani faqat xavfsizlik kamarlari ta'minlaydi. Xavfsizlik yostig'i qachon ishiriladi? ⇨ 2-18 ni ko'ring.

#### OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik kamarlari avtomobil ichida buyumlarga urilish yoki avariya oldinga o'tib yuborish xavfini pasaytiradi. Xavfsizlik yostiqchlari xavfsizlik kamarlariga "qo'shimcha tutib turuvchi tizim" hisoblanadi. Avtomobilning ichida bo'lganlarning barchasi xavfsizlik kamarlari bilan ishonchli taqilgan bo'lishi kerak, muvofiq o'rindiq xavfsizlik yostig'i bilan jihozlanganmi yoki yo'qmi befarq.

#### OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqchlari zudlik bilan va katta kuch bilan ishirilganligi sababli, xavfsizlik yostig'i bilan bevosita yonma-yon yoki unga yaqin o'tirgan odam jiddiy va hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Zaruratsiz xavfsizlik yostiqchalariga yaqin o'tirish (o'rindiq chetida yoki oldinga engashgan holatda o'tirish) lozim emas. Xavfsizlik kamarlari to'qnashuv vaqtida odamni o'z joyida tutib qolishga yordam beradi. Hattoki agar avtomobilida xavfsizlik yostiqchlari mavjud bo'lsa ham har doim xavfsizlik kamaridan foydalanish zarur.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Haydovchi iloji boricha, bu uning avtomobilni boshqarish qobiliyatini yomonlashtirmagan shartda, uzoqroq o'tirishi kerak. Oldingi yo'lovchilar uchun xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik yostiqlari siz to'g'ri, o'rindiqning suyanchig'iga zich yopishib va ikkala oyoqlaringiz bilan polga tiralib o'tirishingizda, ancha samarali ta'sir qiladi.

Agar o'rindiqning yon tomonida yoki tomning ko'ndalang brusida xavfsizlik yostig'i mavjud bo'lsa, yon tomonga engashish yoki eshikka yoki eshikning oynasiga suyanish mumkin emas.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Xavfsizlik yostig'i ustida yoki unga juda yaqin o'tirgan bolalar, u ishlaganida og'ir hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Avtomobil ichidagi bolalar har doim to'g'ri taqilgan bo'lishi kerak. Batafsil ma'lumotlarni Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-22 yoki Kichik bolalar va go'daklar ⇨ 2-25 bo'limlarda ko'ring.



Asbob-uskunalar shitogida muvofiq belgili xavfsizlik yostig'ining tayyorligi indikatori mavjud.

Tizim xavfsizlik yostiqlari tizimi elektronikasining faoliyatini tekshiradi. Agar nosozlik mavjud bo'lsa, indikator yorishadi. Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining signal lampalari ⇨ 4-12 ni ko'ring.

**Xavfsizlik yostiqlari qayerda joylashgan?**

Haydovchi tomonidagi oldingi xavfsizlik yostig'i rul chambaragining markaziy qismida joylashtirilgan.



Yo'lovchi tomonidagi oldingi xavfsizlik kamari yo'lovchi tomonidagi asbob-uskunalar panelida joylashtirilgan.



**Haydovchi tomoni ko'rsatilgan, yo'lovchi tomon - o'xshash.**

Haydovchi va oldingi yo'lovchining o'rindiqlariga o'rnatilgan yon tomon xavfsizlik yostiqlari eshik tomonida o'rindiqlarning suyanchiqlariga joylashtirilgan.



**Haydovchi tomoni ko'rsatilgan, yo'lovchi tomon - o'xshash**

Oldingi va uning orqasida joylashgan yo'lovchining teпа xavfsizlik yostiqlari yon tomon oyna ustidagi ko'ndalang brusda joylashtirilgan.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar odam va xavfsizlik yostig'i orasida biron bir buyum bo'lsa, yostiq muvofiq tarzda ochilmasligi yoki og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlarni chaqirib, ushbu buyum bilan odamni urib yuborishi mumkin.

Xavfsizlik yostig'ining yoyilishiga hech narsa xalaqit bermasligi kerak. Odam va xavfsizlik yostig'i orasiga hech qanday buyumlarni joylashtirish mumkin emas; rul chamberagining stupitsasiga va boshqa

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

xavfsizlik kamarlari qoplamasiga yoki ularning yaqinida biron bir narsalarni o'rnatish mumkin emas.

Yon tomon xavfsizlik yostig'ining yoyilish yo'lga to'g'anoq bo'lishi mumkin bo'lgan o'rindiq uchun aksessuarlarni qo'llash mumkin emas.

Agar tomning ko'ndalang brusida xavfsizlik yostiqlari mavjud bo'lsa, oyna yoki eshik oralig'idan arqonni o'tkazib, avtomobil tomiga biron bir buyumlarni mahkamlash mumkin emas. Shu tarzda ushbu xavfsizlik yostiqlarining yoyilishini bloklab qo'yish mumkin.

**Xavfsizlik yostig'i qachon ishiriladi?**

Ushbu avtomobil xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan. Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi ⌀ 2-15 ni ko'ring. Agar zarba kuchi xavfsizlik yostiqlari muvofiq tizimi uchun ishlab ketish ostonasidan yuqori bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari ishiriladi. Ostona yordamida qat'iy to'qnashuvlar aniqlanadi, bunda haydovchini va yo'lovchini ushlab qolish uchun xavfsizlik yostiqlari ishtiroki talab etiladi. Avtomobil zarba kuchini aniqlashtirib beruvchi elektron to'qnashuv datchiklari bilan jihozlangan.



Ishlash ostonasi avtomobilning konstruksiyasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari haydovchining va old yo'lovchining boshiga va ko'krak qafasiga zarba ta'sirini yumshatib, ro'paradan to'qnashuvga yaqin yoki o'rtacha yoki katta kuchdagi ro'paradan to'qnashuvda yoyiladi.

Oldingi yostiqlarning ishlab ketishi nafaqat avtomobil tezligiga bog'liq. Xavfsizlik yostiqlarining yoyilishi yoki yoyilmasligi, ko'proq to'qnashuv obyekti, to'qnashuv yo'nalishi va tormozlanish tezligi bilan aniqlanadi.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil to'qnashuv obyekti bilan ro'paradan yoki burchak ostida to'qnashayotganligi, to'qnashuv obyekti mahkamlanganmi yoki harakatlanayotganligi, u qattiq yoki deformatsiyaga beriluvchanligi, u tor yoki kengligiga bog'liq holda to'qnashuvning turli tezliklarida ishlab ketishi mumkin.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil ag'darilib ketishida, orqadan zarba berilishida va ko'pchilik yon tomondan to'qnashuvlarda ishlamaydi. Oldingi xavfsizlik yostiqlari oldindan kuchli bo'lmagan, deyarli oldindan va frontal-yonboshdan to'qnashuvlar, burchak-burchakka va yon tomon teginishlarida, hamda avtomobilning silindrik obyektga (masalan, ustunga yoki daraxtga) yoki katta avtomobilning (masalan, yuk mashinasi) orqa eshigidan

pastroqqa orqadan urilishda ishlamasligi mumkin.

O'rindiqlarga o'rnatilgan yon tomondan himoyalash uchun xavfsizlik yostiqlari zarba yetkazilish joyiga bog'liq holda o'rtcha va kuchli yon tomon to'qnashuvlarida ishlab ketadi. O'rindiqlardagi yon tomon xavfsizlik yostiqlari ro'paradan va ro'paradan zarbalarga yaqin bo'lgan to'qnashuvlarda, ag'darilishlarda va orqadan urilishlarda ishlab ketishi kerak emas. Yon tomondan zarbada muvofiq tomondagi o'rindiqdagi yon tomon xavfsizlik yostig'i yoyiladi.

Eshik teshiklari ustida joylashgan xavfsizlik yostiqlari zarba yetkazilish joyiga bog'liq holda yon tomondan o'rtacha va kuchli zarbalarda ishlaydi.

Tomning ko'ndalang brusiga o'rnatilgan xavfsizlik yostiqlari ro'paradan va ro'paradan zarbalarga yaqin bo'lgan to'qnashuvlarda, ag'darilishlarda va orqadan urilishlarda ishlab ketishi kerak emas. Eshiklar oralig'i ustidagi xavfsizlik yostiqlari faqat zarba keltirilgan joy tomonida ishlaydi.

Xavfsizlik yostiqlari har bir avariya ham ishlamaydi. Aniq avariya xavfsizlik yostiqlarining ishlashini zaruratini faqat jarohatlanganlar, avtomobilning shikastlanishlari yoki ta'mirlash narxi bo'yicha baholash mumkin emas. Avtomobil zarbalarni

aniqlash va tekshirish moduli bilan jihozlangan, u kuchi ma'lum darajadan oshib ketgan zarbalar haqidagi ma'lumotlarni yozib qo'yadi.

Agar sizda avtomobilning xavfsizlik yostiqlarini ishlashi masalasi bo'yicha savollar tug'lsa, malakali tahlil va tekshirish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

### **Xavfsizlik yostig'ining ishirilish mexanizmi qanday?**

To'qnashuv holatida datchiklar tizimi elektr signalini aniqlaydi, u rezervuardan gazni chiqarib yuborish mexanizmini harakatga keltiradi. Gaz rezervuardan chiqa turib, xavfsizlik yostig'ini to'ldiradi, buning oqibatida yostiq qopqoqni otib yuboradi va yoyiladi. Ishirish mexanizmi, yostiq va mahkamlagich xavfsizlik yostig'i modulining qismlari hisoblanadi. Xavfsizlik yostiqlarining holati - Xavfsizlik yostiqlari qayerda joylashgan? ↻ 2-17 ni ko'ring.

### **Xavfsizlik yostig'i qay tarzda odamni ushlab turadi?**

Ro'paradan to'qnashuvga yaqin yoki o'rtacha yoki katta kuch bilan ro'paradan to'qnashuvda hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam rul chamberagiga yoki asbob-uskunalar paneliga urilishi mumkin. Kuchli yoki o'rtacha yon tomon to'qnashuvida hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam avtomobil ichidagi komponentlariga urilishi mumkin.

Xavfsizlik yostiq-lari xavfsizlik kamarlari tomonidan ta'minlanuvchi himoyani, zarba kuchini odam tanasi bo'ylab ancha bir tekis taqsimlash bilan to'ldiradi.

Biroq xavfsizlik yostiq-lari agar to'qnashuv vaqtida odam yostiqqa yo'nalgan holda harakatlanmayotgan bo'lsa, ular himoyani ta'minlay olmaydi. Xavfsizlik yostig'i qachon ishirladi? ⇨ 2-18 ni ko'ring.

Xavfsizlik yostiq-lari faqatgina xavfsizlik kamarlariga qo'shimcha hisoblanadi.

### **Xavfsizlik yostiq-lari ishlab ketganidan keyin nima sodir bo'ladi?**

Ishlagandan so'ng oldingi va orqa yostiq-lar juda tez bo'shshadi - shunchalik tezki, ularning to'ldirilishini hattoki sezmay qolish mumkin. Tomning ko'ndalang brusidagi xavfsizlik yostig'i yoyilganidan so'ng bir qancha vaqt gazni, hech bo'lmaganda qisman, tutib turishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i modulining ba'zi komponentlari bir necha minut davomida issiq holatda qolishi mumkin.

Xavfsizlik yostiq-larining joylashuvi Xavfsizlik yostiq-lari qayerda joylashgan? ⇨ 2-17 bo'limda tavsiflangan.

Odama tegib turgan xavfsizlik yostig'ining qismlari iliq, ammo juda issiq bo'lmisligi mumkin. Xavfsizlik yostig'ini havosini chiqarib yuborishda tirqishlardan tutun va chang chiqishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i haydovchiga old oyna orqali manzarani yopmaydi, boshqarish

qobiliyatini cheklamaydi va avtomobilni tark etishga halaqit bermaydi.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Xavfsizlik yostig'ini ishirishida havoda chang paydo bo'lishi mumkin. Chang astmadan yoki nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklaridan a'ziyat chekayotgan odamlar uchun xavfli. Shuning uchun hamma avtomobilni tark etishi kerak, buni xavfsiz qilish imkoniyati paydo bo'lishi bilan. Agar xavfsizlik yostig'ining yoyilishidan so'ng avtomobildan chiqib ketish imkoniyati yo'q bo'lsa, nafas yo'llari kasalliklari bilan a'ziyat chekuvchi odama oynani ochgan holda havo kelishini ta'minlash lozim. Agar xavfsizlik yostig'ini yoyilishi natijasida nafas olish bilan muammolar sodir bo'lsa, tibbiy yordam olish uchun murojaat qilish zarur.

Avtomobilda xavfsizlik yostiq-larining yoyilishidan keyin barcha eshiklarni avtomatik blokdan chiqaruvchi, yonilg'i uzatilishi to'suvchi, ichki yoritishni va avariya signalizatsiyasini yoquvchi funksiya ko'zda tutilgan. Bu funksiya agar zarba kuchi ma'lum ostona qiymatidan oshib ketganida, xavfsizlik yostiq-larini yoymasdan ham ishlab ketishi mumkin. O't oldirishni o'chirishdan so'ng, keyin esa takroran yoqishda yonilg'i tizimi me'yordagi ish tartibiga qaytadi; siz muvofiq boshqaruv organlar bilan

eshiklarni yopishingiz, salondagi lampalarni o'chirishingiz va miltillovchi avariya signallarini faolsizlashtirishingiz mumkin. Agar avariya oqibatida ushbu tizimlardan biron biri shikastlangan bo'lsa, ular chetlashish bilan ishlashi mumkin.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Xavfsizlik kamarlari harakatga keltirilgan kuchli to'qnashuv natijasida, avtomobilning muhim tizimlari, masalan, yonilg'i, tormoz, boshqaruv tizimi va shunga o'xshashlar shikastlangan bo'lishi mumkin. Hattoki, agar avtomobil nisbatan jiddiy hodisadan so'ng harakatlanishi mumkin bo'lib tuyulsa ham, mavjud bo'lgan shikastlanishlar avtomobilni xavfsiz boshqaruvini qiyinlashtirishi mumkin. Avariya-dan so'ng dvigatelni alohida ehtiyotkorlik bilan ishga tushirish zarur.

Xavfsizlik yostiq-larining harakatga keltirishga qodir bo'lgan yetarlicha kuchli to'qnashuv holatida, old oyna ko'pincha avtomobilning deformatsiyasi oqibatida sinib ketishi mumkin. Yo'lovchi tomonidagi oldingi xavfsizlik yostig'ining ishlab ketishida ham old oyna sinib ketishi mumkin.

- Xavfsizlik yostiqlari faqat bir marta yoyilishga qodir. Xavfsizlik yostig'i harakatga keltirilgan vaqtdan so'ng, tizimning ba'zi komponentlarini almashtirish talab etiladi. Agar yangi komponentlar o'rnatilmagan bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari tizimi keyingi safar himoyani ta'minlab bermaydi. Yangi tizim o'z ichiga xavfsizlik yostiqlari modullarini, va, ehtimol, ba'zi boshqa detallarni kiritishi kerak. Boshqa qismlarni almashtirish zarurati haqidagi ma'lumot avtomobilga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan.
- Avtomobilda to'qnashuvni tekshiruvchi va aniqlashtiruvchi modul mavjud, u muvofiq ma'lumotlarni qayd qiladi.
- Xavfsizlik yostiqlarini tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakalangan mexaniklarga ruxsat berilgan. Noto'g'ri xizmat ko'rsatishda xavfsizlik yostiqlari tizimining funksiyalarini buzilishi ehtimoli mavjud. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

### **Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillarga xizmat ko'rsatish**

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillar uchun maxsus xizmat ko'rsatish talab etiladi. Avtomobilning turli qismlarida xavfsizlik yostiqlari tizimi komponentlari o'rnatilgan. Xavfsizlik yostiqlari tizimiga xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotni dilerda yoki muvofiq qo'llanmaga murojaat qilib olish mumkin.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobilning o't oldirishi o'chirilishidan va akkumulyator o'chirilishidan so'ng 10 soniya davomida xavfsizlik yostig'i noto'g'ri harakatlarni amalga oshirishda ham ishlab ketishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari bilan yonma-yon joylashgan odam, jarohatlar olishi mumkin. Sariq ulagichlar bilan operatsiyalardan saqlanish lozim. Ular katta ehtimol bilan xavfsizlik yostiqlari tizimiga taalluqli bo'lishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirayotgan odam, kerakli darajadagi malakaga ega bo'lishi va tavsia etilgan muolajalarga rioya qilishi kerak.

### **Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilda qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatish**

Avtomobilning ramasi, bamperi, balandligini, oldingi yoki yonbosh metal qoplamasini o'zgartiruvchi komponentlarni qo'shish, xavfsizlik yostiqlari tizimining ishlashini buzishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari tizimining ta'siriga o'zgartirishlar kiritish ham ta'sir qilishi mumkin, jumladan, quyidagi komponentlarning biron birini noto'g'ri ta'mirlash va almashtirish:

- Xavfsizlik yostiqlari tizimi, jumladan xavfsizlik yostiqlari modullari, oldindan va yon tomondan zarba datchiklari, qayd qilish va tekshirish modullari yoki xavfsizlik yostiqlari simlari
- Oldingi o'rindiqlar, jumladan choklar, hoshiyalar yoki zanjirsimon-yopqich
- Xavfsizlik kamarlari
- Rul chamberagi, asbob-uskunalar paneli, shift qoplamasi yoki ustunlarning dekorativ qoplama
- Eshiklarning ichki zichlagichlari, jumladan dinamiklar

Sizning dileringizda va xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada siz avtomobil modullari va xavfsizlik yostiqlari datchiklari, qayd qilish va tekshirish modullarini va xavfsizlik yostiqlari simlarini joylashuvi, hamda ularni almashtirishning o'rnatilgan tartibi haqidagi ma'lumotlarni topasiz.

Agar avtomobilni jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchi yoki biron bir boshqa sabablar uchun moslashtirish uchun takomillashtirish zarurati bo'lsa, ushbu o'zgartirishlar xavfsizlik yostiqlari tizimining ishini o'zgartirmayotganligiga nisbatan o'z dilingiz bilan maslahatlashing.

### **Xavfsizlik yostiqlari tizimini tekshirish**

Xavfsizlik yostiqlari tizimi rejadagi texnik xizmatni yoki almashtirishni talab etmaydi. Xavfsizlik yostiqlari tayyorligi indikatorini ishlayotganiga ishonch hosil qiling. Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining signal lampalari ⇨ 4-12ni ko'ring.

#### **⚠️ DIQQAT!**

Agar xavfsizlik yostiqlari qoplamasi buzilgan, shikastlangan yoki ochilgan bo'lsa, yostiq noto'g'ri ishlashi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari qoplamlarini ochish yoki shikastlash mumkin emas. Agar xavfsizlik yostiqlari qopqoqlari ochilgan yoki shikastlangan bo'lsa, uni yoki xavfsizlik yostig'i modulini to'liq almashtirish zarur. Xavfsizlik yostiqlarining joylashuvi Xavfsizlik yostiqlari qayerda joylashgan? ⇨ 2-17 bo'limda tavsiflangan. Texnik xizmat ko'rsatilishi uchun dilerga murojaat qilish kerak.

### **To'qnashuvdan keyin xavfsizlik yostiqlari tizimining komponentlarini almashtirish**

#### **⚠️ OGOHLANTIRISH!**

To'qnashuv vaqtida avtomobilning xavfsizlik yostiqlari tizimi shikastlangan bo'lishi mumkin. Shikastlangan xavfsizlik yostiqlari tizimi avariya holatida haydovchining va yo'lovchining o'rnatilgan tarzdagi himoyasini ta'minlab berolmaydi.

Xavfsizlik yostiqlari tizimini to'g'ri faoliyatini kafolatlash uchun, to'qnashuvdan so'ng uni texnik xizmat xodimlari tekshirishlari va zarurat bo'lganda shikastlangan komponentlarini almashtirishlari kerak.

Xavfsizlik yostig'i harakatga keltirilganidan keyin, uning komponentlarini almashtirish talab etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

Agar xavfsizlik yostig'ining tayyorlik indikatorini o'chmayotgan bo'lsa yoki harakatlanish vaqtida yorishayotgan bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari tizimi o'rnatilgan tarzda faoliyat yuritmayotgan bo'lishi mumkin.


Vaqtini boy bermasdan texnik xizmatga murojaat qilish kerak. Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining signal lampalari ⇨ 4-12 ni ko'ring.

#### **⚠️ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobil yoki uning qismlari utilizatsiya qilinganida har doim xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak bo'ladi. Atrof-muhitga va salomatlikka zarar etkazmaslik uchun, utilizatsiyani ro'yxatdan o'tkazilgan servis markazi bajarishi kerak.

## BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI

### Katta yoshdagi bolalar



Maxsus ko'tarib turuvchi o'rindiqlarda o'tirmaydigan katta yoshdagi bolalar, avtomobilning xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak.

Qo'shimcha yostiqni ishlab chiqaruvchisidan qo'llanmada bolaning vazni va bo'yicha chegaralar ko'rsatilgan. Bolaga bel va yelka xavfsizlik kamarlari bilan qo'shimcha yostiqlardan foydalanish zarurligini quyidagi sinov yordamida aniqlash mumkin:

- O'rindiq suyanchig'iga orqa bilan suyanib, o'tirish kerak. Tizzalar aynan o'rindiq zihida tiralyaptimi? Agar ha bo'lsa, davom ettirilsin. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiqni qo'llash zarur.

- Bel-yelka xavfsizlik kamarini taqing. Yelka kamari yelkaga yotmoqdam? Agar ha bo'lsa, davom ettirilsin. Agar yo'q bo'lsa, orqa xavfsizlik kamarining yo'naltirgichini qo'llang (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa). "Orqa xavfsizlik kamarlari yo'naltirgichlari" paragrafini Bel-yelka xavfsizlik kamari ⇨ 2-11 bo'limda ko'ring. Agar bunday yo'naltirgich jamlanma bilan ko'zda tutilmagan yoki kamar baribir yelkaga joylashmayotgan bo'lsa, bolalar buster-o'rindig'idan foydalanish kerak.
- Bel kamari tos sohasiga asta teginib, beldan pastki sohaga zich joylashganmi? Agar ha bo'lsa, davom ettirilsin. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiqni qo'llash zarur.
- Xavfsizlik kamarining to'g'ri holati butun sayohat davomida saqlanib qolishi mumkinmi? Agar ha bo'lsa, davom ettirilsin. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiqni qo'llash zarur.

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

- YTX statistikasi bolalarning xavfsizligi ularning orqa o'rindiqqa joylashtirilishi va xavfsizlik kamarlarini to'g'ri qo'llanilishida yuqoriroq bo'lishini ko'rsatmoqda.
- YTX sodir bo'lishi holatida, xavfsizlik kamarlari taqilmagan bolalar avtomobildan o'tib yuborilishi mumkin.
- O'rindiqda bolalarni joylashtirishning hamma holatlarida bel kamari bolaning yonboshlariga teginib, tos-yonbosh bo'g'imlariga yaqinroq, iloji boricha pastroqda joylashgan bo'lishi kerak. Bu avariya holatida qorin bo'shlig'i sohasini ezilishini oldini oladi.



**▲ OGOHLANTIRISH!**

Ushbu rasmda bel-yelka xavfsizlik kamarining taqilishini noto'g'ri usuli ko'rsatilgan.

Shunday tarzda xavfsizlik kamarini qo'llayotgan bola avariya sodir bo'lishida jarohat olishi yoki nobud bo'lishi mumkin.

**Q: Xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalaniladi?**

**A:** Katta yoshdagi bolalar bel-yelka xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak, bunda yelka kamari tananing harakatini qo'shimcha chegaralashi kerak.

Yelka kamari yuz yoki bo'yin darajasidan o'tishi kerak emas. Bel kamari tos sohasiga asta teginib, beldan pastki sohadan o'tib tanaga zich joylashishi kerak. To'qnashuv vaqtida yuklama tos suyagiga to'g'ri keladi. Kamar hech qachon qorin usti bo'lmasligi kerak, chunki to'qnashuv vaqtida bu o'zining ortidan og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlarni olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga "Orqa xavfsizlik kamarlari yo'naltirgichlari" paragrafini Bel-yelka xavfsizlik kamari ↻ 2-11 bo'limda ko'ring.

Statistikaga asosan, agar bolalar o'rnatilgan tarzda o'rindiq ortidagi tutib turuvchi qurilma bilan taqilgan bo'lsalar, katta xavfsizlikda bo'ladilar.

Kamarlar bilan taqilmagan bolalar avariya vaqtida avtomobildan otib chiqarib yuborilishi yoki boshqa odamlarga urilib ketishlari mumkin. Katta yoshdagi bolalar xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanishlari kerak.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Bitta kamar bilan bir nechta bolalarni taqib qo'yishga ruxsat etilmaydi. Avariya holatida kamar to'qnashuv paytida vujudga keluvchi kuchni to'g'ri taqsimlay olmasligi mumkin. YTH holatida ular bir-birlariga urilib ketishlari va jiddiy jarohatlar olishlari mumkin. Har bir xavfsizlik kamaridan faqat bir odam foydalanishi mumkin.



**▲ OGOHLANTIRISH!**

Yelka kamari bolaning boshi orqali o'tishiga yo'l qo'ymang. Agar bola bel-yelka xavfsizlik kamari bilan o'rnatilgan tarzda taqib qo'yilmagan bo'lsa, u jiddiy jarohatlar olishi mumkin. Avariya holatida yelka kamari bolaning siljib ketishini cheklay olmaydi. Bolaning oldinga juda uzoqqa siljib ketishi bolaning boshiga yoki bo'yniga jarohat etkazishi mumkin. Bola shu bilan birga bel kamari ostiga sirpanib tushib ketishi mumkin. Bunday holatda yuklama qoringa to'g'ri keladi, bu jiddiy yoki hattoki halokatli oqibatlar olib kelishi mumkin. Yelka kamari yelka va ko'krak orqali o'tishi kerak.



**Kichik bolalar va go'daklar**

Avtomobilida bo'lganlarning barchasi himoyalangan bo'lishi kerak! Bu kichik bolalar va go'daklarga ham taalluqlidir. Xavfsizlik tizimidan yoshiga, bo'yiga va safar qilish uzoqligiga bog'liq bo'lmagan holda barcha foydalanishi kerak.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Bolaning bo'yniga xavfsizlik kamarining tasmasini o'ralib qolishi uning jarohat olishiga yoki bo'g'ilishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilida bolalarni qarovsiz qoldirish va ularga xavfsizlik kamarlari bilan o'ynash taqiqlanadi.

Avtomobilida kichik bolalar va go'daklar tashilgan vaqtda har doim maxsus bolalar o'rindiqlari qo'llanilishi kerak. Avtomobilning xavfsizlik yostiqlari tizimi ham, xavfsizlik kamari tizimi ham kichik bolalar va go'daklar uchun mo'ljallanmagan. O'rnatilgan tarzda tang'ib qo'yilmagan bolalar avariya vaqtida avtomobildan otib chiqarib yuborilishi yoki boshqa odamlarga urilib ketishlari mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobilida safar qilayotganda, kichik bolani yoki go'dakni qo'lda ushlab o'tirish mumkin emas. To'qnashuv paytida katta kuchlar hosil bo'ladi, va bolani ushlab qolish imkonsiz bo'lishi mumkin. Masalan, agar to'qnashuv 40 km/soat tezlikda (25 mil/soat) sodir bo'layotgan bo'lsa, 5,5 kg (12 funt) vaznga ega bo'lgan bola yo'lovchining qo'lga 110 kg (240 fut) og'irlik bilan bosadi. Bola uning yoshiga muvofiq keladigan tutib turuvchi qurilmaga mahkamlangan bo'lishi kerak.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Xavfsizlik yostig'i yoki unga juda yaqin joyda joylashgan bolalar, uning ishlashida og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi o'rindiqqa yuzi bilan orqaga qaratib o'rnatish taqiqlanadi. Orqaga qaratilgan bolalar o'rindig'ini orqa o'rindiqda mahkamlash kerak. Oldinga qaratilgan bolalar o'rindig'ini shu bilan birga orqa o'rindiqda o'rnatish tavsiya etiladi. Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz tomoni bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi yo'lovchi o'rindig'iga o'rnatishda o'rindiqni eng chetga holatga orqaga siljitish zarur.



Bolalarning xavfsizlik tizimlari avtomobilda bolalarni o'tirgan yoki boshqa holatda ushlab turuvchi qurilmalardan tashkil topishi kerak. Ba'zida ularni bolalar o'rindig'i yoki avtomobil o'rindiqlari deb ataladi.

**Bolalarning xavfsizlik tizimlari uchta asosiy turga bo'linadi:**

- Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatilgan bolalarning avtomobil o'rindiqlari
- Harakatlanish yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalish bo'yicha o'rnatilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar
- Qo'shimcha yostiqlar va standart xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan o'rindiqlar

Bolalarni tutib turuvchi qurilma aniq bolaning bo'yi, vazni va yoshi bo'yicha, hamda u o'rnatiluvchi avtomobilning sig'imi bo'yicha tanlanadi.

Ko'pgina barcha turdagi bolalarni tutib turuvchi qurilmalar mavjud. Bolalar o'rindig'ini xarid qilib turib, u avtomobilda qo'llash uchun mo'ljallanganligiga ishonch hosil qilish kerak. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasida ushbu tizim uchun bolaning vazni va bo'yiga cheklovlar ko'rsatilgan. Bundan tashqari, alohida ehtiyojlar bilan bolalar uchun tutib turuvchi qurilmalarning ko'pgina turlari mavjud.


**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Avariya da bo'yin yoki boshning jarohatlanish ehtimolini pasaytirish uchun, kichik yoshda bolalarni va chaqaloqlarni orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmaga o'tirgiziladi, toki bola ikki yoshga to'lguniga qadar yoki uning bo'yi va vazni mazkur qurilma uchun cheklangan kattaliklardan oshib ketmaganicha.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Kichik bolaning tos suyaklari hali kichik, va shuning uchun odatiy bel xavfsizlik kamari tos suyagining ustida zarur bo'lgan yetarlicha past holatni olish imkoniga ega emas. Buning o'rniga kamar bolaning qorniga to'g'ri keladi. To'qnashuv vaqtida kamar kuchni tana qismining himoyalanmagan suyaklariga taqsimlaydi, bu jiddiy yoki hattoki halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin. Jarohatlanish xavfini kamaytirish uchun, bola uchun har doim mos keluvchi bolalar o'rindig'i qo'llanilishi kerak.

**Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish mumkin bo'lgan joylar**




**Harakatlanishga qarama-qarshi o'rnatiladigan avtokajava**

Orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma, bolaning orqasi uchun tayanchni ta'minlab, oldinga siljib ketishdan uni tutib qoladi.


Kamarlar yordamida o'rindiqda bolaning holati, jumladan avariya paytida saqlanib qoladi.





### Harakat yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma


Harakat yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma bolani oldinga siljib ketishdan kamar yordamida tutib turadi.



### Yostiq (buster)

Qo'shimcha yostiq va standart xavfsizlik kamarlari bo'lgan o'rindiqlar harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilmalardan o'sib ketgan bolalar uchun mo'ljallangan.

Qo'shimcha o'rindiqlar bolalar qo'shimcha yostiqsiz bunday xavfsizlik kamarlaridan bemaol foydalanish yoshiga yetgunlaricha, bolaga avtomobilning standart xavfsizlik kamarlarini moslashtirishga imkon beradi. Xavfsizlik kamarlarini moslashtirilishini tekshirish haqida ma'lumotni Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-23 bo'limda ko'ring.



### Avtomobilga qo'shimcha bolalar o'rindig'i o'rnatish

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar bolalar o'rindig'i avtomobilda yomon mahkamlangan bo'lsa, bola og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Avtomobilning xavfsizlik kamari yoki ISOFIX tizimi yordamida, qurilmaga ilova qilingan ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga va ushbu qo'llanmada keltirilgan yo'riqnomalarga rioya qilgan holda, bolalarni tutib turuvchi qurilmasini o'rnatilgan tarzda mahkamlash zarur.

Jarohat olish xavfini pasaytirish uchun, avtomobilda bolalar o'rindig'i o'rnatilishi mumkin.

Bolalarning xavfsizlik tizimlari (bolalar o'rindiqlari) o'rindiqlarga bel-yelka kamarining bel sohasi bel kamarlari yoki ISOFIX tizimi yordamida mahkamlanadi. Qo'shimcha ma'lumotlarni ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilmalar ⇨ 2-32 bo'limda ko'ring.

Agar bolalar o'rindig'i avtomobilda yomon mahkamlangan bo'lsa, to'qnashuv paytida bola jarohat olishi mumkin.

Bolalar o'rindig'i o'rnatayotganda, ilova qilinuvchi yo'riqnomalarga (o'rindiqning o'zida yoki alohida bukletda), hamda ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga murojaat qilish kerak.

Bolalar o'rindiqlariga nisbatan yo'riqnomalar juda muhim, shuning uchun agar ular yo'qotilgan bo'lsa, ularning nusxasini ishlab chiqaruvchidan olish zarur.

Avtomobilga bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatib, yo'riqnoma bilan tekshirib aniqlab oling. Buning uchun quyidagilarni tekshiring:

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmadagi yo'riqnomali yopishtirma yoriqlarni
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga yo'riqnomani
3. Avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha mazkur qo'llanmani

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga nisbatan yo'riqnomalar juda muhimdir, shuning uchun agar ular yo'qotilsa, ularning nusxasini ishlab chiqaruvchidan so'rab olish zarur.

Mahkamlanmagan bolalar o'rindig'i to'qnashuvda yoki to'satdan to'xtashda siljib ketishi va avtomobilda bo'lgan odamlarni urib yuborishi mumkinligini yodda tutish kerak. Bolalar o'rindig'i, hattoki agar unda bola bo'lmasa ham, avtomobilda o'rnatilgan tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.

### Bolalar o'rindig'ida bolani mahkamlash

#### OGOHLANTIRISH!

Bolalar o'rindig'ida yomon mahkamlangan bola to'qnashuv vaqtida jiddiy yoki hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Bolani bolalar o'rindig'iga ilova qilinadigan yo'riqnomaga rioya etgan tarzda o'rnatilgan tarzda mahkamlash zarur.

### Bolalar o'rindig'ini qayerda o'rnatiladi

Statistikaga binoan, agar bolalar va go'daklar orqqa o'rindiqda o'rnatilgan muvofiq bolalarni tutib turuvchi qurilmada o'rnatilgan tarzda tang'ib qo'yilgan bo'lsalar, ular katta himoya ostida bo'ladilar.

12 yoshdan kichik bolalar iloji boricha orqqa o'rindiqqa tang'ib qo'yilgan bo'lishlari kerak.

Orqqa qaratilgan bolalar o'rindig'ini oldinga o'rindiqqa o'rnatish taqiqlanadi. Yuzi bilan orqaga qaratib o'tiruvchi bola xavfsizlik yostig'i ishlash holatida katta xavf ostida bo'ladi.

#### XAVFLI

Bolaning OG'IR JAROHATLANISHI yoki O'LIMI sababli FAOLLASHTIRILGAN XAVFSIZLIK YOSTIG'I oldiga o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilmani qo'llash QAT'IYAN TAQIQLANADI!



**AIRBAG**



Xavfsizlik kamarlari yordamida orqqa o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlashdan avval, ushbu qurilma mazkur avtomobil bilan mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini o'rganib chiqish zarur. Qo'shimcha yostiqlar va bolalar o'rindiqlari turli o'lchamlarga ega, va ulardan ba'zilari boshqalarga qaraganda ma'lum holatlar uchun mos keladi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning joylashuv joyiga va o'lchamlariga bog'liq holda, uning yonida bo'lgan xavfsizlik kamarlari yoki ISOFIX mahkamlagichlari boshqa yo'lovchilar yoki bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun erishimli bo'lmay qolishi mumkin.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma xavfsizlik kamariga etib borishga yoki ularning to'g'ri joylashishiga xalaqit berayotgan bo'lsa, qo'shni o'tirish joylarini qo'llash mumkin emas.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish vaqtida albatta ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalarini bajaring va qurilmani ishonchli mahkamlang.

Mahkamlanmagan bolalar o'rindig'i to'qnashuvda yoki to'satdan to'xtashda siljib ketishi va avtomobilda bo'lgan odamlarni urib yuborishi mumkinligini yodda tutish kerak. Bolalar o'rindig'i, hattoki agar unda bola bo'lmasa ham, avtomobilda o'rnatilgan tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.

## ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish imkoniyatlari

Og'irlik toifasi	O'lcham sinfi	Mahkamlagich	ISOFIX mahkamlagichlarining joylashishi		
			Oldinda tashqarida	Orqa chetki o'rindiq	Orqada markazda
Avtokajava	F	ISO/L1	X	X	X
	G	ISO/L2	X	X	X
0 guruhi: < 10 kg	E	ISO/R1	X	IUF	X
0+ guruhi: < 13 kg	E	ISO/R1	X	IUF	X
	D	ISO/R2	X	X	X
	C	ISO/R3	X	X	X
I-guruh: 9 kgdan 18 kkgacha	D	ISO/R2	X	X	X
	C	ISO/R3	X	X	X
	B	ISO/F2	X	IUF	X
	B1	ISO/F2X	X	IUF	X
	A	ISO/F3	X	IUF	X

Izoh: Jadvaldagi kodlarning ma'nosi:

IUF - ushbu vazn toifasi uchun qo'llashga ruxsat etilgan universal toifaning yuz bilan oldinga qarab o'tirg'izish bilan ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmalarga mos keladi.

IL - faqat ro'yxatda ko'rsatilgan ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun mos keladi. Ushbu bolalarni tutib turuvchi qurilmalar alohida, cheklangan yoki yarim universal toifalarga taalluqli.

X - ISOFIX mahkamlagichlarining holati ushbu o'lcham sinfi va (yoki) vazn toifasidagi ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun mos kelmaydi.

ISOFIX o'lcham sinfi va qurilma turi:

**A - ISO/F3** : Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi 9 kg dan 18 kg gacha vazn toifasidagi maksimal bo'yli bolalar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**B - ISO/F2** : Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi 9 kg dan 18 kg gacha vazn toifasidagi go'daklar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**B1 - ISO/F2X** : Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi 9 kg dan 18 kg gacha vazn toifasidagi go'daklar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**C - ISO/R3** : Harakatlanish yo'nalishiga qarshi o'rnatiluvchi 18 kg gacha vazn toifasidagi maksimal bo'yli bolalar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**D - ISO/R2** : Harakatlanish yo'nalishiga qarshi o'rnatiluvchi 18 kg gacha vazn toifasidagi go'daklar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**E - ISO/R1** : Harakatlanish yo'nalishiga qarshi o'rnatiluvchi 18 kg gacha vazn toifasidagi kichik yoshdagi bolalar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma.

**F - ISO/L1** : Chapda yon tomonga o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma (ko'tarib yuriluvchi kajava).

**G - ISO/L2** : O'ngda yon tomonga o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma (ko'tarib yuriluvchi kajava).

**Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish imkoniyati**

Og'irlik toifasi	Yo'lovchilarning joylari (yoki boshqa joylashtirish joylari)		
	Oldinda tashqarida	Orqa chetki o'rindiq	Orqada markazda
0 guruhi: < 10 kg	X	U	U
0+ guruhi: < 13 kg	X	U	U
I-guruh: 9 kgdan 18 kg gacha	X	U	U
II-guruh: 15 kgdan 25 kg gacha	X	U	U
III-guruh: 22 kgdan 36 kg gacha	X	U	U

Izoh: Jadvaldagi kodlarning ma'nosi:

U = Ushbu vazn toifasi uchun qo'llashga ruxsat etilgan universal toifadagi bolalarni tutib turuvchi qurilma uchun mos keladi.

UF = Ushbu vazn toifasi uchun qo'llashga ruxsat etilgan universal toifadagi yuz bilan oldinga o'rnatiriladigan bolalarni tutib turuvchi qurilma uchun mos keladi.

L = Faqat ro'yxatda ko'rsatilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun mos keladi. Ushbu bolalarni tutib turuvchi qurilmalar alohida, cheklangan yoki yarim universal toifalarga taalluqli.


B = Ushbu vazn toifasi uchun qo'llashga ruxsat etilgan o'rnatilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun mos keladi.

X = O'rindiq ushbu vazn toifasida bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish uchun mos kelmaydi.

### ISOFIX mahkamlagichlar tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilma



#### Orqa o'rindiqlar

ISOFIX ankerlari suyanchiq ulanishi va o'rindiqlik yostig'i yonida joylashtirilgan va  belgi bilan belgilangan.

ISOFIX ankerlari ISOFIX bolalarni tutib turuvchi tizimlarni mahkamlash uchun mo'ljallangan.


Avtomobilga bog'liq holda aniq ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish joylari "ISOFIX mahkamlash tizimli bolalar o'rindiqlarini o'rnatish imkonini" jadvalida keltirilgan. Bolalar o'rindig'ini qayerga o'rnatiladi

⇨ 2-28 ni ko'ring.

### ISOFIX ankerlariga bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni mahkamlash

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishi rejalashtirayotgan o'rindiqlikka uni joylashtiring.
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga yo'riqnomaga muvofiq ISOFIX ankerlariga ISOFIX mahkamlagichlarini mahkamlang.
3. Bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rindiqlikka ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.
4. ISOFIX ankerlaridan tashqari bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun yo tepa kamarni (Top-Tether) yo qo'shimcha pastki tayanchni qo'llash zarur.

### Avtomobilidagi Top-Tether mahkamlagichlari



Top-Tether mahkamlagichlari ikkinchi qator o'rindiqlari suyanchig'ining orqa tomonida joylashtirilgan va  belgi bilan belgilangan.

Avtomobilning Top-Tether mahkamlagichlari faqat bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun mo'ljallangan.


### Top-Tether ankeriga bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash tartibi:

1. Agar bolalar o'rindig'ining ishlab chiqaruvchisi Top-Tether mahkamlagichlarini qo'llashni tavsiya etsa, tepsa ankeriga uni mahkamlang, agar shunday mavjud bo'lsa, va tartib qotiring.


Bolalar o'rindig'i ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalarini inobatga olgan holda, quyidagi harakatlarni bajaring:

1.1. Top-Tether ankerini toping.

1.2. Top-Tether kamarini bolalar o'rindiqlari ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga va quyidagi yo'riqnomalarga muvofiq torting, mahkamlang va tartib qotiring:



Agar bir qavatli bog'lovchi kamar qo'llanilayotgan bo'lsa, u holda bolalar o'rindig'ini sozlanuvchi bosh tagligi bilan jihozlangan o'rindiqqa mahkamlash vaqtida, bosh tagligini ko'tarish va uning ustunlari orasidan kamarni o'tkazish zarur.



Agar o'rindiq sozlanuvchi bosh tagligiga ega bo'lsa va ikki qavatli kamar qo'llanilayotgan bo'lsa, bosh tagligini ko'taring va uning ustunlari orasidan kamarni o'tkazing.

2. Bolalarni tutib turish qurilmasining Top-Tether mahkamlash ilgagi to'liq yopilgan va Top-Tether ankeriga mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

### Bolalar o'rindig'ini o'rnatish

#### (Orqa o'rindiqlar, xavfsizlik kamari bilan)


Xavfsizlik kamarlari yordamida orqa o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlashdan avval, ushbu qurilma mazkur avtomobil bilan mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini o'rganib chiqish zarur. Agar bolalarni tutib turish tizimi ISOFIX mahkamlash tizimiga ega bo'lsa, joylashtirish bo'yicha va ISOFIX yordamida mahkamlash usullari bo'yicha ko'rsatmalarni ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turish qurilmalari ⇨ 2-32 bo'limda ko'ring. Agar bolalarni tutib turish qurilmasi avtomobilning xavfsizlik kamari va Top Tether langarli kamarning qo'llanilishi bilan mahkamlanayotgan bo'lsa, Top Tether mahkamlagichlarining joylashuv joylarini tavsifini ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turish qurilmalari ⇨ 2-32 bo'limda ko'ring. Agar Top Tether ankerlarini qo'llash mahalliy yoki milliy qoidalar, yoki ishlab chiqaruvchi yo'riqnomalari bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, Top Tether ankerlarisiz bolalar o'rindiqlarini o'rnatish mumkin emas.

Agar bolalarni tutib turish qurilmasi yoki avtomobilni o'tirish joyi ISOFIX tizimi bilan jihozlanmagan bo'lsa, bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun standart xavfsizlik kamarlarini qo'llash lozim. Bolalar o'rindig'iga ilova qilingan yo'riqnomalarga rioya qilish zarur.

Agar orqa o'rindiqda bittadan ortiq bolalar o'rindig'i o'rnatilishi talab etilayotgan bo'lsa, Bolalar o'rindig'ini qayerga o'rnatiladi ⇨ 2-28 ni ko'ring.

1. Bolalar o'rindig'ini o'rindiqqa qo'ying.

2. Lo'kidon tilchasini oling va xavfsizlik kamarining bel va yelka qismini tutib turuvchi qurilma orqali yoki uning atrofidan o'tkazing. Mahkamlash usullari bolalar o'rindig'iga yo'riqnomada tavsiflangan.



3. Til chertki bilan mahkamlanishi uchun, uni qulfga kiriting.

Xavfsizlik kamarini zarurat bo'lganida tez yechib olish uchun, bolalarni tutib turuvchi qurilmadan lo'kidon tomonida xavfsizlik kamarini bo'shatish tugmasi joylashtirilgan.

Blokdan chiqarish tugmasiga erishish bolalarni tutib turuvchi qurilma bilan to'sib qo'yilmasligi kerak.

4. Bolalarni tutib turuvchi qurilma bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq avtomobilning standart xavfsizlik kamarlari bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlang va qayd etib qo'ying.

5. Agar bolalar o'rindig'i Top Tether mahkamlagichlariga ega bo'lsa, uni qo'llash bo'yicha ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalarini ko'ring. ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turish qurilmalari ⇨ 2-32 ni ko'ring.

6. Bolani bolalar o'rindig'iga o'tirgizishdan avval, u ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Bolalar o'rindig'ini turli yo'nalishlarda itarib va tortib, uning mahkamlanganligini tekshiring.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani yechib olish uchun, avval bolalarni tutib turuvchi qurilmalar bo'yicha qo'llanmadagi yo'riqnomaga muvofiq blokdan chiqaring. Standart xavfsizlik kamarini yechib olib, unga taxlangan holatga qaytishga imkon bering.

Agar u ankeriga mahkamlangan bo'lsa, Top Tether mahkamlagichini uzing.



# 3

## BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR

- 
- BUYUM QUTILARI ..... 3-2
  - BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN  
QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR ..... 3-2
  - TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA ..... 3-3
  - IZOHLAR ..... 3-4

### BUYUM QUTILARI

#### **▲ OGOHLANTIRISH!**

Buyum bo'lmalarida og'ir yoki o'tkir buyumlarni saqlamang. Avariya vaqtida buyum bo'linmasining qopqog'i ochilib ketishi mumkin, eslatib o'tilgan buyumlar esa - yo'lovchilarga jarohatlar yetkazishi mumkin.

#### **Qo'lqoplar uchun g'aladon**

Dastakni tepaga ko'tarib qo'lqoplar uchun g'aladonni oching.

#### **Stakan tutqichlar**

Ikkita stakandon markaziy konsolda joylashgan. Stakandonlar o'rindiqlarning ikkinchi qatoridagi tirsakqo'ygichda joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Ularni ochish uchun, tirsakqo'ygichni pastga torting.


#### **Markaziy konsoldagi buyum g'aladoni**




Markaziy konsolda saqlash uchun bo'lmacha mavjud; uni ochish uchun, oldindagi dastakni torting. Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, xuddi shu joyda ma'lumotlarni uzatish va quvvatlash uchun ikkita USB-port mavjud.

### BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR

#### **Yukni mahkamlash**



1. Yuk to'ri uchun ushlagichlar
  2. Yukni mahkamlash
- Avtomobil yuk kamarlari uchun ikki halqaga va orqa bo'lmachada yuk to'ri uchun ikki ushlagich bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

**TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA****Avariyaiviy to'xtash belgisi**

Avariyaiviy to'xtash belgisi orqa yukxona bo'linmasida saqlanadi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobil tomda yukxona o'lchamidan uzunroq yoki kengroq har qanday buyumlarni, masalan, panellarni, fanerlarni yoki matraslarni tashish vaqtida, avtomobil harakatlanishi vaqtida ularni shamol uchirib ketishi mumkin. Bunda yuk yukxonadan uzilib ketishi mumkin, bu YTH ga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobil tomidagi yukxonadan uzunroq yoki kengroq yuklarni faqat GM kompaniyasi tomonidan sertifikatlashtirilgan yukxonadan foydalanib tashishga ruxsat etiladi.

Agar avtomobil yuklarni mahkamlash uchun yon tomon reylinglar yoki mahkamlagich nuqtalar bilan jihozlangan bo'lsa, GM tomonidan sertifikatlashtirilgan alohida xarid qilinadigan ko'ndalang do'g'adan foydalanish mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

**⚠ DIQQAT!**

Tom yukxonasida 100 kg (220 funt)dan yuqori og'irlikdagi yukni yoki avtomobil orqasida yoki yon tomonlarida osilib turuvchi yuklarni tashish avtomobilga shikast yetkazishi mumkin. Yuklarni ishonchli mahkamlanishini ta'minlab, ularni ko'ndalang to'sinlar orasida bir tekis taqsimlash uchun shunday tarzda joylang.



Shikastlanishdan yoki harakatlanish vaqtida yuklarni yo'qotib qo'yishdan saqlanish uchun, ko'ndalang to'sinlar va yuk ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Tom yukxonasida yuklarni tashish vaqtida avtomobilning og'irlik markazi tepaga o'tadi. Boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yuqori tezlikda harakatlanishdan, joydan to'satdan qo'zg'alishdan, keskin burilishlardan, keskin tormozlanishdan yoki keskin quvib o'tishdan saqlaning. Uzoq masofalarga, notekis yo'llarda yoki yuqori tezlikda safar qilish vaqtida vaqti-vaqti bilan to'xtang va yukning ishonchli mahkamlanganligini tekshirib turing. Avtomobilni yuklashda uning maksimal ruxsat etilgan yuk ko'tarishini ortirib yubormang.



# 4

## BOSHQARUV USKUNALARI VA ORGANLARI

---

- BOSHQARUV ORGANLARI ..... 4-2
- SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV  
ASBOBLARI VA INDIKATORLAR .....4-7
- AXBOROT DISPLEYLARI ..... 4-20
- AVTOMOBILNING  
AXBOROT XABARLARI ..... 4-23
- SHAXSIY SOZLAMALARNI  
SAQLASH ..... 4-23

## BOSHQARUV ORGANLARI

### Rul chamberagini holatini sozlash



Rul chamberagini sozlanishini bajarish uchun:

1. Dastakni pastga tushiring.
2. Rul chamberagini tepaga yoki pastga suring.
3. Rul chamberagini o'zingizga torting yoki uni o'zingizdan itaring.
4. Rul chamberagini joyiga mahkamlash uchun dastakni torting.


Harakatlanish vaqtida rul chamberagini sozlamang.

### Rul chamberagi boshqaruv organlari

Axborot-ko'ngilochar tizimni rul chamberagida joylashtirilgan boshqaruv

organlari yordamida boshqarish mumkin. "Rul chamberagidagi boshqaruv organlar"ni axborot-ko'ngilochar tizimni ishlatish bo'yicha qo'llanmada ko'ring.

### Ovozli signal

Ovozli signalni yoqish uchun rul chamberagidagi  qoplamasiga bosing.

### Old oyna oyna tozalagich/yuvgichi



**Rainsense (o'rnatilgan INT rejimli pishang ko'rsatilgan) tizimining yomg'ir datchigisiz old oyna oyna tozalagichi**




**Rainsense tizimining yomg'ir datchikli old oyna oyna tozalagichi, muvofiq jamlanmada (o'rnatilgan AUTO rejimli pishang ko'rsatilgan)**

O't oldirishni yoki yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish tartibini yoqing va oyna tozalagichlarning zarur ishlash tezligini tanlash uchun oyna tozalagichlarni boshqarish dastagini suring.

**HI (YUQORI):** Oyna tozalagichlarning harakatlanishini yuqori chastotasi.

**LO (PAST):** Oyna tozalagichlarning harakatlanishini past chastotasi.



**INT (UZILISHLI):** Oyna tozalagichlarning harakatlanishini oraliq chastotasi. Oyna tozalagichlarining ishlash chastotasini oshirish uchun halqani tepaga, yoki pasaytirish uchun pastga burang.

**AUTO (AVTO) :** Agar avtomobil Rainsense tizimining yomg'ir datchigi bilan jihozlangan bo'lsa, agar Rainsense funksiyasi o'chirilgan bo'lsa, oyna tozalagichlarning uzilish bilan ishlashini faollashtirish uchun, yoki, agar Rainsense funksiyasi yoqilgan bo'lsa, yomg'ir datchigi bo'yicha oyna tozalagichlarning ishlashini faollashtirish uchun, ushbu sozlamani qo'llang. Oyna tozalagichlarning uzilish bilan ishlashini faollashtirish uchun ularni boshqaruv pishangisini AUTO (AVTO) holatga o'rnatib, so'ngra esa, oyna tozalagichlarning harakatlanish chastotasini oshirish yoki kamaytirish uchun, pishangidagi halqani tepaga yoki pastga burang. Rainsense tizimining ishlashi tavsifini "Rainsense" tizimining yomg'ir datchigi" bo'limida quyida

ko'ring.

**OFF :** Tozalagichlarni o'chirish uchun.

**1x :** Bir martalik tozalash uchun tozalagichning dastagini qisqa pastga siljiting. Oyna tozalagichning bir nechta harakatlanishi uchun dastakni pastki holatda ushlab turing. Oyna tozalagichlarni qo'llashdan avval cho'tkalarining ustidan qor va muzni olib tashlash zarur. Agar cho'tkalar old oynaga muzlab qolgan bo'lsa, ularni ehtiyotkorlik bilan bo'shating yoki isiting. Shikastlangan cho'tkalar almashtirilishi kerak. Zich qor yoki muz oyna tozalagichlarning elektr dvigatelinı ortiqcha yuklanishini chaqirishi mumkin.

#### To'xtab turishda tozalash


Agar oyna tozalagichlar LO, HI yoki INT tartiblarida ishlayotgan vaqtda o't oldirish o'chirilsa, oyna tozalagichlarning cho'tkalari darhol to'xtaydi.

Agar so'ngra eshik ochilguniga qadar yoki 10 minut vaqt chegarasida old oynaning oyna tozalagichini dastagini OFF (O'CHIRILGAN) holatga o'tkazilsa, oyna tozalagichlar qayta harakatga tushadi va old oynaning asosiga siljib o'tadi. Agar oyna tozalagichlarning va yuvigichning ishlashi vaqtida o't oldirish o'chirilsa, tozalagichlarning cho'tkalari old oynaning pastki zihiga etib to'xtaydi.

#### Rainsense tizimining yomg'ir datchigi

Agar avtomobil Rainsense tizimining yomg'ir datchigi bilan jihozlangan va ushbu funksiya


yoqilgan bo'lsa, old oynaning markaziy tepa qismida joylashgan datchik old oynadagi suvning miqdorini aniqlaydi va sezuvchanlikning joriy sozlamasi bilan muvofiqlikda oyna tozalagichlarning ishlashi chastotasini sozlaydi. Tizimning maqbul ishlashini ta'minlash uchun, old oynaning ushbu qismini tozaligi ustidan kuzatib turing.



**AUTO (AVTO) :** Oyna tozalagichlarni boshqarish pishangisini AUTO (AVTO) holatga o'tkazib. Sezuvchanlik sozlash uchun, pishangidagi halqani burang.

- Namlikka sezuvchanlikni oshirish uchun chiziqni tepaga burang.
- Namlikka sezuvchanlikni pasaytirish uchun chiziqni pastga burang.
- Rainsense funksiyasini o'chirish uchun old oyna tozalagichlarining pishangisini AUTO holatidan chiqaring.

### Old oyna yuvgichi

 :Old oynaga yuvgichdan suyuqlikning oqimi sepish va oyna tozalagichlarni yoqish uchun, oyna tozalagichlarni boshqarish dastagini o'zingizga torting. Toki dastak qo'yib yuborilmagunicha yoki yuvishning maksimal vaqtiga erishilmagunicha tozalagichlar ishlab turadi. Old oynaning tozalagichlari dastagi qo'yib yuborilgandan so'ng cho'tkalar bir necha qanot qoqishni qilishi mumkin (old oyna yuvgichi qanchalik uzoq vaqt ishlaganiga bog'liq).

#### **OGOHLANTIRISH!**

Ayozli ob-havoda old oyna isitilgunicha yuvgichlarni qo'llamang. Aks holda yuvgichning suyuqligi old oynada muz qoplarni hosil qilishi va ko'rish manzarasini buzishi mumkin.

### Orqa oynaning tozalagichi/yuvgichi

Orqa oyna tozalagichi va yuvgichi ishlashi uchun, o't oldirish ACC/ACCESSORY yoki ON/RUN holatda bo'lishi kerak.




Orqa oynaning tozalagichi/yuvgichini boshqaruvi old oyna tozalagichining dastagini uchini aylantirish yo'li bilan bajariladi.

**OFF** : Tizimni o'chirish.

**INT (UZILISHLI)**: Uzilishli ish tartibi.

**ON (YOQILGAN)**: Oyna tozalagichlarning sekin ishlashi.

 : Orqa oyna yuvgichning suyuqligini sepish uchun old oyna tozalagichining dastagini oldinga bosilsin. Qo'yib yuborilganida dastak avtomatik tarzda dastlabki holatga qaytadi.

#### **OGOHLANTIRISH!**

Ayozli ob-havoda old oyna isitilgunicha yuvgichlarni qo'llamang. Aks holda yuvgichning suyuqligi old oynada muz qoplarni hosil qilishi va ko'rish manzarasini buzishi mumkin.

### Orqa oyna tozalagichini dastagini himoyalash

Avtomatik avtoyuvishdan foydalanayotganda o'zgartirgichni O'CHIRILGAN holatga o'rnatib, orqa oyna tozalagichini o'chirib qo'ying. Ba'zi avtomobillarda, agar yuritmalar o'zgartirgichi neytralga o'rnatilgan va avtomobil tezligi juda past bo'lsa, orqa oyna tozalagich avtomatik tarzda to'xtab turishga joylashtirish holatiga o'rnatiladi.

Tozalagichlar neytral yuritma boshqasiga almashtirilganida yoki avtomobil tezligi oshirilgan vaqtda qayta me'yorda ishlashni davom ettiradi.



### Orqa yuritmada tozalagichlarning ishi

Agar orqa oyna tozalagichni boshqarish o'chirilgan bo'lsa, agar orqa yuritma (R) tanlangan bo'lsa, old oyna oyna tozalagichlari esa past yoki yuqori tezlikda ishlayotgan bo'lsa, u avtomatik uzluksiz ishlaydi. Agar orqa oyna tozalagichlarni boshqaruvi o'chirilgan, orqa yuritma (R) tanlangan va old oyna oyna tozalagichlari uzilishlar bilan ishlayotgan bo'lsa, u holda orqa oyna oyna tozalagichi avtomatik tarzda uzilishlar bilan ishlaydi.

Bu funksiyani yoqish va o'chirish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ↪ 4-23 ni ko'ring. Old oyna yuvgichining yuvish suyuqligi bachogi old oynani va orqa oynani yuvish uchun qo'llaniladi. Agar biron bir yuvgich ishlamayotgan bo'lsa, suyuqlik sathini tekshiring. Yuvgich suyuqligi ↪ 9-16 ni ko'ring.

### Orqa oynaning tozalagichi/yuvgichi

Orqa oyna tozalagichi va yuvgichi ishlashi uchun, o't oldirish ACC/ACCESSORY yoki ON/RUN holatda bo'lishi kerak.




Orqa oynaning tozalagichi/yuvgichini boshqaruvi old oyna tozalagichining dastagini uchini aylantirish yo'li bilan bajariladi.

**OFF** : Tizimni o'chirish.

**INT (UZILISHLI)**: Uzilishli ish tartibi.

**ON (YOQILGAN)**: Oyna tozalagichlarning sekin ishlashi.

 : Orqa oynaga yuvgichning suyuqligini sepish uchun old oyna tozalagichining dastagini oldinga bosilsin. Qo'yib yuborilganida dastak avtomatik tarzda dastlabki holatga qaytadi.

### **OGOHLANTIRISH!**

Ayozli ob-havoda old oyna isitilgunicha yuvgichlarni qo'llamang. Aks holda yuvgichning suyuqligi old oynada muz qoplarni hosil qilishi va ko'rish manzarasini buzishi mumkin.

### Orqa oyna tozalagichi dastagini himoyasi

Avtomatik avtoyuvishdan foydalanayotganda o'zgartirgichni O'CHIRILGAN holatga o'rnatib, orqa oyna tozalagichini o'chirib qo'ying. Ba'zi avtomobillarda, agar yuritmalar o'zgartirgichi neytralga o'rnatilgan va avtomobil tezligi juda past bo'lsa, orqa oyna tozalagich avtomatik tarzda to'xtab turishga joylashtirish holatiga o'rnatiladi.

Tozalagichlar neytral yuritma boshqasiga almashtirilganida yoki avtomobil tezligi oshirilgan vaqtda qayta me'yorda ishlashni davom ettiradi.

### Orqa yuritmada tozalagichlarning ishi

Agar orqa oyna tozalagichlarning boshqaruvi o'chirilgan bo'lsa, agar orqa yuritma (R) tanlangan, old oyna oyna tozalagichi esa past yoki yuqori tezlikda ishlayotgan bo'lsa, u avtomatik uzluksiz ishlaydi. Agar orqa oyna tozalagichni boshqaruvi o'chirilgan, orqa yuritma (R) tanlangan va old oyna oyna tozalagichlari uzilishlar bilan ishlayotgan bo'lsa, u holda orqa oyna oyna tozalagichi avtomatik uzilishlar bilan ishlaydi.

Bu funksiyani yoqish va o'chirish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ↪ 4-23 ni ko'ring. Old oyna suyuqligining yuvgich bachogi old

oynani va orqa oynani yuvish uchun qo'llaniladi. Agar biron bir yuvgich ishlamayotgan bo'lsa, suyuqlik sathini tekshiring.

### Kompas

Avtomobil kompasli displey bilan jihozlangan bo'lishi mumkin (haydovchining axborot markazi DICda). Kompas harakatlanish yo'nalishi va boshqa ma'lumotlar haqidagi axborotlarni global pozitsiyalash tizimi (GPS) antenasi, StabiliTrak/dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) va tezlik datchiklari orqali oladi. Kompas tizimi shunday tuzilganki, unga GPS yo'ldoshdan navbatdagi signal talab etilgunga qadar, u ma'lum kilometrlar soni yoki burilish graduslarini kuzatib boradi. Agar kompas displeyida "CAL" belgisi paydo bo'layotgan bo'lsa, avtomobilni GPS signalni qabul qilish mumkin bo'lgan ochiq zonaga tez chiqaring. Kompas tizimi GPS signali qachon tiklanishini va qayta yo'nalishni berilishini avtomatik aniqlaydi.

### Soat

Sana va vaqtning o'rnatilishini axborot-ko'ngilochar tizimida amalga oshiriladi. "Vaqt va sana"ni axborot-ko'ngilochar tizim foydalanuvchisining qo'llanmasidagi "Sozlamalar" bo'limida ko'ring.

## Shtepsel ulagichlar

### Doimiy tok 12 V oziqlanish ulagichi

Avtomobil yordamchi uskunalarni oziqlantirish liniyasida 12 voltga ulagichga ega bo'lishi mumkin, unga, masalan, mobil telefonni yoki MP3 pleyerni ulash mumkin. Elektr ulagich quyidagi joyda joylashgan:

- Orqa yukxona bo'linmasida.

Ulagichdan foydalanish uchun, qopqoqni yechib oling. Agar avtomobil o'chiqligida uzoq vaqt davomida elekt asbob-uskunalarini yoqilgan holatda qoldirilsa, bu akkumulyatorning to'liq quvvatsizlanishiga olib keladi. Ishlatilmayotgan elekt asbob-uskunalarini ulagichdan har doim uzib qo'ying va 10 amperdan ortiq bo'lgan nominal iste'mol qilinuvchi tokli asbob-uskunalarini ulamang.

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Orqa yukxona bo'linmasidagi ulagichga elektr oziqlanish har doim uzatib turiladi. Agar avtomobil ishlatilmayotgan bo'lsa, elektr asbob-uskunalarini ulangan holda qoldirish lozim bo'lmaydi, chunki odamlar jarohatlanishi va o'limi sababchisi bo'lib qolishi mumkin bo'lgan yong'in sodir bo'lishi mumkin.

Ba'zi elektr uskunalar ulagichlar bilan mos kelmaydigan, yoki avtomobilning yoki adapter saqlagichlarining elektr


tizimini yuklanishiga olib keluvchi sanchqilarga ega bo'lishi mumkin. Agar siz ushbu muammo bilan to'qnash kelgan bo'lsangiz, o'z dileringizga murojaat qiling. Elektr uskunalarini qo'shishda ularga ilova qilinuvchi o'rnatish bo'yicha muvofiq yo'riqnomani albatta bajaring. Qo'shimcha elektr asbob-uskunalar ⇨ 8-53 ni ko'ring.

### ⚠ DIQQAT!

Shtepsel ulagichga mahkamlangan og'ir asbob-uskunalar avtomobilning kafolati ta'sir etmaydigan shikastlanishlarga olib kelishi mumkin. Shtepsel ulagichlar faqat yordamchi uskunalar, masalan, mobil telefonlarning quvvatlovchi qurilmalarining kuchli simlarini ulash uchun mo'ljallangan.


### Chektirgich

Iqlim-nazorat tizimi ostida markaziy konsolda chektirgich uyachasi mavjud. Chektirgichni qo'llash uchun unga to'liq bosing va qo'yib yuboring. Ma'lum haroratga erishilganida chektirgich avtomatik dastlabki holatga chertki bilan qaytadi.

**SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV  
ASBOBLARI VA INDIKATORLAR** **DIQQAT!**

Qizdirish vaqtida chektirgichni ichkarida tutib turish issiq qizdiruvchi elementdan chertki bilan qaytishini imkonsiz qiladi. Ortiqcha qizib ketish holatida chektirgichni yoki isituvchi elementning shikastlanishi yoki saqlagichning ishdan chiqish ehtimoli bor. Chektirgich qizdirilishi vaqtida uni majburan bosilgan holatda tutib turmang.

Signalizatorlar va o'lchov asboblari nosozliklar mavjudligini, ular qimmatbaho ta'mirlashga yoki almashtirishga olib kelish uchun yetarlicha jiddiy bo'lib qolguniga qadar ko'rsatishi mumkin. Signalizatorlar va o'lchov asboblariga nisbatan diqqatli munosabat ehtimolli zararni oldini olishi mumkin. Ba'zi signalizatorlar ularning ish qobiliyatini indikatsiyasi sifatida dvigatelni ishga tushirishda qisqa vaqtga yorishadi. Agar signalizatorlardan biri yorishsa va harakatlanish vaqtida o'chmasa, yoki o'lchov asboblaridan biri ehtimolli nosozlikka ko'rsatayotgan vaqtda, keyingi harakatlar tushuntirishlari mavjud bo'lgan bo'limlar bilan qiyoslash o'tkazing. Ta'mirlashni cho'zib yuborish qimmatbaho va hattoki xavfli bo'lib qolishi mumkin.



1. Yonilg'i sathi datchigi

2. Dvigatelni sovituvchi suyuqligining harorati indikator

3. Spidometr

4. Haydovchining axborot markazi (DIC)

5. Taxometr

Uskunalar majmuasining markazi bo'ylab interfaol display o'rnatilgan.



Displayning menyusini turli elementlari bo'ylab o'tish uchun rul chambaragining eng spitsasidagi tugmalar blokidan foydalaning. Uskunalar majmuasining tartiblarini o'zgartirish uchun ◀ yoki ▶ ni bosing. Aniqlik ilovaning funksiyalarini varroqlash uchun ▽ yoki ▲ ni bosing. Bosh sahifaga o'tish uchun ✓ ni bosing. Alohida ilovalar ba'zi modifikatsiyalarda erishimli bo'lmasligi mumkin. Agar o't oldirish o'chirilgan yoki ACC/ACCESSORY tartibida joylashgan bo'lsa, ba'zi funksiyalar vaqtinchalik cheklangan bo'lishi mumkin.

- Bosh sahifa
- Axborot ilovasi Shu erda haydovchining axborot markazining (DIC) tanlangan ekranlarini ko'zdan kechirish mumkin.

Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-20 ni ko'ring.

- Audio (Audio)
- Navigation (Navigatsiya)
- Telefon
- Parametrlar.

### Bosh sahifa

Bu erda aks ettiriluvchi ma'lumotni sozlamalar menyusida o'zgartirish mumkin.

**Spidometr:** Avtomobil harakatlanish tezligini soatiga kilometrda (km/soat) yoki soatiga milda (mil/soat) aks ettiradi.

**Tezlikni cheklash belgisi:** Ushbu sahifada navigatsiyaning bort tizimi ma'lumotlar bazasida saqlanuvchi yo'l belgilari haqidagi o'rnatilgan tezlik cheklovlari haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi (barcha jamlanmalarda erishimli).

**Vaqt:** Joriy vaqt aks ettiriladi.

**Foal xavfsizlik:** Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, harakatlanish chizig'ini ushlab turish tizimi (LKA) va frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ma'lumotlari aks ettiriladi.

**Yonilg'i oralg'i:** Keyingi yonilg'i quyishgacha taxminiy zaxira yurish aks ettiriladi. Mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan taxminiy masofa

oxirgi davr uchun yonilg'ining o'rtacha sarfi va yonilg'i bakida qolgan yonilg'ining hajmi bo'yicha hisoblanadi. Bakda mavjud bo'lgan yonilg'ida bosib o'tish mumkin bo'lgan masofani bekor qilish imkonsiz.

### Audio (Audio)

△ va ▽ tugmalar opsiyalar va musiqiy kompozitsiyalarni ro'yxatini varroqlash, tanlanganlardan bandlarni tanlash, audiosignal manbasini o'zgartirish uchun qo'llaniladi. Bosh ekranda ular radiostansiyalarni o'zgartirishga yoki keyingi yoki oldingi yozuvlarga o'tish imkonini beradi.

### Navigation (Navigatsiya)

Agar faol yo'nalish mavjud bo'lmasa, navigatsiya menyusida ✓ tugmasi yaqindagi bandlarni yoki tanlanganlarni ro'yxatini chaqiradi. Agar faol yo'nalish mavjud bo'lsa, yo'nalish bo'yicha kuzatib borishni bekor qilish yoki tiklash, mikrofonni o'chirish/yoqish, oxirgi bandlarga yoki tanlanganlarga kirish uchun g'ildirakchaga bosing.

### Telefon

Agar hozirgi vaqtda siz telefon orqali suhbatlashmayotgan bo'lsangiz, "Telefon" menyusida chaqiruvlar jurnalini, abonentlar ro'yxatini ko'rish, zarur bo'lgan tanlanganlar bandini tanlash yoki tanlangan telefonni o'zgartirish mumkin. Suhbatlashish vaqtda telefonning mikrofonini o'chirib qo'yish va chaqiruvni telefonga o'tkazish mumkin.

### Sozlamalar

Sozlamalar menyusida parametrlar ro'yxati bo'ylab o'tish uchun  $\triangle$  va  $\nabla$  tugmalardan foydalaning. Bandni tanlash uchun  $\checkmark$  ni bosing  $\sphericalangle$  bosing banddan chiqib ketish uchun.

**Tortish kuchi nazorat tizimi:** Tortish kuchi nazorati tizimini (TCS) yoqish/o'chirish uchun, TCS YOQILGAN YOKI O'CHIRILGAN ni tanlang. Dinamik stabillashtirish elektron tizimini (ESC)/StabiliTrak yoqish/o'chirish uchun, Stabillashtirishni tanlang. Tortish kuchi nazorati tizimi/Dinamik stabillashtirish elektron tizimi  $\leftrightarrow$  8-26 ni ko'ring.

**O'ichov birliklari:** Britaniya yoki metrik birliklarni tanlang. Tanlangan band yonida tanlash belgisi aks ettiriladi.

**Axborot sahifalari sozlamalari:** Axborotlar ilovasida aks ettiriladigan bandlarni tanlang. Tanlangan band yonida tanlash belgisi aks ettiriladi.

**Bosh sahifa sozlamalari:** Aks ettirish uchun elementlarni tanlang. Ba'zi elementlar ba'zi modifikatsiyalarda erishimli bo'lmasligi mumkin. Spidometr, faol xavfsizlik, tezlikni cheklash belgisi, vaqt, qolgan yonilg'ida yurish zaxirasi.

### Tezlikni oshirib yuborish haqida ogohlantirish:

Haydovchiga u oshirib yuborishni istamagan tezlikni o'rnatish imkonini beradi. Ogohlantirish beriladigan maksimal ruxsat etilgan tezlik qiymatini o'rnatish uchun, Speed Warning menyusini oching. (tezlikni oshirib yuborish haqida ogohlantirish) va  $\checkmark$  tugmani bosing.  $\triangle$  va  $\nabla$  tugmalar bilan kerakli qiymatni o'rnatish. Tanlangan tezlikni o'rnatish uchun,  $\checkmark$  ni bosing. Agar tezlik ostonasi berilgan bo'lsa, ushbu sahifani displeyga chiqarish bilan ushbu funksiyani g'ildirakchaga bosish orqali o'chirish mumkin. Agar o'rnatilgan tezlik qiymati oshirib yuborilsa, displeyda sizib chiquvchi ogohlantirish paydo bo'ladi va tovushli signal jaranglaydi.

**DT haqida ma'lumot:** Ochiq kodli DT haqidagi ma'lumot aks ettiriladi.

### Spidometr

Spidometrda avtomobilning bir soatdagi kilometrlar (km/soat) yoki bir soatdagi millarda (mil/soat) tezlik aks ettiriladi.

### Odometr

Odometrda kilometrlar yoki millarda avtomobilning to'liq bosib o'tgan masofasi aks ettiriladi.

### Joriy bosib o'tilgan masofa hisoblagichi

Joriy bosib o'tilgan masofa hisoblagichi hisoblagich ko'rsatkichlarini oxirgi bekor qilingan paytdan boshlab avtomobilning bosib

o'tgan masofasi ko'rsatiladi. Joriy haydovchi axborot markazi displeyi yordamida amalga oshiriladi. Haydovchining axborot markazi (DIC)  $\leftrightarrow$  4-20 ni ko'ring.

### Taxometr

Taxometrda bir minutda dvigatelning aylanishlar soni (ayl/min) aks ettiriladi.

O't oldirish yoqilgan vaqtda, taxometrda avtomobil holati aks ettiriladi. Strelka AUTO STOP (dvigatel avtomatik to'xtatilgan) ga ko'rsatayotgan vaqtda, dvigatel o'chirilgan, ammo barcha qolgan tizimlar ishlashni davom ettirmoqda, avtomobil harakatlanishni davom ettirishga tayyor. Dvigatel masofani bosib o'tish ko'rsatkichini ko'rish yoki bekor qilish har qanday payt ishga tushirish mumkin.

Strelka OFF (o'chirilgan) ga ko'rsatayotgan vaqtda, dvigatel to'liq o'chirilgan.

Agar dvigatel ishlayotgan bo'lsa, taxometr strelkasi tirsakli valning bir minutdagi aylanishlar (ayl/min) sonini ko'rsatadi. Dvigatelni avtomatik to'xtatish tartibida taxometrning ko'rsatkichlari dvigatelning to'xtashi yoki qayta ishga tushirilishi jarayonida bevosita bir necha ming aylanishlar chegarasida o'zgarishi mumkin.

Yuritmalar qutisini eng samarali yuritmaga o'tkazishda ozgina siltanish sezilishi mumkin.

**Yonilg'i sathi ko'rsatkichi**


O't oldirish yoqiligidagi yonilg'i sathi ko'rsatkichi bakda qancha yonilg'i qolganligini ko'rsatadi.

Yonilg'i sathi datchigidagi strelka yonilg'i bakining lyuchogi avtomobilning qaysi tomonida joylashganini ko'rsatadi.

Bak deyarli bo'sh ekanligini indikator ko'rsatayotgan paytda, yonilg'i zaxirasi indikator yorishadi. Bu bakda yonilg'ining bir qancha miqdori qolayotganligini anglatadi, biroq iloji boricha tezroq yonilg'ini qo'shimcha to'ldirish zarur.

Quyida avtomobil egalari ba'zida so'raydigan ko'rsatkichning ishi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar tavsiflangan. Quyida sanab o'tilganlarning hech biri yonilg'i datchigi nosozligini anglatmaydi:

- Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida yonilg'i nasosi yonilg'i datchigi "to'liq bak" ni ko'rsatguniga qadar o'chiriladi.
- Bakni to'ldirish uchun datchik ko'rsatganiga qaraganda ozgina ko'proq yoki kamroq yonilg'i talab etiladi. Masalan, ko'rsatkich bak yarmigacha to'ldirilganligini ko'rsatishi mumkin edi, vaholanki to'liq to'ldirish uchun bak hajmining yarmidan ozgina ko'proq yoki ozgina kamroq yonilg'ini quyish talab etiladi.
- Datchik burilishni o'tishda yoki tezlashishda ozgina siljimoqda.
- Datchikni stabilashtirish uchun o't oldirish yoqilganidan so'ng bir necha soniya talab etiladi. O't oldirish o'chirilganidan so'ng datchik bak bo'sh ekanligini qayta ko'rsatmoqda.

**Dvigateling sovituvchi suyuqligining harorat indikator**

Ushbu indikator dvigatelni sovituvchi suyuqligining haroratini ko'rsatadi.

Agar ko'rsatkich strelkasi shkalaning o'ng chegarasiga yaqin joylashgan bo'lsa, dvigatel ortiqcha qizib ketgan. Agar avtomobil me'yordagi tartibda harakatlangan bo'lsa, avtomobilning sovituvchi suyuqligi esa ortiqcha qizib ketgan bo'lsa, iloji boricha tezroq yo'lning chetiga o'tish, to'xtash va dvigatelni o'chirish zarur bo'ladi. Dvigateling ortiqcha qizib ketishi ⇨ 9-14 ni ko'ring.

**Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari****Haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikator**

Uskunalar majmuasida haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikator joylashtirilgan.



O't oldirish yoqilganida ushbu indikator miltillashni boshlaydi va zummerning ogohlantiruvchi signali jaranglab, haydovchiga xavfsizlik kamarini taqib olish zarurligini eslatib turadi. Bu lampa toki kamar taqilmaguniga qadar yorishib turadi. Bu tsikl, agar haydovchitaqilmagan holatda qolganida yoki

avtomobil harakatlanishi vaqtida xavfsizlik kamarini yechib yuborganida, bir necha marta qaytarilishi mumkin.

Agar haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa, indikator yorishmaydi va tovushli signal jaranglamaydi.

### Yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikator

Avtomobil yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikator bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.



O't oldirish yoqilganida ushbu indikator miltillashni boshlaydi va zummerning ogohlantiruvchi signali jaranglab, yo'lovchiga xavfsizlik kamarini taqib olish zarurligini eslatib turadi. Bu lampa toki kamar taqilmaguniga qadar yorishib turadi. Agar yo'lovchi kamar bilan taqilmagan yoki avtomobil harakatlanishi vaqtida xavfsizlik kamari yechib yuborilganida, indikatsiya bir necha marta takrorlanadi.

Agar yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa, indikator yorishmaydi va tovushli signal jaranglamaydi.

Agar oldingi o'rindiqda biron bir buyum, masalan, portfel, ayollar yoki xo'jalik sumkasi, noutbuk yoki biron bir boshqa elektron qurilma, bo'lsa, oldingi yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmaganligi indikator yorishishi va zummerning signali jaranglashi mumkin. Signalizator va (yoki) tovushli signalni o'chirish uchun o'rindiqdan buyumni olish yoki kamarni taqib qo'yish zarur.

### Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining signal lampalari

Ushbu indikator ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining boshqaruv tizimi zanjirida elektr nosozliklar mavjudligiga ko'rsatadi. Tizimni tekshirishga xavfsizlik yostiqlari datchiklarini, kamarlarning oldindan taranglashtirgichlari, xavfsizlik yostiqlari modullari, simlarini tekshirish, hamda to'qnashuvni aniqlashtirish va tekshirish kiradi. Xavfsizlik yostiqlari tizimi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi bo'limida ko'ring ⇨ 2-15.




Xavfsizlik yostig'i tayyorgarligi lampasi dvigatel ishga tushirilganida bir necha soniyaga yorishadi. Agar bundan so'ng lampa doimo yorishib turmayotgan bo'lsa, darhol nosozlikni bartaraf qiling.

### OGOHLANTIRISH!

Agar xavfsizlik yostiqlari tayyorligi lampasi dvigatel ishga tushirilganidan so'ng yorishib turishda davom etsa yoki harakatlanish vaqtida yorishsa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimining noto'g'ri ishlashini anglatishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari to'qnashuv vaqtida ishlamay qolishi yoki to'qnashuvsiz ishlab ketishi mumkin. Jarohatlar olishdan saqlanish uchun avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishga zudlik bilan murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqlari tizimida nosozliklar mavjud bo'lish holatida shu bilan birga haydovchining axborot markazi displeyida xabar paydo bo'lishi mumkin.

### Quvvatlash tizimi lampasi



Quvvatlash tizimi lampasi o't oldirish vaqtida va ishlamayotgan dvigatelda lampaning ish qobiliyatini ko'rsatuvchi tekshirish sifatida qisqa vaqtga yorishadi. Dvigatel yoqilishida lampalar o'chiriladi. Agar u yorishmasa, avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun dilerga etkazing.



Agar lampa yonishda davom etsa yoki harakatlanish vaqtida yorishsa, bu elektr quvvatlash tizimida nosozlik mavjudligini anglatishi mumkin. Uni dilerda tekshirtiring. Yorishib turgan lampada safar qilish akkumulyatorning quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu lampani yoqilishida haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida shu bilan birga xabar aks ettiriladi. Agar yorishib turgan lampada katta bo'lmagan masofaga safar qilish kerak bo'lsa, audiotizim va konditsioner kabi qo'shimcha uskunalarning barchasini albatta o'chirib qo'ying.

#### **Nosozlik signalizatori ("Check Engine" nazorat lampasi (dvigatelni tekshiring))**

Ushbu signalizator ishlagan gazlarni neytrallashtirish tizimining bort tekshiruvini qismi hisoblanadi. Agar u ishlab turgan dvigatelda yorishib turgan bo'lsa, bu nosozlik mavjudligiga va ta'mir zaruratiga ko'rsatadi. O't oldirish kaliti Service Mode (servis tartib) holatiga o'rnatilganida, signalizator yorishishi kerak. Shunday tarzda uning lampasining sozligi tekshiriladi. Ishga tushirish o'zgartirgichining holati ↪ 8-11 ni ko'ring.



Tizim tez-tez biron bir tashqi alomatlar paydo bo'lguniga ancha avval nosozlik paydo bo'lishi haqida ogohlantiradi. Signalizatorning yoqilishini kuzatib boring va jiddiy buzilishlardan saqlanish uchun servis markaziga o'z vaqtida murojaat qiling.

#### **⚠️ DIQQAT!**

Agar yorishib turgan signalizator bilan avtomobilni ishlatilishini davom ettirilsa, ishlagan gazlarni neytrallashtirish tizimi o'z vazifalari bilan samarali uddasidan chiqmasligi, yonilg'ining harajati, hamda yurish dinamikasi va ohistaligining yomonlashuvchi kuzatilishi mumkin. Bu avtomobil kafolati taalluqli bo'lmaydigan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

#### **⚠️ DIQQAT!**

Dvigatelning, yuritmalar qutisi tuzilishiga, kiritish va chiqarish tizimiga, yonilg'i tizimiga hamda tavsiya etilmagan turo'lchamdagi shinalarniqo'llash sababli signalizator yorishishi mumkin. Bu avtomobil kafolatiga taalluqli bo'lmagan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin. Bu shu bilan birga davlat texnik ko'rigidan o'tish/toksiklikni

#### **⚠️ DIQQAT!**

tekshirishdan o'tishni qiyinlashtirishi mumkin ishlagan gazlar tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi sababli signalizator yorishishi mumkin. Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari ↪ 9-2 ni ko'ring

#### **Agar signalizator yorishib turgan bo'lsa:**

Aniqlangan nosozlik, ishlagan gazlarni neytrallashtirish tizimining ishdan chiqishi va unda zararli moddalarning saqlanishining oshishiga olib kelishi mumkin. Tekshirish va xizmat ko'rsatish o'tkazilishi talab etilishi mumkin. Shikastlanishlar xavfini pasaytirish uchun, tezlikni pasaytiring va keskin tezlashishlardan va tepaliklarga harakatlanishlardan saqlanishga urinib ko'ring. Agar avtomobil tirkamani shataklayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyatda uni yukdan bo'shating.

Agar signalizator miltillashni davom ettirsa, avariya holatini hosil qilmasdan, to'xtash mumkin bo'lgan joyni tanlab to'xtang. O't oldirishni o'chiring va dvigatelni takroran ishga tushirishdan avval kamida 10 soniya kuting. Agar signalizator avvalgidek miltillab turgan bo'lsa, yuqorida keltirilgan tavsiyalarga rioya qiling yoki avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun o'z dilingizga zudlik bilan murojaat qiling.


**Agar signalizator doimo yorishib turgan bo'lsa:** Nosozlik aniqlangan. Tekshirish va xizmat ko'rsatish o'tkazilishi talab etilishi mumkin. Quyidagi tekshirishlarni bajaring:

- Yonilg'i-to'ldirish bo'yinchasi qopqog'i ishonchli yopilganmi. Yopilgan yoki yomon yopilgan bo'yincha signalizator yoqilishining sababi bo'lib qolishi mumkin. Yonilg'ini bakka to'ldirish ⇨ 8-51 ni ko'ring. BO'YINCHANING ishonchli yopilgan qopqog'i bilan bir nechta safardan so'ng signalizator o'chishi mumkin.
- Yonilg'ining past sifati dvigatel ishidagi buzilishlarga va avtomobil dinamikasining yomonlashishga olib kelishi mumkin. Dvigatel qizdirilganidan keyin ushbu nosozlik alomatlarini g'oyib bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda boshqa markadagi yonilg'iga o'tish zarur. Signalizator o'chishidan avval, bakdagi yonilg'ini yaxshi sifatdagi yonilg'iga to'liq kamida bir marta almashtirish talab etiladi. Yonilg'i ⇨ 8-51 ni ko'ring.

Agar signalizator yorishib turishda davom etsa, dilerga murojaat qilish kerak.

### **Ishlagan gazlarni toksikligini nazorat dasturi va texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish dasturi**

Texnik ko'rikdan o'tkazishni o'tkazish vaqtida toksiklikni nazorat qilish uchun apparatura ulanadigan diagnostik kolodka qo'llanilishi mumkin.



a'lumotlarni uzatish kanalining ulagichi rul chambaragidan chapda asbob-uskunalar paneli ostida joylashtirilgan. Ushbu kolodkaga texnik ko'rik vaqtida yoki avtomobilga xizmat ko'rsatish uchun toksiklikni nazorat qilish uchun mo'ljallanmagan asbob-uskunalar ulanishi avtomobilning ishida aks ettirilishi mumkin. **Q o ' s h i m c h a a s b o b - u s k u n a l a r** ⇨ 8-53 ni ko'ring. Yordamga o'z dileringizga murojaat qiling.

Avtomobil ko'rikdan o'tmasligi mumkin, agar:

- Dvigatel ishlashida signalizator doimo yorishib turgan bo'lsa.
- O't oldirish kaliti Service Mode (servis tartibi) holatiga o'tkazilganida signalizator yorishmayapti.
- Ishlagan gazlarning toksiklik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy tizimlar to'liq tekshirilmagan. Bunday holatda avtomobil ko'rikdan o'tishga tayyor bo'lmaydi. Uni ko'rikka tayyorlash uchun, uni bir necha kun davomida oddiy tartibda ishlatish talab etilishi mumkin. Bunday holat, masalan, 12 voltli AKB yaqinda

almashtirilgan yoki to'liq quvvatsizlangan, hamda agar avtomobil yaqinda xizmat ko'rsatishdan o'tgan bo'lganida vujudga kelishi mumkin.

Agar avtomobil texnik ko'rikdan o'tishga tayyor bo'lmasa yoki undan o'tishga imkoni bo'lmasa, o'z dileringizga murojaat qiling.

### **Tormoz tizimining nazorat lampasi**

Avtomobilning tormoz tizimi ikki gidravlik konturlardan iborat. Agar bir kontur ishlamayotgan bo'lsa, avtomobilni to'xtatish uchun qolgan kontur ishlaydi. Tormozlanishning me'yordagi xarakteristikalarini ta'minlash uchun ikkala kontur ham ishlashi kerak. Signalizatorning yoqilishi tormoz tizimining nosozligiga ko'rsatadi. Tormoz tizimini ko'zdan kechirish uchun zudlik bilan murojaat qiling.



Ushbu signalizator dvigatel ishga tushirilganda qisqa vaqtga yorishishi kerak. Agar signalizator yorishmayotgan bo'lsa, tizimning ehtimolli nosozligi haqida ogohlantirishni o'z vaqtida olish uchun uni ta'mirlash lozim. Agar signalizator yorishsa va o'chmasa, bu tormoz tizimida nosozlik mavjudligi haqida dalolat beradi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar tormoz tizimi signalizatori yorishib turgan bo'lsa, tormoz tizimi noto'g'ri ishlashi mumkin. Yorishib turgan tormoz tizimi signalizatori bilan avtomobilni haydash avariya olib kelishi mumkin. Agar signalizator hattoki yo'ldan chetlashish va ehtiyotkor to'xtashda yorishib turgan bo'lsa, avtomobilni texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun shatakchilash zarur.

**Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi signalizatori**

To'xtab turish tormozi tortib qo'yilgan vaqtda ushbu indikator yorishishi mumkin. Agar signalizator to'xtab turish tormozi o'chirilgandan so'ng yoki avtomobilni harakatlanishi vaqtda miltillashda davom etsa, bu elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoki boshqa tizimning nosozligi haqida dalolat beradi. Bunda haydovchining axborot markazi displeyiga hamxabarni chiqarishi mumkin. Agar signalizator yonmasa yoki miltillashda davom etsa, dilerga murojaat qiling.

**Elektr uzatmali xizmat to'xtab turish tormozi indikator**

Avtomobil ishga tushirilganida ushbu indikator qisqa vaqtga yonishi kerak. Agar indikator yorishmayotgan bo'lsa, tizimning ehtimoli nosozligi haqida ogohlantirishni o'z vaqtida olish uchun uni ta'mirlash zarur. Agar ushbu indikator doimo yorishib turgan bo'lsa, iloji boricha ta'mirlash uchun TXKS ga murojaat qilish zarur. Elektr mexanik to'xtab turish tormozi haqidagi ma'lumotlarni Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi ↻ 8-23 bandda ko'ring. Bunda haydovchining axborot markazi displeyiga ham xabar chiqarilishi mumkin.

**Tormozlarning antibloklash tizimi (ABS) signalizatori**

Tormozlarni antibloklash tizimli (ABS) avtomobillarda ushbu signalizator dvigatelni ishga tushirishda qisqa muddatga yorishadi.

Agar signalizator yorishmayotgan bo'lsa, u nosozlik haqida signallashtirishga tayyor bo'lishi uchun, uni ta'mirlang.

Agar ABS lampasi yoqilayotgan va harakatlanish jarayonida yonib turgan bo'lsa, iloji boricha tezroq to'xtash va o't oldirishni o'chirish kerak. Tizimni dastlabki holatga keltirish uchun dvigatelni qavta yoqish kerak.

Agar ushbu lampa 20 km/soat (13 mph) da yonib turishda davom etsa, xizmat ko'rsatish uchun o'z dileringizga murojaat qiling. Doimo yorishib turgan signalizatorida shu bilan birgatoruvshli signal ham uzatilishi mumkin. Agar oddiy tormozlash tizimi signalizatori yonmayotgan bo'lsa, avtomobilning tormozlari, ammo antibloklash tizimisiz ishlamoqda. Agar shu bilan birga oddiy tormozlash tizimi signalizatori yonib turgan bo'lsa, bu avtomobilda antibloklash tizimi mavjud emasligiga va oddiy tormozlash tizimida nosozlik mavjudligini bildiradi.

Tormoz tizimining nazorat lampasi ↻ 4-14 ni ko'ring.

### Nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikator



Agar nishablik ostiga harakatlanish nazorati tizimi jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, tizim ishga tayyor bo'lganida, indikator doimo yonib turadi. Agar signalizator miltilayotgan bo'lsa, tizim faol. Motor moyining xizmat muddati nishablik ostiga harakatlanish (HDC) ⇨ 8-27 ni ko'ring.

### Yo'l belgilanishiga nisbatan avtomobil holatini nazorat qilish tizimining nurli indikator (LKA) (agar mavjud bo'lsa)



O't oldirish yoqilganidan keyin ushbu indikator o'chadi va agar faol rul boshqaruvi bilan egallab turilgan qatordan chiqish haqida ogohlantirish tizimi o'chirilgan yoki erishimli bo'lmasa, yorishmaydi.

Agar faol rul boshqaruvi bilan egallab turilgan qatordan chiqish haqida ogohlantirish tizimi (LKA) yoqilgan bo'lsa (muvofiq jamlanmada), ammo ishga tayyor bo'lmasa, oq rangdagi indikator yorishadi.

Agar faol rul boshqaruvi bilan egallab turilgan qatordan chiqish haqida ogohlantirish tizimi yoqilgan va ishga tayyor bo'lsa, indikator yashil nur bilan yoritiladi.

Belgi chizig'iga avtomobilning yaqinlashib kelish holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, rul chambaragiga ravon ta'sir qiladi. Avtomobil boshqaruviga tizimning faol aralashuvi vaqtida uning indikator sariq nur bilan yoritiladi.

Indikator yo'l belgisini kesib o'tish va egallab turilgan qatordan chiqib ketilganligi haqida ogohlantirib sariq nur bilan miltilaydi.

Agar burilish ko'rsatkichlari avtomobil siljigan xuddi shunday yo'nalishda yoqilgan bo'lsa, yoki agar tizim tezlashishni, tormozlanishni yoki faol manevr qilishni aniqlasa, tizim qo'shimcha rulni boshqarmaydi yoki qatordan chiqib ketish haqida ogohlantirmaydi.

Yo'l belgilanishiga nisbatan avtomobil holatini nazorat qilish tizimi (LKA) ⇨ 8-49 da ko'ring.

### Oldinda ketayotgan avtomobil haqida signalizator



Indikator (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) oldinda boshqa transport vositasini aniqlaganida yashil nur bilan yorishadi. Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-41 da ko'ring.

### Oldinda ketayotgan piyoda haqida signalizator



Agar avtomobil ushbu tizim bilan jihozlangan bo'lsa, yo'nalish bo'yicha piyodani aniqlashda sariq signalizator yorishadi. Piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) ⇨ 8-45 da ko'ring.

**Tortish kuchi nazorat tizimi signalizatori**

Bu lampa dvigatel ishga tushirilganida oz vaqtga yoqiladi. Agar u yonmasa, avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun dilerga etkazing. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u holda signalizator o'chadi. Agar haydovchi axborot markazida TCS tizimi o'chirilgan bo'lsa, Tortish kuchi nazorat tizimini (TCS) o'chirish indikatorini yorishib turadi. Bu indikator va StabiliTrak/ ESC OFF indikatorini StabiliTrak/dinamik stabilashtirish elektron tizimi (ESC) o'chirilishida yoqiladi. TCS o'chirilgan vaqtda, avtomobil transmissiyasini shikastlanishidan saqlanish uchun g'ildiraklarning aylanish tezligi cheklanadi. Muvofiq haydash uslubini tanlash zarur. Tortish kuchi nazorati tizimi/Dinamik stabilashtirish elektron tizimi ⇨ 8-26 ni ko'ring.

**O'chirilgan tizim indikatorini StabiliTrak**

Ushbu signalizatorning lampasi avtomobil ishga tushirilganida qisqa vaqtga yonadi. Agar u yonmasa, avtomobilni dilerga xizmat ko'rsatish uchun etkazing.

Ushbu indikator StabiliTrak tizimini/dinamik stabilashtirish elektron tizimini (ESC) o'chirishda yoqiladi. Agar StabiliTrak tizimi/dinamik stabilashtirish elektron tizimi (ESC) o'chirilgan bo'lsa, tortish kuchini nazorat tizimi (TCS) ham o'chadi.

Agar StabiliTrak/ESC va TCS tizimlari o'chirilgan bo'lsa, ular avtomobilning boshqaruviga aralashmaydi. StabiliTrak/dinamik stabilashtirish elektron tizimi (ESC) va StabiliTrak tizimini yoqing. Indikator o'chadi. Tortish kuchi nazorati tizimi/Dinamik stabilashtirish elektron tizimi ⇨ 8-26 ni ko'ring.

**Tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) nazorat lampasi/StabiliTrak**

Avtomobil ishga tushirilganida bu indikator qisqa vaqt yonadi va indikator ishlashga tayyorligini bildiradi.

Agar indikator yonmasa, tizimning mumkin bo'lgan nosozliklari haqida vaqtda ogohlantirish olish uchun uni ta'mirlash kerak.

Agar indikator miltilmasdan, doimo yonib tursa, bu tortish kuchini nazorati tizimi (TCS) va, ehtimol, StabiliTrak tizimi/dinamik stabilashtirish elektron tizimi (ESC) o'chirilganiga ko'rsatadi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida xabar aks ettirilishi mumkin. Qaysi funksiyalar boshqa ishlamayotganligini va avtomobil xizmat ko'rsatilishini talab etmayotganligini aniqlashtirish uchun, DICdagi xabarni tekshiring. Agar indikator miltilayotgan bo'lsa, bu tortish kuchi nazorati tizimining (TCS) va (yoki) StabiliTrak tizimi/dinamik stabilashtirish elektron tizimi (ESC) faol aralashuviga ko'rsatadi. Tortish kuchi nazorati tizimi/Dinamik stabilashtirish elektron tizimi ⇨ 8-26 ni ko'ring.

### Shinalardagi bosim signalizatori



Shinalardagi bosim ustidan nazorat tizimli (TPMS) avtomobillarda ushbu signalizator dvigatelni ishga tushirishda qisqa muddatga yorishadi. U shinalardagi bosim va TPMS haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

#### Agar signalizator doimo yonib tursa

bir yoki bir nechta shinalardagi bosim me'yordan sezilarli pastligini bildiradi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida shu bilan birga shinalardagi bosim haqidagi xabar ham paydo bo'lishi mumkin. Iloji boricha tezroq to'xtang va shinalardagi bosimninishada va yuklama haqidagi ma'lumotli yorliqda ko'rsatilgan qiymatgacha etkazing. Shinalardagi havo bosimi nazorat tizimi ⇨ 9-35 ni ko'ring.

#### Agar signalizator avval miltillab, keyin esa doimo yorishib turgan bo'lsa

Agar signalizator taxminan bir minut miltillab turgan bo'lsa, so'ngra esa doimo yonib tursa, ehtimol, TPMS da muammo sodir bo'lgan. Agar uni bartaraf qilish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, signalizator o't oldirishning har bir tsiklida yorishishni boshlaydi. Shinalarda havo bosimi nazorat tizimi faoliyati ⇨ 9-37 ni ko'ring.

### Motor moyi bosimi signalizatori



Motor moyiga yomon xizmat ko'rsatish avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Motor moyi sathi past bo'lgan avtomobilni ishlatish ham dvigatelning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu bilan bog'liq ta'mirlash ishlari kafolatli holat hisoblanmaydi. Moy sathini iloji boricha tez-tez tekshirib turing. Zarurat bo'lganda qo'shimcha to'ldiring, biroq agar moy yetarlicha bo'lsa, bosim esa oldindagidek past bo'lsa, TXKS ga murojaat qilish kerak. Motor moyini almashtirishda o'rnatilgan davriylikka har doim rioya qilish zarur.



Ushbu indikator dvigatel ishga tushirilishida qisqa muddatga yorishadi. Agar u yonmayotgan bo'lsa, u holda avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun dilerga etkazing. Agar signalizator yonsa va yonishda davom etsa, bu moy dvigatel orqali o'rnatilgan tarzda oqib o'tmayotganligini anglatadi. Avtomobilda moy yetarlicha bo'lmasligi va tizimda boshqa muammolar hosil bo'lgan bo'lishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

### Yonilg'ini past sathi signalizatori



Ushbu indikator yonilg'i sathining ko'rsatkichi bilan yonma-yon joylashtirilgan. U o't oldirish yoqilishda qisqa vaqtga yorishadi va so'ngra o'chadi. Shunday qilib uning sozligi tekshiriladi. Yonilg'i bakida yonilg'i kam bo'lganida signalizator yorishadi.

Yonilg'i quyilganidan so'ng signalizator o'chadi. Agar o'chmasa, u holda texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish zarur.

### Qo'riqlash signalizatsiyasi indikator



Olib qochishga qarshi nazorat lampasi dvigatel ishga tushirilganida qisqa vaqtga yorishadi. Agar u yonmasa, u holda avtomobilni dilerga xizmat ko'rsatish uchun etkazing. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, signalizator o'chadi.

Agar signalizator yonishda davom etayotgan bo'lsa va dvigatel ishga tushirilmasa, u holda olib qochishdan himoya tizimi nosoz bo'lishi mumkin. Immobilayzerning ishi ⇨ 1-15 ni ko'ring.

### Yoqilgan uzoqni yoritish signalizatori



Ushbu signalizator chiroqlarning uzoqni yoritilishi yoqilganida yorishadi. Uzoq/yaqin chiroqlarni o'zgartirgichi ⇨ 5-3 ni ko'ring.

### Orqa tumanga qarshi chiroqlar



Orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqilganida indikator yorishadi.

Tumanga qarshi chiroqlar ⇨ 5-5 ni ko'ring.

### Yoqilgan yoritish uskunolari haqida eslatma



Yoqilgan yoritish uskunolari haqida eslatish signalizatorli avtomobillarda u yoritish uskunolari qo'llanilganida yoqiladi.

### Kruiz-nazorat signalizatori



Kruiz-nazorat bilan jihozlangan avtomobillarda, kruiz-nazorat signalizatori kruiz-nazorat sozlangan va ishga tayyor bo'lganida, oq rangdagi nur bilan yonadi, va kruiz-nazorat sozlangan va faol bo'lganida, yashil nur bilan yonadi. Kruiz-nazorat tizimi o'chirilganda signalizator o'chadi. Kruiz-nazorat ⇨ 8-28 ni ko'ring.

### Adaptiv kruiz-nazorat tizimi indikator (agar mavjud bo'lsa)



Agar adaptiv kruiz-nazorat tizimi (barcha jamlanmalarda ham erishimli emas) yoqilgan va ishga tayyor bo'lsa, indikator oq nur bilan, agar tizim sozlangan va ishlayotgan bo'lsa, yashil nur bilan yorishadi.

## AXBOROT DISPLEYLARI

### Haydovchining axborot markazini (DIC)

Axborot ilovasining displeyida uskunalar majmuasining markazi bo'ylab joylashtirilgan haydovchining axborot markazidagi xabarlar aks ettiriladi. Uskunalar majmualari ↻ 4-8 ni ko'ring. Ushbu displeyda avtomobilning turli tizimlarining holati aks ettiriladi.



△ yoki ▽ : Menyü elementlari bo'ylab tepaga yoki pastga o'tish uchun ushbu tugmani bosing.  
 ◀ yoki ▶ : Uskunalar majmuasi interfaol displeyi zonalarlari orasida o'tish uchun bosing.  
 ✓ Menyuni ochish yoki menyü bandini tanlash uchun, ushbu tugmani bosing. Ba'zi oynalarda tugmani ushlab turilishi parametrlarning qiymatini bekor qilish imkonini beradi.

### Axborot sahifalari sozlamalari

Haydovchining axborot markazi displeyida alohida axborot sahifalarini aks ettirishini yoqilishini Sozlamalar menyusida qilish mumkin.

1. Sozlamalar ilovasi bandlari ro'yxati bo'ylab o'tish uchun ◀ va ▶ . tugmalarni qo'llang.
2. △ va ▽ tugmalari bilan Axborot sahifasining sozlamalarini tanlang va ✓ ni bosing.
3. Erishimli axborot sahifalari ro'yxati bo'ylab o'tish uchun △ va ▽ tugmalarini qo'llang.
4. Kursorni sizni qiziqtiruvchi bandga o'rnatish va uni tanlash yoki tanlovni bekor qilish uchun ni ✓ bosing. Tanlangan bandning qarshisida zog'cha aks ettiriladi.

### Axborot sahifalari

Quyida haydovchining axborot markazi displeyida (DIC) aks ettirilishi mumkin bo'lgan axborot sahifalarining to'liq ro'yxati keltiriladi. Ulardan ba'zilari avtomobilning alohida modifikatsiyalarida erishimli bo'lmasligi mumkin. Ba'zi sahifalar dastlabki bo'yicha aks ettirilmaydi, biroq siz ularni Sozlamalar bo'limida yoqishingiz mumkin. "Axborot sahifalari sozlamalari" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

**Tezlik** : Avtomobilning bir soatdagi kilometr (km/soat) yoki bir soatdagi millarda (mil/soat) tezligi aks ettiriladi. Agar konfiguratsiya bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, ✓ ni bosish bilan menyuni ochish va tezlikni cheklash belgisining aks ettirishini tanlashga imkon beradi. Agar tezlikni

cheklash aniqlanmagan yoki tizim erishimli bo'lmasa, cheklash belgisi o'rniga "- -" aks ettiriladi.

**Bosib o'tish masofasi 1 yoki Bosib o'tish masofasi 2**: Bosib o'tilgan masofani kilometr (km) yoki millarda (mil) joriy bosib o'tilgan hisoblagichning ko'rsatkichlari oxirgi bekor qilinish paytidan boshlab. Agar jamlanma bilan ko'zda tutilmagan bo'lsa, oxirgi bekor qilishdan keyin yonilg'ining o'rtacha tejalishi aks ettiriladi. Bu qiymat yonilg'ining taxminan o'rtacha sarfi aks ettiriladi, uni avtomobil vaqt paytida namoyish etadi, u haydashning turli sharoitlarda o'zgarishi mumkin. Yonilg'ini o'rtacha tejamkorligi gallonga millarda, km/lda yoki l/100 km larda aks ettirilishi mumkin. Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, oxirgi bekor qilishdan keyin o'rtacha tezlik aks ettiriladi. Bu avtomobilning taxminiy o'rtacha tezligini qiymatini aks ettiradi va haydashning turli sharoitlarida o'zgarishi mumkin. O'rtacha tezlik mil/soatlarda yoki km/soatlarda aks ettirilishi mumkin.

Barcha qiymatlarni nolga tushirishini tasdiqlash darchasini chiqarish uchun, ushbu darcha faol bo'lib turgan vaqtda, ✓ ni bosing.  
 ◀ va ▶ ugmalari bilan Ha yoki Yo'qni tanlang va ✓ ni bosing.



**Yonilg'i yoki yurish zaxirasi haqida ma'lumot:**

Ushbu sahifada keyingi yonilg'i quyishgacha taxminiy zaxira yurish aks ettiriladi. Yonilg'ining past sathida displeyda «LOW» (past) yozuvi aks ettiriladi. Mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan taxminiy masofasioxirgi davr uchun yonilg'ining o'rtacha sarflanishi va yonilg'i bakida qolganyonilg'i hajmi bo'yicha hisoblanadi. Agar ko'zda tutilgan bo'lsa, shu bilan birga yonilg'ining joriy tejamlorligi aks ettiriladi.

**Moy resurslari:** Moyni almashtirishning hisoblanadigan vaqti aks ettiriladi. Agar displeyda OIL LIFE 99% xabari aks ettirilsa, bu motor moyining resursi 99%ni tashkil qilishini anglatadi. Moyning xizmat muddati yakuniga kelayotgan vaqtda, displeyda "Change Engine Oil Soon" ("Yaqinda motor moyining almashtirilishi talab etiladi") xabari paydo bo'ladi. Iloji boricha tezroq moyni almashtirish kerak. Motor moyi  $\nabla$  9-6 ni ko'ring. Motor moyini xizmat muddati monitoringi tizimidan tashqari, xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha ishlarni o'tkazish tavsiya etiladi. "Texnik xizmat ko'rsatish" bukletini ko'ring.

Moyni har bir almashtirilishidan so'ng displeyda qiymatlarni bekor qilinishini bajarish zarur. Bekor qilish avtomatik amalga oshmayapti. Moy haqiqatdan almashtirilgan paytda emas displeyda moy resursining qiymatini tashlab yuborilmasligini kuzating. Ma'lumotlarni aniq tiklanishi moyni keyingi almashtirilishigacha imkonsiz bo'ladi. Motor moyining xizmat

muddatini hisoblagichini bekor qilish uchun, ushbu darcha aks ettirilib turgan paytda  $\nabla$  ni bosib va tasdiqlash darchasida bekor qilishni tasdiqlang.  $\triangleleft$  va  $\triangleright$  tugmalari bilan Ha yoki Yo'qni tanlang va  $\nabla$  ni bosib. Motor moyining xizmat muddati nazorat tizimi  $\nabla$  9-8 ni ko'ring.

**Shinalardagi bosim:** Ushbu sahifada barcha to'rtta g'ildiraklarning shinalarida taxminiy havo bosimi aks ettiriladi. Shinalardagi havo bosimi displeyda kilopaskallarda (kPa) yoki kvadrat dyuymga funtlarda (funt/kv.dyuym) aks ettiriladi. Agar biron bir g'ildirakning shinasidagi bosim ruxsat etilgandan past bo'lsa, u sariq rangda aks ettiriladi. Shinalarda havo bosimi nazorat tizimi  $\nabla$  9-36 va Shinalarda havo bosimi nazorat tizimi faoliyati  $\nabla$  9-37 ni ko'ring.

**Havo filtri muddati:** Havo filtrining taxminiy ishlash muddatini ko'rsatadi. Agar havo filtri muddati 75% deb ko'rsatilgan bo'lsa, demak filtrning 75% muddati tugamagan.

Havo filtrini almashtirgandan so'ng, uning manbasini indikatorini tiklashingiz kerak. Qayta tiklash uchun hisoblagichni ko'rsatig va  $\nabla$  tugmasini bosib.

**Yonilg'ini tejam tartibi:** Yonilg'ini bir lahzada sarflash haqidagi ma'lumotlar sonli qiymat va shkala ko'rinishida aks ettiriladi. Shkalaning ustida oxirgi o'tilgan tanlangan masofa uchun yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi. Shkala

ostida tanlangan masofa uchun yonilg'ining minimal o'rtacha sarfi aks ettiriladi. Tanlangan masofa «Oxirgi xxx mil/km» yozuvi ko'rinishida darchaning tepa qismida aks ettiriladi.

Masofani tanlash yoki yonilg'ini minimal o'rtacha sarflash haqida ma'lumotlarni bekor qilish uchun  $\nabla$  ni bosib. Zarur masofani  $\triangle$  va  $\nabla$  tugmalar yordamida tanlang va  $\nabla$  ni bosib. "Minimal sarfni qiymatini bekor qilish" komandasina tanlash uchun  $\triangle$  yoki  $\nabla$  ni bosib. Minimal sarfni qiymatini bekor qilish uchun  $\nabla$  ni bosib. Bekor qilingandan so'ng yonilg'ini minimal harajati maydonida toki bosib o'tilgan masofa tanlangan masofadan yuqori bo'lmaguniga qadar "-", "-" kabi aks ettiriladi. Ushbu sahifada aks ettiriluvchi ma'lumot avtomobilni boshqarish uslubi yonilg'ini o'rtacha sarfiga qanday ta'sir qilishi va joriy sarf tanlangan masofada minimaldan qanchalik yuqori ekanligini kuzatish imkonini beradi.

**O'rtacha tezlik:** Avtomobilning o'rtacha harakatlanish tezligi bir soatda kilometrlarda (km/soat) yoki bir soatda millarda (mil/soat) aks ettiriladi. O'rtacha qiymat ko'rsatkichlarni oxirgi bekor qilinishi paytidan turli vaqt oraliqlarida avtomobilning tezliklari haqidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi. O'rtacha tezlik qiymatlarini bekor qilish uchun,  $\nabla$  ni bosib, toki ushbu darcha faol bo'lib turguniga qadar; tasdiqlash darchasi paydo bo'ladi, Ha yoki Yo'qni tanlang va  $\nabla$  ni bosib.

**Taymer:** Ushbu darchani taymer sifatida qo'llash mumkin. Taymerni ishga tushirish uchun, ushbu darcha faol bo'lib turgan vaqtda muvofiq menyuga o'tish uchun ✓ ni bosing.

△ va ▽ tugmalari bilan Taymerni ishga tushirish yoki Bekor qilishni tanlang. ✓ ni bosing. Taymerni o'rnatish uchun, uni displeyga chiqaring va ✓ ni bosing. Displey taymerning oxirgi bekor qilinishi paytidan o'tgan vaqtni ko'rsatib turadi.

**Yo'nalish masofasi/oralig'i sozlamasi:** Agar ko'zda tutilgan bo'lsa, ushbu sahifada oldinda ketayotgan avtomobilgacha vaqt oralig'ining joriy qiymati aks ettiriladi. Agar adaptiv kruiz-nazorat (ACC) yoqilgan bo'lsa, bu erda oraliq masofani sozlash sahifasi aks ettiriladi. Ushbu sahifada oldinda harakatlanib ketayotgan transport vositasigacha o'rnatilgan masofa va harakatlanish yo'nalishi bo'yicha transport vositasining mavjudligi indikatsiyasi aks ettiriladi.

**Haydovchiga yordam:** Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, harakatlanish qatorida ushlab turish tizimi (LKA), harakatlanish qatoridan chiqib ketish haqidagi ogohlantirish tizimi (LDW) va frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ma'lumotlari aks ettiriladi.

**Akkumulyator kuchlanishi:** Akkumulyator batareyasining joriy kuchlanishi aks ettiriladi (ammo hamma modifikatsiyalarda ham emas). Avtomobilning harakatlanishi vaqtida AKB kuchlanishining o'zgarishi me'yordagi holat hisoblanadi. Quvvatlash tizimi lampasi ⇨ 4-12 ni ko'ring.

Agar akkumulyator batareyasini quvvatlash tizimida muammo hosil bo'lsa, haydovchining axborot markazida muvofiq xabar paydo bo'ladi.

**Sovituvchi suyuqlikning harorati:** Sovituvchi suyuqlikning Selsiy (°C) yoki Farengeyt (°F) shkalalari bo'yicha harorat aks ettiriladi.

**Yonilg'ini tejash egri chizig'i:** Oxirgi 50 km (30 mil) uchun yonilg'ining o'rtacha tejalishi diagrammasi aks ettiriladi. Har bir ustuncha taxminan 5 km (3 mil) oraliq masofaga muvofiq keladi. Harakatlanish vaqtida ustunchalar shunday siljiydiki, bunda eng chetki o'ng ustuncha har doim oxirgi oraliqqa muvofiq keladi. Diagrammaning ma'lumotlarini o'chirib yuborish uchun, ushbu diagramma aks ettirilib turilgan vaqtda ✓ ni bosing, va muvofiq menyuga o'ting. Ha yoki Yo'qni tanlang va ✓ ni bosing.

**Moy bosimi:** Moy bosimi displeyda kilopaskallarda (kPa) yoki kvadrat funtlarda (funt/kv.dyum) aks ettiriladi. Moy bosimi uning qayishqoqligi, dvigatel aylanishlari va bort ortidagi havo haroratiga bog'liq holda o'zgarishi

mumkin. Ba'zi modellarda moy nasosi moylash tizimidagi bosimni zarurat bo'yicha sozlaydi. Bosim dvigatel aylanishlari yoki yuklamalarga bog'liq holda tez o'zgarishi mumkin. Bunday harakat me'yordagi holat hisoblanadi. Agar moy bosimi signalizatori yoki moy bosimi me'yordagi ishchi oraliqning chegarasidan tashqarida ekanligiga displeydagi xabar ko'rsatayotgan bo'lsa, moyni iloji boricha tezroq tekshirish zarur.

## AVTOMOBILNING AXBOROT XABARLARI

DICda aks ettiriluvchi xabarlar avtomobilning holatiga yoki holatlarni to'g'irlash uchun zarur bo'lgan biron bir harakatlarga ko'rsatadi. Bir nechta xabarlar navbatma-navbat aks ettirilishi mumkin.

Agar xabar haydovchi tomonidan biron bir harakatlarni darhol amalga oshirilishi talab etmasa, uni ✓ tugmani bosib tasdiqlash va ekrandan olib tashlash mumkin. Zudlik bilan harakatlarni talab etuvchi xabarlar, o'chirib yuborilmaydi, toki bu harakat bajarilmaguniga qadar. Har bir xabarlariga jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Xabarni o'chirib yuborish muammoni bartaraf qilmasligini unutmang. "SERVICE" (xizmat ko'rsatish talab etiladi) xabari paydo bo'lganida dilerga murojaat qilish kerak.

Xabarlardagi yo'riqnomalarga rioya qilamiz. Yoritiluvchi xabarlar quyidagi sohalardan biriga taalluqli bo'lishi mumkin:

- Avtomobilga xizmat ko'rsatish zarurati haqidagi xabarlar
- Suyuqlik sathi
- Avtomobilni himoyalash
- Tormoz mexanizmlari
- Rul boshqaruvi
- Yurishning ravonligini sozlash tizimi xabarlari
- Haydovchiga yordam tizimlari
- Kruiz-nazorat
- Yoritilganlik va lampalarni almashtirish
- Oynalarni tozalash/yuvish tizimlari
- Eshiklar va oynalar
- Xavfsizlik kamarlari

- Xavfsizlik yostiqlari tizimi
- Dvigatel va yuritmalari qutisi
- Shinalardagi bosim
- Akkumulyator batareyasi

## SHAXSIY SOZLAMALARNI SAQLASH

Avtomobil egasi o'zining istaklariga muvofiq qaysi parametrlarni sozlashi mumkinligi quyida tavsiflangan. Ba'zi modifikatsiyalarda alohida parametrlar erishimli bo'lmasligi mumkin.

"Tizim", "Ilovalar" va "Shaxsiy sozlamalar" bo'limlari haqidagi ma'lumotlarni axborot-ko'ngilochar tizimning foydalanuvchi qo'llanmasidagi "Parametrlar" bo'limida ko'ring. Shaxsiy sozlamalarni saqlash menyusini ochish uchun:

1. Axborot-ko'ngilochar tizimi menyusining bosh sahifasida Sozlamalar belgisini bosing.
2. Erishimli parametrlarni ro'yxatini ochish uchun, Avtomobilga bosing.
3. Zaruriy elementning ustiga bosib, uni tanlang.
4. Sozlamalar menyusining tepa darajasiga o'tish uchun < ni bosing.

Menyu quyidagi elementlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

### **Air Conditioner and Air Quality (Havoni konditsionirlash va havo sifati tizimi)**

Ushbu komanda tanlanganda displeyda quyidagi parametrlar aks ettirilishi mumkin:

- Remote Start Heated Seat Remote Start Heated Seat (Dvigatelni masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarni isitilishini avtomatik yoqilishi)

- Remote Start Cooled Seat (Dvigatelni masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarni sovutilishini avtomatik yoqilishi)
- Automatic Defog (Oynalarning avtomatik isitilishi)
- Ionizer Control (Ionizatorni boshqarish)
- Ventilator tezligini avtosozlash
- Rear Defog Auto Startup (Orqa oynani isitilishini avtomatik yoqilishi)

**Remote Start Heated Seat (Dvigatelni masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarni isitilishini avtomatik yoqilishi)**

Ushbu parametr masofadan ishga tushirish funksiyasini qo'llashda sovuq ob-havoda o'rindiqlarni isitilishini avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi.

**Remote Start Cooled Seat (Dvigatelni masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarni sovutilishini avtomatik yoqilishi)**

Ushbu parametr masofadan ishga tushirish funksiyasini qo'llashda issiq ob-havoda o'rindiqlarni sovutilishini avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi.

**Automatic Defog (Oynalarning avtomatik isitilishi)**

Ushbu parametr avtomobil salonida yuqori namlikdagi havoda oldingi oynani isitilishini avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi.

**Ionizer Control (Ionizatorni boshqarish)**

Ionizer Control (Ionizatorni boshqarish) Ushbu parametr avtomobil salonida noxush hidlarni olib tashlash yoki undagi havoni tozalash uchun havo konditsionirlanishi tizimini ionizatorini yoqish imkonini beradi.

**Ventilator tezligini avtosozlash**

Ushbu sozlama iqlim-nazorat ventilatori uchun Avto sozlamasi tanlangan vaqtda havo oqimini kattaligini o'rnatadi.

**Rear Defog Auto Startup (Orqa oynani isitilishini avtomatik yoqilishi)**

Ushbu parametr dvigatel ishga tushirilganida oynani isitilishini avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi.

**Comfortness and Convenience (Qulaylik va o'ngaylik)**

Ushbu komandani tanlashda displeyda quyidagi parametrlar aks ettirilishi mumkin:

- Auto Rear Wipe (Orqa oyna tozalagichni avtomatik yoqilishi)

- Rain Sense (Yomg'ir datchigi)
- Rear Seat Child Reminder (Orqa o'rindiqa bola haqida eslatma)

**Auto Rear Wipe (Orqa oyna tozalagichni avtomatik yoqilishi)**

Ushbu parametr orqaga yurish yuritmasi yoqilganida orqa oyna tozalagichning avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi, agar bunda oldingi oyna tozalagichlar yoqilgan bo'lsa.

**Rain Sense (Yomg'ir datchigi)**

Ushbu parametr yomg'ir vaqtda oldingi oyna tozalagichni avtomatik yoqilishini sozlash imkonini beradi.

**Rear Seat Child Reminder (Orqa o'rindiqa bola haqida eslatma)**

Ushbu parametr avtomobildan chiqishda orqa o'rindiqa bolaning yoki yukning unutilib qoldirilganligi haqida eslatmani sozlash imkonini beradi. Eslatma faqat orqa eshikni ochishdan keyin ishlaydi.

**Light and Lock (Yoritilganlik va blokirovka)**

Ushbu komandani tanlashda displeyda quyidagi parametrlar aks ettirilishi mumkin:

- Last Door Closed Locking (Oxirgi eshikni yopishdan keyin qullarning blokirovkasi)

- Prevent Opening Door Anti-Lock (Ochilgan eshik qulfini bloklanishidan himoya)
- Avtomobilni izlash uchun nurli signal
- Auto Unlock (Qulflarni avtoblokdan chiqarish)
- Avtomobilidan chiqishdan keyingi yoritish

#### **Last Door Closed Locking (Oxirgi eshikni yopishdan keyin qulflarning blokirovkasi)**

Ushbu parametr oxirgi eshikni yopgandan keyin barcha eshiklar qulflarini avtomatik bloklanishini sozlash imkonini beradi. Ushbu parametr, agar "Ochilgan eshik qulfini bloklanishidan himoya" parametri o'chirib qo'yilganida, aks ettirilishi mumkin.

#### **Prevent Opening Door Anti-Lock (Ochilgan eshik qulfini bloklanishidan himoya)**

Agar ushbu funksiya yoqilgan bo'lsa, eshik ochiq bo'lganida, haydovchi eshigining qulfi avtomatik blokirovka qilinmaydi.

#### **Avtomobilni izlash uchun nurli signal**

Ushbu darchada faralarning miltillashi bilan radiobrelokda qulflarni blokdan chiqarish tugmasini bosish bilan tasdiqlashni yoqish yoki o'chirish mumkin.

#### **Auto Unlock (Qulflarni avtoblokdan chiqarish)**

Ushbu darchada "P" holatga selektor dastagini o'zgartirganda qaysi eshiklarning qulflari avtomatik blokirovkadan chiqarilishini tanlash mumkin.

**Avtomobilidan chiqishdan keyingi yoritish**  
Ushbu darchada avtomobilni o't oldirilishi o'chirilgan va undan chiqib ketishdan keyin faralar yorug'ligining o'chishini kechiktirish davomiyligini o'rnatish mumkin.

#### **Remote Control Key (Masofadan boshqarish radiobrelogi)**

Ushbu komandani tanlashda displeyda quyidagi parametrlar aks ettirilishi mumkin:

- Remote In Vehicle Reminder (Salonda qoldirilgan radiobrelok haqida eslatma)
- Oynalarni masofadan turib boshqarish
- Remote Unlock Lighting Feedback (Yorug'lik uskunalarini yoqish bilan qulflarni masofadan turib blokdan chiqarishni tasdiqlash)
- Walk Away Locking (Chiqishda qulflarni antibloklash)
- Passive Unlocking (Qulflarni passiv blokdan chiqarish)
- Selective Unlocking (Qulflarni tanlab blokdan chiqarish)
- Remote Locking Feedback (Masofadan bloklashni tasdiqlash)

#### **Remote In Vehicle Reminder (Salonda qoldirilgan radiobrelok haqida eslatma)**

Ushbu parametr salonda unutib qoldirilgan kabit haqida eslatmani sozlash imkonini beradi.

**Oynalarni masofadan turib boshqarish**  
Ushbu darchada radiobrelok yordamida oynalarni ochilishini sozlash mumkin.

#### **Remote Unlock Lighting Feedback (Yorug'lik uskunalarini yoqish bilan qulflarni masofadan turib blokdan chiqarishni tasdiqlash)**

Ushbu darchada radiobrelok yordamida qulflarni faralar miltillashi bilan blokdan chiqarilishini tasdiqlashni sozlash mumkin.

#### **Walk Away Locking (Chiqishda quflarni antibloklash)**

Ushbu parametr avtomobilni tark etishda eshiklarning qulflarini avtomatik bloklanishini yoqish yoki o'chirish imkonini beradi.

#### **Passive Unlocking (Qulflarni passiv blokdan chiqarish)**

Ushbu darchada eshik tutqichi yordamida barcha eshiklarning yoki faqat haydovchining eshigi qulflari blokdan chiqarilishini sozlash mumkin.

#### **Selective Unlocking (Qulflarni tanlab blokdan chiqarish)**

Ushbu darchada radiobrelok barcha eshiklarning yoki faqat haydovchi eshigini qulflarini blokdan chiqarilishini sozlash mumkin.

#### **Remote Locking Feedback (Masofadan bloklashni tasdiqlash)**

Ushbu parametr radiobrelok yordamida qulflarni bloklanishini tasdig'i uzatilishini sozlash imkonini beradi

#### **Xavf-xatar haqida ogohlantirish tizimi**

Ushbu komandani tanlashda displeyda quyidagi parametrlar aks ettirilishi mumkin:

- Harakatlanishni boshlash signali
- Orqada ko'ndalang harakatlanish haqida ogohlantirish
- Harakatlanish qatorini o'zgartirish haqida ogohlantirish
- Frontal to'qnashuvni oldini olish
- Front PCM Response Type (PCM reaksiyasi)

#### **Harakatlanishni boshlash signali**

Ushbu parametr, agar oldinda turgan transport vositasi joyidan qo'zg'alsa, harakatlanishni tiklash zarurati haqida eslatmani sozlash imkonini beradi.

Agar "O'chirish" tanlansa, avtomobil harakatlanishni avtomatik tiklaydi.

#### **Orqada ko'ndalang harakatlanish haqida ogohlantirish**

Ushbu parametr orqaga yurish harakatini boshlashda sizning avtomobilingiz orqasida kesishuvchan yo'nalish bo'ylab harakatlanayotgan transport vositalari haqida ogohlantirishni sozlash imkonini beradi.

#### **Harakatlanish qatorini o'zgartirish haqida ogohlantirish**

Ushbu parametr boshqa yo'l qatoriga o'tishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi yoqish yoki o'chirish imkonini beradi.

#### **Frontal to'qnashuvni oldini olish**

Ushbu parametr frontal to'qnashuvlar tizimini sozlash uchun qo'llaniladi.

#### **Front PCM Response Type (PCM reaksiyasi)**

Ushbu parametr oldingi PCM reaksiyasini sozlash imkonini beradi.

#### **Restore Factory Settings (Zavod sozlamalarini tiklash)**

Ushbu parametr zavod sozlamalarini tiklash imkonini beradi.

# 5

## YORITISH

- 
- TASHQI YORITISH ..... 5-2
  - SALONNI YORITISH ..... 5-6
  - YORITISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI .....5-7

## TASHQI YORITISH

### Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari



Tashqi yoritishni o'chirgichi rul kolonkasidan chapda asbob-uskunalar panelida joylashgan. U to'rtta holatga ega.

☰: Tashqi yoritish uskunalarini o'chiradi va AUTO tartibni faolsizlantiradi. AUTO tartibni qayta yoqish uchun o'zgartirgichning tutqichini ☰ holatga yana bir marta burang.

**AUTO**: Avtomatik yoqish tashqi yoritilganlikni tashqi tabiiy yoritilganlikka bog'liq holda o'chirish.

☰☰: Barcha to'xtab turish chiroqlarini, jumladan barcha lampalarni, chiroqlardan tashqari, yoqadi.

☰☑: To'xtab turish chiroqlari va asbob-uskunalar panelini yoritgichi bilan birga chiroqlarni yoqadi.

### IntelliBeam tizimi


Agar avtomobil ushbu tizim bilan jihozlangan bo'lsa, uning yordamida yo'lning holatiga bog'liq holda uzoqni yoritishning bosh faralari yoqiladi o'chiriladi.

Qorong'u bo'lganida, yo'l esa bo'sh bo'lganida tizim tomonidan uzoqni yoritish bosh faralari yoqiladi.



IntelliBeam tizimi ishlayotgan vaqtda, asbob-uskunalar panelida indikator yorishib turadi.

### IntelliBeam tizimini faollashtirish va yoqish



Sutkani qorong'u vaqtda IntelliBeam tizimini yoqish uchun, burilishlar ko'rsatkichida rulosti o'zgartirgichni bosib, bunda tashqi yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO ☰☑ yoki ☰☑ tartibga o'tkazilgan bo'lishi kerak.

### IntelliBeam tizimi bilan safar qilish

Tizim tomonidan uzoqni yoritish chirog'i faqat 40 km/soatdan (soatiga 25 mil) yuqori tezlikdagina yoqiladi.





Uzoqni yoritish faralari yoqilgan vaqtda, asbob-uskunalar panelida uzoqni yoritish moviy indikator yorishib turadi.

Tizim old oynaning o'rtasidagi tepa zihida joylashgan datchik bilan avtomatik nazorat qilinadi. Tizimni ish qobiliyatini ta'minlash uchun old oynaning ushbu qismida iflosliklar bo'lmasligini kuzatib boring.

Uzoqni yoritish bosh faralari quyidagi holatlar biron biri sodir bo'lmagunicha avtomatik boshqaruvi tartibida yoniqligicha qoladi:

- Qaramu-qarshi tomonidan yaqinlashib kelayotgan avtomobilning bosh faralarini yorug'ligini aniqlamoqda.
- Tizim oldinda ketayotgan avtomobilning orqa chiroqlarini yorug'ligini aniqlamoqda.
- Tashqaridagi yorug'lik shunchalik yorishib ketmoqdaki, uzoqni yoritish boshqa kerak emas.
- Avtomobil tezligi 20 km/soatdan (soatiga 12 mil) pastga tushib ketmoqda.



- IntelliBeam tizimi burilish ko'rsatkichlarini o'zgartirish dastagidagi tugma yordamida faolsizlantiriladi. Ushbu holatda, IntelliBeam tizimini yana yoqish uchun, burilish ko'rsatkichini rulosti o'zgartirgichida  ga bosing, bunda tashqi yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO yoki  tartibga o'tkazilgan bo'lishi kerak. IntelliBeam tizimini takroran yoqish haqida asbob-uskunalar panelidagi nurli indikator xabardor qiladi. Yaqin/uzoqni yoritishni o'zgartirish  5-3 va Faralarning uzoqni yoritishning qisqa muddatli signallarini uzatish  5-3 da ko'ring. Uzoqni yoritishni avtomatik o'chirilishi, agar tizim quyidagi biron bir sabablardan biri bo'yicha boshqa avtomobilning yoritishini aniqlay olmaganida, ishlamasligi mumkin:
- Boshqa avtomobilda yoritish uskunalarini mavjud emas yoki shikastlangan, ularning yoritishi to'siq sababli ko'rinmas yoki boshqa sabablar bo'yicha aniqlanmagan.
- Boshqa avtomobilning yoritish uskunalarini loy, qor va (yoki) yo'l sachratmalari bilan qoplangan.
- Boshqa avtomobilning yoritish uskunalarini quyuq dud, tutun, tuman, qor, yo'l sachratmalari, mayda yomg'ir yoki havoda purkalgan har qanday moddalar sababli aniqlanmayapti.
- Avtomobilning old oynasi ifosliklar yoki darzlar bilan qoplangan, yokida yorug'lik datchigi begona buyum bilan to'qib qo'yilgan.

- Avtomobil shunchalik yuklanganki, uning oldi yorug'lik datchigi bilan birgalikda tepaga qaratilgan, shuning uchun ham bosh faralar yoki orqa chiroqlarning yorug'ligini aniqlashtirish imkoniyoti yo'q.
- Avtomobil ilonizi yoki past-baland yo'ldan harakatlanmoqda.

Sanab o'tilgan holatlardan istalganida IntelliBeam tizimini o'chirib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Uzoq/yaqin chiroqlarni o'zgartirish**

Uzoq chiroqlarni yoqish uchun, o'zingizdan burilish ko'rsatkichi dastagini bosing va qo'yib yuboring. Yaqin chiroqni qayta yoqish uchun, ushbu dastakka qayta bosing yoki o'zingizga uni torting va qo'yib yuboring.



Uzoqni yoritish chiroqlarini yoqishda asbob-uskunalar shitogida muvofiq nurli indikator yoqiladi.

#### **Uzoqni yoritish chirog'i bilan qisqa muddatli signallarni berish**


Uzoqni yoritish chirog'i bilan qisqa muddatli signallarni berish funksiyasi yaqinni yoritish chiroqlari yoqilganda qanday bo'lsa, ularni o'chirilgan holatida yoki sutkaning yorug' vaqtida safar qilishda yoqiladigan chiroqlarda shunday ishlaydi. Uzoqni yoritish bilan yondirib o'chirish uchun, burilish ko'rsatkichi dastagini o'zingizga torting va darhol qo'yib yuboring.

#### **Kunduzgi yoritish chiroqlari lampalari**

Kunduzgi vaqtda kunduzgi yoritish chiroqlari boshqa avtomobillarning haydovchilariga sizning avtomobilingizni oldidan osongina sezishga imkon beradi. Kunduzi yurish chiroqlar quyidagi shartlarga rioya qilishda sutkaning yorug' vaqtida yoqiladi:

- O't oldirish yoqilgan.
- Tashqi yoritishni o'zgartirish AUTO tartibida ishlaydi.
- Avtomobil to'xtab turishga joylashtirilmagan.
- Tashqi yoritish datchigi signali ko'chada kunduzgi vaqtga ko'rsatadi.


Agar kunduzgi yoritish chiroqlari yoqilgan bo'lsa, u holda orqa chiroqlar, yon tomon gabarit chiroqlar, asbob-uskunalar panelining yoritilishi va boshqa chiroqlar o'chiriladi. Asbob-uskunalar majmuasining yoritilishi saqlanib qoladi.

Kunduzgi yoritish chiroqlari bosh chiroqlar tartibga o'tkazilganda  yoki o't oldirish o'chirilganida o'chadi.

Zarurat bo'lganida chiroqlarning standart tizimini yoqish kerak

#### **Chiroqlarni boshqarish avtomatik tizimi**


Agar tashqi yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO holatiga o'rnatilgan (avtomatik tartib) va bort orida yetarlicha qorong'u bo'lsa, avtomatik tarzda yaqinni yoritish chiroqlari yoqiladi.



Asbob-uskunalar panelining tepa qismida yoritilganlik datchigi o'rnatilgan. Datchikni to'sib qo'ymang, aks holda chiroqlar hattoki kerak bo'lmagan holatlarda ham yoqiladi.



Tizim shu bilan birga yopiq to'xtab turish joyi bo'ylab yoki tunnelda harakatlanish vaqtida yoqilishi mumkin.

Yetarlicha yoritilganlik sharoitlarida chiroqlar o'chadi yoki kunduzgi yoritish tartibiga o'zgaradi.

Tashqi yoritish uskunalarini avtomatik boshqarish o'zgartrigichni  holatga o'tkazilganida, hamda o't oldirish yoqilganida o'chadi.

### Oyna tozalagichlar bilan yoritishning yoqilishi

Agar tashqi yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO holatga o'rnatilgan sharoitda o't oldirilgan dvigatel bilan kunduzgi yoritishda old oyna tozalagichlari yoqilgan bo'lsa, u holda chiroqlar, to'xtab turish chiroqlari va boshqa tashqi yoritish yoqiladi. Yoritishning yoqilish vaqti oyna tozalagichning ish tezligiga bog'liq bo'ladi. Oyna tozalagichlar ishlamayotgan vaqtda, yoritish o'chadi.

Ushbu funksiyani o'chirish uchun tashqi yoritish o'zgartirgichini  yoki  holatga o'tkazing.


### Chiroqlarning tutatgichi



### Chiroqlar yoritishini qo'lda to'g'irlash

Agar avtomobil chiroqlarni yoritishini qo'lda to'g'irlash funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa, sozlash g'ildirakchasi tashqi yoritishni o'zgartirgichining yonida joylashgan. Tutatgich avtomobilning yuklanganligiga bog'liq holda yorug'lik tutamining qiyalik burchagini sozlashga imkon beradi.

Bosh chiroqlarning yoritishini to'g'irlashda yaqinni yoritish chiroqlarini yoqish zarur.


 : Chiroqlarni tutqichni burash bilan sozlang. Bosh chiroqlarning yoritishi to'g'ri sozlanishi boshqa haydovchilarning ko'zini qamashtirishdan saqlanishga imkon beradi.

- Oldingi o'rindiqlar band = 0.
- Barcha o'rindiqlar band = 1.
- Barcha o'rindiqlar band va yukxona bo'linmasi yuklangan = 2.
- Haydovchi o'rindig'i band va yukxona bo'linmasi yuklangan = 3.

**Avariya yorug'lik signalizatsiyasi**

⚠ :Oldingi va orqa burilish ko'rsatkichlari yoqilishi va o'chirilishi uchun unga bosning. Ushbu signal sizda muammo paydo bo'lganligi haqida harakatning boshqa ishtirokchilarini ogohlantiradi.

⚠ Yorug'lik signalizatsiyasini o'chirish uchun qayta bosning.

**Burilish va harakat qatorini almashtirish signallari**

Burilish signalini yoqish uchun dastakni to'liq pastga yoki tepaga suring.

Uskunalar majmuasida burilish yo'nalishini yoki harakatlanish qatorining o'zgartirishiga ko'rsatuvchi strelka miltillaydi. Qatorni o'zgarishiga ko'rsatuvchi strelka miltillashni boshlaguniga qadar, dastakni ko'taring yoki tushiring. Toki qatorni almashtirish yakunlanishiga qadar, uni ushbu holatda tutib turing. Agar dastakni qisqa vaqtga qatorni o'zgartirish holatiga o'tkazilsa, strelka uch marta miltillab qo'yadi.

Dastak qo'yib yuborilganida u dastlabki holatga qaytadi.

Agar burilish signali yoki qatordan chiqishdan so'ng strelkasi tez-tez miltillayotgan yoki yoqilmayotgan bo'lsa, bu lampa kuyib qolganiga ko'rsatishi mumkin. Kuygan

lampalarni yangisiga almashtirish zarur. Agar lampa kuymagan bo'lsa, saqlagichni tekshiring. Asbob-uskunalar panelidagi saqlagichlar bloki ↻ 9-29 ni ko'ring.

**Tumanga qarshi chiroqlar****Orqa tumanga qarshi chiroqlar**

↻ : Yoqish yoki o'chirish uchun bosning.

Uskunalar majmuasida tumanga qarshi chiroqlar yoqilganligiga ko'rsatib, indikator lampa yorishadi. Ba'zi hududlarda tumanga qarshi chiroqlar bilan birga oddiy chiroqlarni ham yoqish talab etiladi.


## SALONNI YORITISH

### Asbob-uskunalar panelini yoritilishini boshqarish



Uskunalar majmuasidagi displey ekrani, axborot-ko'ngilochar tizimi va uni boshqarish organlari displeyini, rul chamberagidagi boshqaruv organlari va yoritgichlar bilan jihozlangan qolgan uskunalarni, hamda turli funksiyalarning holati indikatorlarini yorug'ligini sozlash mumkin. Yorug'likni sozlash uchun rul kolonkasi yonida asbob-uskunalar panelida joylashtirilgan tutqich ko'zda tutilgan. Lampalarni yorishtirish yoki qorong'ulashtirish uchun tutqichni soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarshi burang.

#### O'tirishda va tushirishda yoritilganlik



O'tirishda va tushirishda yoritilganlik har qanday eshik ochilganida va  OFF indikator o'chiqligida yoqiladi. Shift chiroqlarini ko'ring ⇨ 5-6 ni ko'ring.

### Shift plafonlari



Shift plafonlarini boshqarish tugmalari tepa konsolda joylashtirilgan.

Boshqarish uchun quyidagi tugmalarni qo'llang:

 OFF: Eshiklardan biron biri ochilganida shift plafonlari o'chadi. Shift plafonlari bloklangan vaqtda, tugmaga o'rnatilgan indikator yorishib turadi. Bloklash  OFF ga bosish bilan o'chiriladi. Bunda yoritish indikator o'chadi. Eshiklarning biron biri ochilgan vaqtda, shift plafonlari yoqiladi.

 ON/OFF: Shift plafonlarini qo'lda yoqish.

### O'qish uchun lampalar


O'qish uchun plafonlar tepa konsolda va orqa yo'lovchilar uchun eshik tepasida joylashgan. Ular biron bir eshik ochilganida yoqiladi.



#### O'chish uchun oldingi plafonlar

O'qish uchun oldingi plafonlarni boshqarish tugmalari tepa konsolda joylashtirilgan. O'qish uchun oldingi plafonlarni yoqish yoki o'chirish uchun, ularga bosing.


## YORITISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI




### O'qish uchun orqa plafonlar

Orqa yo'lovchilar o'rindig'idagi o'qish uchun plafonlarni yoqish yoki o'chirish uchun, ularga bosing.

### Avtomobilga o'tirishda yoritishni yoqilishi

Tungi vaqtda yoki yoritilganligi pasaygan joylarda masofadan kalitsiz kirish brelokida (RKE)  ni bosishda, qisqa muddatga ba'zi tashqi yoritish uskunolari va salon yoritilishi yoqiladi. Eshik ochilgan vaqtda, salon yoritilganligi yoqiladi. Yoritish plafonlari taxminan 20 soniya davomida yorishib turishni davom ettiradi. Barcha eshiklar yopilganidan yoki o't oldirish kaliti yoqilgan holatga buralgandan keyin, yoritilganlik asta-sekin o'chadi.

Bu funksiyani o'zgartirish mumkin. "Avtomobilni aniqlash chiroqlari"ni Shaxsiy sozlamalarni saqlash  4-23 ni ko'ring.

### Chiqish vaqtda yoritilganlik

Agar tunda yoki yoritilganlik pasaygan vaqtda o't oldirishdan so'ng haydovchining eshigi ochilsa, tashqi va ichki yoritishning alohida uskunolari yoqiladi. Shift plafoni o't oldirish o'chirilganidan so'ng yorishadi. Tashqi yoritilganlik va salonnii yoritish plafonlari bir qancha vaqt davomida yoqilgan holatda qoladi, so'ngra ular avtomatik tarzda o'chadi.

Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish tutqichi «off» (o'chirilgan) holatga o'tkazilganidan so'ng tashqi chiroqlar darhol o'chadi.

Bu funksiyani o'zgartirish mumkin. Shaxsiy sozlamalarni saqlash  4-23 ni ko'ring.

### Akkumulyator yuklamasini boshqarish

Avtomobil elektr oziqlanishni boshqarish tizimi (EPM) bilan jihozlangan, u haroratni va akkumulyatorning quvvat darajasini baholaydi. So'ngra u eng yaxshi unumdorlikka erishish va akkumulyatorning xizmat muddatini oshirish uchun kuchlanishni sozlaydi.

Akkumulyator quvvatsizlangan vaqtda, akkumulyatorning quvvatini tez tiklash uchun kuchlanishni ozgina oshiradi. Akkumulyator quvvatlangan vaqtda, akkumulyatorning juda ortiqcha quvvatlanishidan saqlanish uchun kuchlanishni pasaytiradi.

Agar haydovchining axborot markazida (DIC) voltmeter yoki kuchlanish ekrani mavjud bo'lsa, siz kuchlanish qanday ko'tarilayotganini yoki tushayotganligini kuzatishingiz mumkin. Bu me'yordagi holat. Muammo paydo bo'lgan holatda ogohlantirish paydo bo'ladi. Juda katta elektr yuklamada akkumulyator yuksiz yurishda quvvatsizlanishi mumkin. Bu barcha avtomobillarga taalluqli. Bu yuksiz yurishda generator (o'zgaruvchan tokning sinxron generatori) past tezlikda aylanishi bilan bog'liq va katta elektr yuklamalarni oziqlantirish uchun yetarli bo'lgan quvvat bilan ta'minlamaydi. Quyidagi uskunalarining ba'zilarining bir vaqtda yoqilishidayuqori elekt yuklama vujudga keladi: chiroqlar, uzoqni yoritish, orqa oyna isitgichi,

iqlim-nazorat ventilyatorining yuqori tezligi, o'rindiqlarni isitish, dvigatelni sovutish ventilyatorlari, tirkamani oziqlantirish qurilmasi, hamda yordamchi ulagichlar orqali ulangan oziqlanish iste'molchilari.

EPM tizimi akkumulyatorning haddan ziyod ortiqcha quvvatlanishini oldini oladi. Bu generatorning chiqarish quvvati va avtomobilning elektr oziqlanishdagi ehtiyojini tenglashtirish yordamida amalga oshadi. Zarurat bo'lganida u qo'shimcha quvvatni generatsiya qilish uchun yuksiz aylanishlarda dvigatelning aylanish chastotasini oshirishi mumkin. U yordamchi uskunalarning elektr oziqlanishini vaqtinchalik o'chirishi mumkin.

Odatda bu harakatlar bosqichma-bosqich va bilintirmasdan amalga oshiriladi. Kam hollarda yuqori darajadagi tuzatish kiritish harakatlarida haydovchi ularni sezishi mumkin. Bu holatda haydovchining axborot markazi displeyida xabar chiqariladi, bunda tizimga elektr yuklamasini maksimal pasaytirish tavsiya etiladi.

### **Akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishidan himoyalash**

Bu funksiya, agar u o't oldirish o'chirilganida 10 minutdan ortiq yoritish turgan bo'lsa, salon yoritilishi o'chiriladi. Bu akkumulyator batareyasining ortiqcha quvvatsizlanishini oldini olishga yordam beradi.

### **Tashqi yoritish uskunalari ishida akkumulyator quvvatini saqlash tizimi**

Agar to'xtab turish chiroqlari yoki chiroqlar qo'lda yonib turishga qoldirilgan bo'lsa, tashqi yoritish uskunalari o't oldirishni o'chirilgan holatga o'tkazilgandan so'ng taxminan 10 minutdan keyin o'chadi. Bu akkumulyator batareyasining to'liq quvvatsizlanishidan himoyani ta'minlaydi. 10-daqiqali taymerni qayta ishga tushirish uchun, tashqi yoritish uskunalari o'chirgichini o'chirilgan holatga va so'ngra to'xtab turish chiroqlari yoki oldingi chiroqlar holatiga burang.

Yoritish uskunalari 10 minutdan ortiq vaqtga yoqilgan holatda qolishi uchun, o't oldirish o'zgartirgichi "yoqilgan" yoki ACC/ACCESORY holatlariga o'rnatilgan bo'lishi kerak.

# 6

## AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIMI

---

- KIRISH ..... 6-2
- RADIOPRIYOMNIK ..... 6-5
- AUDIO-PLEYERLAR.....6-7
- TELEFON .....6-10
- SOZLAMALAR..... 6-14
- IZOHLAR ..... 6-16

## KIRISH

### **Qisqacha ma'lumot**

Axborot-ko'ngilochar tizimning asosiy funksiyalari bilan tanishib chiqish uchun quyidagi sahifalarda keltirilgan ta'rifni o'qib chiqing.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Axborot-ko'ngilochar tizimning biron bir funksiyasiga yo'ldan birozga yoki juda ham tez-tez chalg'ib, siz avariyaning keltirib chiqarishingiz mumkin. Bu ham sizga, ham atrofdagilarga jarohat, hattoki o'lim holatini olib kelishi bilan xavfli. Avtomobilni boshqarish vaqtida axborot-ko'ngilochar tizimga uzoq vaqtga chalg'imang. Displayning ekranlariga juda ham tez-tez chalg'imasdan, avtomobil boshqaruviga e'tiboringizni jamlang. Imkon qadar ovozli buyruqlardan foydalaning.

Foydalanishni boshlashdan oldin:


- Axborot-ko'ngilochar tizimi, uning displeyi va markaziy konsoldagi va rul chambaragidagi boshqaruv organlari ishi bilan tanishib chiqing.
- Oldindan sevimli stansiyalarni o'rnatib, tembrni berib va dinamiklarni sozlab, audiotizimni sozlang.

Ushbu qo'llanmada axborot-ko'ngilochar tizimning barcha opsiyalari va funksiyalari ta'riflab berilgan. Turli mamlakatlarda avtomobillar har xil konfiguratsiyalarda sotiladi, shuning uchun alohida yo'riqnomalar, displayning funksiyalari va menyusi sizning konfiguratsiyangiz uchun dolzarb bo'lmasligi mumkin.



### Axborot-ko'ngilochar tizimi

Axborot-ko'ngilochar tizimni displey, markaziy konsoldagi panel yoki rul chamberagidagi tugmalar bloki yordamida boshqarish mumkin.




1. 🏠 (bosh sahifa)
- Bosh sahifaga o'tish uchun, bosning.
2. ⏮
- Radiopriyomnik: Bosish bilan oldingi stansiyaga o'tish bajariladi.
- USB/Bluetooth. Joriy yoki oldingi kompozitsiyaning boshiga qaytish uchun, bosning (qurilma ushbu funksiyani qo'llab turishi kerak). Kompozitsiyani orqaga tez o'tkazish uchun bosning va ushlab turing.
3. ⏻ (Quvvatlantirish)
- Tizimni yoqish uchun tugmaga bosning.
- Tizimni o'chirish uchun, bosning va ushlab turing.
- Bosish bilan yoqilgan tizimning tovushi o'chiriladi/yoqiladi.
- Burash bilan tovush balandligi pasayadi yoki ko'tariladi.
4. ⏭
- Radiopriyomnik: Bosish bilan oldingi stansiyaga o'tish bajariladi.
- USB/Bluetooth. Keyingi kompozitsiyaga o'tish uchun, bosning (qurilma ushbu funksiyani qo'llab turishi kerak). Musiqiy yo'lakni oldinga tez o'tkazish uchun bosning va ushlab turing.

### 5. < BACK

- Menyuda turganingizda avvalgi ekranga qaytish uchun bosning.


### Rul chamberagi boshqaruv organlari



Audiotizimning ba'zi funksiyalarini boshqarish rul chamberagi bilan amalga oshirilishi mumkin, agar unda muvofiq boshqaruv organlari ko'zda tutilgan bo'lsa.

⏮ (**chaqiruv**) : Kiruvchi qo'ng'iroqqa javob berish uchun, bosning.

🏠 (**chaqiruvni yakunlash/tovushni o'chirish**): Kiruvchi chaqiruvni qabul qilinishini bekor qilish yoki joriy suhbatni yakunlash uchun bosning. Siz telefonda suhbatlashmayotgan vaqtingizda, axborot-ko'ngilochar tizimning tovushini yoqish yoki o'chirish uchun, bosning.



Tanlanganlar va ovoz balandligi bandlarini o'zgartirgichlari rul chambaraginging orqa tomonida joylashgan.


1. Tanlanganlar: radioni eshitish vaqtida ushbu tugmalarni bosilishi, keyingi yoki oldingi radiostansiyalarga o'tishga imkon beradi. Tashqi manbadan kompozitsiyalarni eshitish vaqtida ushbu tugmalarning bosilishi, keyingi yoki oldingi kompozitsiyaga o'tishga, — ni bosish va ushlab turish kompozitsiyani oldinga yoki orqaga o'tkazish imkonini beradi (ushbu funksiya ulangan tashqi qurilma tomonidan qo'llab turilishi kerak).


2. Ovoz balandligi: Ovoz balandligini kamaytirish yoki oshirish uchun bosib.

## Tizimdan foydalanish

### Bosh sahifa

Axborot-ko'ngilochar tizimi teginish, sidirish va ko'chirib o'tkazish kabi ishoralar bilan aniqlovchi, sensor display bilan jihozlangan.




Bosh sahifaga o'tish uchun, markaziy konsolda  tugmanibosing. Bosh sahifa ikki taqdim etishga ega: ilovalar kartochkalari va yulduzchalari. Sizga qulay ko'rinishga o'tish uchun, sahifani chapga yoki o'ngga sidiring. Sizga zarur bo'lgan funksiyali sahifaga o'tish uchun, bosh sahifada muvofiq ilovaning kartochkasiga yoki yulduzchasiga bosib. Kartochkalar sahifasida, ilova kartochkasini qo'shish uchun, + tugmani bosib. Agar siz kartochkalar joylashish tartibini o'zgartirish istagida bo'lsangiz, istalgan kartochkani bosib va kerakli joyga ko'chirib o'tkazib. Ilovaning kartochkasini o'chirib yuborish uchun, uni tepaga sidirib yuboring.



Ilovalar yulduzchalari sahifasida yulduzchalarni kerakli joyga ko'chirib, ularning joylashish tartibini o'zgartirish, yoki yulduzchani pastga ko'chirib o'tkazib, pastdagi qutiga uni mahkamlab qo'yish mumkin.

### Yorliqlar qutisi

Displayning pastki qismida yorliqlar qutisi joylashtirilgan. Uning ichida bosh sahifaga o'tish yorlig'i va to'rtta ilovani chaqirish yorliqlari joylashgan. Ilovani ochish uchun, uning yulduzchasini bosib.

Tahrirlash tartibiga o'tish uchun, yorliqlar qutisida istalgan yulduzchani bosib va uni ushlab turing. Yorliqning holatini o'zgartirish uchun, uni ko'chirib o'tkazib, yoki uni olib tashlash uchun yorliqning o'ng tepa burchagida  ni bosib.

Tahrirlash tartibidan chiqish uchun, yorliqlar qutisi tashqarisida istalgan joyda displeyga tegining.

### Bosh sahifa funksiyalari



Biron bir ilovani ishga tushirish uchun, ilovalar yulduzchalari aks ettiriluvchi bosh sahifada uning yulduzchasiga bosing. U yoki bu funksiyalarning mavjudligi avtomobil jamlanmasiga bog'liqdir. Sizning mintaqangizda displeyda aks ettiriluvchi barcha funksiyalar ham erishimli bo'lmasligi mumkin.

### Audiotizim

Ijro etishning faol manbasi sahifasini ochish uchun, Audio (audio) yulduzchasiga tegining. Signal manbalari sifatida AM- va FM-radio, My Media, Bluetooth Audio va qo'shimcha liniyalı kiritish qo'llanilishi mumkin.

### Telefon

Telefonni boshqarish uchun asosiy sahifani ochish uchun, Phone (telefon) yulduzchasiga tegining. Bluetooth kanalı ↪ 6-10 da ko'ring.

### Apple CarPlay

Apple CarPlayni faollashtirish uchun, qo'llab turiluvchi qurilma ulanganidan keyin Apple CarPlay yulduzchasiga tegining. Bluetooth kanalı ↪ 6-10 da ko'ring.

### Matn

Agar ushbu funksiya sizning mintaqangizda erishimli bo'lsa, matnli xabarlar sahifasini aks ettirish uchun Text (matnli xabarlar) yulduzchasiga bosing (qo'llab turuvchi telefon ulangan bo'lishi kerak). Matnli xabarlar bilan almashish ↪ 6-13 da ko'ring.

### Sozlamalar


"Sozlamalar" menyusini ochish uchun "Sozlamalar" yulduzchasiga tegining. Sozlamalar ↪ 6-14 da ko'ring.

## RADIOPRIYOMNIK


### AM-FM radio

#### Radio tinglash

Ushbu paytda faol audiosignal manbaining sahifasini aks ettirish uchun, bosh sahifada Audio (audio) yulduzchaga bosing.



Signalning erishimli manbalarini ro'yxatini aks ettirish uchun, displeyning tepa qismida ▼ ni bosing.



Sizga erishimli bo'lishi mumkin bo'lgan manbalarning misollari: AM- va FM-radio, My Media, BT Audio va qo'shimcha liniyalari kirish.

### Stansiyani topish

#### Stansiyani izlash

- Agar AM- yoki FM-radio menyusi ochiq bo'lsa, turg'un signalli oldingi yoki keyingi stansiyaga o'tish uchun, displeyda ⏪ yoki ⏩ bosing.
- Sozlama tartibiga o'tish uchun, ushbu paytda tanlangan radiostansiya ostidagi chastotalar shkalasiga tegining, va chastotani qo'lda sozlash uchun, + va – tugmalarni yoki shkala bo'ylab barmoq bilan sirpanuvchi harakatni qo'llang.
- FM- va AM-diapazonlar orasida o'tish uchun, displeyning o'ng qismida radiostansiyaning yulduzchasiga bosing.

#### Stansiyalarni ko'rish



Barcha erishimli radiostansiyalar ro'yxatini aks ettirish uchun, displeyning o'ng qismida qisqa ma'lumotlar yulduzchasini bosing. Sizning joriy joylashgan joyingizdagi erishimli radiostansiyalar ro'yxatini yangilash uchun, "Yangilash" yulduzchasini bosing.

#### Dasturlangan radiostansiyalarni saqlash

Tanlangan radiostansiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ekranning tepa qismida maxsus zonada saqlanadi.

#### AM va FM diapazonlar radiostansiyalari:

Joriy stansiyani tanlanganlar ro'yxatida saqlash uchun, oldindan o'rnatish tugmasini bosing va uni ushlab turing. Tanlangan stansiyani tanlash uchun saqlangan tanlanganga tegining.

**Tanlanganlar sahifasi orasida o'tish:** Siz 3ta tanlangan sahifagacha saqlashingiz mumkin va ular orasida displeyning tepa qismida sirpaniruvchi harakat bilan o'tishingiz mumkin. Tanlangan radiostansiyalar ro'yxatini aks ettirish uchun, displeyning o'ng tepa burchagida > ni bosing.

#### Radiosignalni qabul qilish

Radiotranslyatsiyaning elektromagnit yoki statik halallari vujudga kelishida elektron qurilmalarni uzib qo'ying.

#### FM

FM-diapazoni signallarining yaxshi qabul qilinishi 16 km dan 65 km gacha masofada ta'minlanadi. Radiopriyomnikda halallarni pasaytirish uchun maxsus elektron o'rnatilganligiga qaramasdan, katta bo'lmagan to'siqlar bo'lish ehtimoli bor, ayniqsa binolar yoki tepaliklar atrofida, ular ovoznining so'nishi va kuchayishini chaqirishi mumkin.

#### AM

AM diapazoni radiostansiyalariga qaraganda, FM diapazonidagi ko'pgina stansiyalarni qabul qilish masofasi ko'proq, ayniqsa tunda. Radiostansiyalarning chastotasini oraliq masofasi uzaytirilganida ular bir-birlariga to'sqinlikni chaqirishi mumkin. To'siqlar shuningdek, momaqaldiroqda yoki elektruzatgichlar liniyalari ostida harakatlanganda ham paydo bo'lishi mumkin. Mazkur holatda to'siqlarning mavjudligida radiostansiya yuqori chastotalar darajasini pasaytirishga urinib ko'ring.

#### Mobil telefondan foydalanish

Statik radiohalallarning manbai bo'lib mobil telefon - kiruvchi va chiquvchi qo'ng'iroqlarda, akkumulator batareyani quvvatlayotganda va hattoki oddiygina yoqilgan telefonda bo'lishi mumkin. Bunday holatda mobil telefonni uzish yoki o'chirish zarurdir.

## AUDIOPLEERLAR


### Antenna

Tomdagi antenna AM va FM-diapazonlarda ishlaydi. Signalning turg'un qabul qilinishi uchun uni bloklovchi to'siqlardan uzoqroqda joylashing. Agar avtomobil shift lyukiga ega bo'lsa va ushbu lyuk ochilsa, qabul qilish yomonlashishi mumkin.

### USB-port

Avtomobil markaziy konsolda ikki USB-portlar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. Portlar ma'lumotlarni uzatishni qanday bo'lsa, quvvatlashni ham xuddi shunday qo'llab turadi. Ba'zi jamlanmalarda markaziy konsolning orqa qismida faqat quvvatlash uchun mo'ljallangan yana ikki USB-portlar joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

### USB-tashuvchidan ijro etish



USB qurilmasini ijro etish uchun:

1. USB-qurilmasini ulang.
2. Bosh sahifada Audio yulduzchasini bosing.
3. Signallarning erishimli manbalari ro'yxatini aks ettirish uchun, displeyning tepa qismida ▼ ni bosing, va My Media bandini tanlang. Faol USB-qurilmani ijro etishda quyidagi boshqaruv tugmalaridan foydalaning:

▶ :Faol media-manbani ijro etish uchun tegining.

⏸ :Faol media-manbani ijro etishni vaqtinchalik to'xtatish uchun tegining.

⏮ :

- Joriy yoki oldingi kompozitsiyaning boshiga o'tish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyidagi ushbu yulduzchaga tegining.
- Kompozitsiyani orqaga o'tkazish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida ushbu yulduzchani bosing va barmog'ingizni qo'yib yubormang. Kompozitsiyaning kerakli joyiga o'tishni shuningdek ijro etish shkalasining sudragichini siljitish bilan amalga oshirish mumkin.

⏭ :

- Keyingi kompozitsiyaga o'tish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyda ushbu tugmani bosing.
- Kompozitsiyani oldinga o'tkazish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida ushbu yulduzchani bosing va barmog'ingizni qo'yib yubormang.

**Shuffle (Tasodifiy tartibda)** : Ixtiyoriy tartibda ijro etishni yoqish uchun, «Aralashtirish» yulduzchasiga bosing.

**Takrorlash :** Kompozitsiyalarning siklik yoki bir martalik ijro etilishiga o'tish uchun, sirtmoq tasvirli yulduzchani bosning. Bir martalik ijro etish tartibida kompozitsiyalarni aralashtirish funksiyasi erishimli bo'lmaydi.

### USB-tashuvchini ko'rish menyusi

Media List	✕
My Device	>
Song	>
Artist	>
Album	>
Genre	>
Video	>

Multimedia fayllarning ro'yxati menyusini ochish uchun, ko'rish tugmasini bosning va quyidagi bandlardan birini tanlang: My Device (mening qurilmam), Song (kompozitsiyalar), Artist (ijrochilar), Album (albomlar), Genre (janrlar) yoki Video (video). Ro'yxat bo'ylab tepaga va pastga o'tish, muvofiq tomonga yo'naltirilgan strelkaga teginish bilan bajariladi.

### Gracenote

USB-to'plagich ulanganda Gracenote servisi musiqa uchun ovozli teglarni yaratadi. Ovozli teglar ovozli buyruqlar yordamida (jamlanmalarning barchasida emas) nomlari va

nomlanishlari qiyin talaffuz ijrochilarni, albomlarni tanlashga imkon beradi.


### SD-kartrider

Ba'zi jamlanmalarning markaziy konsolida SD-kartrider joylashgan bo'lishi mumkin. SD-kartadan ijro etishni yoqish uchun:

1. SD-kartani o'rnatish.
  2. Bosh sahifada Audio yulduzchasini bosning.
  3. Signallarning erishimli manbalari ro'yxatini aks ettirish uchun, displeyning tepa qismida ▼ ni bosning, va My Media bandini tanlang.
  4. Agar joriy paytda signal manbai sifatida USB tanlangan bo'lsa, multimedia fayllarining ro'yxatini ochish uchun, displeyning o'ng qismida ko'rish tugmasini bosning.
- My Device (mening qurilmam) bandini tanlang, so'ngra unga o'tish uchun, SD-kartani tanlang. Ijro etishni boshqarish USB-qurilmani qo'llashdagidek, xuddi shunday amalga oshiriladi. USB-port ⇄ 6-7 da ko'ring.

### Qo'shimcha liniyalı kirish


Avtomobilning markaziy konsolida qo'shimcha liniyalı kirishning ulagichi joylashtirilgan. Ushbu ulagichga iPod, smartfon yoki boshqa tashqi qurilmani ulash mumkin.



Bu uya audiochiqish hisoblanmaydi. Quloqchilarni yordamchi kirish uyasiga ulamang.

Qo'shimcha liniyalı kirish ulagichiga tashqi qurilmaga ulangan 3,5-millimetrlı shteker kabelini o'rnatish. Qurilma ulanganida, tizim, avtomobilning dinamiklari orqali, qurilmada saqlanayotgan yozuvlarni ijro etishi mumkin. Agar tashqi qurilma ulanmagan bo'lsa, ammo boshqa signal manbai faol bo'lsa, displeyning tepa qismida ▼ bandga tegining va ushbu manbani faol qilish uchun, AUX ni tanlang.

### Bluetooth orqali ijro etish



Tegishli funksiyasi mavjudligida birlashtirilgan qurilmadan musiqani Bluetooth orqali ijro etish mumkin. Qurilmani birlashtirish bo'yicha yo'riqnomalarni Bluetooth ⇨ 6-10 Kanal bo'limlarida topish mumkin.

Tovush balandligi va kompozitsiyalarni tanlashni axborot-ko'ngilochar tizim bilan qanday bo'lsa, mobil qurilma bilan ham xuddi shunday boshqarish mumkin. Agar Bluetooth tartibi tanlangan bo'lsa, ammo tovush mavjud bo'lmasa, ovoz balandligini sozlamalarini mobil qurilmada qanday bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizimda ham xuddi shunday tekshiring.

Bluetooth orqali ijro etish uchun:

1. Qurilma oziqlanishini yoqing va qurilmani ulash uchun birlashtirishni bajaring.
2. Birlashtirish o'rnatilgandan keyin, displeyning tepa qismidagi ▼ ni bosib va signalning erishimli manbalari ro'yxatida BT Audio bandini tanlang.

Bluetooth bandiga teginish paytiga ulangan qurilmaning audiopleerida ijro etishni ishga tushirish imkonsiz bo'lib qolishi mumkin. Avtomobil bir joyda turganida, mobil qurilma yordamida ijro etishni yoqing.

Turli qurilmalarda ijro etishni ishga tushirish turli usullarda amalga oshiriladi. Bluetooth orqali audioni ijro etishni tanlashda audiotizimning ekranida "To'xtatilgan" maqomi aks ettirilishi mumkin. Ijro etishni boshlash uchun, qurilmadagi ijro etish tugmasini bosib yoki displeyda ▶ yulduzchasiga tegining.

• Ijro etishni ta'rifini USB-port ⇨ 6-7 bo'limida yuqorida qarang. Bozorda turlicha dasturiy ta'minot bilan ko'pgina har xil Bluetooth-qurilmalar taqdim etilgan, displeyda ijro etishni boshqarish tugmalari o'chirib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Hamma qurilmalar ham tasodifiy tartibda va takroriy ijro etish funksiyasini qo'llab turmaydi.

### Bluetooth-qurilmaning qisqa ma'lumotlar menyusi

Bluetooth-qurilmalarning qisqa ma'lumotlar menyusini ochish uchun, displeyda qisqa ma'lumotlar yulduzchasini bosib. Ko'rish funksiyasi Bluetooth qurilma bilan qo'llab turish mavjudligida erishimli bo'ladi.

### Bluetooth-qurilmalarni boshqarish

Bluetooth-qurilmalar ro'yxatini ochish uchun, displeyda ✱ (Bluetooth) yulduzchasini bosib. Endi Bluetooth-qurilmalarni qo'shish, ulash yoki o'chirish mumkin. Ancha batafsil ma'lumotlarni, Bluetooth Kanali ⇨ 6-10 bo'limida qarang.

## TELEFON

### Bluetooth kanali

Bluetooth interfeysli tizimi quyidagilarga imkon berib, mobil qurilmalarning ko'p sonlari bilan aloqa qilishi mumkin:

- Qo'llarning yordamisiz qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va qabul qilish.
- Avtomobilga manzillar kitobini yoki qurilma kontaktlari ro'yxatini uzatish.

Chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish uchun, safar qilishni boshlashdan avval to'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilda quyidagi harakatlarni bajaring:


- Mobil qurilmaning funksiyalari bilan tanishib chiqing.
- Boshqaruv organlarini va axborot-ko'ngilochar tizimning qo'llanilishini yodga oling.
- Mobil qurilmalarning avtomobil bilan biriktirilishini bajaring. Mobil qurilmalarning ayrim modellari bilan tizim ishlamasligi mumkin. "Telefonni biriktirish" bandini ushbu bo'limda quyida qarang.

Bluetooth tizimli avtomobillarda Bluetooth qo'llab turishli va baland aloqa uchun profil bilan mobil telefon mavjudligida baland aloqa tartibida qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va qabul qilish mumkin.

Tizimni boshqarish axborot-ko'ngilochar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Mobil qurilmalarning barchasi ham hamma funksiyalarni qo'llab turmaydi va Bluetooth tizimi bilan ishlashga qodir emas.

### Telefonni ulash


1. Bluetooth-moslanuvchi mobil qurilmalarni qo'llashdan avval, dastlab uni Bluetooth tizim bilan biriktirilishini bajarish, keyin esa avtomobilga qurilmani ulash zarurdir. Biriktirish muolajasini faqat bir marta bajarish zarurdir. Uning takroriy bajarilishi agar biriktirilgan qurilma haqidagi ma'lumot tizim xotirasidan o'chirib yuborilgan holatdagina, talab etilishi mumkin.




2. Biriktirish jarayonini boshlashdan avval, uyali telefonda Bluetooth funktsiya yoqilganligiga ishonch hosil qiling.

Bosh sahifada yoki displeyning pastki qismidagi yorliqlar qutisidagi telefon yulduzchasini bosing.

Displeyning tepa qismida Bluetooth parametrlar ilovasini bosing. Agar hech qanday qurilmalar ulanmagan bo'lsa, displey markazida Connect (ulash) buyrug'i aks ettiriladi. Bluetooth-qurilmalar ro'yxatiga o'tish uchun, Connect (ulash) buyrug'ini bosing.





3. Connect Device (qurilmani ulash) buyrug'ini bosing. Sizing telefoningizda Bluetooth-qurilmalarning ro'yxatidan, axborot-ko'ngilochar tizimining displeyida aks ettiriluvchi, avtomobil nomlanishini tanlang. Qurilmalarni biriktirish muolajasini yakunlash uchun, axborot-ko'ngilochar tizim va mobil telefonning displeydagi ko'rsatmalarga rioya eting.







4. Biriktirilgan telefon ulanganlar ro'yxatida aks ettiriladi. Agar uyali telefonda telefonning manzillar kitobini qabul qilish yoki uni yuklashga ruxsat iltimosi bilan so'rov chiqarilgan bo'lsa, Accept (qabul qilish) yoki Allow (ruxsat etish) tanlang. Agar manzillar kitobini yuklanishiga ruxsat berilmasa, u erishimli bo'lmaydi.

**Ulangan:** Ulangan mobil qurilmaning nomlanishi aks ettiriladi. Siz o'chirishni istagan mobil qurilma yonida  ni bosib.


**Biriktirilgan:** Biriktirilganlar ro'yxati, ammo ayni paytda ulanmagan qurilmalar aks ettiriladi. Biriktirilgan qurilma bilan ulanishni o'rnatish uchun, biriktirilgan qurilmalardan birini bosib. Siz biriktirishni uzib tashlamoqchi bo'lgan mobil qurilma yonida  ni bosib. Phone (telefon) sahifasida Keypad (klaviatura), Contacts (kontaktlar) va Recents (jurnal) ilovalarni qo'llash orqali, qo'ng'iroqlarni amalga oshirish mumkin.

### Klaviaturada raqam terilib qo'ng'iroq qilish



Terishni boshlash uchun, zaruriy raqamni klaviatura yordamida kiritib va axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida , ni tanlang. Raqamning raqamlarini kiritish chorasi bo'yicha tizim mos keluvchi kontaktlarni ro'yxatini aks ettiradi. Natijalar displeyning o'ng qismida aks ettiriladi. Chaqiruvni amalga oshirish uchun, ulardan biriga tegining.

### Kontaktlar ilovasi yordamida qo'ng'iroq qilish



Bluetooth tizimi telefon kitob funksiyasini qo'llab turuvchi uyali telefonda saqlanadigan shaxsiy kontakt ma'lumotlaridan foydalanib, telefon chaqiruvlarini amalga oshirish imkonini beradi. Sizing mobil telefoningiz ushbu funksiyani qo'llashini tekshirib ko'ring.

Contacts (kontaktlar) menyusida mobil telefonning

telefon kitobiga kirish ruxsatini olish mumkin.


Kontaktlar ro'yxatidagi izlashni, ro'yxatdan o'ng tomondagi zaruriy harfni bosib, birinchi harf bo'yicha amalga oshirish mumkin. Kontaktlar ro'yxatini varaqlash mumkin. Kontakt haqida zaruriy ma'lumotlarni aks ettirish uchun, uning ismini tanlang, so'ngra chaqiruvni boshlash uchun, raqamni bosib.

Ulangan telefonning telefon kitobi bilan ma'lumotlarni qaytadan sinxronlashtirish uchun, Update Contacts (kontaktlar ro'yxatini yangilash) buyrug'ini tanlang.

### Chaqiruvlar jurnali yordamida qo'ng'iroq qilish

Recents (jurnal) menyusida sizning mobil telefoningizni chaqiruvlar jurnaliga kirishga ruxsatini olish mumkin. Chaqirish zarur bo'lgan abonent ismiga yoki raqamiga tegining.


### Kiruvchi chaqiruv



Chaqiruv kelib tushgan vaqtda axborot-ko'ngilochar tizimning tovushi o'chadi, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida esa kiruvchi qo'ng'iroq haqidagi xabar aks ettiriladi. Chaqiruvni qabul qilish yoki rad etish uchun, Answer (javob berish) yoki Ignore (rad etish)ni bosing. Qo'ng'iroqqa javob berish yoki uni rad etish shuningdek rul chambaragidagi tugmalar yordamida ham amalga oshirish mumkin.

### Qo'ng'iroq vaqtida

Qo'ng'iroq vaqtida siz quyidagi harakatlarni amalga oshirishingiz mumkin:



 :Chaqiruvni yakunlash uchun, bosing.


**Add Call (ikkinchi liniyani qo'shish)** : Ikkinchi liniyani qo'shish uchun, bosing.

**Tovushni o'chirish (Mutetartibi)**: Baland aloqani qo'llash bilan qo'ng'iroq vaqtida Mute (tovushni o'chirish) tugmasini bosish bilan mikrofonni o'chirib qo'yish mumkin. Mikrofonni qayta yoqish uchun, tugmani yana bir marta bosing.

**Telefon**: Baland aloqani qo'llash bilan qo'ng'iroq vaqtida Handset (telefon) tugmasini bosish bilan chaqiruvni telefonga o'tkazish mumkin. Telefonni qo'llash bilan qo'ng'iroq vaqtida Handset (telefon) tugmasini bosish bilan chaqiruvni baland aloqa tartibiga o'tkazish mumkin.

### Abonentlar o'rtasida almashish (faqat kutishdagi qo'ng'iroqlar uchun)

Qo'ng'iroqni ushlab turish funksiyasi Bluetooth modulli mobil telefoningiz va xizmat ko'rsatuvchi provayderingiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.



Agar chaqiruv vaqtida ikkinchi liniya qo'shilsa yoki boshqa kiruvchi qo'ng'iroqqa javob berilsa, qo'ng'iroqlar darchasida ikkala chaqiruvlar haqidagi ma'lumot aks ettiriladi. Liniyalar orasida o'tish uchun, tutib turish tartibida bo'lgan chaqiruv haqidagi ma'lumot paneliga bosing.

### Apple CarPlay


Agar Apple CarPlay qo'llab-quvvatlashi avtomobil jamlanmasi bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, siz mos keluvchi smartfon mavjud bo'lganida ushbu funksiyadan foydalanishingiz mumkin. Bunday holatda axborot-ko'ngilochar tizim menyusining bosh sahifasida Apple CarPlay yulduzchasi paydo bo'ladi. Ishonch

hosil qilingki, sizning telefon ekran proektsiyalash funksiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Apple CarPlayni qo'llash uchun:

1. Apple CarPlaydan foydalanish uchun biron bir ilovalarni o'rnatish talab qilinmaydi.

2. iPhonening butlomasiga kiruvchi USB-kabel yordamida, uni ma'lumotlarni uzatish uchun, qo'llaniluvchi tizimning USB-ulagichiga o'rnatib, uni ulang. Barqaror ishlashni ta'minlash maqsadida, qurilmani ishlab chiqaruvchisi tomonidan ilova qilinuvchi USB-kabelni qo'llash qat'iy tavsia etiladi. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning kabellari ishlamasligi mumkin.

3. Apple CarPlayni ishga tushirish uchun, tizimning bosh sahifasida Apple Carplay yulduzchasini bosing. Bosh sahifaga qaytish uchun, markaziy konsolda  tugmani bosing. Funksiyalar tarkibida o'zgarishlar ehtimoli bor. Sizning avtomobilingizda Apple CarPlay ni sozlash haqidagi qo'shimcha ma'lumot olish uchun o'z dileringizga murojaat qilishingiz kerak.

Apple CarPlay standarti Apple korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qo'llanilishi kelishuv shartlari va Apple maxfiylik siyosati bilan tartibga solinadi. Apple CarPlay bo'yicha yordamni olish uchun [www.apple.com/ios/carplay/](http://www.apple.com/ios/carplay/) sahifasiga o'ting.

Apple kompaniyasi o'z servislarini qo'llanilishi shartlarini o'zgartirishi yoki ularni to'xtatib qo'yishi mumkin.


### Matnli xabarlar bilan almashish

Agar ulangan mobil telefon SMS almashuvini qo'llab tursa, ushbu xabarlarni axborot-ko'ngilochar tizimning displeyiga chiqarish mumkin. Shuningdek, qabul qilingan xabarlarni ham o'qish mumkin.

Bluetooth bo'lgan barcha telefonlar ham ushbu funksiyani qo'llab turmaydi. Ushbu funksiyaning erishimligi avtomobil butlanganligiga va mintaqaga bog'liqdir.


Avval olingan SMS larni displeyga chiqarish mumkin emas. Telefon ulanganidan keyin, displeyga faqat yangi xabarlar chiqariladi.

### Matnli xabarni ko'rish





Axborot-ko'ngilochar tizimning bosh sahifasida Text (matnli xabarlar) yulduzchasini bosing.

SMS ro'yxatini aks ettirish. Xabar haqida batafsil ma'lumotni aks ettirish uchun, siz ko'rishni istagan xabarni tanlang.



Matnli xabarni ko'rishda:

- Xabarni eshitis uchun,  ni bosing.
- Xabar yuboruvchisiga qo'ng'iroq qilish uchun,  ni bosing.

## SOZLAMALAR

Sozlamalar menyusining tarkibini ikki toifalar bo'yicha taqsimlash mumkin. System (sistema) yoki Vehicle (avtomobil) bandiga teginish bilan zarur bo'lgan toifani tanlang.

Personallashtirish menyusiga kirish uchun:

1. Axborot-ko'ngilochar tizimi menyusining bosh sahifasida «Sozlamalar» yulduzchasiga bosing.
2. Erishimli bandlar ro'yxatini aks ettirish uchun zaruriy toifaga tegining.
3. Teginish bilan zaruriy funksiyani tanlang. Turli mamlakatlarda avtomobillar har xil konfiguratsiyalarda sotiladi, shuning uchun menyudagi bandlar farqlanishi mumkin. Sizning mintaqangizda barcha funksiyalar ham erishimli bo'lmagligi mumkin.

### Tizim



Menyu quyidagi elementlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

### Vaqt/sana

Vaqtni sozlash quyidagi funksiyalar yordamida bajariladi:

- 24-soatli format: vaqtни aks ettirish formatini sozlash uchun, bosing. «Yoqilgan» yoki «O'chirilgan» bandlarni teginish bilan yoqing yoki o'chiring.
- Vaqt va sanani avtomatik sozlash: vaqtни avtomatik sozlashni yoqish uchun, Off (o'chirilgan) yoki On (yoqilgan) bosing. Ushbu funksiya yoqilgan vaqtda, vaqt va sanani qo'lda o'rnatish imkoni yo'q.

### Tovushlar

Teginish natijasida quyidagilarning aks ettirilish ehtimoli bor:

- Tone (tembr): ekvalayzerni yoki oldingi/orqa va chap/o'ng dinamiklarni balansini sozlash uchun, bosing.

**Ekvalayzer:** Axborot-ko'ngilochar tizim displeyida boshqaruv elementlari yordamida past, o'rta va yuqori chastotalarni sozlash uchun, bosing.

**So'nish/balans:** Axborot-ko'ngilochar tizim displeyida boshqaruv elementlari yoki kesishishni ko'chirib o'tkazish yordamida sozlamani bajarish uchun, tegining.

- Auto Sound Adjustment (tovushni ijro etish parametrlarini avtomatik sozlash): bu parametr tovush balandligi past darajada bo'lganida past chastotalarni kuchaytirishga imkon beradi, tovushni yanada boyitadi.

"O'chirish" yoki "Yoqish" bandiga tegining.

- Speed Compensated Volume (tezlikka bog'liq holda tovush balandligini avtomatik sozlash): Ushbu funksiya avtomobilni harakatlanish tezligiga bog'liq holda tovush balandligi darajasini avtomatik sozlash imkonini beradi. Off (o'chirish.), Low (past daraja), Lower (pasaytirilgan daraja), Medium (o'rtacha daraja), Higher (ko'tarilgan daraja) yoki High (yuqori daraja)ga bosing.
- Chime (zummer): bu parametr zummer signalini tovush balandligi sozlashga imkon beradi. General (me'yorda) yoki High (baland) bosing.
- Yoqilishda maksimal tovush balandligi: ushbu funksiya dvigatelni ishga tushirishda axborot-ko'ngilochar tizimning maksimal tovush balandligini o'rnatishga imkon beradi. Ishga tushirishda maksimal tovush balandligi axborot-ko'ngilochar tizim displeyida boshqaruv organlarini teginish bilan o'rnatiladi.

### Language (til)

Ushbu parametr axborot-ko'ngilochar tizimning til interfeysini tanlashga imkon beradi. «Til»ni bosing va zarur bo'lgan tilni tanlang.

### **WiFi tarmog'i**

Teginish natijasida quyidagilarning aks ettirilish ehtimoli bor:

- WiFi Network (WiFi tarmog'i): WiFi tarmog'ini yoqish yoki o'chirish uchun, agar WiFi tarmog'i sizning mintaqangizda erishimli bo'lsa, tugmani bosing. Yoqilgandan keyin displeyda erishimli WiFi tarmoqlari aks ettirilishi mumkin. Ushbu funksiyaning erishimligi avtomobil butlanganligiga va mintaqaga bog'liqdir.

### **Bluetooth kanali**

Uyali telefonga yoki mobil qurilmaga ulanish, uyali telefonni yoki multimedia qurilmasini uzish yoki o'chirish uchun, tegining.

### **Displey**

Teginish natijasida quyidagilarning aks ettirilish ehtimoli bor:

- Video Mode (video tartib): Ushbu funksiya video tartiblarni sozlashga imkon beradi. Normal (me'yorda), Full Screen (to'liq ekranli), Zoom (kattalashtirilgan) yoki Broadband (keng ekranli) ni bosing.
- Wallpaper and Theme (oboylar va mavzular): Oboylar sifatida qo'llaniladigan tasvirni tanlash uchun, agar bu funksiya sizning mintaqangizda erishimli bo'lsa, Wallpaper Library (oboylar kutubxonasi) ni bosing. Theme Store (mavzular) bosing, mavzuni tanlash uchun.

- Orqa kamera: Agar ushbu funksiya ko'zda tutilgan bo'lsa, bu buyruq orqani ko'rish kamerasini parametrlarini sozlashga imkon beradi.

### **Raqam belgisi**

Ushbu funksiyaning erishimligi avtomobil butlanganligiga va mintaqaga bog'liqdir.

### **Apple CarPlay**

Ushbu parametr Apple CarPlayni qo'llash imkonini beradi. Apple CarPlay Bluetooth kanali ⇨ 6-10. bo'limida qarang. "O'chirish" yoki "Yoqish" bandiga tegining.

### **Avtomobilning dasturiy ta'minoti**

Axborot-ko'ngilochar tizimning dasturiy ta'minoti haqidagi ma'lumotni ko'rish uchun, bosing. Dasturiy ta'minotning yangilanishlarining erishimligi avtomobil butlanganligi va mintaqaga bog'liq bo'ladi.

### **Zavod sozlamalariga qaytish**

Tizimni zavod sozlamalariga qaytarish uchun, ushbu buyruqni qo'llang. Cancel (bekor qilish) yoki OK ni bosing.

### **Avtomobil**

Ushbu menyu avtomobilning har xil funksiyalarini sozlashga imkon beradi. Individual sozlamalarni saqlash ⇨ 4-23 da ko'ring.



# 7


## IQLIM-NAZORATINI BOSHQARISH ORGANLARI

---

- IQLIM-NAZORATI TIZIMLARI ..... 7-2
- VENTILYATSION PANJARALAR ..... 7-4
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH ..... 7-5
- IZOHLAR ..... 7-6

## IQLIM-NAZORATI TIZIMLARI

Mazkur tizim yordamida avtomobilning isitilishi, sovuylishi va ventilyatsiyasini boshqaruvi amalga oshiriladi.




1. Haydovchi va yo'lovchining zonasida haroratni sozlash tutqichi
2. MAX (muzdan tushirish)
3. Havoni taqsimlash tartiblarini boshqarish organlari
4. A/C (konditsioner)
5. SYNC (haroratni sinxronlashtirilgan sozlamasi)
6. AUTO (Avtomatik tartib)
7. Ventilyatorni boshqarish
8. Oziqlantirish
9. Resirkulyatsiya
10. Orqa oynaning antiterchilatgichi

## Avtomatik tartib

Ushbu tartibda tizim ventilyator aylanishlarini avtomatik sozlaydi, havo taqsimlanishini, konditsioner ishlash tartibini zarur tartibini tanlaydi va avtomobil salonida havoni zarur haroratgacha isitish yoki sovutish uchun resirkulyatsiya tartibini yoqadi va o'chiradi. AUTO indikator yorishib turgan vaqtda, to'rtta funksiyalarning barchasi avtomatik tartibda ishlaydi. Havoning taqsimlanishi, ventilyator aylanishlari, havo yoki konditsioner resirkulyatsiyasini sozlashga qo'lda aralashuv vaqtda AVTO tartibi bekor qilinadi, va ushbu indikator o'chadi.

Avtomatik tartibga o'tkazish tartibi:

1. AUTO tugmasini bosing.
  2. Zarur bo'lgan haroratni tanlang. Tizim salonda zarur bo'lgan iqlimni yaratguniga qadar kutib turing. Haroratni maksimal qulay darajagacha sozlang.
- Issiq ob-havo vaqtida yonilg'ini tejash va salonnin ancha tezkor sovuylishini ta'minlash uchun resirkulyatsiya tartibi avtomatik yoqilishi mumkin. Bunda resirkulyatsiya tartibining indikator yorishmaydi. Havo resirkulyatsiyasini yoqish uchun  ni bosing. Ushbu tugmani qayta bosish salonga atmosfera havosining uzatilish tartibini yoqilishiga olib keladi.

**Haydovchi va yo'lovchi joylarini haroratini nazorat qilish:** Haroratni haydovchi va yo'lovchi tomonlarida alohida o'rnatish mumkin. Haroratni oshirish va pasaytirish uchun ushbu tutqichni muvofiq tarzda soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarshi burang.

**Sinxronlashtirish:** Barcha zonalar uchun iqlim sozlamalarini haydovchi zonasining sozlamalariga bog'lash uchun bosing. Bunda SYNC indikator yorishadi. Agar yo'lovchi zonasida iqlim-nazorat sozlamasini o'zgartirilsa, SYNC o'chadi.



### Qo'l tartibida boshqarish

🔊: Ushbu tugmani bosish bilan ventilyator yoqiladi va o'chiriladi. Agar ventilyator o'chirilgan bo'lsa, salonga havo haydalmaydi. Agar siz ventilyatorni yoqsangiz, boshqa biron bir tugmachani bossangiz yoki dastani burasangiz, tizim joriy sozlamalar bilan ishlashni davom ettiradi.

🌀: Ventilyator aylanish tezligini oshirish yoki kamaytirish uchun bosning. Ventilyator parragingining aylanish tezligi bosh displeyning ekraniga chiqariladi. Istalgan tugmani bosish bilan ventilyator avtomatik tartibdan chiqariladi va qo'lda boshqarish tartibiga o'tadi. Avtomatik tartibga qaytish uchun AUTO ni bosing.

**Havoni taqsimlash tartibini boshqarish organlari:** Havo taqsimlanishini o'zgartirish uchun, tugmalarning har qanday majmuasini bosing, 🌀 va 🌀 tugmaga o'rnatilgan chiroqli indikator yoqiladi. Tanlangan tartib displeyda aks ettiriladi. Ushbu uchta tugmalardan istalganini bosilishi havo taqsimlashning avtomatik tartibini o'chiradi va uni qo'lda boshqarish tartibiga o'tkazadi. Avtomatik tartibga qaytish uchun AUTO tugmasini bosing. Joriy tartibni o'zgartirish uchun quyidagi opsiyalardan birini yoki bir nechtasini tanlang:

🌀: Ushbu tartibda oynalarning terchilab qolishi bartaraf etiladi. Havo oqimi old oynaning shamollatish soplalariga yo'naltiriladi.

🌀: Havo oqimi asbob-uskunalar panelidagi havoto'plagich orqali yo'naltiriladi.

🌀: Havo oqimi oyoqlar uchun o'yiqqa yo'naltiriladi.

🌀 MAX: Ventilyatorning yuqori aylanishlarida old oynani shamol bilan tozalash. Bu old oynadan namlikni va muz qatqalog'ini olib tashlanishini tezlashtiradi. Tugmani takroran bosilish vaqtida tizim dastlabki ish tartibiga qaytadi.

Optimal natijalarga erishish uchun qirovni olib tashlash tartibini yoqishdan avval old oynadan qorni va muz qatlamini tozalash kerak bo'ladi.

**A/C:** Ushbu tugmani bosish bilan konditsioner yoqiladi va o'chiriladi. Agar iqlim-nazorat tizimi o'chirilgan yoki tashqi harorat noldan pastga tushib ketgan bo'lsa, konditsioner ishlamaydi.

Ushbu tugmani bosish bilan avtomatik konditsionerlash va konditsioner o'zi o'chadi. Avtomatik tartibga qaytish, va, zarurat tug'ilganida, konditsioner yoqish uchun, AUTO ni bosing. Agar indikator lampasi yoqilgan bo'lsa, avtomobil ichida havoni sovutib yoki old oynaning terchilashini tez bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan havoni quritib, konditsioner avtomatik ishlayotgan bo'ladi.

🌀: Resirkulyatsiyani yoqish uchun bosning. Bunda indikator yorishishi kerak. Resirkulyatsiya tartibi salonda havoni tezroq sovutishga, hamda tashqaridan gazlarning va noxush hidlarning kirib borishini istisno qilish imkonini beradi.

**Oynalarni avtomatik isitish:** Iqlim-nazorat tizimi avtomobil ichida yuqori namlikni avtomatik aniqlash datchigiga ega bo'lishi mumkin.

Agar yuqori namlik aniqlanayotgan bo'lsa, iqlim-nazorat

tizimi tashqaridan havoning uzatilishiga tuzatish kiritishi va konditsioner o'chirishi mumkin. Ventilator aylanishining tezligi oynalarning terchillab qolishini oldini olish uchun oshirilgan bo'lishi mumkin. Agar iqlim-nazorat tizimi taxmin qilinuvchi oynalarning terchilashini aniqlamasa, u me'yordagi ishiga qaytadi.

Oynalarni avtomatik isitilishini yoqish yoki o'chirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim yo'riqnomasida ko'ring.

**Ionlashtirgich:** Agar avtomobil ionlashtirgich bilan jihozlangan bo'lsa, u avtomobil salonidagi havoni gul changidan, hidlardan va changlardan tozalash imkonini beradi. Ionlashtirgichni yoqish yoki o'chirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim yo'riqnomasida ko'ring.

**Orqa oynaning antiterchilatgichi**

: Orqa oynaning antiterchilatgichini yoqish yoki o'chirish uchun bosing.

Tugmadagi indikatorning yorishishi orqa oynaning antiterchilatgichi yoqilganligiga ko'rsatadi. Antiterchilatgich faqat o't oldirish yoqiligidan ishlaydi.

Axborot-ko'ngilochar tizimida orqa oynani isitishni avtomatik ravishda yoqish uchun sozlash mumkin. Agar orqa oynani isitish avtomatik ishga tushirish yoqilsa, salon isitilmaganda va tashqarida sovuq bo'lganda isitish avtomatik ravishda yoqiladi. Orqa oynani isitish avtomatik ravishda o'chiriladi.

Agar avtomobil isitiladigan tashqi toshoynalar bilan jihozlangan bo'lsa, u holda toshoynalarning yuzasini terchilashdan va qirovdan tozalab, orqa oynaning antiterchilatgichini yoqish tugmasini bosish bilan yoqiladi.

Isitiluvchi toshoynalar ⇨ 1-17 ni ko'ring.

**⚠ DIQQAT!**

Oyna ichki qismidagi va orqa ko'rinish ko'zgulardagi muz yoki boshqa hosilalarni tozalash uchun ustara yoki boshqa o'tkir qirrali buyumlardan foydalanmang. Bunday qilish, orqa oynani isitish ekraniga yoki radio antenasiga zarar etkazishi va radio qabul qilishiga ta'sir qilishi mumkin. Bunday holda ta'mirlash kafolat bilan qoplanmaydi.

**Datchik**

Old oyna bilan yonma-yon joylashgan asbob-uskunalar panelidagi yoritilganlik datchigi quyosh nurlanishining jadalligini nazorat qiladi. Iqlim-nazorat tizimi datchik signalidan haroratni, ventilyator aylanishining tezligini sozlash, resirkulyatsiya tartibini yoqish va o'chirish va salonda maksimal qulay mikroiklimni qo'llab turib havo taqsimlanish tartiblarini o'zgartirish uchun foydalanadi. Iqlim-nazoratni boshqarish tizimining noto'g'ri ishidan saqlanish uchun datchikni to'sib qo'ymang.

**VENTILYATSION PANJARALAR**

Havo oqimini yo'nalishini o'zgartirish uchun ventilyatsioning sopalarini to'sqichlarini holatini sozlang.

Havo uzatilishini ochish yoki yopish uchun:

- Markaziy ventilyatsion tirqishlarda sozlash tutqichini tepaga yoki pastga o'tkazing.
- Yon tomon va orqa ventilyatsion tirqishlarda sozlash tutqichini o'ngga yoki chapga o'tkazing.

**Qo'llash bo'yicha tavsiyalarni**

- Muz, qor yoki barglarni old oyna asosidagi havoto'plagichlardan olib tashlang, ular avtomobilga havo oqimini bloklab qo'yishi mumkin.
- Ko'rinishni yaxshilash va avtomobil saloniga kirib boruvchi namlikni pasaytirilishiga yordam berish uchun kapotni qordan tozalang, bu uzoq muddat davomida tizim unumdorligini yaxshilashi mumkin.
- Oldingi o'rindiqlar ostidagi fazoni avtomobilga havoning ancha samarali tarqalishi uchun bo'sh tuting.
- GM kompaniyasi tomonidan tasdiqlanmagan kapot surqaytargichlarini qo'llanilishi, tizim ishida salbiy aks etishi mumkin. Avtomobil tashqarisida biron bir asbob-uskunalarni o'rnatishdan avval o'zingizni dileringizda maslahat oling.

## TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- Ventilyatsion panjaralar ustiga hech narsa o'rnatmang. Bu havoning erkin oqimiga xalaqit berishi va ventilyatsiya soplalariga shikast etkazishi mumkin.

### Salon filtri

Mazkur filtr salonga tashqaridan so'rib olinayotgan havo kirishidan avval, uni changdan, gullar changi va boshqa salmoqli zarralardan havoni tozalashga imkon beradi. Ushbu filtni odatiy rejali texnik xizmat ko'rsatish doirasida almashtirish zarur ("Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" broshyurasini ko'ring). Havo filtrini almashtirish uchun servis-markaziga murojaat qiling.

### Xizmat ko'rsatish

Barcha avtomobillarning kapoti ostida to'ldirilgan xladagent turi ko'rsatilgan yopishtirma yorliq mavjud. Konditsionerlash tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali, maxsus o'qishdan o'tgan xodimlar tomonidan bajarilishi kerak. Konditsionerlash tizimining bug'latgichi ta'mirlash yoki uni hisobdan chiqarib yuborilgan avtomobildan yechib olingan boshqasiga almashtirish taqiqlanadi. Ish ishonchliligini va xavfsizligini ta'minlash uchun, almashtirish uchun faqat yangi bug'lantirgichni qo'llash kerak.

Tizimga xizmat ko'rsatishni o'tkazilish vaqtida undan xladagentni maxsus idishga, buning uchun maxsus uskunalardan foydalanib, to'kib olish kerak. Xladagent atmosferaga bug'lanib ketishi mumkin bo'lgan idishga xladagentni to'kish, tabiatga zarar etkazadi va odamlarga xavf soladi, chunki nafas olish a'zolarga tushib qolishi, yong'in sodir bo'lishiga olib kelishi,

kuyishlarni keltirishi yoki sog'liqqa boshqa ziyonlarni keltirishi mumkin. Konditsioner davriy xizmat ko'rsatilishga muhtoj. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish lozim.



# 8

## AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

---

- HADOVCHIGA MASLAHATLAR ..... 8-2
- ISHGA TUSHIRISH VA ISHLATISH ..... 8-11
- ISHLAGAN GAZLAR ..... 8-17
- AVTOMATIK YURITMALAR QUTISI ..... 8-18
- AVTOMOBILNI BOSHQARISH  
TIZIMLARI ..... 8-21
- TORMOZ TIZIMI ..... 8-22
- OSMALAR QATTIQLIGINI SOZLASH  
TIZIMI ..... 8-26
- KRUIZ-NAZORAT ..... 8-28
- HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI ..... 8-39
- YONILG'I ..... 8-51
- AVTOMOBIL KONSTRUKTSIYASINI  
O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHA  
ASBOB-USKUNALARNI O'RNATISH ..... 8-53
- IZOHLAR ..... 8-54

## HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR

### Haydashda diqqatning chalg'ishi

Haydash vaqtida joriy vazifalardan diqqatning chalg'ishi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Sog'lom fikr bilan rahbarlik qiling va biron bir boshqa harakatlar Sizni yo'ldan diqqatingizni chalg'itishga yo'l qo'ymang.

Ko'pchilik mahalliy ma'muriyat haydovchining diqqatini chalg'itishga nisbatan maxsus talabnomalar chop etadilar. Sizning hududingizda amal qiluvchi qoidalarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqing.

Diqqatsiz haydashdan saqlanish uchun yo'lni kuzating, qo'llaringizni rul chambaragida ushlang va haydashga diqqatingizni jamlang.

- Yo'ldagi holatni aniqlashtirish uchun telefondan foydalanmang. Zaruriy qo'ng'iroqlarni qilish yoki qabul qilish uchun, baland aloqadan foydalaning.
- Yo'lga diqqat bilan qarang. Telefonda va boshqa elektron qurilmalardan o'qimang, yozuvlarni qilmang va ma'lumotlarni ko'zdan kechirmang.
- Oldingi yo'lovchining o'rindig'ini diqqat chalg'ishining potentsial omili sifatida ko'ring.
- Haydashni boshlashdan avval tanlangan radiostansiyalarni dasturlash, iqlim-nazoratni sozlash, o'rindiqlarni sozlash kabi avtomobilning funksiyalarini diqqat bilan o'rganib chiqing. Safar qilishdan avval biron

bir navigatsion qurilmaga safar haqidagi to'liq ma'lumotni kiriting.

- Tushib ketgan buyumlarning qidiruvini avtomobil to'xtagan paytgacha kechiktiring.
- Bolalarga e'tiborni ajratish uchun, avtomobilni to'xtating.
- Hayvonlarni mos keluvchi konteynerlarda tutib turing yoki cheklagichlarni qo'llang.
- Safar qilish vaqtida yo'lovchilar bilan qanday bo'lsa, mobil telefon orqali asabiy suhbatlardan saqlaning.

### OGOHLANTIRISH!

Agar yo'ldan ko'zlarni juda ko'pga yoki juda tez-tez chetlashtirilsa, bu to'qnashuvga va, oqibatda, jarohatlanishga yoki hattoki o'limga olib kelishi mumkin. Diqqatingizni yo'lga jamlang.

Axborot-ko'ngilochar tizim va navigatsion tizim qo'llash (agar mavjud bo'lsa), jumladan mobil telefonni bog'lash va undan foydalanish haqidagi qo'shimcha ma'lumotni axborot-ko'ngilochar tizimga bag'ishlangan bo'limda ko'ring.

### Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari

Avtomobilni diqqat bilan haydashning tushunchasi "tasodiflarga doimiy tayyorgarlik" ni ko'zda tutadi. Bunday yondashuvning zaruriy sharti bo'lib xavfsizlik kamarlarining qo'llanilishi hisoblanadi. Xavfsizlik kamarlari ⇨ 2-8 ni ko'ring.

- E'tiborli haydovchi yo'l harakatining boshqa qatnashchilari (piyodalar, velosipedchilar va boshqa transport vositalarining haydovchilari) e'tiborsizlikni namoyish qilishlari va xatoliklarni sodir etishlari mumkinligi taxminiga tayanishi kerak. Siz ularning ehtimolli harakatlarini oldindan bilishingiz va ularga tayyor turishingiz kerak.
- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani saqlang.
- Avtomobilni boshqarish jarayonidan chalg'imang.

### Avtomobilni boshqarish

Tormozlanish, rul boshqaruvi va tezlashish harakatlanish vaqtida avtomobilni boshqarishning muhim omili hisoblanadi.

### **Tormozlanish**

Tormozlanish jarayoni qaror qabul qilish vaqtini va reaksiya vaqtini o'z ichiga oladi. Latent faza - bu holatni anglash va tepkiga bosish haqidagi qarorni ishlab chiqish uchun haydovchiga zarur bo'lgan vaqt. Motor fazasi - bu harakatlarni haqiqiy bajarilish fazasi.

Haydovchi reaksiyasining motor fazasini o'rtacha davomiyligi taxminan soniyaning uchdan to'rtini tashkil qiladi. Ushbu vaqt oralig'ida 100 km/soat (60 mil/soat) tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 20 m (66 fut)ni bosib o'tadi, ular avariya holatida juda katta oraliq masofa bo'lib qolishi mumkin. Yodda tutish kerak bo'lgan tormozlanishga taalluqli foydali tavsiyalar:

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani saqlang.
- Kera bo'lmagan keskin tormozlanishdan saqlaning.
- Mashinalar oqimi bilan bir xil tezlikni qo'llab turing.

Agar harakatlanish vaqtida dvigatel kutilmaganda to'xtab qolsa, tormoz tepkisini zarur bo'lgan holatda qanday bo'lsa, oddiy holatda ham xuddi shunday bosish kerak. Tepkini ko'p marta bosish va qo'yib yuborish lozim bo'lmaydi. Agar shunday qilinaversa, u holda tepkiga bosish qiyinlashib boradi. Agar dvigatel o'chib qolsa, u holda tormoz kuchaytirgichi ba'zi ish qobiliyatini saqlab qoladi, u, biroq, tormoz tepkisi bosilgandan keyin yo'qotiladi. Vakuum kuchaytirgich ishlashdan to'xtagandan so'ng, avtomobilni

tormozlash uchun ko'proq vaqt va kuch talab etiladi.

Agar ikkala oyoqni akselerator va tormoz tepkilarida bir vaqtda ushlab turilsa, bu tormozlanish samaradorligini pasayishiga, tormoz kolodkalarini tezkor yedirilishga va yonilg'ini yuqori sarfiga olib kelishi mumkin.

### **Rul boshqaruvi**

#### **Elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimi**

Avtomobil rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi bilan jihozlangan. U rulni kuchaytirish uchun suyuqlikka ega emas. Muntazam xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi tizimning nosozligi oqibatida ishlamay qolsa, u holda avtomobil boshqaruvi saqlanib qoladi, ammo ko'proq kuch talab etiladi.

Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi harakatlanmayotgan avtomobilda vaqtning davomiy davrida qo'llanilayotgan bo'lsa, kuchaytirish pasayishi mumkin. Agar rul chambaragini tiralgunicha aylantirilsa va ushbu holatda uzoq vaqt ushlab turilsa, kuchaytirish samarasi pasayishi mumkin.

Kuchaytirgichning me'yordagi ishi u sovuganidan so'ng tiklanadi.

Nosozlik vujudga kelganida dilerga murojaat qiling.

### **Burilishlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar**

- Burilishlarni ruxsat etilgan tezlikda bajaring.
- Burilishga kirib borishdan avval tezlikni pasaytiring.
- Burilish jarayonida ruxsat etilgan doimiy tezlikni qo'llab turing.
- Avtomobilning burilishdan chiqishini kuting va faqat bundan so'ng to'g'ri yo'nalish bo'yicha harakatlanish uchun yumshoq tezlashishni boshlang.

#### **Avariya holatida boshqarish**

- Ba'zi holatlarda to'siqlarni aylanib o'tish ularni oldida to'xtashga qaraganda ancha samarali bo'lishi mumkin.
- Agar rulni ikki tomonidan ikki qo'l bilan ushlab turilsa, u holda bu sizga qo'llarni olmasdan 180 gradusga uni burish imkonini beradi.
- Antibloklash tormoz tizimi (ABS) tormozlanish vaqtida avtomobilni boshqarish imkonini beradi.

#### **Boshqaruwni yo'qotish**

##### **Yo'l bilan ilakishishni yo'qotish**

Yo'l bilan shinalarning ilakishishini yo'qotilishini uchta turi mavjud, ularning har biri avtomobilni boshqarishning uchta tizimidan birining ishi bilan bog'liq:

- Tormozlanishda ilakishishning yo'qotilishi - g'ildiraklar aylanmayapti.

• Manyevrlash yoki burilishni o'tishdagi ilakishishni yo'qotilishi harakatlanishning juda yuqori tezligi yoki ortiqcha rul boshqaruvi bilan chaqiriladi, bu sirpanishga va g'ildiraklarning yon tomon reaksiyasining yo'qotilishiga olib keladi.

• Tezlashishda ilakishishning yo'qotilishi g'ildiraklarning shataklashishiga olib keluvchi ortiqcha drossellash natijasi hisoblanadi.

Ehtiyotkor haydovchilar yo'l qoplamasining holatiga muvofiq harakatlanish tartibini tanlab, yo'l bilan shinalarning ilakishishini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlardan saqlanadilar.

Shunga qaramay ilakishishning yo'qotilish ehtimoli to'liq istisno qilish mumkin emas.

Agar avtomobil sirpanishni boshlasa, quyidagi tavsiyalarni bajaring:

• Akselerator tepkisiga bosimni susaytiring va avtomobil harakatlanishining talab etiluvchi yo'nalishini tiklang. Avtomobilning me'yorda harakatlanishini tiklash mumkin. Avtomobilni yana chetga olib qochishi mumkinligiga tayyor bo'ling.

• Tezlikni pasaytiring va ob-havo sharoitlariga muvofiq haydash maqomini o'zgartiring. Agar ilakishish suv, qor, muz, shag'al yoki yo'lda mavjud bo'lgan boshqa materiallar hisobiga yomonlashgan bo'lsa, u holda bu tormozlanish yo'lining ortishiga va avtomobilni

boshqaruviga ta'sir qilishi mumkin. Yo'lni juda sirpanchiq qilishga qodir bo'lgan yo'ldagi namlik, yaxvonlik, zichlatilgan qor kabi xavf alomatlarini aniqlashni o'rganing. Biron bir gumonlar hosil bo'lgan holatda harakatlanish tezligini sekinlashtirish lozim.

• Keskin manyevrlash, tezlashish yoki tormozlanish, jumladan ancha past yuritmaga o'zgartirish yo'li bilan avtomobil tezligini pasaytirishdan foydalanmaslikka urining. Har qanday keskin o'zgarishlar yo'l bilan shinalarning kontaktini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

E'tiboringizni qarating! Antibloklovchi tormozlash tizimi faqat g'ildiraklarni bloklash bilan chaqirilgan ilakishishni yo'qotilishini oldini olishga qodir.

#### **Yo'lsizlik bo'ylab safar qilish**

To'liq yuritmal avtomobillarni yo'lsizliklarda qo'llash mumkin. To'liq yuritmasiz avtomobillar va All Terrain (AT) yoki On-Off Road (OOR) sinf shinalari bilan jihozlanmagan avtomobillarni yo'lsizlikda qo'llash mumkin emas, tekis qattiq qoplamalardan tashqari.

Jamlanma shinalar haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni kafolatl qo'llanmada ko'ring.

Yo'lsizlik sharoitlarda muvaffaqiyatli haydashga kalit - avtomobil ustidan nazoratni saqlash.

Avtomobilni nazorat ostida ushlab turishning eng yaxshi usullaridan biri - tezlik tartibiga rioya etish.

#### **OGOHLANTIRISH!**

Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanish vaqtida sakrash yoki mashinaning holatini keskin o'zgartirishda o'z joyidan osongina uchib ketish mumkin. Bu boshqaruvni yo'qotish va avariya olib kelishi mumkin.

Siz va sizning yo'lovchilaringiz xavfsizlik kamarlari bilan taqib qo'yilgan bo'lishi kerak.

#### **Yo'lsizlik bo'ylab safar qilishdan avval**

- Butun zarur bo'lgan oldini olish xizmat ko'rsatilishini va ta'mirlashni bajaring.
- Avtomobilni yonilg'i bilan to'ldiring, suyuqliklarni qo'shimcha quyuing va barcha shinalarda, jumladan ehtiyot g'ildiragida, agar u ko'zda tutilgan bo'lsa, ishirish bosimini tekshiring.
- Ushbu qo'llanmada to'liq yuritmal avtomobillar haqida to'liq ma'lumotlarni o'rganib chiqing.
- Tubning barcha himoyalari, agar ular ko'zda tutilgan bo'lsa, ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.
- Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanishga nisbatan mahalliy qonunchilikni o'rganib chiqing.



### Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanish uchun avtomobilni yuklash

#### OGOHLANTIRISH!

- Kesishgan hudud bo'ylab harakatlanishda yukxona bo'linmasidagi mahkamlanmagan yuklar siljishi mumkin. Siz va sizning yo'lovchilaringiz uchib tushayotgan buyumlardan jarohat olishingiz mumkin. Yukni ishonchli mahkamlang.
- Yukxona bo'linmasiga yukni iloji boricha oldinga va iloji boricha pastroq o'rnatib. Eng og'ir yuklarni orqa ko'prikdan oldinga polga qo'yish zarur.
- Tomdagi og'ir yuklar avtomobilning og'irlik markazini ko'tarib, ag'darilishga moyillikni oshiradi. Avtomobilning ag'darilib ketishi og'ir va hattoki halokatli jarohatlar olib kelishi mumkin. Og'ir yuklarni tomda emas, balki yukxona bo'linmasida tashib.

#### Atrof-muhitni muhofaza qilish

- Yo'lsizlik bo'yicha haydash maqsadlari uchun ommaviy foydalanish uchun ajratilgan faqat mavjud bo'lgan trassalar, yo'llar va zonalardan foydalaning, va barcha nashr etilgan me'yorlarga rioya qiling.
- Butalarga, gullarga, daraxtlarga va o'tlarga shikast etkazmang, yovvoyi hayvonlarning tinchligini buzmand.

- Avtomobilni yonuvchan materiallar ustiga to'xtab turishga joylashtirmang. Alanganuvchi qoplamalar ustiga to'xtab turishga joylashtirish ⇨ 8-16 ni ko'ring.

#### Tepalik joylardan haydash

Tepalik joylardan haydash hushyor hisob-kitoblarni va avtomobilning imkoniyatlar chegarasini tushunishni talab etadi.

#### OGOHLANTIRISH!

Ko'pchilik qiyaliklar har qanday avtomobil uchun juda ham tik. Qiyalik bo'ylab tepaga harakatlanishda dvigatel o'chib qolishi mumkin. Qiyalik bo'ylab pastga harakatlanishda boshqaruvni yo'qotish ehtimoli bor. Qiyalikka ko'ndalang harakatlanishda avtomobilning ag'darilib ketish ehtimoli bor. Bu jarohatlarga va o'lim oqibatlariga olib kelishi mumkin. Keskin qiyaliklar bo'ylab safar qilmang.

Tepalikka ko'tarilishni boshlashdan avval uning qiyaligini, ilakishishni va to'siqlarning mavjudligini baholang. Agar oldindagi relyef ko'rinmasa, avtomobildan chiqing va harakatlanishni davom ettirishdan avval tepalikka yayov chiqing.

Tepalik joy bo'ylab harakatlanishda:

- Past yuritmani qo'llang va rul chamberagini qattiq ushlang.
- Kichik tezlikda harakatlaning.

- Iloji boricha tepalik bo'ylab to'g'ri tepaga va to'g'ri pastga harakatlaning.
- Tepalikning cho'qqisiga yaqinlashganda sekinlashing.
- Avtomobilning hattoki kunduzi ko'rinishini yaxshilash uchun yoqilgan chiroqlar bilan harakatlaning.

#### OGOHLANTIRISH!

Tepalik cho'qqisidan katta tezlikda haydab o'tish avariya olib kelishi mumkin. Tepalik ortida keskin qiyalik, tramplin, jarlik va hattoki boshqa avtomobil aniqlanib qolishi mumkin. Bu jiddiy jarohatlarga yoki o'lim oqibatiga olib kelishi mumkin. Tepalikning cho'qqisiga yaqinlashib kelib, tezlikni pasaytirib va e'tiborli bo'ling.

- Hech qanday holatda neytral yuritmaga o'rnatilgan qiyalik ostiga oldingi yoki orqaga yurish bilan harakatlanmang. Tormozlar qizib ketishi mumkin va siz boshqaruvni yo'qotasiz.
- Tepalikdan tushish vaqtida avtomobilni to'g'ri pastga yo'naltiring. Past yuritmani qo'llang, chunki bunda dvigatel tormozlashda ishtirok etadi va avtomobilni nazorat ostida ushlaydigan yordam beradi.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Qiyalik ostiga harakatlanishda jadal tormozlanish ortiqcha qizib ketishga va tormozlarning bo'shab qolishiga olib kelishi mumkin. Natijada boshqaruvni yo'qotish va o'zingizga va atrofdagilarga og'ir yoki halokatli jarohatlar etkazishingiz mumkin. Tepalikdan tushayotganda, batartib tormozlaning va avtomobilning tezligini nazoratda ushlab turish uchun past yuritmada harakatlaning.

Agar avtomobil tepalikda o'chib qolgan bo'lsa:

1. Tormozlaning, to'xtang va to'xtab turish tormozini yoqing.
  2. Yuritmalarni o'zgartirgichini to'xtab turishga joylashtirish (P) holatga o'rnatib, bundan so'ng dvigatelni qayta ishga tushiring.
- Agar avtomobil tepalik bo'ylab tepaga harakatlanishda o'chib qolgan bo'lsa, R (orqaga yurish)ga o'ting, to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va o'g'ri orqaga yurish bilan harakatlaning.
  - Hech qanday holatda burilishga harakat qilmang. Agar qiyalik avtomobil o'chib qolishi uchun yetarlicha qiya bo'lsa, u mashinani ag'darib yuborish uchun ham yetarli bo'ladi.
  - Agar siz tepalikka ko'tarilishni uddasidan chiqolmagan bo'lsangiz, to'g'ri orqaga yurish bilan orqaga qayting.
  - Hech qanday holatda neytral yuritmada, faqat tormozlarni qo'llab, orqaga yurish bilan pastga

tushmang. Avtomobil tez tezlik olishi mumkin, va siz boshqaruvni yo'qotishingiz mumkin.

- Agar dvigatel qiyalik ostiga harakatlanishda o'chib qolgan bo'lsa, ancha past yuritmaga o'ting, to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va to'g'ri pastga harakatlaning.
- 3. Agar o'chib qolgan dvigatelni ishga tushirish imkoni bo'lmasa, to'xtab turish tormozini tortib qo'ying, yuritmalar o'zgartirgichini to'xtab turishga joylashtirish (P) holatga o'rnatib va gazni yoqing.
- 3.1. Avtomobilni tark eting va yordamni olib kelish uchun jo'nang.
- 3.2. Avtomobilning ehtimolli yurib ketish traektoriyasidan uzoqroqda turing.
- Avtomobil tepalikka ko'ndalang orientatsiyalangan holatda burilishdan saqlanang. To'g'ri tepaga ko'tarilish imkoni bo'lgan va to'g'ri pastga tushish imkoni bo'lgan tepalik ko'ndalang yo'nalishda harakatlanish uchun haddan ziyod qiya bo'lishi mumkin. Tepalikka ko'ndalang harakatlanishda pastda joylashgan g'ildiraklar kuchliroq qiziydi, bu sirg'alib tushish yoki ag'darilib ketishga olib kelishi mumkin.
- Yuzaning holati bilan bog'liq ehtimolli muammolar haqida unutmang. To'kiluvchan shag'al, tuproqli qismlar va hattoki nam o'tda g'ildiraklar pastga sirg'alib ketishi mumkin. Yon tomonga sirg'alib ketuvchi avtomobil uni to'xtatib qoladigan to'siqqa - toshga, chuqurga va hokazolarga duch kelishi - va ag'darilib ketishi mumkin.

- Yashirin to'siqlar tepalikning qiyaligini kuchaytirishi mumkin. Agar tepalik bo'ylab turgan g'ildiraklar tosh ustiga chiqib ketsa, orqa g'ildiraklar esa chuqurlikda yoki o'pirilgan joyga ega bo'lsa, avtomobilning egilishi yana ko'proq ortadi.
- Agar tepalikka ko'ndalang harakatlanishda avtomobil sirg'alib ketishni boshlasa, tepalik bo'ylab pastga buriling. Bu avtomobilni to'g'irlab olishga va yon tomonga sirg'alishni oldini olishga yordam berishi mumkin.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Tepalikka ko'ndalang turgan avtomobilidan tepalikka pastki tomondan chiqish xavfli. Agar avtomobil ag'darilib ketsa, sizni ezib qo'yishi yoki halok qilishi mumkin. Faqat tepalik bo'ylab tepada joylashgan tomondan chiqing, va mashinaning tushib ketish ehtimolli traektoriyasidan uzoqroqda turing.

**Loy, qum, qor va muz ustidan haydash**

Loy ustidan harakatlanish vaqtida past yuritmada harakatlaning - loy qanchalik chuqur bo'lsa, shunchalik past.

Tiqilib qolmaslik uchun to'xtab qolishga yo'l qo'ymang.

Qum ustida ilakishish xarakteri o'zgaradi. To'kiluvchan qumda, masalan, dengiz sohilida yoki dyunalarda, shinalar qumga botib qolish moyilligiga ega. Bu rul boshqaruvi, tezlashish va tormozlanishga salbiy ta'sir qiladi. Past tezlikda harakatlaning va keskin burilishlardan va keskin manevrlardan saqlaning.

Zichlangan qorda va muzda ilakishish pasayadi, va avtomobil osongina boshqaruvni yo'qotadi.

Zichlangan qor va muz ustidan harakatlanishda tezlikni pasaytiring.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Muzlab qolgan ko'llar, havzalar va daryolar bo'ylab safar qilish xavfli bo'lishi mumkin. Muzning holati kuchli o'zgarishi mumkin, va avtomobil muz ostida tushib ketishi, siz va sizning yo'lovchilaringiz esa - cho'kib ketishingiz mumkin.

Safarni faqat ishonchli qoplamalar bo'ylab amalga oshiring.

**Suv bo'ylab harakatlanish****▲ OGOHLANTIRISH!**

Suv oqimlari orqali harakatlanish xavfli bo'lishi mumkin. Chuqur suv avtomobilni yuvib ketishi va siz va sizning yo'lovchilaringiz cho'kib ketishi mumkin. Hattoki chuqur bo'lmagan suv oqimi g'ildirak ostida erni yuvib yuborishi mumkin. Bu ilakishishni yo'qotilishiga olib keladi va avtomobil ag'darilib ketishi mumkin. Suv oqimi bo'ylab haydab o'tishga urinmang.

**▲ DIQQAT!**

Agar suv stupitsalar, ko'priklar yoki ishlangan gazlarni chiqarish quvuriga etayotgan bo'lsa, turib qolgan suv bo'ylab haydab o'tishga urinmang. Chuqur suv avtomobilning ko'priklarini va boshqa qismlarini shikastlashi mumkin.

Agar turgan suv unchalik chuqur bo'lmasa, u orqali asta-sekin harakatlaning. Katta tezlikda suv dvigatelga tushib qolishi mumkin va u o'chib qoladi. Dvigatel shu bilan birga agar ishlagan gazlarni chiqarish quvuri suv ostida bo'lib qolsa ham o'chib qolishi mumkin. Suv orqali harakatlanishda o't oldirishni o'chirmang. Agar ishlagan gazlarni chiqarish quvuri suv ostida bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish uddasidan

chiqib bo'lmaydi. Suv orqali harakatlanishda tormozlar nomi qadi, va to'xtash uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Nam yo'ldan harakatlanish ⇨ 8-7 quyida ushbu bo'limda ko'ring.

**Yo'lsiz sharoitlarda haydashdan so'ng**

Axlatlarni va loylarni tubdan va shassida va kapot osti oraliqdan olib tashlang. Ular alanganish xavfini keltirishi mumkin.

Loyda yoki qumda ishlatishdan so'ng tormoz nakladkalari tekshiring va tozalang. Tuproqning ushbu turlari polirovkalash va notekis tormozlanishni chaqirishi mumkin. Kuzov, rul boshqaruvi, osmani, g'ildiraklarni, shinalarni va ishlagan gazlarni chiqarish quvurini shikastlanishlarga tekshiring, yonilgi uzatishini va sovutish tizimini sizib chiqishlarga tekshiring. Ancha tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi.

**Nam yo'ldan harakatlanish**

Yomg'ir va nam yo'l qoplamasi yo'l bilan avtomobil g'ildiraklarining ilakishishini pasaytirishga olib kelishi va oqibatda tormozlanish yo'lini va tezlashish vaqtini uzaytirishi mumkin. Bunday sharoitlarda harakatlanish tezligini pasaytirish, katta va chuqur ko'lmaklar yoki jilg'alar orqali safar qilishdan saqlanish zarur.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Tormoz disklarining namlanib qolishi YTH olib kelishi mumkin. Avariya tormozlanishi sharoitida ular yetarlicha samaradorlikni ta'minlab bermaydi, buning oqibatida avtomobilni chetga olib qochilishi mumkin. Bu boshqaruvni yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Katta ko'lmak bo'ylab o'tishdan yoki avtoyuvish joyidan chiqishdan so'ng diskarni quritish va tormoz mexanizmlarining me'yordagi ishini tiklash uchun tormoz tepkisini bir necha bor sekin bosish zarur.

Suv oqimlari avtomobilning harakatiga sezilarli qarshi ta'sir kuchlarni hosil qilishga qodir.

Suv oqimi orqali haydab o'tishda avtomobilni yuvib ketilishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, siz salonda bo'lgan boshqa odamlar bilan birga cho'kib ketishingiz mumkin. Avtomobil nazoratining ogohlantirishlariga befarq bo'lmang va suv to'siqlarini kechib o'tishda alohida ehtiyotkorlikni namoyish eting.

**Akvaharakatlanish**

Akvaharakatlanish o'zida xavfni olib keladi. Yo'l yuzasi va shina orasidagi suv plyonkasi ilakishishni to'liq yo'qotilishiga olib keladi. Akvaharakatlanish samarasi avtomobil nam yo'l bo'ylab yetarlicha yuqori tezlikda harakatlanayotgan vaqtdagi holatda sodir bo'lishi mumkin. Akvaharakatlanish sharoitlarida avtomobil g'ildiraklari deyarli to'liq yo'l bilan aloqani yo'qotadi.

Ushbu alomatdan o'zimizni himoyalashga imkon beradigan biron bir qoidalarga rioya qilish mavjud emas. Eng yaxshi maslahat - agar siz nam yo'l bo'ylab haydab ketayotgan bo'lsangiz, harakatlanish tezligini sekinlashtirish.

**Yomg'ir vaqtida avtomobilni boshqarish bo'yicha boshqa tavsiyalar**

Tezlikni kamaytirishdan tashqari, nam yo'lda siz quyidagi tavsiyalardan foydalanishingiz mumkin:

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani oshiring.
- Quvib o'tishni amalga oshirayotganda alohida ehtiyotkorlikka rioya qiling.
- Oyna tozalagichlarning sozligini kuzating.
- Yuvgich bachogida har doim yetarlicha suyuqlik bo'lishi uchun kuzating.
- Shinalarning protektorini yedirilishi ruxsat etilgan chegaradan oshib ketmasligini kuzating. Shinalar ⇨ 9-33 ni ko'ring.
- Krui-z-nazoratni o'chiring.

**Tog'li yo'llardan harakatlanish**

Keskin tepaliklardan yoki tog' yo'llaridan haydash tekis joyda haydashga qaraganda farq qiladi. Quyidagi tavsiyalardan foydalaning:

- Avtomobilning sozligi va yaxshi texnik holatini kuzating.
- Barcha ishlatish suyuqliklarining sathini, tormoz tizimining holatini, sovutish tizimining, yuritmalar qutisini tekshiring.
- Keskin yoki davomli tushishlarda ancha past yuritmalarga o'ting.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Uzun tushishlarda avtomobil harakatlanishini sekinlashtirish uchun tormozlarning qo'llanilishi tormozlarning ortiqcha qizib ketishiga, tormozlanish samaradorligini pasayishiga olib kelishi, va oqibat sifatida tormozlarning buzilishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin. Keskin tushishda tormoz bilan tormozlanishga qo'shimcha sifatida dvigatel bilan tormozlanish uchun yuritmalar qutisini pasaytirilgan yuritmaga o'tkazing.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Yoqilgan neytral yuritma yoki o'chirilgan o't oldirish bilan g'ildiratib ketish bilan tushishga harakatlanish xavfni tug'diradi. Bu tormozlarning ortiqcha qizib ketishiga va rul boshqaruvi kuchaytirgichini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Har doim dvigatelni va oldinga yurish yuritmasining biri yoqilgan holatda tutib turing.

- Avtomobilni o'z harakatlanish qatorida tutib turishga imkon beruvchi tezlikda harakatlaning. Rulning keng burilishlarni qilmang va o'rta bo'lib turish chizig'ini kesib o'tmang.
- Relyefning qing'ayishlariga alohida e'tiborli bo'ling; sizning yo'lingizda kutilmagan to'siqlar vujudga kelishi mumkin (masalan, to'xtab qolgan avtomobil, avariya).
- Yo'l belgilarini kuzatib boring (masalan, toshlarning qulashi, ilonizi yo'l, uzun tushish, quvib o'tish taqiqlangan, quvib o'tishni taqiqlash zonasining oxiri) va zaruriy harakatlarni oldindan amalga oshiring.

**Qishda harakatlanish****Qor va muz bo'ylab harakatlanish**

Shinalar va yo'l orasidagi qor yoki muz shinalarning yo'l qoplamasi bilan tortish kuchini va ilakishishini pasaytiradi, shuning uchun avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqaring. Nam muz qor aralash yomg'ir yog'ayotganida taxminan 0 °C (32 °F) haroratda hosil bo'lishi mumkin.

Nam muz bo'ylab yoki qor aralash yomg'ir vaqtda safarlardan saqlaning. Yo'llar tozalaguniga qadar kuting.

**Sirg'anchiq yo'l bo'ylab avtomobilni haydashda:**

- Sekin tezlashing. Juda tez tezlashish g'ildiraklarning sirpanib aylanishiga olib keladi, bu shinalar ostidagi yuzani silliqlashtiradi.
- Tortish kuchi nazorat tizimini yoqing. Tortish kuchi nazorat tizimi/Dinamik stabilashtirish elektron tizimi ⇨ 8-26 ni ko'ring.
- Antibloklash tormozlash tizimi (ABS) keskin tormozlanish bilan to'xtalishlarda avtomobilning turg'unligini oshiradi, ammo quruq asfaltga qaraganda vaqtlitiroq tormozlashni boshlash lozim. Antibloklash tormoz tizimi (ABS) ⇨ 8-22 ni ko'ring.
- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani uzaytiring va sirg'aliq yo'l qismlarini kuzatib boring. Hattoki soyalashtirilgan toza yo'lning yuzalarida ham muz qatqalog'i mavjud bo'lishi mumkin.

Burilishlarda va kesib o'tish yo'llarida ham muz, hattoki agar unga yaqin qismlarda u mavjud bo'lmasa ham mavjud bo'lishi mumkin. Muz ustidan harakatlanayotganda, yo'nalishning keskin o'zgartirishdan va tormozlanishdan saqlaning.

- Kruiz-nazoratni o'chiring.

**Qor bo'roni**

Avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating va halokat signalini uzating. Agar yordam juda ham yaqin joyda joylashgan bo'lmasa, avtomobilni tark etmang.

Halokat signalini uzatish va avtomobil salonida bo'lgan barcha odamlarning xavfsizligini ta'minlash uchun:

- Avariya signalizatsiyasini yoqing.
- Qizil mato bo'lagini orqani ko'rish tashqi toshoyinasiga bog'lab qo'ying.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Qor avtomobilning dud chiqarish quvurini tiqiltirib qo'yishi mumkin. Bunda ishlangan gazlar salon ichiga kirib borishni boshlaydi. Ishlangan gazlar rangga va hidga ega bo'lmagan karbonat angidridni (CO) saqlaydi. Ushbu gazni ichga nafas olish xushning yo'qotilishiga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin.

Agar avtomobil qorda tiqilib qolgan bo'lsa:

- Avtomobil tubini qordan tozalang, ayniqsa agar u ishlangan gazlarni chiqarish quvurini tiqiltirib qo'yayotgan bo'lsa.
- Salonga toza havo kelishini ta'minlash uchun taxminan 5 smga (2 dyuym) avtomobilning shamolli tomonidagi oynani oching.
- Asbob-uskunalar paneli yoki uning ostidagi ventilyatsiya soplalarini yopgichlarini to'liq ochib qo'ying.
- Iqlim-nazorat tizimini retsirkulyatsiya tartibiga o'tkazing va ventilyatorning maksimal aylanish tezligini o'rnatning. "Iqlim-nazoratining tizimi"ni ko'ring.

CO haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni ishlangan gazlar ⇨ 8-17 bo'limida ko'ring.

Yonilg'ini tejash maqsadida, avtomobilni isitish uchun qisqa vaqt oralig'iga dvigatelni ishga tushiring, so'ngra esa dvigatelni o'chiring va qisman oynani yoping. Jismoniy mashqlar ham isinib olishga yordam beradi.

Agar siz yordamning tez kelishini kutmayotgan bo'lsangiz, u holda yuksiz yurishning aylanishlaridan yuqoriga dvigatelni tezlashtirish uchun, ishga tushirilgan dvigatelda akselerator tepkisini asta-sekin bosing. Bu dvigatelning keyingi ishga tushirilishi va bosh chiroqlar yordamida yordam haqida signallarni uzatish uchun talab etiladigan akkumulyator quvvatini qo'llab turishga yordam beradi. Yonilg'ini tejash uchun bunga iloji boricha kamroq murojaat qiling.

**Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa**

Qum, loy, muzdan yoki qordan chiqib olish uchun akselerator tepkisini sekin va ehtiyotkorlik bilan bosing. Agar siz juda ham qattiq tiqilib qolgan bo'lsangiz, g'ildiraklar ilakishishi hisobiga chiqib olish uchun, shatakchilashga qarshi tizimni o'chiring va avtomobilni chayqatib ko'rishga urining. Tortish kuchi nazorati tizimi/Dinamik stabilashtirish elektron tizimi ⇨ 8-26 ni ko'ring.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Agar avtomobil g'ildiragi juda katta tezlikda aylanayotgan bo'lsa, shinalar portlab ketishi va sizni yoki boshqa odamlarni jarohatlashi mumkin.

Avtomobil ortiqcha qizib ketishi mumkin, bu o'z navbatida motor bo'linmasining alanganishiga yoki buzilishlarga olib kelishi mumkin. G'ildiraklarning bo'sh aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslikka va tezlikni 56 km/soat (35 mil/soat)ga oshirmaslikka harakat qiling.

**Tiqilib qolgan avtomobilni chayqatish**

Oldingi g'ildiraklar atrofidagi maydonni tozalash uchun, rul chamberagini chapga va o'nga buring.

Shatakchilashga qarshi tizimni o'chiring. G'ildiraklarning shatakchilashiga iloji boricha kamroq yo'l qo'yib, orqaga yurish R yuritmaga va oldinga yurishning past yuritmasiga navbatma-navbat o'ting. YUO'Q detallarini yedirilib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, yuritmani o'zgartirishdan avval, g'ildiraklar butkul to'xtamagunicha kuting. Yuritmalarni o'zgartirish vaqtiga akselerator tepkisini qo'yib yuboring, zaruriy yuritma yoqilganidan so'ng esa uni asta-sekin bosing. Akselerator tepkisini ozgina bosish bilanoldinga va orqaga yurish yuritmasini almashlab yoqilishi avtomobilning chayqalishiga olib keladi, u sizga chiqib

## ISHGA TUSHIRISH VA ISHLATISH

### Yangi avtomobilni chiniqtirish

**▲ DIQQAT!**

Sizning avtomobilingizga maxsus chiniqtirish talab etilmaydi.

Biroq agar siz quyida keltirilgan tavsiyalarga rioya qilsangiz, uzoq muddatli istiqbolda u ko'proq xizmat qiladi.


- Birinchi 800 km (500 mil) ni bitta doimiy tezlikda (kattami yoki kichikmi, muhim emas) harakatlanishdan saqlaning. Joyingizdan keskin tezlik olmang. Tormozlanish yoki sekinlashish uchun pastki yuritmaga o'zgartirishdan foydalanmang.
- Birinchi 300 km (200 mil) da keskin tormozlanishdan saqlaning. Bu yangi tormoz nakladkalari jipslanib olishi uchun zarur. Yangi nakladkalar bilan keskin tormozlanish ularning muddatidan ilgari yedirilishiga va muddatidan erta almashtirish zaruratiga olib kelishi mumkin. Ushbu tavsiyaga tormoz nakladkalarini har bir almashtirishdan so'ng rioya qiling.

Chiniqtirishdan so'ng dvigatel aylanishlarini va yuklamalarni asta-sekin oshirish mumkin.

olishingizga yordam beradi. Agar bunday chayqatishning bir necha urinishlari natija bermagan bo'lsa, sizga shatakchi talab etilishi mumkin.

Agar shataklash zarurati tug'ilgan bo'lsa, Avtomobilni shataklash ⇨ 9-56 bo'limni ko'ring.

### Ishga tushirish o'zgartirgichi holati



Avtomobil o't oldirishning elektron qulfi bilan jihozlangan, uning uchun kalit qo'llanilmaydi, ishga tushirish tugma yordamida amalga oshiriladi.

Tizim ishlashi uchun, masofadan boshqarish radiobrelogi (RKE) avtomobil salonida joylashgan bo'lishi kerak.

Agar tugma yordamida ishga tushirish ishlamayotgan bo'lsa, ehtimol, avtomobil kuchli radio-signallar va masofadan boshqarish elektron tizim ishiga elektr magnit to'siqlar hosil qiluvchi antenna yaqinida joylashtirilgan. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-3 ni ko'ring.

### **To'xtalish/dvigatelni o'chirish (indikatorlar yorishib turmayapti)**

Avtomobil turgan paytida, dvigatelni o'chirish uchun, bir marta ENGINE START/STOP (DVIGATEL START/STOPI) bosing. Selektor dastagini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazish uchun, avtomobil yoqilgan va tormoz tepkisi bosilgan bo'lishi kerak.

Agar YUO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga joylashtirilgan bo'lsa, u holda o't oldirish o'chadi, zaxira oziqlantirish moduli (RAP) esa ishlashni davom ettiradi. Zaxira oziqlantirish moduli ↻ 8-15 ni ko'ring.

Agar YUO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatida bo'lmasa, u holda o't oldirish ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) holatiga qaytadi, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida TO'XTAB TURISHGA JOYLASHTIRISH YURITMASINI YOQING xabari paydo bo'ladi. YUO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazilgan vaqtda, o't oldirish o'chadi.

Avtomobil harakatlanishi vaqtida dvigatelni o'chirmang. Bunda tormoz kuchaytirgichlari va rul boshqaruvi, hamda ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi ishlamay qoladi.

Agar avariyaaviy holatda avtomobilni o'chirish zarurati tug'ilsa:

1. Ko'p bo'lmagan va doimiy kuch berib, tormoz tepkisini bosing. Tormoz tepkisini bir necha marta ketma-ket bosmang va qo'yib yubormang. Bu vakuum kuchaytirgich

kamasida quvvatning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin, buning natijasida tormoz tepkisini bosish uchun ko'proq kuch berish talab etiladi.

2. N (Neytral) yuritmaga o'ting. Buni bevosita harakatlanish vaqtida qilish mumkin. N (Neytral) yuritmaga o'tib, kuch bilan tormoz tepkisini bosing va avtomobilni xavfsiz joyga yo'naltiring.

3. To'liq to'xtashni kuting. P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'ting va o't oldirishni o'chiring.

4. Elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqing. Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi ↻ 8-23 ni ko'ring.

### **▲ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobil harakatlanishida dvigatelning o'chirilishi tormoz kuchaytirgichlari va rul boshqaruvi, hamda ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi ishlamay qolishiga olib keladi. Yurib ketishda dvigatelni o'chirish faqat qat'iy zarurat bo'lgan holatda qilish kerak.

Agar siz yo'l yoqasiga haydab o'tilish imkoniga ega bo'lmasangiz, va sizga harakatlanish vaqtida dvigatelni o'chirib qo'yish kerak bo'lsa, ENGINE START/STOP tugmasini ikki soniyadan ortiqqa ushlab turing yoki uni besh soniya davomida ikki marta bosing.

### **ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) (sariq indikator yorishib turibdi)**

Bunday tartibda siz dvigatel o'chirilgan paytda ba'zi bir yordamchi asbob-uskunalaridan foydalanishingiz mumkin.

O't oldirish o'chirilganida ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) tartibini yoqing uchun, tormoz tepkisiga bosmasdan, tugmaga bir marta bosing.

Besh minutdan so'ng o't oldirish ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) tartibidan akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishidan saqlanish uchun O'CHIRILGAN tartibga o'tadi.



### **ON/RUN/START (YOQISH/ISHGA TUSHIRISH/ START) (yashil indikator yorishib turibdi)**

Bu tartib safar va dvigatelni ishga tushirish uchun mo'ljallangan.

O't oldirish o'chirilgan va tormoz tepkisi bosilganida tugmaga bir marta bosish o't oldirish tizimini ON/RUN/START (YOQISH/ISHGA TUSHIRISH/ START) tartibiga o'tkazadi. Dvigatel ishga tushirilishni boshlashi bilanoq, tugmani qo'yib yuboring. Dvigatelni ishga tushirish toki dvigatel ishga tushmaguniga qadar davom ettiriladi. Dvigatelni ishga tushirish  $\diamond$  8-13 ni ko'ring. Bundan so'ng o't oldirish ON/RUN (YOQISH/ISHGA TUSHIRISH) tartibida ishni davom ettiradi.

#### **Servis tartibi**

Ushbu ishlash tartibi xizmat ko'rsatish va tekshirish uchun, hamda nosozlik signalizatorining to'g'ri ishlashini tekshirish uchun mo'ljallangan, bu atmosferaga zararli moddalarni chiqarib yuborilish darajasini tekshirish maqsadida talab etilishi mumkin. Servis tartibini yoqish uchun o'chirilgan dvigatel va tormoz tepkisi qo'yib yuborilgan holatda tugmani bosilsin va besh soniyadan ortiq ushlab turilsin.

Uskunalar va audiotizimi ON/RUN (YOQISH/ISHGA TUSHIRISH) tartibida qanday bo'lsa, shunday ishlaydi, ammo avtomobilda safar qilish imkonsiz bo'ladi. Servis tartibida dvigatel ishga tushirilmaydi. Avtomobilni o'chirish uchun, yana bir marta tugmani bosing.

#### **Dvigatelni ishga tushirish**

YUO'Q selektorini "P" (to'xtab turishga joylashtirish) yoki "N" (neytral yuritma) holatiga o'tkazing. Harakatlanib ketayotgan avtomobilda dvigatelni qayta ishga tushirish uchun, faqat N (neytral) holatni o'rnatish lozim bo'ladi.

#### **▲ DIQQAT!**

Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga avtomobil harakatlanishi vaqtida o'tkazishga urinmang. Bu yuritmalar qutisining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazishni faqat avtomobilning to'liq to'xtashidan so'ng mumkin.

#### **▲ DIQQAT!**

Qo'shimcha elektr uskunalarining o'rnatilishi dvigatelning ishini buzishi mumkin. Shikastlanish natijasida vujudga kelgan buzilishlar kafolatli hisoblanmaydi. Qo'shimcha asbob-uskunalar  $\diamond$  8-53 ni ko'ring.

#### **Dvigatelni ishga tushirish tartibi**

1. Agar avtomobil qulflarni masofadan boshqarish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, RKE tizimi radiobrelogi avtomobil salonida bo'lishi kerak. Tormoz tepkisi bosilgan holatda ENGINE START/STOP tugmasini bosing.

Dvigatel ishga tushirilishni boshlashi bilanoq, tugmani qo'yib yuboring. Dvigatelni qizishi bo'yicha yuksiz yurish aylanishlari pasayib boradi. Ishga tushirishdan so'ng darhol dvigatelni tezlashtirmang. Agar RKE tizimi radiobrelogi avtomobilda bo'lmasa yoki to'siqlar mavjud bo'lsa yoki RKE tizimi radiobrelogining batareykasi quvvatsizlangan bo'lsa, haydovchining axborot markazida (DIC) xabar chiqariladi. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi  $\diamond$  1-3 ni ko'ring.

#### **▲ DIQQAT!**

Oldingi ishga tushirishdan keyin biron bir pauzasiz "ISHGA TUSHIRISH" holatiga o't oldirish qulfini o'tkazish yo'li bilan dvigatelni ishga tushirishning uzluksiz va davomiy urinishlari starterning ortiqcha qizib ketishiga va uning ishdan chiqishiga, hamda akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Starter sovushga ulgurishi uchun dvigatelni qayta ishga tushirishga urinishdan avval kamida 15 soniya kuting.

2. Agar dvigatel 5-10 soniya o'tishi bo'yicha ishga tushmayotgan bo'lsa, ayniqsa juda past havo haroratida (-18 °C yoki 0 °F dan past), bu o't oldirish svechalarining benzin bilan quyilishiga olib kelishi mumkin. Gaz tepkisini tiralgunicha bosishga, va, uni ushlab turib, ENGINE START/STOP ni bosishga urinib ko'ring.

Urinishlar orasida starter sovushga ulgurishi uchun kamida 15 soniya tanaffus qiling. Dvigatel ishga tushishidan so'ng, akselerator tepkisini qo'yib yuboring. Agar dvigatel ishga tushirilishi bilanoq o'chib qolayotgan bo'lsa, xuddi shu harakatlarni bajaring. Bu dvigatel silindridan ortiqcha benzinni olib tashlab, ularni puflab tozalashga imkon beradi. Ishga tushirishdan so'ng darhol dvigatelni tezlashtirmang. Moy isishi va barcha harakatlanuvchi detallarni moylashi uchun dvigatelni va YUO'Q ni ortiqcha yuklamang.

#### **Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimi**

Avtomobilingizda yonilg'i sarfini kamaytirish uchun avtomatik dvigatelni to'xtatish / ishga tushirish tizimi mavjud. Ko'p sonli start uchun mo'ljallangan komponentlar bilan jihozlangan.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish funksiyasi avtomobil yoqilgan holatda qolayotgan vaqtda, dvigatelning o'chirilishini chaqiradi. Selektorni P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazilmaguniga qadar avtomobildan chiqmang.

Avtomobil qayta ishga tushirilishi va to'satdan harakatga kelishi mumkin. Avtomobildan chiqishdan avval har doim yuritmalar selektorini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing, so'ngra esa o't oldirishni o'chiring.

#### **Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish**


Tormoz bosilgan va avtomobil to'liq harakatsiz bo'lgan vaqtda, dvigatelning o'chirilishi amalga oshishi mumkin.

O'chirishda taxometr AUTO STOP ni aks ettiradi. Taxometr  $\curvearrowright$  4-9 ni ko'ring. Tormoz tepkisini qo'yib yuborishdan so'ng va akseleratorning tepkisini bosishda dvigatelning takroran yoqilishi amalga oshadi.

Avtomobilning ishlatilish xarakteristikalarini ta'minlash uchun boshqa sharoitlar tormoz tepkisi qo'yib yuborilguniga qadar dvigatelning avtomatik qayta ishga tushirilishini chaqirishi mumkin. Dvigatelning avtomatik to'xtatilishi amalga oshmasligi va/yoki dvigatelning avtomatik ishga tushirilishi quyidagi sabablar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- Iqlim-nazorat sozlamalari avtomobil salonini sovutish yoki isitish uchun dvigatelning ishlashini talab etadi.
- Avtomobilning akkumulyator batareyasi quvvatning past darajasiga ega.
- Avtomobilning akkumulyator batareyasi yaqinda o'chirilgan.
- Oxirgi avtomatik to'xtalish vaqtidan avtomobilning minimal tezligiga erishilmagan.
- Akselerator tepkisi bosilgan.
- Dvigatel va yuritmalar qutisi talab etiluvchi ishchi haroratga erishmagan.
- Tashqi harorat talab etiluvchi ishchi diapazonda joylashmagan.
- Avtomobilda D (Drive) dan tashqari, har qanday boshqa yuritma yoqilgan.
- Avtomobil keskin tepalikda yoki qiyalikda joylashtirilmagan.
- Haydovchining eshigi ochilgan yoki haydovchining o'rindig'ida xavfsizlik kamari taqilmagan.
- Kapot ochilgan.
- Avtomatik to'xtalish maksimal ruxsat etilgan vaqtga erishdi.

### Dvigatelni avtomatik to'xtatish funksiyasi o'chirgichi



Dvigatelni avtomatik to'xtatish va uni ishga tushirish funksiyasi (A) bosish bilan o'chirilgan yoki qayta yoqilgan bo'lishi mumkin. Dvigatelni avtomatik to'xtatish/uni ishga tushirish funksiyasi o't oldirishni har yoqilganida faollashadi. Agar (A) indikator yorishib turgan bo'lsa, demak tizim yoqilgan.

#### Zaxira oziqlanish moduli

Avtomobilning ba'zi yordamchi asbob-uskunalarini o't oldirish o'chirilganidan so'ng qo'llash mumkin. Elektr oyna ko'targichlar va tom lyuki uzatmasi, agar jihozlanishda mavjud bo'lsa, yana 10 minut yoki eshiklardan biri ochilmagunicha ishlashni davom ettiradi.

Axborot-ko'ngilochar tizim toki haydovchi eshigi ochilmagunicha yoki toki o't oldirish yoqilgunicha yoki o't oldirish qulfi ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) holatida bo'lganida, 10 minut davomida ishni davom ettiradi.

### "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

YUO'Q selektori oxirigacha "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnatilmagan bo'lsa, avtomobilni tark etish xavfli. Avtomobil yurib ketishi mumkin. Ishlayotgan dvigatelli avtomobilni tark etmang. Agar bunda siz dvigatelni o'chirmagan bo'lsangiz, avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu odamlarni jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning, hattoki agar u tekis yuzada turganida ham, mustaqil harakatlanish ehtimolini oldini olish uchun, to'xtab turish tormozini yoqing va selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-15 ni ko'ring.

P (to'xtab turishga joylashtirish) tartibiga o'tish uchun:

1. Tormoz tepkisini bosing va to'xtab turish tormozini yoqing.

Qo'shimcha ma'lumotlarni Elektr uzatmasi to'xtab turish tormozi ⇨ 8-23 bo'limida ko'ring.

2. Yuritmalarni o'zgartirish dastagida tugmani bosilgan holda ushlab turib, dastakni oldinga P ("To'xtab turishga joylashtirish") holatiga o'tkazing.

3. O't oldirishni o'chiring.

### Ishlab turgan dvigatel bilan avtomobilni qoldirish

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Ishlab turgan dvigatel bilan avtomobilni tashlab ketish xavfli. Dvigatel ortiqcha qizib ketishi va alanganlanib ketishi mumkin. YUO'Q selektori oxirigacha "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnatilmagan bo'lsa, avtomobilni tark etish xavfli. Avtomobil yurib ketishi mumkin. Ishlayotgan dvigatelli avtomobilni tark etmang. Agar bunda siz dvigatelni o'chirmagan bo'lsangiz, avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu odamlarni jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning, hattoki agar u tekis yuzada turganida ham, mustaqil harakatlanish ehtimolini oldini olish uchun, to'xtab turish tormozini yoqing va selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-15 ni ko'ring.

Agar sizga avtomobildan dvigatelni o'chirmasdan chiqish zarur bo'lsa, YUO'Q selektorini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing va to'xtab turish tormozini yoqing.

Tugmani qo'yib yuboring va yuritmalarni o'zgartirish dastagi P ("To'xtab turishga joylashtirish") holatida mahkamlab qo'yilganligini tekshiring.

#### **YUO'Q selektori mexanizmini tishlab qolinishi**

YUO'Q selektori mexanizmini tishlab qolinishi g'ildiraklardan uzatiluvchi aylanish momenti ta'siri ostida YUO'Q ni bloklash mexanizmi mahkamlagichiga bosimning oshishida sodir bo'ladi. Bu agar avtomobilni qiyalikka to'xtab turishga joylashtirishda va selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazishda sodir bo'lishi mumkin. Bunday holatda ushbu holatdan selektorni chiqarish qiyin bo'ladi. Bundan saqlanish uchun, avval to'xtab turish tormozini yoqing va ana undan so'ng AYUO'Q selektorini "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.

Harakatlar tartibi yuqorida "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish" bo'limida tasniflanadi.

Agar YUO'Q selektori mexanizmining tishlab qolinishi baribir sodir bo'lgan bo'lsa, YUO'Q bloklash mexanizmi mahkamlagichini blokdan chiqarish va selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazish uchun avtomobilni shatakda tepalikka o'zgina itarib yuborish talab etilishi mumkin.

#### **"To'xtab turishga joylashtirish" holatidan o'tish**

Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarish uchun:

1. Tormoz pedalini bosing.
2. O't oldirishni yoqing.
3. AYUO'Q selektori dastagida tugmani bosing.
4. Selektor dastagini o'tkazing.

Agar selektorni P (To'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarish avvalgidek erishimli bo'lmayotgan bo'lsa:

1. AYUO'Q selektori dastagida tugmani to'liq qo'yib yuboring.
2. Tormoz tepkisini bosilgan holatda ushlab turib, qayta selektor dastagidagi tugmani bosing.
3. Selektor dastagini o'tkazing.

Agar yuritmalar o'zgartirgichi dastagini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatdan o'tkazish hanuzgacha erishimli bo'lmayotgan bo'lsa, ta'mirlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

#### **Alanganuvchi yuzada to'xtab turishga joylashtirish**

##### **▲ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobilning chiqarish tizimining issiq detallari bilan alanganuvchi materiallarning teginishi ularni alanganib ketishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishda, uning tubida qog'oz, quruq barglar yoki o'tlar va boshqa alanganuvchi materiallar mavjud bo'lib qolmasligi uchun kuzating.

#### **Active Fuel Management**

Ushbu avtomobil dvigateli yonilg'i uzatilishini faol boshqarish tizimi bilan jihozlanishi mumkin, u unga o'zining barcha silindrlarini qo'llash bilan ishlashga, yoki harakatlanish sharoitlariga bog'liq holda silindrlar sonini qisqartirish imkonini beradi.

Agar yuqori quvvat talab etilmayotgan bo'lsa, masalan doimiy yuqori tezlikda harakatlanishda, tizim ancha yuqori yonilg'i tejamkorligini ta'minlab, silindrlarning eng kam sonini qo'llash bilan ishlaydi. Agar ancha yuqori quvvat talabi vujudga kelsa, masalan joydan qo'zg'alishda, quvib o'tishda yoki yuqori tezlikdagi shossega chiqishda, yonilg'i barcha silindrlarga uzatiladi.

Agar avtomobil yonilg'i uzatilishini faol boshqaruvchi tizimi indikator bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu indikatsiyani qo'llash bo'yicha qo'shimcha ma'lumotni olish uchun haydovchining axborot markaziga (DIC) qarang.

#### **Uzoq muddatga to'xtab turishga joylashtirish**

To'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilni yoqilgan holatda qoldirish tavsiya etilmaydi. Agar avtomobil yoqilgan holatda qoldirilgan bo'lsa, u harakat qilmasligiga va ventilyatsiya yetarlicha ekanligiga ishonch hosil qiling.

"To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-15 va ishlangan gazlar ⇨ 8-17 ni ko'ring.

## ISHLANGAN GAZLAR

Agar avtomobilni ishlayotgan dvigatel bilan to'xtab turishga qoldirilsa, dvigatel bir qancha vaqt ishlashni davom ettiradi. Agar avtomobil yonilg'i mavjud emasligi sababi bo'yicha tepalikda to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lsa, u avvalroq yoqilishi mumkin.

Agar avtomobil ishlashi vaqtida selektor P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarilganida, taymer tashlab yuborilgan bo'ladi.

 **OGOHLANTIRISH!**

Ishlangan gazlar rangga va hidga ega bo'lmagan karbonat angidridni (CO) saqlaydi.

Is gazini ichga nafas olish xushning yo'qotilishiga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin. Ishlangan gazlar avtomobil saloniga quyidagi holatlarda tushib qolishi mumkin:

- Dvigateli yuksiz yurishda ishlayotgan avtomobil yomon ventilyatsiya joylarda joylashgan (parkinglar, garajlar, tonnellar, avtomobil tubida havo aylanishini to'sib qo'yishi yoki ishlagan gazlarni chiqarish quvurini bloklab qo'yishi mumkin bo'lgan chuqur qor).
- Ishlangan gazlarni chiqarish tizimidan noodatiy hid tarqalmoqda yoki tovush eshitilmoqda.
- Ishlangan gazlar chiqarish tizimida korroziya yoki shikastlanish oqibatida sizib ketish sodir bo'ldi.
- Avtomobilning ishlagan gazlarni chiqarish tizimi o'zgartirilgan, shikastlangan yoki noto'g'ri ta'mirlangan.
- Avtomobil kuzovida shikastlanishlardan yoki sotuvdan keyingi qo'shimcha ishlanmalardan so'ng to'liq germetizatsiya qilinmagan tirqishlar yoki teshiklar mavjud.

Agar noodatiy gazlar aniqlansa yoki avtomobil ichiga ishlangan gazlar kirib borayotganligiga shubhalar bor bo'lsa:

 **OGOHLANTIRISH!**

- Faqat to'liq tushirilgan oynalar bilan avtomobilni haydang.
- Avtomobilni ta'mirlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga darhol murojaat qiling.

Dvigateli ishlayotgan avtomobilni hech qachon berk joylarda, garajlarda yoki yaxshi ventilyatsiya bilan jihozlanmagan xonalarda qoldirmang.

### Benzin dvigatelining qurum filtri

Qurum filtri (barcha jamlanmalarda ham ko'zda tutilmagan) benzin dvigatel tomonidan ishlab bo'lgan gazlarda saqlanadigan qurum zarralarini tutib oladi, shu bilan ularning toksikligini pasaytiradi. Safar qilishning oddiy tartibida ishlagan gazlarning toksiklikni pasaytirish tizimi sizning aralashuvigizsiz qurum filtrini avtomatik tozalashi mumkin.

Ma'lum sharoitlarda, masalan, past haroratlarda sovuq dvigatelni ko'p marotaba ishga tushirishga urinishda yoki past tezlikda qisqa masofalarga muntazam safar qilishda, benzin dvigatelining qurum filtri o'z-o'zini tozalashni bajarolmaydi. Haydovchining axborot markazi displeyiga chiqariluvchi ko'rsatmalarga rioya qiling. Quyida keltirilgan yo'riqnomalarni buzilishi dvigatel quvvatini tushishiga olib kelishi mumkin:

Haydovchining axborot markazi displeyida "Cleaning Exhaust Filter Continue Driving" (Qurum filtring tozalanishi bajarilmoqda. Harakatlanishni to'xtatmang) xabari aks ettirilayotgan vaqtida, kelib chiqadiki, YHX talablarini buzmaganda holda, regeneratsiya jarayonini yakunlash uchun, yana taxminan 15 minut davomida 60 km/soatdan past bo'lmagan tezlikda harakatlanishni davom ettirish kerakdir. Haydovchining axborot markazi displeyida "Cleaning Exhaust Filter Continue Driving" (Qurum filtring tozalanishi bajarilmoqda. Harakatlanishni to'xtatmang!) xabari aks ettirilayotgan va dvigatelni nosozligi signalizatori yorishib turgan vaqtida, kelib chiqadiki, YHX buzmaganda holda, regeneratsiya jarayonini yakunlash uchun yana taxminan 30 minut davomida 60 km/soatdan past bo'lmagan tezlikda harakatlanishni davom ettirish, yoki iloji boricha tezroq qurum filtriga xizmat ko'rsatilishini o'tkazish uchun dilerga murojaat qilish kerakdir. Haydovchining axborot markazida xabar va indikator regeneratsiya yakunlangandan so'ng yoki o't oldirishni keyingi yoqilishida o'chadi.

### **To'xtab turgan avtomobilda ishlayotgan dvigatel**

Dvigateli yoqilgan to'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilni qoldirish tavsiya etilmaydi.

Agar sizga dvigatelni o'chirmasdan avtomobilni tark etish zarur bo'lsa, uning mustaqil harakatlanishni boshlashi ehtimolini istisno qilish uchun barcha zaruriy choralarini ko'ring. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-15 va Ishlagan gazlar ⇨ 8-17 bo'limida ko'ring.

### **AVTOMATIK YURITMALAR QUTISI**



**P:** Ushbu holatda oldingi g'ildiraklar bloklanadi. Selektorni P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga dvigatelni ishga tushirishda o'rnatish, chunki bu holatda avtomobil to'satdan joyidan siljiy olmaydi.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

YUO'Q selektori oxirigacha "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnatilmagan bo'lsa, avtomobilni tark etish xavfli. Avtomobil yurib ketishi mumkin.

Ishlayotgan dvigatelli avtomobilni tark etmang. Agar bunda siz dvigatelni o'chirmagan bo'lsangiz, avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu odamlarni jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning, hattoki agar u tekis yuzada turganida ham, mustaqil harakatlanish ehtimolini oldini olish uchun, to'xtab turish tormozini yoqing va selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-15 ni ko'ring.

Sizning avtomobil avtomatik yuritmalar qutisini o'zgarishini bloklanishini boshqarish tizimi bilan jihozlangan. Yuritmalar o'zgartirish dastagini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarishdan avval, odatiy tormozni to'liq yoqish zarur, bundan so'ng yuritmalarni o'zgartirish dastagida tugma bosilsin.

Agar siz P (To'xtab turishga joylashtirish) holatidan o'zgartirish uddasidan chiqolmayotgan bo'lsangiz, selektor dastagiga bosimni susaytiring va uni tiralgunicha P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga

o'tkazing, bunda tormoz tepkisini bosib turilishini saqlab turing. Bundan so'ng selektor dastagidagi tugmani bosing va selektorni yuritmalardan biri holatiga o'tkazing.

"To'xtab turishga joylashtirish" holatini o'tkazish ⇨ 8-15 ni ko'ring.

**R:** Ushbu yuritmani orqa bilan harakatlanish uchun qo'llang.

**▲ DIQQAT!**

Oldinga harakatlanish vaqtida "R" (orqaga yurish) holatiga o'tkazish yuritmalar qutisining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu holatda ta'mirlash kafolatlari hisoblanmaydi. Selektorni "R" (orqaga yurish) holatiga o'tkazishni faqat avtomobilning to'liq to'xtashidan so'ng mumkin.

Qorda, muzda yoki qumda tiqilib qolgan avtomobilni chayqatib chiqarib olish bo'yicha yo'riqnomani Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa ⇨ 8-10 ni ko'ring.

**N:** Selektorning ushbu holatda dvigatel va g'ildiraklar tarqoq bo'ladi.

Harakatlanib ketayotgan avtomobilda dvigatelni qayta ishga tushirish uchun, faqat N (neytral) holatni o'rnatish lozim bo'ladi.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Dvigatel yuqori aylanishlarda aylanayotgan vaqtda oldinga yoki orqaga yurish yuritmasini yoqish xavfli. Agar siz tormoz tepkisini bosilgan holda ushlab turmaganda bo'lsangiz, avtomobil kutilmaganda yuqori tezlikda harakatlanishni boshlashi mumkin. Siz boshqaruvni yo'qotishingiz va odamlarni urib yuborishingiz yoki to'siqlarga to'qnashishingiz mumkin. Agar dvigatel yuqori aylanishlarda ishlayotgan bo'lsa, oldinga yoki orqaga yurish yuritmalarini yoqmag.

**▲ DIQQAT!**

Dvigatel yuqori aylanishlarda ishlayotgan vaqtda selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) yoki "N" (neytral yuritma) holatidan chiqarilishi, yuritmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu holatda ta'mirlash kafolatlari hisoblanmaydi.

O'zgartirishni bajarib turib, dvigatelning aylanishlari juda ham yuqori bo'lmashligini kuzatib boring.

**⚠ DIQQAT!**

Avtomatik yuritmalar qutisining suyuqligi juda issiq bo'lish holatida displeyda yuritmalar qutisining juda yuqori harorati haqidagi xabar aks ettirilishi mumkin.

Ushbu sharoitlarda harakatlanish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. To'xtang va avtomatik yuritmalar qutisidagi suyuqlik sovishi uchun dvigatelni yuksiz aylanishlarda ishlashiga imkon bering. Avtomatik yuritmalar qutisidagi suyuqlik yetarlicha darajagacha soviganiida ushbu xabar g'oyib bo'ladi.

**D:** Ushbu holat oldinga harakatlanish uchun qo'llaniladi. Agar o'tish uchun ko'proq quvvat talab etilayotgan bo'lsa, akselerator tepkisini bosing.

**⚠ DIQQAT!**

Agar avtomobilda yuritmalar o'zgarmayotgan bo'lsa, ehtimol, yuritmalar qutisining buzilishi sodir bo'lgan. Zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

**⚠ DIQQAT!**

G'ildiraklarning shataklab aylanishi yoki faqat bitta akselerator tepkisi yordamida avtomobilni qiyalikda bir joyda ushlab turish YUO'Q ning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatda ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa, shataklamang. Qiyalikda to'xtab, avtomobilning qiyalik bo'ylab yurib ketishidan tutib turish uchun tormozni qo'llang.

**L:** Ushbu holat haydovchiga yuritmalar oralg'ini tanlashga imkon beradi. Qo'l tartibi ↻ 8-20 ni ko'ring.

**Ish tartibi**

Yuritmalar qutisi tortish-dinamik xarakteristikalarni yaxshilash uchun odatiyga qaraganda ancha past yuritmalarda ishlashi mumkin.

Dvigatelning aylanish chastotasi yuqoriroq bo'lishi mumkin, buning natijasida quyidagi sharoitlarda shovqin oshishi mumkin:

- Nishablik bo'ylab harakatlanishda
- Qiyalik bo'ylab pastga harakatlanishda
- Havoning yuqori harorati sharoitlarida yoki katta tezlikda harakatlanishda

**Qo'l tartibi****Yuritmalar oralg'ini elektron tanlash tartibi (ERS)**

Qo'l tartibida va ERS tartibida yuritmalar oralg'ini mustaqil tanlash mumkin. Avtomobilning maksimal yuritmasini va tezligini cheklash uchun qiyalik bo'ylab pastga harakatlanishda yoki tirkamani shataklashda ushbu tartibni qo'llang. Haydovchining axborot markazida (DIC) yuritmalar indikatorida L harfi yonida qo'l tartibida erishimli eng yuqori yuritmani ko'rsatuvchi son va qo'l tartibida tanlangan harakatlanish sharoitlari aks ettirib turiladi.

Ushbu tartibni yoqish uchun:

1. YUO'Q selektorining dastagini L (Qo'l tartibi) holatiga o'tkazing.



## AVTOMOBILNI BOSHQARISH TIZIMLARI

### Uzatma turi

Avtomobil to'liq uzatma tizimi bilan jihozlangan.

### Doimiy to'liq uzatma tizimi

Ushbu funksiyali avtomobillar to'liq uzatma tartibida (AWD) ishlashi mumkin.

To'liq uzatmalar tizimi ilakishishni yaxshilash uchun quvvatni shunday sozlaydiki, bunda quvvat barcha to'rttala g'ildirakka uzatiladi.


To'liq uzatmalar tizimini faollashtirish uchun markaziy konsolda AWD ni bosing. AWD lampasi tizim yoqilish paytida qisqa muddatga yorishadi va so'ngra to'liq uzatma faol ekanligiga ko'rsatib, doimo yorishib turadi. Tizimni o'chirish uchun, tugmani yana bir marta bosing.

Agar tizim o'chsa va o'chirilgan holatda qolsa, lampa qisqa miltilaydi.

AWD tartibi o't oldirishning keyingi sikligacha saqlanib turadi.

Uzatma tartibida ikki g'ildirakka yetakchi bo'lib avtomobilning faqat oldingi g'ildiraklari hisoblanadi; ushbu tartib yonilgi sarfi nuqtai nazaridan ancha tejimli bo'lishi mumkin.

Agar biron bir vaqtinchalik sabablar bo'yicha to'liq uzatmalar tizimi o'chsa, ekranga o'chirilganlik haqida xabar chiqariladi. Avtomobil ikki g'ildirakka uzatma tartibida harakatlanishni davom ettiradi.



2. Yuritmalarning erishimli diapazonini oshirish yoki kamaytirish uchun, YUO'Q selektori dastagida "+" / "-" tugmalarini bosing. L (qo'l tartibi) ga o'tishda YUO'Q yuritmalarning oldindan berilgan ancha past diapazoniga o'tadi. Ushbu uchun eng yuqori erishimli yuritma diapazoni haydovchining axborot markazida L harfi bilan yonma-yon aks ettiriladi. Batafsil Haydovchining axborot markazi (DIC) 4-20 ni ko'ring. Ushbudan past barcha yuritmalar tanlash uchun erishimli. Masalan, agar "L" harfi bilan yonma-yon "4" (to'rtinchi yuritma) soni ko'rsatilgan bo'lsa, avtomobil 1-va 4-yuritmalar orasida avtomatik tarzda o'zgarishni boshlaydi. 5-yuritmaga o'tish uchun + tugmasini bosing yoki D ga o'ting.

L (qo'l tartibi) tartibida agar dvigatel aylanishlari juda yuqori bo'lsa, ancha past yuritmalar diapazoniga o'tish bloklanadi. Agar avtomobil tezligi ko'zda tutilgan davr vaqti davomida kamaymasa, pasaytirilgan yuritmalar diapazoniga o'tish bajarilmaydi. Avtomobil tezligini pasaytiring, so'ngra esa talab etilgan pasaytirilgan yuritmalar diapazoniga o'tish uchun "-" (minus) tugmasiga bosing. ERS tartibida kruiz-nazoratni qo'llash mumkin.

### Nosozlik

YUO'Qning nosozligi holatida avtomobil ogohlantirish beradi.

Ehtimol, YUO'Q bloklangan va yuritmalarni o'zgartirish imkoni yo'q. Nosozlikni topish va uni bartaraf qilish uchun TXKS ga murojaat qiling.

## TORMOZLASH TIZIMI

Ehtimolli sabablar:

- Kompakt ehtiyot g'ildirak avtomobilda.
- To'liq uzatmalar tizimining ortiqcha qizib ketishi.
- G'ildirak aylanishlari yoki avtomobil tezligining signalini mavjud emasligi.
- Avtomobilning elektron tizimida ba'zi boshqa buzilishlar.

Xabar kompakt ehtiyot g'ildirak to'liq o'lchamli g'ildirakka almashtirilganida, differensial suyuqligi soviganida yoki yuqorida sanab o'tilgan sabablar yo'qolganida va ogohlantiruvchi xabar tashlab yuborilganida g'oyib bo'ladi.

Ogohlantiruvchi xabarni qo'lda tashlab yuborish uchun, o't oldirishni 30 soniyaga o'chiring va qayta yoqing. Agar xabar yo'qolmasa, TXKS ga murojaat qiling.

### Tormoz kuchaytirgichi

Tormoz kuchaytirgichi bo'lgan avtomobillarda, normal holatlarda tormoz pedali bosilganda, tormoz tizimining gidravlik konturlari elektron tarzda boshqariladi. Tizim muntazam tekshiruvlarni amalga oshiradi va avtomobil dvigatelini o'chirgandan bir necha daqiqadan so'ng o'chadi. Bu vaqt ichida shovqin eshitisli mumkin. Agar siz ushbu tekshiruvlar paytida yoki elektr tormoz kuchaytirgichi o'chirilgan bo'lsa, siz tormoz pedalini bosgan bo'lsangiz, siz tormoz pedalining bosimi va harakatlanishida sezilarli o'zgarishlarni sezishingiz mumkin. Bunday xatti-harakatlar odatiy holdir.

### Antiblokash tormoz tizimi (ABS)

Sizning avtomobilingiz antiblokash tormoz tizimi (ABS) bilan jihozlangan. Bu g'ildiraklarning bloklanishi natijasida tormozlanish vaqtida g'ildiraklarning yo'l bilan ilakishishini yo'qotilishini oldini olinishini imkonini beruvchi murakkab elektron tizim. Avtomobil joyidan qo'zg'algan vaqtida, ABS tizimi o'z-o'zini tekshirishni bajaradi. Uning o'tkazilishi vaqtida siz elektr dvigatelning yoqilishining qisqa muddatli tovushlarini yoki chertkilarni eshitisishingiz, hamda tormoz tepkisi sizning ishtirokingizsiz bir muncha cho'kib ketayotganligini his etishingiz mumkin. Bunday holat me'yoriy hisoblanadi.



Agar ABS tizimida nosozlik aniqlansa, nazorat lampasi yoqilgan holatda qoladi. Tormozlarning antiblokash tizimi (ABS) signalizatori ↻ 4-15 ni ko'ring.

ABS tizimi ABS tormoz pedaliga oyog'ingizni qo'yish uchun kerak bo'lgan vaqtni hech ham kamaytirmaydi. Uning mavjudligi har doim ham tormoz masofasini qisqartirishga imkon bermaydi. Agar oldingizda transport vositasiga yetarlicha masofa bo'lmasa, ushbu transport vositasi o'satdan tormoz qilsa, siz tormoz pedalini bosishga ulgurmaysiz.

Hatto ABS tormoz bilan jihozlangan bo'lsa ham, avtomobilni o'z vaqtida to'xtatishga imkon beradigan masofani doimo saqlang.


### ABSni qo'llash


Tormoz pedalini bir necha marta bosmang yoki qo'yib yubormang. Shunchaki bosib turing va tormoz pedalini qo'yib yubormang. ABS ishini yoki pedalni silkitishni eshitis normal holatdir.


### Avariyaiviy tormozlanish

ABS tizimi bir vaqtda tormozlanishni bajarish va avtomobil yo'nalishini rul chambaragi yordamida o'zgartirishga imkon beradi. Keskin vaziyatlarda harakatlanish traektoriyasini o'zgartirishga urinish hattoki eng samarali tormozlanishga qaraganda ko'pincha ancha ta'sirli bo'lib qoladi.

### Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi





Elektr mexanik to'xtab turish tormozi (EPB) bilan hattoki o'chirilgan o't oldirish o'chirilganida ham foydalanish mumkin. Akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishini oldini olish uchun ishlamayotgan dvigatelda elektr mexanik to'xtab turish tormozini ko'p marta yoqmang. Tizim elektr to'xtab turish (P) tormozi indikator va  servis to'xtab turish tormozi indikator bilan jihozlanadi. Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi signalizatori ⇨ 4-15 va Elektr uzatmali xizmat to'xtab turish tormozi indikator ⇨ 4-15 ni ko'ring. Tizimda shu bilan birga haydovchining axborot markaziga (DIC) chiqariladigan to'xtab turish tormozlari holati

bilan bog'liq xabarlar ko'zda tutilgan. Bort tarmog'ida yetarlicha kuchlanish bo'lmagan holatda elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqish yoki o'chirish imkoniyati bo'lmaydi. Avtomobilni tark etishdan avval, to'xtab turish tormozi yoqilganligiga ishonch hosil qilish uchun indikator  yorishib turganligini tekshiring.


### Elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqish


Elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqish uchun:


1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Qisqa vaqtga o'zgartirgichni o'zingizga suring.



Indikator  miltillashni boshlaydi, so'ngra esa elektr mexanik to'xtab turish tormozi to'liq yoqilishi bilanoq doimiy yorishib turadi. Agar indikator  doimiy miltillab turgan bo'lsa, demak, to'xtab turish tormozi oxirigacha yoqilmagan, yoki elektr mexanik to'xtab turish tormozi nosoz.

Haydovchining axborot markazi displeyida xabar aks ettiriladi. Elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va uni qayta yoqishga urinib ko'ring.

Agar indikator yonmasa yoki miltillashda davom etsa, TXKS ga murojaat qiling. Agar indikator doimiy  miltillab tursa, avtomobilni ishlatish taqiqlanadi.

Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi signalizatori  4-15 ni ko'ring.

Agar lampa  yorishib turgan bo'lsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'zingiz tomonga suring.

Toki indikator  doimiy yorishish bilan yonmagunicha, o'chirgich tugmasini tortib qo'yilgan holatda ushlab turishni davom ettiring. Agar indikator  yoqilgan holatda qolsa, TXKS ga murojaat qiling.


Avtomobilning harakatlanishida elektr magnit to'xtab turish tormozini yoqishda, o'chirgich siz tomonga tortilgan holatda qolguniga qadar, butun vaqt davomida tezlik pasayib boradi. Agar o'chirgichni avtomobilning to'liq to'xtaguniga qadar ushlab turilsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoqilgan holatda qoladi. Elektr mexanik to'xtab turish tormozi keskin qiyalikda P (to'xtab turishga joylashtirish) holatga o'tkazilgan vaqtda avtomatik yoqiladi. Elektr mexanik to'xtab turish tormozi yuritmalar o'zgartirgichi P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarilishi va avtomobil tezlanish bilan harakatlanishni boshlashi bilanoq o'chadi.



Agar elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirish uddasidan chiqilmasa, avtomobilning beixtiyor yurib ketishini ehtimolini oldini olish uchun, avtomobilning orqa g'ildiraklarini bloklab qo'yish lozim.

### **Elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirish**

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'yib yuborish uchun:

1. O't oldirishni yoqing yoki uni ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) holatiga o'tkazing.
2. Tormoz tepkisini bosib va ushlab turing.
3. Qisqa vaqtga elektr mexanik to'xtab turish tormozi o'chirgichini bosib.

Agar indikator  o'chgan bo'lsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi qo'yib yuborilgan.

Agar indikator  yorishib turgan bo'lsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozini bosib va ushlab turib, elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring. O'chirgich tugmasini tortib chiqarilgan holatda, toki  indikator o'chmagunicha, ushlab turishni davom ettiring. Agar biron bir indikatorlardan biri tormoz qo'yib yuborilganidan so'ng yorishib turishda davom etsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### **DIQQAT!**

Yoqilgan to'xtab turish tormozi bilan harakatlanish tormoz tizimini ortiqcha qizib ketishiga va muddatidan avval yedirilishi yoki uning detallarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Joydan qo'zg'alishdan avval, to'xtab turish tormozi to'liq o'chirilganiga va tormoz tizimi nosozlik signalizatori yonmayotganiga ishonch hosil qiling.

### **Elektr mexanik to'xtab turish tormozini avtomatik o'chirish**

Agar elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoqilgan bo'lsa, joydan keskin siljishdan saqlaning.

Bu tormoz nakladkalarining xizmat muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Elektr mexanik to'xtab turish tormozi dvigatel ishlayotganida, YUO'Q yurish yuritmasiga o'tkazilganida va haydovchi akselerator tepkisiga bosib, joydan siljishga urinayotganida avtomatik o'chadi.

### **Shoshilinch tormozlanishni yengillashtirish tizimi**

Favqulodda tormoz kuchaytirgichi haydovchi favqulodda vaziyatda tormoz pedalini juda tez bosib turganini aniqlay oladi. Bunday holda, agar u haydovchi tomonidan qo'llaniladigan kuch etarli bo'lmasa, tormoz tizimida ABS

tizimini faollashtirish uchun qo'shimcha kuch hosil qiladi. Bu ozgina shovqinga, tormoz pedalining pulsatsiyasiga va / yoki uning o'z-o'zidan harakatlanishiga olib kelishi mumkin. Yo'l harakati holatiga ko'ra tormoz pedalini bosishda davom eting. Favqulodda tormoz yordami tormoz pedalidan bo'shatilganda o'chiriladi.

### **Ko'tarilishda harakatni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA)**

Avtomobil ko'tarilishda harakatni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA) bilan jihozlangan, u, agar avtomobil yetarlicha keskin qiyalikda to'xtagan bo'lsa, foydali bo'lishi mumkin. Bu tizim avtomobilning joyidan qo'zg'alishi vaqtida uning oldinga yoki orqaga yurib ketishini oldini olishga imkon beradi. HSA tizimi avtomobil qiyalikda to'liq to'xtaganidan so'ng avtomatik yoqiladi. Tormoz tepkisini haydovchi tomonidan qo'yib yuborilish payti va qiyalikda harakatni boshlash va tezlashish payti orasidagi o'tish davri davomida HSA tizimi avtomobilning qiyalik bo'yab yurib ketishini istisno qilish uchun

tormozlarda bosimni qo'llab turadi. Tormoz o'tish davrida akselerator tepkisini bosilishida avtomatik qo'yib yuboriladi. Agar oldinga yurish yuritmasi yoqilsa va avtomobil qiyalik bo'yab pastga yo'naltirilgan bo'lsa, yoki agar u qiyalik bo'yab tepaga yo'naltirilgan va orqaga yurish yuritmasi yoqilgan bo'lsa, tizim yoqilmaydi.

### **Tepalikka harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini oshirilgan kechikishi**

Tepalikka harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini oshirilgan kechikishi menyustuning tanlanishi axborot-ko'ngilochar tizim displeyida tepalikka harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini oshirilgan kechikish vaqtini tanlashga imkon beradi. Shaxsiy sozlamalarni saqlash ↻ 4-23ni ko'ring. Agar standart kechikish tanlangan bo'lsa, avtomobil tormoz tepkisini qo'yib yuborishdan so'ng taxminan 3 soniya davomida harakatsiz holatda qoladi. Agar oshirilgan kechikish tanlangan bo'lsa, avtomobil tormoz tepkisini qo'yib yuborilganidan keyin taxminan 5 minut harakatsiz holatda qoladi. Ikkala holatda ham tutib turish funksiyasini akselerator tepkisini bosish va joydan qo'zg'alishga urinish bilan uni faolsizlantirish mumkin.

Sozlamalar menyusida standart kechikish tanlangan vaqtda, agar tormoz tepkisini qo'yib

yuborishdan so'ng haydovchi eshigi ochilmasa yoki haydovchining xavfsizlik kamari yechilmagan bo'lsa, avtomobil 3 soniya davomida harakatsiz holatda qoladi. Oshirilgan kechikish tanlangan vaqtda, agar tormoz tepkisini qo'yib yuborishdan so'ng haydovchi eshigi ochilmasa va haydovchining xavfsizlik kamari yechilmagan bo'lsa, avtomobil 5 minut davomida harakatsiz holatda qoladi. Tepalikka harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini oshirilgan kechikish tanlangan vaqtda elektr mexanik to'xtab turish tormozi, agar tizim ishlab turishi vaqtida haydovchi xavfsizlik kamarini yechib yuborishga yoki haydovchining eshigini ochib yuborishga urinishni amalga oshirganida, hamda agar tepalikka harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini oshirilgan kechikish avtomobilning harakatlanishini oldini olib 5 minutdan ortiq vaqtga ta'sir qilayotgan bo'lsa, avtomatik faollashadi.

### **Rekuperativ tormozlanish**

Rekuperativ tormozlanish harakatlanayotgan avtomobilning energiyasini ba'zi qismini oladi va uni elektr energiyasiga o'zgartiradi. Ushbu energiya avtomobilning yonilg'i samaradorligini oshirishga yordam berib, kelajakda oraliq kuchlanish akkumulator tizimida saqlanadi. Tizim gaz tepkisini har bir bo'shashtirilishida ishlaydi va tormoz tepkisiga bosishda akkumulyatsiya qilinuvchi energiyani miqdorini oshiradi.

## OSMALAR QATTIQLIGINI SOZLASH TIZIMI

### Tortish kuchi nazorati tizimi / Dinamik stabillashtirish elektron tizimi

#### Tizimning ishi

Avtomobil TCS tortish kuchi nazorat tizimi va StabiliTrak/ESC dinamik stabillashtirish elektron tizimi bilan jihozlangan. Ushbu tizimlar g'ildiraklarning sirg'alib ketishini cheklashga yordam beradi va haydovchiga boshqarilishni saqlab qolish qo'llab-quvvatlashi sifatida, avvalambor sirg'anchiq yo'lda, xizmat qiladi.

Tortish kuchi nazorat tizimi faqat agar u yetakchi g'ildiraklardan biron biri shataklashishini boshlayotganini yoki ilakishishini yo'qotishni boshlayotganini aniqlagan holatda faollashadi. Ushbu holat sodir bo'lganida, TCS sirg'alib ketayotgan g'ildiraklarga tormozni yoqadi va g'ildiraklarning shatakchilashini cheklash uchun dvigatelning quvvatini kamaytiradi. Avtomobil haydovchi tomonidan berilgan harakatlanish trayektoriyasi va avtomobilning haqiqiy harakatlanish yo'nalishi orasida farqni aniqlagan vaqtda StabiliTrak/ESC faollashadi. StabiliTrak/ESC avtomobilni o'rnatilgan trayektoriyada ushlab qolishga haydovchiga yordam sifatida avtomobilning u yoki boshqa g'ildiraklarining tormozlariga tormozlanish bosimini tanlab qo'llaydi.

Ba'zi holatlarda, agar kruiz-nazorat qo'llanilsa va TCS yoki STABILITRAK/ESC tizimi g'ildiraklarning shatakchilashini cheklashni boshlaganida, kruiz-nazorat o'chib qolishi

mumkin. Agar kruiz-nazorat yoqilishini yo'l sharoiti imkon berayotgan bo'lsa, u qayta yoqilishi mumkin.

Ikkala tizimlar, agar ular faollashtirilgan bo'lsa, avtomobilni ishga tushirish va uning harakatlanishni boshlashidan so'ng bir vaqtda yoqiladi. Tizimlarni ularning ishlashi yoki tashhis tekshiruvlari bajarilishi vaqtida ularni eshitish yoki sezish mumkin. Bu me'yoriy holat va avtomobilning nosozliklari haqida dalolat bermaydi. Harakatlanishning me'yordagi sharoitlarida ikkala tizimni yoqilgan holatda qoldirish tavsiya etiladi, ammo agar avtomobil qumda, loyda, muzda yoki qorda tiqilib qolgan bo'lsa, tortish kuchi nazoratini o'chirib qo'yilishi talab etilishi mumkin.

Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa ⇨ 8-10 va ushbu bo'limda quyida "Tizimlarni yoqish va o'chirish" bandini ko'ring.



Ikkala tizim uchun indikator uskunalar majmuida joylashgan. Ushbu indikator:

- Tortish kuchi nazorati tizimi g'ildiraklarning shatakchilashini cheklayotganida miltillaydi.
- StabiliTrak/ESC tizimi faollashtirilgan vaqtda miltillaydi.
- Agar tizimlardan biri ishlamayotgan bo'lsa, yoqiladi va yoqilgan holatda qoladi.

Agar tizimlardan biri yoqilmayotgan yoki faollashmayotgan bo'lsa, Haydovchining axborot markazida (DIC) muvofiq xabar yoqiladi va tizim nomaol hisoblanayotganligi va avtomobilni boshqarishda haydovchiga yordam bermayotganligi indikatsiyasi sifatida yoqilgan holatda qoladi. Avtomobil haydash uchun xavfsiz, ammo safar qilish odatiga muvofiq tarzda tuzatish kiritish zarur.

Agar yoqilayotgan va yoqilgan holatda qolayotgan bo'lsa:

1. Avtomobilni to'xtating.
2. Dvigatelni o'chiring va 15 soniya kuting.
3. Dvigatelni ishga tushiring.

Avtomobilda bir oz safar qiling.

Agar yoqilsa va yoqilgan holatda qolayotgan bo'lsa, ushbu muammoni tekshirish uchun avtomobilga ko'proq vaqt talab etilishi mumkin. Agar ushbu holat g'oyib bo'lmayotgan bo'lsa, dilerga yordam uchun murojaat qiling.

### Tizimlarni yoqish va o'chirish

#### ⚠️ **DIQQAT!**

Agar TCS tizimi o'chirilgan bo'lsa, u holda tormoz tepkisini ko'p marta bosish yoki keskin tezlashishni qilish lozim. Bu avtomobil transmisiyasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

TCS va STABILITRAK/ESC tizimlarini haydovchi axborot markazi boshqaruv organlari yordamida quyida ko'rsatilgani kabi yoqish va o'chirish mumkin:



◁ yoki ▷ tugmalar bilan Sozlamalar ilovasiga o'ting.

Sozlamalar menyusi bandlariga o'tish uchun ∇ ni bosing.

"Tortish kuchi va turg'unlik" sahifasini tanlash uchun ✓ ni bosing, so'ngra esa menyuga o'tish uchun ✓ ni bosing. Tugmalar △ va ∇ bilan Tortish kuchi (TCS) yoki Turg'unlik (StabiliTrak/ESC)ni tanlang.

TCSni o'chirish uchun, TCS O'chirilganni tanlang va so'ngra ✓ ni bosing.

DIC ekranida TCS belgisi o'z holatini Yoqilgandan O'chirilganga o'zgartiradi, va uskunalar majmuida TC indikator yorishadi. TCSni qayta yoqish uchun, TCS Yoqilganni tanlang va ✓ ni bosing.

DIC ekranida TCS belgisi o'z holatini O'chirilgandan Yoqilganga o'zgartiradi, TC va uskunalar majmuida TC indikator o'chadi. Agar StabiliTrak/ESC o'chirilgan bo'lsa, TCS yoqilishi mumkin emas.

StabiliTrak/ESCni o'chirish uchun, Stabillashtirishni tanlang va ✓ ni bosing. So'ngra Stabillashtirish O'chirilganni tanlang va ✓ ni bosing.

DIC ekranida StabiliTrak/ESC belgisi o'z holatini Yoqilgandan O'chirilganga o'zgartiradi. Agar StabiliTrak/ESCni o'chirishda TCS yoqilgan bo'lsa, ikkala tizim o'chadi va TC va TCS belgilari yorishadi.

StabiliTrak/ESCni qayta yoqish uchun, Stabillashtirishni tanlang va ✓ ni bosing. So'ngra Stabillashtirish Yoqilganni tanlang va ✓ ni bosing.

DIC ekranida StabiliTrak/ESC belgisi O'chirilgandan Yoqilganga o'zgaradi va uskunalar majmuasidagi TCS belgi o'chadi.

StabiliTrak/ESC va TCS tizimlarini yoqish uchun TCS Yoqilganni tanlang va ✓ ni bosing. DIC ekranida STABILITRAK/ESC va TCS belgilari O'chirilgandan Yoqilganga o'zgaradi va uskunalar majmuasidagi TCS va TC belgilar o'chadi.

Qo'shimcha yordamchi asbob-uskunalarining o'rnatilishi avtomobilning ishchi xarakteristikalariga ta'sir qilishi mumkin. Qo'shimcha-asbob-uskunalar va avtomobilni takomillashtirish 9-2 ni ko'ring.

### Nishabda harakatlanishni boshqarish tizimi (HDC)

HDC tizimi nishabda harakatlanganda avtomobilni boshqarishni osonlashtiradi. O'tkir qiyalik nishabda avtomobil oldinga yoki orqaga harakatlanganda tizim avtomobil tezligini belgilaydi va ta'minlaydi.

HDC almashlab-ulagichi markaziy konsolda joylashgan.

HDCni yoqish yoki o'chirish uchun HDC belgisi ga teging. Avtomobil tezligi soatiga 50 km (31 milya) dan kam bo'lishi kerak.




### KRUIZ-NAZORAT

HDC tizimi yoqilgan vaqtda, uskunalar majmuasida HDC indikatori yorishadi.

HDC 10% va undan ortiq qiyalikda avtomobil tezligini 3 dan 22 km/soatgacha (2 dan 14 mil/soatgacha) qo'llab turishi mumkin. HDC tizimining millatlab turuvchi indikatori tizim avtomobilni tezligini qo'llab turish uchun faol tormozlanishni qo'llayotganiga ko'rsatadi. HDC tizimi faollashtirilgan vaqtda,

HDCning boshlang'ich tezligi harakatlanishning joriy tezligiga teng holatda o'rnatiladi. Uni rul chamberagidagi +RES yoki -SETni bosish orqali yoki gaz tepkisini yoki tormoz tepkisini bosib oshirish yoki kamaytirish mumkin.

Shunday tarzda sozlangan tezlik yangi o'rnatilgan tezlik bo'lib qoladi. HDC tizimi 22 dan 60 km/soatgacha (14 dan 37 mil/soatgacha) tezlikda yoqilgan holatda qoladi; biroq ushbu diapazonda avtomobil tezligini o'rnatish va qo'llab turish imkonsiz. U avtomobil tezligi 80 km/soat (50 mil/soat) oshirilganida yoki 30 soniya va undan ortiq vaqt davomida 60 km/soat (37 mil/soat)da qolayotganida avtomatik o'chadi. HDC ni qayta yoqish uchun,  ni yana bir marta bosing.

Kruiz-nazorat tizimi, akselerator tepkisini qo'llamasdan, 40 km/soat va undan yuqori doimiy tezlikni qo'llab turishga imkon beradi.

#### OGOHLANTIRISH!

Agar siz avtomobilni doimiy tezlikda ishonch bilan boshqarish imkoniga ega bo'lmasangiz, kruiz-nazoratning qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Kruiz-nazoratni ilonizi yo'lda va transport oqimi zich bo'lgan yo'lda yoqish yaramaydi.


Kruiz-nazoratni sirpanchiq yo'lda qo'llash xavfli bo'lishi mumkin. Ushbu holatda yo'l bilan g'ildiraklarning ilakishishining keskin o'zgarishi g'ildarklarning shataklashishiga va boshqaruvni yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Kruiz-nazoratni sirpanchiq qoplama qo'llamang.


Tortish kuchini nazorat tizimi (TCS) yoki StabiliTrak/elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) g'ildiraklarning shataklashishini oldini olishga urinib, kruiz-nazorat ishiga aralashishi mumkin.


Ushbu holatda kruiz-nazorat avtomatik o'chadi. Tortish kuchi nazorati tizimi/Elektron dinamik stabilashtirish tizimi ⇨ 8-26ni ko'ring.

TCS yoki StabiliTrak/ESC o'chirilishida kruiz-nazorat o'chadi.

Tormoz tepkisiga bosishda kruiz-nazorat avtomatik o'chadi.



: Ushbu klavishga bosish kruiz-nazoratni yoqadi va o'chiradi. Kruiz-nazorat yoqilishida uskunalar majmuasida oq indikator yonadi.

: Tezlikning saqlangan qiymatlarini xotiradan o'chirib yubormasdan, kruiz-nazoratni o'chirish uchun, ushbu klavishani bosing.



**+RES** : Agar xotirada tezlikning saqlangan qiymati mavjud bo'lsa, tezlikning ushbu qiymatini xotiradan chaqirish uchun, klavishani qisqa bosing; tezlikni oshirish uchun ushbu klavishani bosing va uni ushlab turing. Agar kruiz-nazorat faollashtirib bo'lingan bo'lsa, avtomobilning tezligini oshirish uchun qo'llang.

**-SET**: Joriy tezlikni dasturlash va kruiz-nazoratni faollashtirish uchun, klavishani bir marta bosing va qo'yib yuboring. Agar kruiz-nazorat faollashtirib bo'lingan bo'lsa, avtomobil




tezligini pasaytirish uchun klavishani qo'llang.


### **Kruiz-nazoratni sozlash**

Agar tizim ishlatilmayotgan vaqtda,  indikatorini yonib turgan bo'lsa, -SET yoki +RES klavishasini tasodifan bosilishi, tizimning kutilmagan yoqilishiga olib kelishi mumkin. Agar kruiz-nazorat ishlatilmayotgan bo'lsa,  klavishasi bosilmagan holatda qolishi kerak.

Tezlikni o'rnatish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Kruiz-nazorat tizimini yoqish uchun  klavishasini bosing.
2. Zaruriy tezlikni oling.
3. -SET klavishasini bosing va qo'yib yuboring. O'rnatilgan tezlik uskunalar majmuasida qisqa vaqtga aks ettiriladi.
4. Oyoqni akselerator tepkisidan oling.

### **Tezlikning saqlangan qiymatini xotiradan chaqirish**

Agar siz kruiz-nazoratining zaruriy tezligini dasturlashga ulgurgan, bundan so'ng tormoz tepkisiga yoki  klavishasini bosgan bo'lsangiz, kruiz-nazorat o'chadi, biroq bunda tezlik qiymati xotiradan o'chirib yuborilmaydi. Avtomobil tezligi taxminan 40 km/soatga yetgan vaqtda, +RES klavishani qisqa bosing. Avtomobil oldingi o'rnatilgan tezlikka qaytadi.

### **Yoqilgan kruiz-nazoratda tezlikni oshirish**

Agar kruiz-nazorat yoqilib bo'lgan bo'lsa:

- +RES klavishasini bosing va toki avtomobil talab etiluvchi tezlikgacha tezlashmagunicha ushlab turing, so'ngra klavishani qo'yib yuboring.
- Katta bo'lmagan qadamlar bilan tezlikni oshirish uchun, +RES klavishasini qisqa bosing.

### **Yoqilgan kruiz-nazoratda tezlikni kamaytirish**

Agar kruiz-nazorat yoqilib bo'lgan bo'lsa:

- -SET klavishasini bosing va toki avtomobil tezlikni zaruriy qiymatgacha pasaytirmagunicha ushlab turing, bundan so'ng uni qo'yib yuboring.
- Tezlikni katta bo'lmagan qadamlar bilan pasaytirish uchun, qisqa vaqtga -SETni bosing.

### **Yoqilgan kruiz-nazoratda quvib o'tish**

Avtomobil harakat tezligini oshirish uchun akselerator tepkisini bosing. Siz akselerator tepkisidan oyog'ingizni olgan vaqtingizda, avtomobil tezligi kruiz-nazorat uchun avval o'rnatilgan qiymatgacha pasayadi. Akselerator tepkisiga bosishda yoki uni kruiz-nazoratni o'chirish uchun qo'yib yuborishdan keyin darhol -SET klavishani qisqa vaqtga bosilishi kruiz-nazoratida avtomobilning joriy tezligini o'rnatilishiga olib keladi.



### **Qiyaliklarda kruiz-nazoratni qo'llanilishi**

Kruiz-nazorat ishini samaradorligi tanlangan tezlik, avtomobil yuklanganligi va qiyalikning tikligiga bog'liqdir. Tik qiyalik bo'ylab ko'tarilishda, zaruriy tezlikni qo'llab turish uchun akselerator tepkisini bosish talab etiladi.


Qiyalikdan tushishda tepki bilan tormozlab turish yoki zaruriy tezlikni qo'llab turish uchun ancha past uzatmaga o'tish talab etilishi mumkin. Tormoz tepkisiga bosishda kruiz-nazorat avtomatik o'chadi.

### **Kruiz-nazoratni o'chirish**

Kruiz-nazoratni quyidagi to'rtta usullardan biri bilan o'chirish mumkin:

- Tormoz tepkisiga ohista bosing.
-  ni bosing.
- Kruiz-nazoratni o'chirish uchun,  klavishasini bosing.

### **Xotiradan o'rnatilgan tezlik qiymatini o'chirib yuborish**

Kruiz-nazorat tezligining o'rnatilgan qiymati  klavishasini bosishda yoki o't oldirishni o'chirishda xotiradan o'chiriladi.

**Adaptiv kruiz-nazorat**

Adaptiv kruiz-nazorat (ACC), agar u butlanganlik bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, oldinda harakatlanayotgan avtomobilgacha harakatlanish tezligini va uning ketidan ergashish oraliq masofasini o'rnatishga imkon beradi. Ushbu tizimni qo'llashdan avval, butun bo'limning mazmuni bilan tanishib chiqing. Ergashish oraliq masofasi o'zi bilan sizning avtomobilingiz va sizning harakatlanish qatoringizda bevosita oldinda aniqlangan va siz bilan bir yo'nalishda harakatlanayotgan avtomobil orasida ergashish vaqtini ifoda etadi. Agar siz egallab turgan qatorida boshqa transport vositalari aniqlanmagan bo'lsa, adaptiv kruiz-nazorat oddiy kruiz-nazorat ishlagandek, xuddi shunday ishlaydi.

Sizning harakatlanish qatoringizda oldinda ketayotgan avtomobil aniqlanishida ACC tezlik olishni yoki ergashishning tanlangan oraliq'ini saqlash uchun cheklangan o'rtacha tormozlanishni qo'llashi mumkin.

ACCni o'chirish uchun tormoz tepkisiga bosing. Agar avtomobil tezligi adaptiv kruiz-nazorat boshqaruvi ostida bo'lsa va bunda tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) yoki dinamik stabilizatsiyaning elektron tizimi StabiliTrak/elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) amalga kiritilgan bo'lsa, adaptiv kruiz-nazorat avtomatik o'chishi mumkin.

Tortish kuchi nazorat tizimi/Elektron dinamik stabilashtirish tizimi ⇨ 8-26 da ko'ring. Siz yo'ldagi holat imkon berishi bilanoq adaptiv kruiz-nazoratni qayta yoqishingiz mumkin. Shataklashga qarshi tizim (TCS) yoki StabiliTrak/yo'nalish turg'unligini qo'llab turish tizimi (ESC) o'chirilishida, adaptiv kruiz-nazorat o'chadi, va uni takroriy yoqilish imkoni yo'q.

Adaptiv kruiz-nazorat tez-tez tormozlanish va tezlashish zaruratidan, ayniqsa avtostradalarda, yuqori tezlikdagi yo'llarda va shosselar bo'ylab harakatlanishda, haydovchini xalos qilishi mumkin. Boshqa sinf yo'llarda haydovchida o'ziga tormozlanish va tezlashishni boshqarishni olish zarurati tez-tez vujudga kelishi mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

ACC tormozlanishni cheklangan imkoniga ega, va tizim siz ketidan harakatlanayotgan avtomobil bilan to'qnashishni oldini olish uchun avtomobil tezligini yetarlicha pasaytirishga vaqtga ega bo'lmasligi mumkin. Oldindagi avtomobil to'satdan tezlikni pasaytirgan yoki to'xtaganida, yoki sizning harakatlanish qatoringizga o'tayotgan vaqtda shunday holat vujudga kelishi mumkin. Shuningdek, quyida ushbu

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

bo'limda "Haydovchini ogohlantirish" bo'limida ko'ring. Safar qilish jarayonida sizdan to'liq e'tibor talab etiladi, siz harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga tayyor bo'lishingiz kerak. Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari ⇨ 8-2 da ko'ring.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

ACC bolalarni, piyodalarni, hayvonlarni va boshqa obyektlarni aniqlashi va ular oldida tormozlanish imkoniga ega emas.


Quyidagi holatlarda ACC dan foydalanmang:

- Iloniy va baland-past yo'llarda, yoki qachonki kamera qirov, qor yoki loy bilan yopilgan bo'lsa. Tizim oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlay olmasligi mumkin. Old oyna va faralar har doim toza qolishini kuzatib boring.
- Ko'rish yetarlicha bo'lmagan holatlarda, masalan, yomg'ir, qor, tuman, old oynadagi chivinlar sababli, kameraning ko'rish kengligini boshqa begona buyumlar to'sib qo'yganida yoki bir yo'nalishda yoki qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan boshqa transport vositalar qo'shimcha halallarni yaratganida, masalan, yo'ldan namlangan

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

loyni ko'tarib. Bunday holatlarda adaptiv kruiz-nazoratning samarali ishi cheklangan.

- Sirpanchiq yo'lda, qachonki yo'l bilan shinalarning ilakishining tez o'zgarishlari, g'ildiraklarning haddan ziyod sirpanishini chaqirishi mumkin.
- Kuzovda yoki orqa o'rindiqda juda og'ir yuk tashilganida.
- Tirkamani shataklash qoidalari



: Tizimni yoqilishi va o'chirilishi ushbu tugmani bosish bilan amalga oshiriladi.

Uskunalar majmuasida kruiz-nazoratini yoqilishida oq indikator yorishadi.

RES+ : Avvalgi o'rnatilgan tezlik bilan ishlashni tiklash uchun yoki, agar adaptiv kruiz-nazorat faollashtirib bo'lingan bo'lsa, avtomobilning tezligini oshirish uchun qisqa vaqtga bosing. Tezlikni taxminan 1 km/soatga oshirish uchun, RES+ ni qisqa muddatga bosing. Spidometning shkalasi bo'limlarini keyingi 5 km/soat karragacha tezlikni oshirish uchun RES+ ni bosing va uni ushlab turing.

SET- : Tezlikni o'rnatish va avtomatlashtirilgan kruiz-nazoratni faollashtirish uchun yoki, agar adaptiv kruiz-nazorat faollashtirib bo'lingan bo'lsa, avtomobilning tezligini kamaytirish uchun, qisqa muddatga bosing.

Tezlikni taxminan 1 km/soatga kamaytirish uchun, SET- ni qisqa muddatga bosing. Spidometning shkalasi bo'limlarini keyingi 5 km/soat karragacha tezlikni kamaytirish uchun SET- ni bosing va uni ushlab turing.

: O'rnatilgan tezlikni tanlangan qiymatlarini olib tashlamasdan, ACC ni o'chirish uchun, bosing.

: ACC uchun ko'zda tutilgan "Far" ("Uzoq"), "Medium" ("O'rta") yoki "Near" ("Yaqin") qiymatlaridan oldinda harakatlanib ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofa sozlamasini tanlash uchun, ushbu klavishani bosing.

Tezlik ingliz yoki metrik birliklarda aks ettirilishi mumkin. Uskunalar majmuasi  $\varnothing$  4-8 da ko'ring. Tezlikni oshirish qadami tanlangan o'lchov birligiga bog'liqdir.

**ACC va oddiy kruiz-nazorat orasida o'tish**

ACC va oddiy kruiz-nazorat orasida o'tish uchun ni bosing va uni ushlab turing. Haydovchining axborot displeyida (DIC) xabar aks etib turibdi. Avtomobilning axborot xabarlarini  $\varnothing$  4-20 da ko'ring.



ACC indikatorini





Oddiy kruiz-nazorat indikatorini

ACC yoniqligida, uskunalar majmuasida yashil indikator yorishib turibdi va ergashish oraliq'i aks etib turibdi. Agar oddiy kruiz-nazorat yoqilgan bo'lsa, uskunalar majmuasida yashil indikator yorishib turibdi, ammo ergashish oraliq'i indikatsiyasi mavjud emas. Kruiz-nazorat tartibi sifatida avtomobil yoqilishida, avtomobil o'chirilishidan avval oxirgi bo'lib qo'llanilgan tartib o'rnatiladi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Kruiz-nazoratning qaysi tartibi ushbu funksiyani qo'llashgacha yoqilganligini bilish uchun, uskunalar majmuasidagi kruiz-nazorat indikatorini har doim kuzatib boring. Agar ACC faollashtirilmagan bo'lsa, avtomobil boshqa avtomobillar oldida avtomatik tormozlanmaydi, bu, agar tormozlar qo'lda faollashtirilmasa, avariyaga olib kelishi mumkin. Siz va boshqa shaxslar jiddiy jarohatlar olishi yoki halok bo'lishi mumkin.


**Adaptiv kruiz-nazoratni sozlash**

Agar tizim ishlatilmayotgan vaqtda  indikator yonib turgan bo'lsa, SET- / RES+ ni tasodifan bosilishi adaptiv kruiz-nazoratning istalmagan yoqilishiga olib kelishi mumkin. Agar kruiz-nazorat qo'llanilmayotgan bo'lsa,  klavisha bosilmagan qolishi kerak.

Avtomatik kruiz-nazorat uchun istalgan tezlikni tanlang. Ushbu tezlik bilan avtomobil sizning yo'lingizda boshqa transportning mavjud bo'lmisligida harakatlanadi.

Harakatlanish vaqtida adaptiv kruiz-nazorat 5 km/soatdan past tezlikda yoqilmaydi, bunda sozlash mumkin bo'lgan minimal tezlik 25 km/soatni tashkil qiladi.

Harakatlanish vaqtida ACCni sozlash uchun:

1.  ni bosing.
2. Zarur bo'lgan tezlikni o'rning.
3. SET- klavishasini bosing va qo'yib yuboring.
4. Akselerator tepkisidan oyoqni oling.

ACC sozlab bo'lingandan keyin, u ergashishning tanlangan oralig'iga nisbatan yaqinroq oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlashda darhol tormozlashni yoqishi mumkin.



ACC shuningdek, agar ACC yoqilgan va tormoz tepkisi bosilganida, avtomobil to'xtatilishini ham sozlash mumkin.

Uskunalar majmuasida ACC indikator paydo bo'ladi. ACC yoniqligida, indikator oq nurlanish bilan yorishadi. Adaptiv kruiz-nazorat faol bo'lgan vaqtda, ushbu indikator yashil bo'lib qoladi.

O'rnatilgan tezlikni tanlashda tezlik chegarasini, yonma-yon ketayotgan transportning harakatlanish tezligini va ob-havo sharoitlarini hisobga oling.

**Tezlikning saqlangan qiymatini xotiradan chaqirish**

Agar ACC o'rnatilgan tezlikka sozlangan bo'lsa, shundan so'ng tormoz tepkisi bosilganida, ACC o'chadi, biroq tezlik qiymati xotirada saqlanib qoladi.

ACCni qo'llanilishini tiklash uchun, RES+ ni tepaga qisqa bosing.

- Agar avtomobil harakatda bo'lsa, tezlikni avval saqlangan qiymati qo'llaniladi.
- Agar avtomobil to'xtatilgan va tormoz tepkisi bosilgan bo'lsa, RES+ ni bosing va tormoz pedalini qo'yib yuboring. ACC avtomobilni joyida, toki RES+ yoki akselerator tepkisi bosilmagunga qadar ushlab turadi.

Uskunalar majmuasida ACC ning yashil indikator yorishadi va o'rnatilgan tezlikning indikatoriyasi paydo bo'ladi. Agar oldinda avtomobil mavjud bo'lgan va u joyini o'zgartirgan bo'lsa, oldindagi avtomobil indikator miltillashi mumkin. Oldinda harakatlanayotgan avtomobilga yaqinlashish va uning ketidan ergashishni quyida ushbu bo'limda qarang.

ACC ishini yangilashdan keyin, agar oldinda yurish bo'yicha boshqa avtomobillar bo'lmasa, agar oldindagi avtomobil ergashishning tanlangan oralig'idan uzoqroqda joylashgan bo'lsa yoki agar avtomobil aylanma burilishdan chiqqan bo'lsa, ushbu avtomobil o'rnatilgan tezlikgacha tezlikni oshiradi.

### **O'rnatilgan tezlikda adaptiv kruiz-nazoratning ishlashida tezlikni oshirish**

Agar ACC faollashtirib bo'lingan bo'lsa, quyidagi harakatlardan birini bajaring: Ko'tarilgan tezlikka erishish uchun akseleratorni qo'llang. SET– ni bosing. SET– klavishasini va akselerator tepkisini qo'yib yuboring. Bundan so'ng avtomobil ancha yuqori tezlikda harakatlanadi. Akselerator tepkisini bosishda ACC tormozlanishni yoqmaydi, chunki u bloklangan. Uskunalar majmuasida ACC indikatorini moviy bo'lib qoladi. Bayroqchani RES+ yo'nalishida siljiting va uni toki displeyda kerakli tezlik paydo bo'lmagunicha ushlab turing, bundan so'ng qo'yib yuboring. Katta bo'lmagan oshirishlar bilan avtomobil tezligini oshirish uchun, RES+ni qisqa muddatli bosing. Har bir bosishda tezlik taxminan 1 km/soatga ko'tariladi. Katta oshirishlar bilan avtomobil tezligini ko'tarish uchun, RES+ ni bosing va ushlab turing. RES+ tugmasi bosilgan holatda avtomobil tezligi eng yaqin karrali 5 km/soatgacha ortadi, so'ngra esa har bir qadam uchun 5 km/soatga ortishni davom ettiradi.

O'rnatilgan tezlikni shuningdek avtomobil harakatlanmayotgan vaqtda ham oshirish mumkin.

- Agar ACC avtomobilni harakatsiz ushlab turgan va harakatlanish yo'nalishi bo'yicha bevosita oldinda boshqa avtomobil bo'lsa, RES+ ning bosilishi o'rnatilgan tezlikni oshiradi.
- RES+ bosilganida, agar oldinda avtomobil bo'lmasa yoki u uzoqlashayotgan yoki tormoz bosilmagan bo'lsa, ACC ishini tiklaydi. Agar oldinda avtomobil yo'q yoki ergashishning tanlangan oraliq'idan tashqarida joylashgan bo'lsa, sizning avtomobilingizni tezligi o'rnatilgungacha ko'tariladi.

### **O'rnatilgan tezlikda adaptiv kruiz-nazoratning ishlashida tezlikni pasaytirish**

Agar ACC faollashtirib bo'lingan bo'lsa, quyidagi harakatlardan birini bajaring:

- Talab etilgan pasaytirilgan tezlikka erishish uchun, tormozdan foydalaning. Tormozni qo'yib yuboring va SET– ni bosing. Bundan so'ng avtomobil ancha past tezlikda harakatlanadi.
- Toki avtomobil tezligini zaruriy qiymatgacha pasaytirmagunicha, SET– tugmasini bosing va ushlab turing, so'ngra uni qo'yib yuboring.
- Avtomobil tezligini katta bo'lmagan oshirishlar bilan pasaytirish uchun, SET– ni qisqa muddatli bosing.


- Har bir bosishda tezlik taxminan 1 km/soatga pasayadi.
- Avtomobil tezligini katta oshirishlar bilan pasaytirish uchun, SET– ni bosing va uni ushlab turing. SET– tugmasi bosilgan holatda avtomobil tezligi eng yaqin karrali 5 km/soatgacha kamayadi, so'ngra esa har bir qadam uchun 5 km/soatga kamayishni davom ettiradi.

O'rnatilgan tezlikni shuningdek avtomobil harakatlanmayotgan vaqtda ham kamaytirish mumkin.

- Agar avtomobil to'xtatilgan va tormoz bosilgan bo'lsa, SET– ni bosing va ushlab turing, toki istalgan o'rnatilgan tezlik ko'rsatilmagunicha.

### **Ergashish oraliq'ini tanlash**


Agar oldinda ergashish oraliq'i chegarasida sekinroq harakatlanayotgan avtomobil aniqlangan bo'lsa, ACC sizning avtomobilingizni tezligini sozlaydi va ergashishning tanlangan oraliq'ini saqlab qolishga urinadi.

Ergashish oraliq'ini sozlash uchun rul chamberagida  klavishasiga bosing. Tugmani ketma-ket bosishlarda ergashish oraliq'ining sozlamasi siklik o'zgaradi (uchta daraja ko'zda tutilgan): "Far" ("Uzoq"), "Medium" ("O'rtacha") yoki "Near" ("Yaqin"). Tugmani bosishdan keyin uskunalar majmuasiga qisqa vaqtga oraliq masofaning joriy sozlamasi qiymati chiqariladi. Oraliq masofa sozlamasi u o'zgartirilguniga qadar saqlanib qoladi.

Oraliqning har bir sozlamasi ergashishning vaqt oraliq'iga muvofiq kelganligi sababli ("Far" ("Uzoq"), "Medium" ("O'rta") yoki "Near" ("Yaqin")), ergashish oraliq masofasi avtomobilning tezligiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Avtomobilning tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, sizning avtomobilingiz oldinda aniqlangan avtomobilning orqasidan ergashish oraliq masofasi shunchalik katta bo'ladi. Ergashish oraliq'ini tanlashda yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga oling. Oraliqlarni tanlashning variantlar kengligi, ehtimol, barcha haydovchilar va safarning sharoitlari uchun mos keladi.

Ergashish oraliq'ini sozlamasini o'zgartirish ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) uchun ogohlantirishni berish vaqtini tanlashni o'zgartirishga avtomatik olib keladi ("Far" ("Uzoq"), "Medium" ("O'rta") yoki "Near" ("Yaqin")). Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-41 da ko'ring.

### Haydovchini ogohlantirish



ACC yoniqligida, oldinda ketayotgan avtomobilga yaqinlashish juda ham tez sodir bo'layotgan vaqtda, haydovchining harakatlari talab etilishi mumkin, chunki ACC yetarlicha tormozlanishni qo'llamasligi mumkin. Ushbu holatda old oynada oltita qizil signalizatorlar millitlashni boshlaydi. Bundan tashqari, oldinda sakkizta ovozli signallar jaranglaydi yoki Safety Alert Seat o'rindig'ining yostiqlarini ikkala tomoni besh marta titraydi. Axborot-ko'ngilochar tizimning yo'riqnomasida "Individual sozlamalarni saqlash" bo'limida "To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi" da ko'ring. Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari ⇨ 8-2 da ko'ring.

### Oldinda ketayotgan avtomobilga yaqinlashish va uning ortidan ergashish



Uskunalar majmuasida oldinda ketayotgan avtomobil indikator mavjuddir.

U faqat siz bilan bir yo'nalishda sizning harakat qatoringizda harakatlanayotgan avtomobilni aniqlaganda aks ettiriladi. Agar ushbu simvol aks etmayotgan bo'lsa, ACC oldindagi avtomobilga e'tibor qaratmaydi yoki unga muvofiq tormozlanmaydi.

ACC oldinda harakatlanayotgan avtomobilgacha o'rnatilgan oraliq masofani saqlab qolish uchun avtomobilni avtomatik tormozlaydi va uning tezligini sozlaydi.

Avtomobil tezligi oldindagi avtomobilning tezligini o'zgarishiga muvofiq, agar u sizning avtomobilingizni kruiz-nazorati o'rnatgan tezlikka qaraganda sekinroq harakatlanayotgan bo'lsa, ko'tariladi yoki pasayadi. Zarurat tug'ilganida tizim cheklangan tormozlanishni qo'llashi mumkin. Tormozlanish yoqilganida stop-signal yorishadi. Avtomatik tormozlanish haydovchi tormoz tepkisini bosganidagi holatga qaraganda, boshqa sezilishi va tovush chiqarishi mumkin. Bunday holat me'yoriy hisoblanadi.

## Harakatsiz yoki juda sekin harakatlanuvchi obyektlar

### ▲ OGOHLANTIRISH!

ACC to'xtagan yoki sizning oldingizda sekin harakatlanayotgan avtomobilni aniqlamasligi va unga e'tibor bermasligi mumkin. Masalan, tizim harakatlanayotgan kabi aniqlamagan avtomobil oldida tormozlanmasligi mumkin. Bunday holat tez-tez to'xtashlar bilan harakat sharoitlarida yoki harakatlanish qatorini o'zgartirish natijasida sizning oldingizda to'satdan avtomobilning paydo bo'lishida sodir bo'lishi mumkin.


Sizning avtomobilingiz to'xtashga ulgurmasligi mumkin, bu avariyaning keltirib chiqaradi.

ACCni qo'llayotganda ehtiyotkor bo'ling. Safar qilish jarayonida sizdan to'liq e'tibor talab etiladi, siz harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga tayyor bo'lishingiz kerak.

### Adaptiv kruiiz-nazoratga noto'g'ri shaklli obyektlarning ta'siri

Adaptiv kruiiz-nazorat tizimi quyidagi ko'rinishdagi obyektlarni aniqlash bilan qiyinchiliklarga uchrashi mumkin:

- Oldinda harakatlanayotgan transport vositalari juda past, katta emas yoki noto'g'ri shaklda
- Bo'sh yuk avtomobili yoki tirkama
- Orqa gabaritlardan chiqib turgan yukli avtomobil
- Nostandart shakldagi transport vositalari, masalan, avtovozlar, aravachali motosikllar, ot aravalari
- Juda past profilli avtomobillar
- Sizning avtomobilingizni oldida bevosita yaqinlikda mavjud bo'lgan avtomobillar
- Kuzovida yoki orqa o'rindiqda juda og'ir yukli avtomobillar



### ACCni avtomatik o'chirilishi

ACC avtomatik o'chishi, va haydovchi avtomobilning tezligini pasaytirish uchun tormoz tepkisiga bosishi kerak bo'ladi, agar quyidagilar sodir bo'lsa:

- Oldingi kameraning ko'rish kengligi to'liq yoki qisman to'sib qo'yilgan.
- Shataklashga qarshi tizim (TCS) yoki elektron dinamik stabilashtirish tizimi StabiliTrak/ESC ishga tushgan yoki o'chirilgan.

- Tizimda nosozlik mavjuddir.
- Haydovchining axborot markazi displeyida ACC funksiyasining vaqtinchalik erishimli emasligiga ko'rsatuvchi xabar aks ettirilishi mumkin.

Agar ACC boshqa erishimli bo'lmasa, ACC indikator oq rangda yorishadi.

Ba'zi holatlarda, agar ACC vaqtinchalik erishimli bo'lmasa, oddiy kruiiz-nazoratni qo'llash mumkin. "ACC va oddiy kruiiz-nazorat orasida o'tish"ni ushbu bo'limda qarang. Kruiiz-nazorat tizimlarning istalganini qo'llashni boshlashdan avval, yo'l holatini tahlil qiling.

### ACC ishini tiklash haqida xabarnoma

ACC oldinda ketayotgan aniqlangan avtomobil ketidan ergashish oralg'ini qo'llab turadi va ushbu avtomobil orqasida to'xtash uchun tezlikni pasaytiradi.

Agar oldinda to'xtagan avtomobil ketgan bo'lsa, ACC esa ishini tiklamagan bo'lsa, oldinda ketayotgan avtomobil indikator harakatni davom ettirishdan avval oldindagi yo'l holatini tekshirish zarurati haqida eslatma sifatida millitlaydi. Bundan tashqari, Safety Alert Seat o'rindiqlarining chap va o'ng tomonlari uch marta titraydi yoki uchta tovushli signallar jaranglaydi. "Ogohlantirish turlari" va "Harakatni davom ettirish zarurati haqida

eslatma"ni axborot-ko'ngilochar tizim yo'riqnomasini "Individual sozlamalarni saqlash" bo'limini "To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi" bo'lim ostida qarang.

Oldindagi avtomobil ketgan vaqtda, ACC ishini tiklash uchun RES+ klavishasiga yoki akselerator tepkisiga bosing.

Agar to'xtash ikki minutdan ko'proqqa davom etsa, yoki haydovchining eshigi ochilgan bo'lsa, yoki haydovchining xavfsizlik kamari yechilgan bo'lsa, ACC avtomobilni tutib turish uchun elektr mexanik to'xtab turish tormozini (EPB) avtomatik ishga tushiradi. EPB holati indikator yorishadi. Elektr uzatmali to'xtab turish tormozi ⇨ 8-23 da ko'ring.

DIC displeyida avtomobilni tark etishdan avval YUO'Q ni "P" (To'xtab turish) tartibga o'tkazish zarurati haqidagi ogohlantiruvchi xabar chiqariladi.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Agar avtomobil ACC tizimi bilan to'xtatilgan, hamda agar ACC uzilgan, o'chirilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, avtomobil to'xtashda boshqa tutib turilmaydi. Avtomobil harakatlanishni boshlashi mumkin. Agar avtomobil ACC tizimi bilan to'xtatilgan va tutib turilgan bo'lsa, tormoz pedaliga bosishga tayyor turing.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Avtomobilni "P" (To'xtab turish) tartibiga o'rnatmasdan tark etish xavfli bo'lishi mumkin. Agar avtomobil ACC tizimi bilan to'xtatilgan va tutib turilgan bo'lsa, uni tark etmang. Avtomobilni tark etishdan avval albatta "P" (To'xtab turish) tartibini yoqing va o'z oldirishni o'chiring.

**ACC ta'sirini bloklash**

Agar ACC faollashtirilganda akselerator tepkisi bosilsa, uskunalar majmuasidagi ACC indikator avtomatik tormozlanish amalga oshirmasligiga urg'u berib, moviy rangda yorishadi.

Akselerator tepkisi qo'yib yuborilganida, ACC o'z ishini tiklaydi.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

Agar sizning oyog'ingiz akselerator tepkisida bo'lsa, ACC tizimi avtomatik tormozlanishni yoqmaydi. Siz oldindagi avtomobilga borib urilishingiz mumkin.

**Yo'Ining burilishlari**

**▲ OGOHLANTIRISH!**


Burilishlarda ACC sizning harakat qatoringizda oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlay olmasligi mumkin. Avtomobil, ayniqsa, estakadaga chiqayotgan yoki undan tushib kelayotgan avtomobil ortidan ergashib, o'rnatilgan tezlikgacha tezlanish olgan holat juda ham cho'chituvchi bo'lishi mumkin. Siz avtomobil boshqaruvini yo'qotishingiz yoki biron bir narsaga urilishingiz mumkin. Estakadaga chiqishda va undan tushishdagi harakatlanish vaqtida ACCni qo'llamang. Zarurat tug'ilganida tormoz tepkisini bosishga tayyor turing.




**▲ OGOHLANTIRISH!**

Burilishlarda ACC boshqa harakatlanish qatoridagi avtomobilga e'tibor berishi, yoki sizning qatoringizdagi avtomobilga e'tibor qaratishga ulgurmasligi mumkin. Siz oldingizdagi avtomobilga urilishingiz yoki o'z avtomobilingizni boshqaruvini yo'qotishingiz mumkin. Burilishlarda o'ta e'tiborli bo'ling va zarurat tug'ilganida tormoz tepkisini bosishga tayyor turing. Burilishlarda harakatlanishda muvofiq tezlikni tanlang.

Aylana burilishida ACC boshqacha tarzda ishlashi mumkin. Agar burilish keskin bo'lsa, u avtomobil tezligini pasaytirishi mumkin. ACC burilishlarda avtomobil tezligini avtomatik pasaytiradi va burilishdan chiqishda uning oshirishi mumkin, ammo o'rnatilgan tezlikdan yuqori emas.




Avtomobil ketidan ergashib, burilishga kirishda ACC oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlamasligi va tezlikni o'rnatilgan qiymatgacha oshirishi mumkin. Bunday holatda oldinda ketayotgan avtomobil indikatori yo'qoladi.



ACC sizning qatoringiz bo'ylab harakatlanmayotgan avtomobilni aniqlashi va tormozlanishni yoqishi mumkin. ACC bexosdan ogohlantirish berishi va/yoki kerak bo'lmagan tormozlanishni yoqishi mumkin. Burilishga kirishda yoki undan chiqishda ACC boshqa harakat qatorlaridagi avtomobillarga va harakatsiz obyektlarga e'tibor berishi mumkin. Bunday holat me'yoriy hisoblanadi. Avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

**Boshqa avtomobil tomonidan harakat qatorini o'zgartirish**



ACC faqat harakatlanish qatorida to'liq bo'lgan oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlaydi. Tormoz tepkisini bosish zarurati vujudga kelishi mumkin.

**Sizning avtomobilingizni markazi bo'ylab joylashmagan obyektlar**


Avtomobil oldida joylashgan obyektlarni aniqlash quyidagi holatlarda imkonsiz bo'lishi mumkin:

- Oldindagi avtomobil yoki obyekt sizning harakatlanish qatoringizni chegarasida joylashmagan.
- Oldindagi avtomobil sizning qatoringizni markazi bo'ylab emas, balki yo'l chekasidan biriga yaqin harakatlanmoqda.

### Tor qatorlar bo'ylab harakatlanish

Tizim qo'shni qatorlardagi avtomobillarga yoki yo'l yoqasidagi obyektlarga e'tibor qaratishi mumkin.

### Qiyaliklarda harakatlanishda va tirkamani shataklashda ACCni qo'llash taqiqlanadi.




Keskin qiyaliklar bo'ylab harakatlanishda va tirkamani shataklashda ACC ni qo'llamang. ACC keskin qiyaliklarda harakatlanishda yo'lda avtomobilni aniqlash imkoniga ega bo'lmaydi. Tormoz tepkisini bosishda adaptiv kruiz-nazorat o'chadi.

### ACC o'chirish


ACCni o'chirishning uchta usuli mavjuddir:

Tormoz tepkisiga asta bosing.

 ni bosing.

 ni bosing.

### Xotiradan o'rnatilgan tezlik qiymatini o'chirib yuborish

Adaptiv kruiz-nazoratning o'rnatilgan tezlik qiymati  klavishiga bosilganda yoki o't oldirish o'chirilganida xotiradan o'chirib yuboriladi.

### Adaptiv kruiz-nazoratning ob-haqq sharoitlariga ta'siri

Agar avtomobil salonidagi harorat juda yuqori bo'lsa, uskunalar majmuasida adaptiv kruiz-nazorat vaqtinchalik o'chirilganligi haqidagi ogohlantirish yorishishi mumkin. Issiq ob-havoda quyoshning nurlari ostida oldingi kameraning ortiqcha qizib ketishi buning sababi bo'lib qolishi mumkin.

Adaptiv kruiz-nazorat avtomobil salonidagi havo qayta sovuganida o'zining me'yoriy ishini tiklaydi.

Ko'rishni cheklovchi sharoitlar, masalan, tuman, yomg'ir, qor yoki yo'ldagi mayda yomg'ir, adaptiv kruiz-nazoratning me'yoriy ishiga halal berishi mumkin. Adaptiv kruiz-nazorat kamerasi oldidagi old oynadagi yomg'ir tomchilari yoki qor uchqunlari shuningdek tizimga obyektlarni to'g'ri aniqlashga halal berishi mumkin.

### Adaptiv kruiz-nazoratning ishiga yoritilganlikning ta'siri

Yetarlicha bo'lmagan yoritilganlik sharoitlarida old kamera obyektlarni me'yorda aniqlamaydi,

shuning uchun quyidagi holatlarda adaptiv kruiz-nazoratning ishi yomonlashishi mumkin:

- Yoritilganlik darajasi o'zgarmoqda, masalan, tonnelga kirishda yoki undan chiqishda, ko'priklar yoki yo'l kesishmalari ostida o'tishda.
- Gorizont ostida juda past joylashgan quyosh kameraga ob'ektlarni aniqlashda halal berishi yoki xuddi o'sha qatorda ob'ektlarni aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin.
- Kechqurungi yoki tongdagi xira-shira payt.
- Yo'l bo'ylab yoritilganlik darajasi doimo o'zgarmoqda (avtomobil navbatma-navbat yorug'lik va soya zonalariga tushmoqda).
- Tunnelda, agar sizning avtomobil o'chirilgan faralar bilan harakatlanayotgan yoki agar sizning oldingizda o'chirilgan gabarit chiroqlari bilan boshqa transport vositasi harakatlanayotgan bo'lsa.
- Qarama-qarshi tomondan kelayotgan transportning chiroqlari (masalan, uzoqni yoritish) bilan ko'zlarning qamashishi.

### Aksessuarlarni o'rnatish va avtomobilning qayta ishlanmalari

Old kamera joylashgan joyda old oynaning sohasi chegarasida, old kameraning ko'rish kengligini buzishi mumkin bo'lgan hech narsa o'rnatmang.

Avtomobil tomiga va yuqori yukxonaga old kameraning ko'rish kengligini to'sib qo'yib, osilib qolishi mumkin bo'lgan buyumlarni joylashtirmang, - masalan, kanoe, kayak yoki boshqa shunga o'xshash yuklar.

## HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Kapotni, faralarni va tumanga qarshi faralarga o'zgartirish kiritmang, chunki bu kameraning obyektlarni aniqlashtirish qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

### Datchiklar tizimini tozalash

Orqani ko'rish toshoynasi orqasida old oynadagi kameraning sensori qor, muz, loy, balchiq yoki chang bilan to'sib qolinishi mumkin. ACCning to'g'ri ishlashi uchun ushbu zonani tozalab turish zarur.

Sizning avtomobilingizni faralarini loydan, qordan va muzdan tozalab turish zarur. Yomon yoritilgan obyektlar yomonroq aniqlanadi. Agar ACC ishlamayotgan bo'lsa, oddiy kruiz-nazoratdan foydalanishga urinib ko'ring. "ACC va oddiy kruiz-nazorat orasida o'tish"ni ushbu bo'limda qarang. Kruiz-nazorat tizimlarning istalganini qo'llashni boshlashdan avval, yo'l holatini tahlil qiling.

Tozalash bo'yicha yo'riqnomani Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-58 bo'limning "Avtomobilni yuvish" bandida qarang.

Sizning avtomobilingiz avariyaning oldini olishga yoki avariya olingan shikastlanishlarni kamaytirishga yordam beruvchi oldinga, orqaga yurishda yoki to'xtab turishga joylashtirish vaqtida ularni birgalik qo'llashdagi funksiyalar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. Ushbu tizimni qo'llashdan avval, butun bo'limning mazmuni bilan tanishib chiqing.

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Haydovchiga yordam tizimiga butkul ishonib qolish yaramaydi. Ushbu tizimlar diqqatli bo'lish va avtomobilni xavfsiz boshqarish zaruratini o'rni bosmaydi. Siz ushbu tizimlar tomonidan beriladigan ogohlantirishlarni yoki xabarnomalarni eshitmasligingiz yoki ko'rmay qolishingiz mumkin. Safar qilishdagi diqqatsizlik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin.

- Bolalarni, piyodalarni, velosipedchilarni yoki hayvonlarni aniqlashtirish.
- Avtomobillarni yoki tizim nazorat qilayotgan zonalardan tashqarisidagi obyektlarni aniqlashtirish.
- Harakatlanishning barcha tezliklarida ishlash.
- Sizni ogohlantirish yoki avariyaning oldini olish uchun yetarlicha vaqtni taqdim etish.

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

- Yomon ko'rishda yoki yomon ob-havo sharoitlarida ishlash.
- Datchik tozalanmagan yoki muz, qor, loy yoki tuproq bilan to'sib qo'yilganda ishlash. Safar qilish jarayonida sizdan to'liq diqqat doimo talab etiladi, siz avariyaning oldini olish uchun harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga va/yoki avtomobil ruli bilan boshqarishga tayyor bo'lishingiz kerak.

### Tovushli ogohlantirish

Haydovchiga yordamning ba'zi funksiyalari uni tovushli signal uzatib to'siqlar haqida ogohlantiradi. Ogohlantiruvchi tovushli signallarning tovush balandligini o'zgartirish uchun.


### To'xtab turishga joylashtirish yoki orqa bilan yurishni yengillashtirish tizimi

Orqani ko'rish kamerasi (RVC), orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi (RPA) va orqaga yurish bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA) haydovchiga avtomobilni to'xtab turishga joylashtirish va to'siqlar bilan to'qnashuvdan saqlanishda yordam beradi. To'xtab turishga joylashtirish yoki orqaga yurish bilan harakatlanishda avtomobil atrofidagi to'siqlarning mavjud emasligini albatta tekshiring.


**Orqani ko'rish kamerasi**

YUO'Q selektori "R" (Orqaga yurish) holatga o'tkazilgan vaqtda, orqani ko'rish kamerasi axborot-ko'ngilochar tizimning displeyiga avtomobil orqasidagi zonaning tasvirini chiqaradi.

YUO'Q ni "R" (Orqaga yurish) holatidan o'tkazish vaqtida oldingi ekran qisqa tutilishdan so'ng displeyga chiqariladi. Oldingi ekranga tez qaytish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning istalgan tugmasini bosib, YUO'Q ni "R" (To'xtab turishga joylashtirish) holatga o'tkazing yoki avtomobilning tezligini oshiring.



1. Kameraning ko'rish maydoni



1. Kameraning ko'rish maydoni
2. Orqa bampere burchaklari

Kamera tomonidan uzatilayotgan tasvir obyektgacha masofa haqidagi tasavvurni buzadi. Aks ettiriluvchi zona chegaralangan, va bampere istalgan burchaklaridan biriga yaqin yoki bampere ostida joylashgan obyektlar aks ettirilmaydi.

Agar orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi (RPA) to'siqlarni aniqlasa, displeyda ogohlantiruvchi uchburchak aks ettirilishi mumkin. To'siq qanchalik yaqin bo'lsa, uchburchak o'z rangini sariqdan qizilga o'zgartiradi va o'lchamlarda kattalashadi.

**⚠ OGohlantirish!**

Kamera(lar) bolalar, katta piyodalarni, velosipedchilarni, kesib o'tuvchi yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalarini, hayvonlarni va kamera manzarasi zonasidan tashqari, bampere ostida yoki avtomobil tubida joylashgan boshqa buyumlarni aks ettirmaydi. Aks ettiriluvchi oraliq masofa to'siqgacha bo'lgan haqiqiy oraliq masofa haqidagi to'liq tasavvurni bermaydi. Faqat ushbu kamerani (kameralarni) qo'llash bilan safar qilish yoki avtomobilni to'xtab turishga joylashtirish taqiqlanadi. Harakatni boshlashdan avval, diqqat bilan atrofni ko'zdan kechirish lozimdir. Diqqatsizlik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin.


**To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi**

Bampere larda joylashgan RPA tizimi datchiklari 8 km/soat (5 mil/soat)dan kam tezlikda harakatlanishda avtomobil ortidagi to'siqlarni aniqlaydi. Issiq va namlangan ob-havoda to'siqlarni aniqlashtirish uzoqligi kamayishi mumkin. Bloklangan datchiklar to'siqlarni aniqlolmaydi, ammo soxta aniqlashlarni chaqirishi mumkin. Datchiklarni tuproqdan, loylardan, qordan, muzdan va moylardan

tozalang: shuningdek minus haroratlarda mashinani yuvishdan keyin datchiklarni tozalang.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi bolalarni, katta yoshdagi piyodalarni, velosipedchilarni, hayvonlarni va bamper darajasidan pastda, hamda avtomobilga juda yaqin yoki juda uzoq joylashgan boshqa obyektlarni aniqlashga qodir emas. U 8 km/soat (5 mil/soat) dan yuqori tezlikda ishlamaydi. Odamlarning jarohatlanishi yoki o'limidan, yoki avtomobilning shikastlanishidan saqlanish uchun, oldinga yoki orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval avtomobil atrofidagi fazoni albatta tekshirish va hattoki agar avtomobil to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi bilan jamlangan bo'lsa ham, orqani ko'rish toshoynasiga qarash lozim bo'ladi.



Ba'zi avtomobillarda uskunalar majmuasi qatorlar bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi displeyi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, ular to'siqgacha oraliq masofani va uning joylashish haqidagi ma'lumotni ko'rsatadi. To'siqning yaqinlashib kelishi bo'yicha diagrammada ko'proq qatorlar yorishadi, bundan tashqari, ular o'z rangini sariqdan qahrabogacha, so'ngra esa qizilga o'zgartirishi mumkin.

To'sini aniqlashda shu bilan birga tovushli signal yoqiladi. Tovushli signallar orasidagi interval avtomobil to'siqqa yaqinlashib kelishi bo'yicha qisqarib boradi. Agar obyekt avtomobilning orqa qismiga juda ham yaqin joylashgan bo'lsa, orqada uzluksiz tovushli signal jaranglaydi.

### **Orqa bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA)**

RCTA tizimli avtomobillarda axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida chapdan yoki o'ngdan yaqinlashib kelayotgan transport vositalari mavjudligi haqida haydovchini ogohlantirib, chapga yoki o'ngga yo'naltirilgan strelka bilan qizil uchburchak ko'rinishidagi piktogramma paydo bo'lishi mumkin. Tizim avtomobilning chap yoki o'ng tomonida 20 m (65 fut) oraliqdagi obyektlarni aniqlaydi. Chapdan yoki o'ngdan boshqa avtomobil aniqlashtirilganda muvofiq tomondagi dinamikda ogohlantiruvchi signal jaranglaydi.

### **Funksiyalarni yoqish yoki o'chirish**

Orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi belgilarini va yo'naltiruvchi chiziqlarni yoqish yoki o'chirish bo'yicha ko'rsatmalarni Shaxsiy sozlamalarni saqlash ↻ 4-23 bo'limda ko'ring.

### **Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA)**

Muvofiq butlamada FCA tizimi (ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi) frontal to'qnashuvlar natijasida shikastlanishlarni oldini olishi yoki ularni kamaytirishi mumkin. Agar siz oldinda ketayotgan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsangiz, FCA

tizimi old oynaga qizil rangdagi miltilovchi ogohlantiruvchi signalni chiqaradi va tez-tez tovushli signallarni berishni boshlaydi. FCA shu bilan birga agar siz boshqa avtomobil ortidan juda yaqin masofada harakatlanayotganingizda sariq rangdagi ogohlantiruvchi signal yoqiladi.

FCA taxminan 60 m gacha oraliq masofadagi avtomobillarni aniqlaydi va 8 km/soatdan yuqori tezlikda faoliyat yuritadi.

#### **▲ OGOHLANTIRISH!**

FCA tizimi ogohlantiruvchi hisoblanadi va tormozlashni yoqmaydi.

Sekin harakatlanayotgan yoki oldinda turgan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelishda, yoki juda yaqin masofada avtomobil ketidan ergashishda, FCA tizimi avariyaning oldini olish uchun juda kech ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirishni berishi mumkin. U shu bilan birga ogohlantirishni umuman chiqarmasligi mumkin. FCA tizimi piyodalar, hayvonlar, yo'l belgilari, himoya to'siqlari, ko'priklar, qurilish quvurlari va boshqa obyektlarni mavjudligi haqida ogohlantirmaydi. Harakat qilishga va tormoz tepkisiga bosishga tayyor bo'ling.

Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari ⇨ 8-2 da ko'ring.

FCA tizimini "Individual sozlamalarni saqlash" menyusida yordamida bekor qilish mumkin.

#### **Oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash**



FCA tizimi faqat oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash holatida ogohlantirish beradi. Avtomobil aniqlanganida oldinda ketayotgan avtomobil indikator yashil rangda yorishadi.

Tizim burilishlarda, avtomagistrallardan tushishda, tepaliklarda, cheklangan ko'rish sharoitlarida, hamda oldindagi avtomobil old qismida piyodalar yoki boshqa obyektlar bilan qisman to'sib qo'yilganida, avtomobillarni aniqlamasligi mumkin.

FCA tizimi oldinda ketayotgan avtomobilni, toki avtomobil butunlay sizning qatoringizda bo'lib qolmaguncha aniqlolmaydi.

#### **▲ OGOHLANTIRISH!**

FCA tizimi faqat avtomobilni aniqlash holatida avariyaning oldini olishni yordam beruvchi ogohlantirishni beradi. FCA tizimi, agar FCA datchigi loy, qor yoki muz bilan bloklangan yoki agar old oyna shikastlangan bo'lsa, oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlashi mumkin emas. U shuningdek ilonizi yoki baland-past yo'llarda, yoki tuman, yomg'ir, qor kabi ko'rishni cheklovchi sharoitlarda, yoki faralar yoki old oyna ifloslangan yoki o'rnatilgan tarzda holatga ega bo'lmaganida avtomobilni aniqlamaydi. Old oynani, chiroqlarni va FCA datchiklarini tozalikda va soz holatda saqlang.

#### **Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish**



Agar sizning avtomobilingiz aniqlashtirilgan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, old oynada FCA ning qizil displeyi

millitlashni boshlaydi. Bundan tashqari, oldinda sakkizta tez-tez ovoqli signallar jaranglaydi yoki Safety Alert Seat o'rindig'ining yostiqlarini ikkala tomoni besh marta titraydi. To'qnashuv ehtimoli haqida ushbu ogohlantirishni paydo bo'lishidan so'ng tormoz tizimi haydovchi tormoz tepkisini keskin bosishi mumkinligiga tayyorgarlik ko'radi va shuning uchun qisqa muddatli o'rtacha tormozlanishni boshlaydi. Talab etilgandek tormoz tepkisiga bosishni davom ettiring. Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish paydo bo'lganida kruiz-nazorat o'chiq bo'lishi mumkin.


#### Xavfli kichik oraliq masofa haqida ogohlantirish



Agar siz oldinda aniqlangan avtomobil ketidan juda yaqin ergashib ketayotgan bo'lsangiz, oldinda ketayotgan avtomobil indikatorlari sariq rangda yorishib turadi.


#### Ogohlantirishni berish vaqtini tanlash

Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirishni berish sozlagichi rul chamberagiga joylashtirilgan. "Uzoq", "O'rta", "Yaqin" FCA tizimini ishlash vaqtini qiymatini o'rnatish

uchun,  ni bosib. Haydovchining axborot markazida tugmani birinchi bor bosilishida joriy qiymat chiqarib beriladi. Keyingi bosishlarda sozlash qiymati o'zgarib boradi. Tanlangan sozlama uning haydovchi tomonidan o'zgartirilishigacha amal qiladi va ehtimolli to'qnashuv haqidagi ogohlantirishni va xavfli kichik oraliq masofa haqida ogohlantirishni berish vaqtini belgilab beradi. Ushbu ogohlantirishlarni berish vaqti avtomobilning tezligiga bog'liq bo'ladi. Avtomobilning tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, ogohlantirish shunchalik erta beriladi. Ogohlantirishni berish vaqtini tanlashda yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga oling.

Ogohlantirishni berish vaqtini tanlashning variantlari kengligi, ehtimol, barcha haydovchilar va safarning sharoitlari uchun mos keladi.

#### Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofa indikatorlari

Oldinda ketayotgan avtomobilgacha ergashishning oraliq masofa haydovchining axborot markazida (DIC) sekundlarda ergashish vaqti sifatida belgilanadi. Haydovchining axborot markazini (DIC)  4-20 da ko'ring.

Ergashishning minimal vaqti 0,5 sekundni tashkil qiladi. Oldinda ketayotgan avtomobil mavjud bo'lmaganida yoki oldinda ketayotgan

avtomobil datchikning ta'sir zonasiga tushmagan vaqtda displeyga shtrixlarning qatori chiqariladi.

#### Ahamiyatli bo'lmagan ogohlantirishlar

FCA tizimi burilishni bajaruvchi, harakatning boshqa qatorida ketayotgan avtomobillar, avtomobil hisoblanmaydigan obyektlar yoki soyalar bilan chaqirilgan xato ogohlantirishlarni berishi mumkin. Ushbu ogohlantirishlar tizimning me'yorda ishlashi haqida dalolat beradi, avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

#### Tizimni tozalash

Agar FCA tizimi o'rnatilgan tarzda ishlamayotgandek sezilayotgan bo'lsa, ushbu amaliyotlar mazkur muammoni bartaraf qilishi mumkin:

- Orqani ko'rish toshoynasi oldidagi old oynaning tashqi qismini tozalang.
- Avtomobilning butun old qismini tozalang.
- Faralarni tozalang.

#### Avtomatik shoshilinch tormozlanish tizimi (AEB)

Agar avtomobil ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) bilan jihozlangan bo'lsa, u shuningdek avtomatik shoshilinch tormozlanish tizimiga (AEB) egadir, uning tarkibiga shoshilinch tormozlanishda yordamning zakavatli tizimi (IBA) ham kiradi.

Siz kirishingiz mumkin bo'lgan, siz bilan bir yo'nalishda qatoringizda harakatlanayotgan avtomobil aniqlashtirilganida, tizim tormozlanishni kuchaytirishi yoki avtomobilni avtomatik to'xtatishi mumkin. Bu avariyaning oldini olishga yoki oldinga harakatlanishda uning og'irligini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Holatga bog'liq holda avtomobil avtomatik mo'tadil yoki keskin tormozlanishi mumkin. Bunday avtomatik shoshilinch tormozlanish faqat avtomobil aniqlanish holatida ro'y berishi mumkin. Bunda FCA tizimining oldinda ketayotgan avtomobil indikatorini yorishadi. Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-41 da ko'ring. Tizim oldinga 8 km/soatdan 80 km/soatgacha harakatlanishda ishlaydi. U 60 m gacha oraliqda transport vositalarini aniqlashtirishga qodirdir.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

AEB tizimi ehtimolli avariya shoshilinch tormozlanishga tayyorgarlikni ta'minlaydi, u avariyaning oldini olish uchun mo'ljallanmagan. Avtomobilni tormozlanishi uchun AEB tizimiga ishonib qolish yaramaydi. AEB tizimi uning tezliklar ishchi oralig'i tashqarisida tormozlanishni bajarmaydi va faqat aniqlangan avtomobillarga nisbatan ta'sir qiladi.

AEB tizimi quyidagilarni aniqlashga qodir emas:

- Ilonlari yoki past-baland yo'llarda oldinda ketayotgan avtomobilni.
- Ba'zi avtomobillarni, xususan, tirkamali avtomobillarni, traktorni, iflos avtomobillarni va boshqalarni.
- Avtomobil cheklangan ko'rish sharoitlarida, masalan, tuman, yomg'ir yoki qor vaqtda.
- Oldinda ketayotgan avtomobilni, agar u qisman piyodalar yoki boshqa obyektlar bilan to'sib qo'yilgan bo'lsa.

Safar qilish jarayonida sizdan to'liq diqqat doimo talab etiladi, siz avariyaning oldini olish uchun harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga va/yoki avtomobil ruli bilan boshqarishga tayyor bo'lishingiz kerak.

AEB tizimi ehtimolli avariyaning oldini olishga urinib ko'rish uchun to'liq to'xtagunga qadar avtomobilning tezligini pasaytirishi mumkin. Agar ushbu holat sodir bo'lsa, AEB tizimi avtomobilni joyida tutib turish uchun elektr mexanik to'xtab turish tormozini (EPB) yoqishi mumkin. EPB ni qo'yib yuboring yoki akselerator tepkisiga faol bosing.

**▲ OGOHLANTIRISH!**

AEB kutilmagan va talab etilmaydigan shunday holatlarda avtomobilni avtomatik to'satdan tormozlashi mumkin.

Tizim burilishni bajaruvchi oldindagi avtomobilga, himoya to'siqlariga, yo'l belgilariga va boshqa harakatsiz obyektlarga ta'sir etmasligi mumkin. AEB ta'sirini bloklash uchun, akselerator tepkisiga faol bosing, agar bu xavfni ifoda etmayotgan bo'lsa.

**Shoshilinch tormozlanishda yordamning zakavatli tizimi (IBA)**

IBA yaqinlashish tezligiga va oldinda ketayotgan avtomobilgacha oraliqqa bog'liq holda tormozlanishni kuchaytirib, tormoz tepkisini tez bosishda ishlashi mumkin.

Tepkining ahamiyatsiz lipillashi yoki cho'kib ketishi ushbu paytda me'yordagi holat



hisoblanadi, zarurat tug'ilganida tormoz tepkisini bosishda davom eting. IBA faqat tormoz tepkisini qo'yib yuborilishida avtomatik o'chadi.

#### **OGOHLANTIRISH!**

IBA talab etilmagan shunday holatlarda avtomobilning tormozlanishini kuchaytirishi mumkin. Sizing avtomobilingiz transport oqimining to'sig'i bo'lib qolishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, oyog'ingizni tormoz tepkisidan oling, so'ngra esa talab etilgani kabi tepkiga qayta bosing.

#### **OGOHLANTIRISH!**


Tirkamani shataklashda AEB yoki IBA tizimlarining qo'llanilishi avtomobilning boshqaruvini yo'qolishiga va, oqibatda, avariya olib kelishi mumkin. Tirkamani shataklashda tizimni "Alert" ("Ogohlantirish") tartibiga o'tkazing yoki uni o'chirib qo'ying.

Tizim quyidagilarda erishimli emasligi haqida xabar berishi mumkin:

- Avtomobilning old qismini yoki old oynaning ifloslanganligida.
- Agar obyektlarni aniqlashtirilishiga kuchli yomg'ir yoki qor halal berayotgan bo'lsa.

- Stabili-Trak tizimi/Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) bilan muammoga ega bo'lsa.
- AEB tizimi xizmat ko'rsatilishini talab etmaydi.

#### **Piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB)**

Muvofiq butlanganlikda piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) avtomobilning oldinga harakatlanishi vaqtida yonma-yon joylashgan piyodalar bilan frontal to'qnashuv natijasida shikastlanishlarni oldini olish yoki kamaytirishda yordam berishi mumkin. FPBni avtomobil oldida mavjud bo'lgan piyodani aniqlashtirishda  sariq indikator aks ettiradi. Agar avtomobil aniqlashtirilgan piyodaga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, FPB tizimi old oynaga qizil rangdagi ogohlantiruvchi miltillovchi signalni va tez-tez tovushli signallarni uzatadi. FPB tizimi tormozlanishni kuchaytirishi yoki avtomobilni avtomatik to'xtatishi mumkin. Ushbu tizimning tarkibiga shoshilinch tormozlanishda yordamning zakovatli tizimi (IBA) kiradi, bundan tashqari, avtomatik shoshilinch tormozlanish tizimi (AEB) shuningdek piyodalarga e'tibor berishi mumkin. Avtomatik shoshilinch tormozlanish tizimi (AEB) ⇨ 8-43 da ko'ring.

FPB tizimi oldinga 8 km/soatdan 80 km/soatgacha harakatlanishda u tomondan piyodalarni aniqlash haqida xabardor qilishga qodir. Sutkaning yorug' vaqtida tizim piyodalarni ta'xminan 40 metrgacha uzoqlikda aniqlaydi. Sutkaning qorong'u vaqtida tizimning imkoniyatlari sezilarli cheklangan.

#### **OGOHLANTIRISH!**

FPB tizimi ogohlantirishni uzatadi va faqat piyodani aniqlashtirish holatida avtomatik tormozlanishni bajaradi. FPB tizimi quyidagi holatlarda piyodalarni, jumladan bolalarni aniqlamasligi mumkin:

- Piyoda bevosita avtomobil oldida joylashmagan, qisman to'silgan, notekis yoki odamlar guruhida turibdi.
  - Yomon ko'rishda, jumladan tungi vaqtda, tuman, yomg'ir yoki qor sharoitlarida.
  - FPB tizimi datchigi loy, qor yoki muz bilan bloklangan.
  - Faralar yoki old oyna ifloslangan yoki o'rnatilgan tarzidagi ko'rinishga ega emas.
- Harakat qilishga va tormoz tepkisiga bosishga tayyor bo'ling. Ancha batafsil ma'lumotlarni Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari ⇨ 8-2 bo'limida ko'ring. Old oynani, faralarni va FPB datchiklarini tozalikda va soz holatda saqlang.

### Avtomobil oldida piyodani aniqlashtirish



FPB tizimi ogohlantirishni uzatadi va faqat piyodani aniqlashtirish holatida avtomatik tormozlanishni bajaradi.

Avtomobil oldida piyodani aniqlashda displeyda piyoda mavjudligining sariq indikatorini chiqarilgan bo'ladi.

### Avtomobil oldida piyodani mavjudligi haqida ogohlantirish



Agar avtomobil piyodaga juda tez yaqinlashayotgan bo'lsa, old oynada FPB tizimining qizil ogohlantirish displeyi miltillashni boshlaydi. Oldinda sakkizta yuqori tonalikkdagi signallar tez uzatiladi. Piyoda mavjudligi haqida ogohlantirish paydo bo'lganidan so'ng, tormoz

tizimi haydovchi tormoz tepkisini keskin bosishi mumkinligiga tayyorgarlik ko'radi va shuning uchun qisqa muddatli o'rtacha tormozlanishni boshlaydi. Talab etilgandek tormoz tepkisiga bosishni davom ettiring. Avtomobil oldida piyodaning mavjudligi haqida ogohlantirish paydo bo'lishida kruiz-nazorat o'chirib qo'yilishi mumkin.

### Avtomatik tormozlanish

Agar piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) avtomobil oldida mavjud bo'lgan piyodani bosib ketish xavfi mavjudligini aniqlasa, va bunda tormoz tepkisi bosilmagan bo'lsa, FPB mo'tadil yoki keskin tormozlanishni avtomatik yoqishi mumkin. Ba'zi holatlarda baland bo'lmagan tezlikda harakatlanishda bu piyodani bosib ketilishini oldini olishi yoki uning oqibatini og'irligini pasaytirishi mumkin. 8 km/soatdan 80 km/soatgacha harakatlanishda FPB tizimi piyodalarni aniqlashtirish holatida avtomatik tormozlanishni amalga oshirishga qodirdir. Ba'zi holatlarda, masalan, yuqori tezlikda harakatlanishda, tormozlanish past jadallikda amalga oshirilishi mumkin.

Agar ushbu holat sodir bo'lsa, avtomatik tormozlash tizimi avtomobilni joyida tutib turish uchun elektr mexanik to'xtab turish tormozini (EPB) yoqishi mumkin. EPBni qo'yib yuboring. Avtomatik tormozlanish va EPB akselerator

tepkisiga faol bosishda shuningdek o'chirilgan bo'ladi.

### ▲ OGOHLANTIRISH!

FPB kutilmagan va talab etilmaydigan shunday holatlarda ogohlantirish berishi yoki avtomobilni avtomatik to'satdan tormozlashi mumkin. Tizim piyodalarga shakli va o'lchami bo'yicha o'xshash ob'yektlarga, jumladan soyalarga ogohlantirish yoki tormozlanish bilan xato harakat qilishi mumkin. Bu tizimning me'yorda ishlashi haqida dalolat beradi, avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Avtomatik tormozlanishni ta'sir qilishini bloklash uchun, akseleratorning tepkisiga faol bosib, agar bu xavfni taqdim etmayotgan bo'lsa.

### ▲ OGOHLANTIRISH!

Tirkamani shataklashda piyoda oldida tormozlash tizimini qo'llanilishi avtomobil boshqaruving yo'qotilishiga va, oqibat sifatida, avariya olib kelishi mumkin. Tirkamani shataklashda tizimni "Alert" ("Ogohlantirish") tartibiga o'tkazib yoki uni o'chirib qo'ying.

### Tizimni tozalash

Agar FPB tizimi o'rnatilgan tartibda ishlamayotgan bo'lsa, orqani ko'rish toshoynasi oldida old oynaning tashqarisini tozalang, bu muammoni bartaraf qilishi mumkin.

### Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi (SBZA)

SBZA tizimi, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa, haydovchiga ko'r zonada mavjud bo'lgan boshqa avtomobillar bilan boshqa chiziqqa o'tish jarayonida to'qnashuvdan saqlanishga yordam beradi. Agar oldinga harakatlanish vaqtida tizim sizning avtomobilingizdan chapda yoki o'ngda o'lik zonada boshqa transport vositasini aniqlasa, nomdosh tomondagi toshoynada indikator yorishadi. Agar burilish ko'rsatkichi yoqilgan, va xuddi o'sha tomonda avtomobil aniqlangan bo'lsa, harakatlanish chizig'ini o'zgartirish haqidagi qo'shimcha ogohlantirish sifatida indikator miltillashni boshlaydi. Ushbu tizim qatordan ketish haqida ogohlantirish tizimining (LCA) qismi hisoblanganligi sababi, ushbu funksiyani qo'llashdan avval, LCA tizimi haqidagi butun bo'limning mazmunini e'tibor bilan tanishib chiqing.

### Harakatlanish qatoridan ketish haqida ogohlantirish tizimi (LCA)


Muvofiq butlanganlikda LCA tizimi yon tomon ko'z (ko'rilmaydigan) zonalarda harakatlanayotgan avtomobillar, yoki ushbu zonalarga orqadan tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar bilan to'qnashuvni oldini olib, bir qatordan boshqa qatorga o'tishda haydovchiga yordam beradi.

Avtomobilni aniqlashtirish holatida, muvofiq orqani ko'rish yon tomon toshoynasida LCA tizimining ogohlantiruvchi indikator yorishadi. Agar bunda burilish ko'rsatkichi yoqilgan bo'lsa, indikator miltillashni boshlaydi.

#### **▲ OGOHLANTIRISH!**

LCA tizimi tizim aniqlashtirish zonasidan tashqarida mavjud bo'lgan avtomobillar haqida, hamda piyodalar, velosipedchilar yoki hayvonlar haqida haydovchini ogohlantirmaydi. Tizim qatorni o'zgartirishda to'siqlar haqida haydovchini ogohlantirishi mumkin bo'lmagan holatlar mavjuddir. Boshqa qatorga o'tishda diqqatsizlik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Boshqa qatorga o'tishdan avval barcha toshoynalarga qarang, orqaga nazar soling va burilish ko'rsatkichini yoqing.

### LCA tizimining aniqlashtirish zonalari



1. SBZA tizimining aniqlashtirish zonasini 2. LCA tizimining aniqlashtirish zonasini LCA tizimi datchigi avtomobilning ikkala tomoni bo'ylab taxminan bir qator, yoki 3,5 m (11 fut) kenglikdagi zonani qamrab oladi. Datchiklar yerdan 0,5 m dan (1,5 fut) 2 mgacha (6 fut) balandlikda obyektlarni aniqlaydi. Yon tomon ko'r zonalarni nazorat qilish tizimining (SBZA) ogohlantirish zonasini kuzovning taxminan o'rtasida boshlanadi va 5 m (16 fut) masofada avtomobilning orqasida yakunlanadi. Haydovchilar avtomobil orqasida 70 m.gacha (230 fut) oraliq masofadan boshlab tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar haqida ogohlantirishlarni oladi.

### Tizimning ishlash tartibi

Ko'r zonada qo'shni qator bo'ylab yoki unga orqadan tez yaqinlashib kelayotgan avtomobilni aniqlashda, orqani ko'rish yon tomon toshoynalarida LCA tizimi indikator yorishadi.

LCA tizimining yonib turgan indikator harakatlanish qatorini o'zgartirish xavfiga ko'rsatadi. Boshqa harakatlanish qatoriga o'tishdan avval, LCA indikator yonmayotganligini tekshiring, barcha toshoynalarga qarang, orqani ko'ring va burilish ko'rsatkichini yoqing.



**Orqani ko'rish chap toshoynasidagi indikator**

**Orqani ko'rish o'ng toshoynasidagi indikator**

Dvigatel ishga tushirilganida LCA tizimi indikatorlari tizim sozligiga urg'u berib, ikki tomondagi tashqi toshoynalarda qisqa muddatga yorishadi. Agar oldinga harakatlanish vaqtida tizim avtomobilni, tuproqni, loyni, qorni, muzni va moylarni aniqlasa, u holda muvofiq yon tomon toshoynasida indikator yorishadi. Boshqa transport vositasi aniqlangan xuddi o'sha tomonda burilish ko'rsatkichining yoqilishi holatida, qatorni o'zgartirish xavfi haqida ogohlantirib, indikator millitlashni boshlaydi.

### Agar tizim o'rnatilgan tartibda ishlamayotgan bo'lsa

LCA tizimi maksimal samaradorlik bilan ishlashi uchun, uning kalibrovkasini bajarish zarur, buning uchun avtomobilda bir qancha masofani bosib o'tish kerak bo'ladi. Kalibrovka, agar avtomobilda transport oqimi bilan va yo'lning chetida har xil obyektlar bilan (masalan, suyanchiqlar, to'siqlar) to'g'ri avtomagistral bo'ylab safar qilinsa, tezroq bajariladi.

Yuqori tezlikda boshqa avtomobilni quvib o'tishda, turgan avtomobil yonidan o'tishda va tirkamani shataklashda LCA tizimi indikatorlari yonmasligi mumkin. Avtomobilning ikkala tomonidagi LCA tizimining aniqlashtirish zonasi uzunligi tirkamani shataklashda oshmaydi.

Tirkamani shataklashda, boshqa qatorga o'tish vaqtida ehtiyotkorlikni namoyish qiling. LCA tizimi avtomobilga mahkamlangan obyektlarga, masalan tirkamaga yoki velosipedga, hamda avtomobilning me'yordagi yon tomon gabaritlaridan chiqib turuvchi buyumlarga ta'sir qilib, ishlashi mumkin. Mahkamlangan buyumlar shuningdek avtomobillarni aniqlashtirishga halal berishi mumkin. Tizimning bunday harakati me'yoriy hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatilishi o'tkazilishini talab qilmaydi.

LCA harakatning qo'shni qatoridagi ko'r zonada avtomobilning mavjudligi haqida, ayniqsa yomg'ir sharoitlarida va keskin burilishlarda, haydovchini har doim ham ogohlantirmasligi mumkin.

Bu uning ta'mirlanishi zarurati haqida dalolat bermaydi. Tizim yo'l panjaralariga, belgilariga, daraxtlarga, boshqa ekinlarga va harakatsiz obyektlarga ta'sir qilishi mumkin. Tizimning bunday harakati me'yoriy hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatilishi o'tkazilishini talab qilmaydi.

LCA tizimi, agar orqa bamporning chap yoki o'ng burchagidagi LCA datchiklari tuproq, loy, qor, muz yoki moy bilan chaplanganda, hamda kuchli yomg'ir vaqtida faoliyat yuritmasligi mumkin.

Tozalash bo'yicha yo'riqnomani Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-58 bo'limning "Avtomobilni yuvish" bandida ko'ring. Agar ikkala datchiklarni tozalashdan keyin uskunalarni majmuasi displeyida hanuzgacha tizim erishimli emasligi haqida xabar aks etib turgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasiga yordamga murojaat qilish kerak.

Agar yon tomon zonada harakatlanayotgan yoki unga tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillarni mavjudligida LCA tizimi indikatorlari yorishmasa, tizim datchiklari toza bo'lsa, ehtimol, tizim nosoz va xizmat ko'rsatishni talab qiladi. Texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasiga murojaat qiling.

### Yo'l belgilanishiga nisbatan avtomobil holatini nazorat qilish tizimi (LKA)

Muvofiq butlanganlikda LKA tizim egallab turilgan qatordan bexosdan chiqib ketish bilan bog'liq avariylarni oldini olishga yordam berishi mumkin. Tizim 80 km/soatdan 180 km/soatgacha tezlikda yo'l belgisini aniqlashtirish uchun kameradan foydalanadi. Belgi chizig'iga avtomobilning yaqinlashib kelish holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, rul chambaragiga ravon ta'sir qiladi. U shuningdek, agar avtomobil belgi chizig'ini kesib o'tayotgan bo'lsa, egallab turgan qatordan chiqish (LDW) haqida haydovchini ogohlantirishi mumkin. LKA tizimining qo'shimcha rul boshqaruvi, agar haydovchi rul chambaragiga kuch ishlatayotgan bo'lsa, to'xtaydi.

Bu tizim qatorning markazi bo'ylab avtomobilni tutib turish uchun mo'ljallanmagan.

Agar burilish ko'rsatkichlari avtomobil siljigan xuddi shunday yo'nalishda yoqilgan bo'lsa, yoki agar tizim tezlashishni, tormozlanishni yoki faol manevr qilishni aniqlasa, tizim qo'shimcha rulni boshqarmaydi va qatordan chiqib ketish haqida ogohlantirmaydi.

#### **OGOHLANTIRISH!**

LKA tizimi avtomobil rulini doimo boshqarmaydi. Tizim, hattoki agar bo'lib turuvchi chiziq aniqlashtirilgan bo'lsa ham, harakatlanish qatorida avtomobilni tutib turolmasligi yoki harakatlanish qatori tashqarisiga chiqib ketish (LDW) haqida ogohlantirishni bermasligi mumkin.

LKA va LDW tizimlari har doim quyidagilarni bermaydi:

- Ogohlantirishni yoki avariya dan yoki harakatlanish qatoridan tashqariga chiqishdan saqlanish maqsadida rul boshqaruvida yordam taqdim etishni berish.
- Yomon ob-havo yoki yetarli bo'lmagan ko'rish sharoitlarida bo'luvchi chiziqni aniqlamaslik. Bu old oyna yoki faralar loy, qor yoki muz bilan bloklanganda, o'rnatilmagan holatga ega bo'lganida, hamda quyosh nurlari to'g'ri kameraga yoritib turgan holatlarda sodir bo'lishi mumkin.
- Yo'l chetlarini aniqlaydi.
- Ilon izi va tepalik yo'llarida chiziqni aniqlaydi.

Agar LKA tizimi yo'lning faqat bir tomonida bo'luvchi chiziqlarni aniqlashtirsa, u boshqaruvda yordam beradi yoki bo'lish chizig'i aniqlangan o'sha tomondagi belgilarga yaqinlashgandagina

#### **OGOHLANTIRISH!**

harakatlanish qatoridan tashqariga chiqish haqida ogohlantirishni beradi.





Hattoki LKA va LDW tizimlar mavjudligida siz avtomobil ruli bilan boshqarishingiz kerak.


Har doim diqqat bilan yo'lni kuzating va avtomobilni harakatlanish qatorida o'rnatilgan holatda tutib turing. Ushbu qoidaga rioya etmaslik avtomobilning shikastlanishiga, jarohatga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Old oynani, chiroqlarni va videokamerani datchiklarni har doim tozalikda va soz holatda saqlang. LKA tizimini nomaqbul ob-havo sharoitlarida yoki noaniq belgilashli yo'llarda, masalan yo'l ishlari o'tkazilish joylarida qo'llash yaramaydi.

#### **OGOHLANTIRISH!**

Tirkamani shataklashda yoki sirpanchiq yo'lda LKA tizimining qo'llanilishi avtomobil boshqaruvining yo'qotilishiga va, oqibatda, avariya olib kelishi mumkin. Tizimni o'chirib qo'ying.

### Tizimning ishlash tartibi

LKA tizimi yo'l belgilarini aniqlashtirish uchun orqani ko'rish toshohnasi oldidagi old oyna ostiga o'rnatilgan kamerani ishlatadi. Qatordan tasodifan chiqib ketish holatida tizim avtomobilni oldingi yo'nalishga qaytarib, rul boshqaruvining ishiga qisqa muddatli aralashishi mumkin. Bundayn keyin tizim avtomobil qator belgisini kesib o'tganligini ogohlantirib, tovushli signal uzatishi mumkin. LKA tizimini yoqish yoki o'chirish uchun, rul chambaragidagi  tugmani bosing. Faol qo'shimcha rul boshqaruvi bilan egallab turilgan qatordan chiqib ketish haqidagi ogohlantirish tizimi (agar butlanganlik bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) yoqilganida, tugmadagi indikator yorishadi, o'chiqligida esa - o'chadi. Indikator  (agar butlanganlik bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) oq rangda yorishib turganda, bu tizim avtomobil boshqaruviga faol aralashuvga tayyor emasligiga urg'u beradi. Agar faol qo'shimcha rul boshqaruvi bilan egallab turilgan qatordan chiqish haqida ogohlantirish tizimi (LKA) ishga tayyor bo'lganida,  indikator yashil rangda yorishadi. Belgi chizig'iga avtomobilning yaqinlashib kelish holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, rul chambaragiga ravon ta'sir qiladi. Tizim ishlashi vaqtida  indikator sariq rangda yorishib turadi. U shuningdek, agar avtomobil belgi

chizig'ini kesib o'tsa, haydovchini egallab turilgan qatordan chiqishi (LDW) haqida sariq  indikatorning miltillashi bilan ogohlantirishi mumkin. Bundan tashqari, avtomobilning chap yoki o'ng tomonidan, harakatlanish qatoridan chiqish yo'nalishiga bog'liq holda, tovushli signallar uzatilishi ham mumkin.

### Rul boshqaruvini qabul qilish

LKA tizimi avtomobil rulini doimo boshqarmaydi. Agar LKA tizimi rulning faol boshqaruvini aniqlashtirmasa, u ogohlantirish berishi va tovushli signal uzatishi mumkin. Qo'shimcha rul boshqaruvini to'xtatish uchun, rul chambaragiga kuch bering. LKA tizimi boshqaruvni o'z qo'liga olish zarurati haqida bir nechta ogohlantirishdan keyin bir qancha vaqtga o'chishi mumkin.

### Agar tizim o'rnatilgan tartibda ishlamayotgan bo'lsa

Tizimning faoliyat yuritishiga quyidagilar salbiy ta'sir qilishi mumkin:

- Yaqin masofada oldinda ketayotgan avtomobillar.
- Yorug'likni to'satdan o'zgarishi, masalan tunnellarda harakatlanishda.
- Ko'ndalang nishablik mavjud bo'lgan yo'llar.
- Yetarlicha aniq belgili yo'llar, masalan, ikki harakatlanish qatoriga ega bo'lgan yo'llar.

Agar aniq ko'rinuvchi bo'luvchi chiziqlarda LKA tizimi noto'g'ri faoliyat yuritayotgan bo'lsa, old oynaning tozalanishi muammoni bartaraf qilishga yordam berishi mumkin.

Agar kameraning ko'rish kengligi yopiq bo'lsa, "Kamera bloklangan" xabari paydo bo'lishi mumkin. Haydovchiga yordamning ba'zi tizimlari avariya yoki tartibga o'tishi yoki to'liq o'chib qolishi mumkin. Agar LKA yoki LDW tizimlari vaqtinchalik erishimli bo'lmasa, displeyda muvofiq ogohlantirish aks ettirilishi mumkin.

U, masalan kameraning ko'rish kengligi yopiqligida, paydo bo'lishi mumkin. LKA tizimga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Orqani ko'rish toshohnyasi o'rnatilish joyida tashqaridan old oynani tozalab yuboring.

LKA tizimi ishga aralashishi va/yoki gudron bilan ishlov berilgan uchastkalarga, soyalar, yo'ldagi yoriqlar, vaqtinchalik va qurilish belgilari va yo'l qoplamasining boshqa nuqsonlariga reaksiyalar oqibatida LDW ogohlantirishini berishi mumkin. Tizimning bunday harakati me'yoriy hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatilishi o'tkazilishini talab qilmaydi.

Bunday sharoitlarning uzoq muddat mavjud bo'lishida LKA tizimni o'chirib qo'ying.

**YONILG'I**

E'lon qilingan oktan soni 95 yoki yuqori bo'lgan noetillangan benzinni qo'llang. Aks holda eshitishga farqlanuvchi detonatsiya eshitiishi mumkin. Agar RON 95 yoki undan yuqori oktan soniga ega bo'lgan benzinni qo'llanilishida kuchli detonatsiya kuzatiladi, dvigatel xizmat ko'rsatilishida muhtojdir.

**⚠️ DIQQAT!**

Quyida ko'rsatilgan xarakteristikalarining biriga ega bo'lgan yonilg'ini qo'llamang; ushbu talabga rioya etmaslik avtomobilning shikastlanishiga va kafolatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin:

- Metanol, dimetoksimetan va anilinning biron bir miqdorini saqlovchi yonilg'i. Bunday yonilg'i yonilg'i tizimining metal qismlarini korroziyasini, hamda plastmassa va rezina detallarining shikastlanishini chaqirishi mumkin.
- Ishlangan gazlar toksikligini pasaytirish tizimini va o't oldirish shamlarini ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan metallar, masalan, metilsiklopentadienil-trikarbonil-marganes (MMT), saqlovchi yonilg'i.

**⚠️ OGOHLANTIRISH!**

- Tavsiya etilganga qaraganda kamroq oktan soniga ega bo'lgan yonilg'i. Bunday yonilg'ining qo'llanilishi yonilg'i sarfi tejamkorligi va samaradorligini pasaytiradi va katalitik neytralizatorning xizmat muddatini qisqartirishi mumkin.

**Yonilg'i qo'shimchalari**

Benzin yuviluvchi qo'shimchalarni saqlashi kerak, ular dvigatelni yonilg'i cho'kmalaridan tozalashga yordam beradi. Yonilg'i forsunkalari va kirituvchi klapanlarning tozaligi ishlangan gazlarning toksikligini pasaytirish tizimini samarali faoliyat yuritish kafolatidir. Benzinning ba'zi markalarida yuvuvchi qo'shimchalarning saqlanishi yonilg'i forsunkalari va kirituvchi klapanlarni tozalikda qo'llab turish uchun yetarli bo'lmaydi.

Yonilg'iga qo'shimcha qo'shimchalarni xarid qilish uchun dilerga murojaat qiling.

**Yonilg'ini bakka to'ldirish****⚠️ OGOHLANTIRISH!**

Yonilg'i bug'lari portlashdan xavfli va jiddiy jarohatlar yoki o'limning sababi bo'lishi mumkin.


Quyida keltirilgan tavsiyalarga amal qiling:

- Baxtsiz hodisalardan saqlanish uchun, yonilg'i tarqatish kolonkalari yonida o'zini tutish qoidalari bilan e'tiborli tanishib chiqing.
- Yonilg'i quyish vaqtiga dvigatelni o'chirib qo'ying.
- Yonilg'i yonida uchqunlar, ochiq alanga yoki tutayotgan materiallar bo'lmasligini kuzatib turing.
- Yonilg'i tarqatish kolonkasining yonidan ketmang.
- Yonilg'ini quyish vaqtida elektron qurilmalardan foydalanishdan saqlaning.
- Yonilg'i to'ldirish ketayotgan vaqtda avtomobil saloniga qaytmang.
- Bolalarni yonilg'i tarqatish kolonkasiga yaqinlashishga ruxsat bermang, hech qanday vaziyatda bolalarga yonilg'i quyishni amalga oshirishiga imkon bermang.
- Agar bak qopqog'ini tez ochilsa, yonilg'i bo'yinchadan chayqalib to'kilishi mumkin. Yonilg'ining chayqalib to'kilish ehtimoli bak to'laligida va issiq ob-havoda oshadi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

- Tiqinni asta-sekin burab oching va yonilg'ining chiqayotgan bug'lari vishillashi to'xtaguniga qadar kuting;
- Bundan so'ng tiqinni to'liq burab qotirish mumkin.



Yonilg'i quyish bo'yinchasining tiqini haydovchi tomonida yonilg'i bakining lyuki qopqog'i orqasida joylashgan. Yonilg'i bakining lyuki qopqog'i eshiklarning qulflarini bloklash bilan bir vaqtda bloklanadi. Qulflarni blokdan chiqarish uchun, qulflarni masofadan boshqarish brelogida  klavishasini bosing. Yonilg'i bakini lyuchogini ochish uchun, lyuchokning orqa markaziy chetini bosing va qo'yib yuboring.

Yonilg'i quyish bo'yinchasini tiqini yechib olish uchun, uni burab oling. Yonilg'i quyish vaqtiga tiqinni lyuk qopqog'ining ichki tomonidagi ilmoqqa osib qo'ying.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Yonilg'i bakining standart yonilg'i quyish pistoletining uchtadan ortiq chertkiga ortiqcha to'ldirilishi quyidagilarni chaqirishi mumkin:

- Avtomobil ishidagi muammolarni, jumladan dvigatelning o'chib qolishi va yonilg'i tizimining shikastlanishi.
- Yonilg'ining to'kilishlari.
- Yonilg'ining ehtimolli alangalanishi.

Ehtiyot bo'ling va yonilg'ini to'kib yubormaslikka harakat qiling. Yonilg'i uzatilishi yakunlanganidan so'ng yonilg'i quyish pistoletini chiqarib olishdan avval bir necha soniya kuting. Yonilg'i izlarini lak-bo'yoq qoplamasi ustidan darhol artib oling. . Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-58 ni ko'ring.

Yonilg'i quyishni yakunlagandan so'ng yonilg'i quyish bo'yinchasining qopqog'ini chertkigacha burab qotiring. Avtomobil vaqti-vaqti bilan yonilg'i tizimining germetikligini tekshiradi. Agar yonilg'i quyish bo'yinchasining qopqog'i burab qotirilmagan bo'lsa, nosozlik indikator yorishishi mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar yonilg'i quyish jarayonida alangalanish vujudga kelsa, yonilg'i quyish pistoletini bo'yinchadan chiqarib olmang. Yonilg'i taqsimlash kolonkasini o'chirib yoki O'QS xodimini ogohlantirib, yonilg'i uzatilishini to'xtating. Alangalanish zonasini zudlik bilan tark eting.



**AVTOMOBIL KONSTRUKTSIYASINI  
O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHA  
ASBOB-USKUNALARNI O'R NATISH  
Qo'shimcha elekt asbob-uskunalar**

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Tekshirish ulagichi (DLC) avtomobilga xizmat ko'rsatish, hamda ishlagan gazlarning toksikligini/ta'mirlash sifati nazorati tekshirish uchun qo'llaniladi. Nosozlik signalizatori ("Check Engine" (dvigatelni tekshiring) nazorat lampasi) ⇨ 4-13 ni ko'ring.

Tekshirish uldagichiga ulangan qurilma, masalan, haydovchi harakatlari yoki avtomobilning kafolatdan keyingi ishlashi ustidan kuzatuv qurilmasi, avtomobil tizimlarini ishini buzishi mumkin. Bu avtomobil ishida salbiy ta'sir qilishi va avariya sababi bo'lib qolishi mumkin. Bunday qurilmalar shu bilan birga avtomobil tizimlarida saqlanuvchi ma'lumotlarga kirish ruxsatini ham olishi mumkin.

**⚠ DIQQAT!**

Ma'lum elektr uskunalar avtomobil tizimini shikastlanishiga yoki ularning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolat ta'siriga tushmaydi. Qo'shimcha elektr asbob-uskunalarini o'rnatishdan avval, diler bilan maslahatlashish kerak.

Qo'shimcha asbob-uskunalarining o'rnatilishi akkumulyator batareyasining (12 V) hattoki avtomobil ishlatilmayotgan vaqtda ham quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Sizning avtomobilingizda ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi o'rnatilgan. Biron bir qo'shimcha asbob-uskunalarini o'rnatishdan avval, Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga xizmat ko'rsatish ⇨ 2-21 va Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga qo'shimcha asbob-uskunalarini o'rnatish ⇨ 2-21 bo'limlarni mazmuni bilan tanishib chiqing.



# 9

## AVTOMOBILNI PARVARISHLASH

---

- UMUMIY MA'LUMOT ..... 9-2
- AVTOMOBILNING TEKSHIRUVLARI ..... 9-2
- CHIROQLAR YORUG'LIGINI YO'NALTIRISHNI TO'G'RILASH ..... 9-23
- CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH .... 9-23
- ELEKTRIK TIZIMI ..... 9-26
- G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR ..... 9-33
- QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH ..... 9-54
- AVTOMOBILNI BUKSIRLASH ..... 9-56
- AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISHLASH ..... 9-58
- IZOHLAR ..... 9-68

### UMUMIY MA'LUMOT

Ehtiyot qismlarni olish yoki texnik xizmat ko'rsatilishini bajarish zaruratida mahalliy dilerga murojaat qiling. Siz firma ehtiyot qismlarini olasiz, texnik xizmatni esa o'rgatilgan va barcha narsa bilan ta'minlangan texnik xizmati xodimlari bajaradi.

#### **Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalar va modifikatsiyalari**

Qo'shimcha nodiler uskunasi o'rnatish yoki avtomobilga modifikatsiyalarni kiritish uning tortish-dinamik tavsiyalariga va xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, xususan, ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining, tormozlash tizimining holatini yomonlashtirishi mumkin, barqarorligi, harakati va boshqariluvchanligi, chiqindilarni nazorat qilish tizimi, aerodinamikasi, uzoq muddatli yaroqliligi va tormozlarni bloklash, tortish kuchini to'g'rilash tizimi va dinamik barqarorlashtirish tizimi kabi elektron tizimlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bunday qo'shimcha uskunani o'rnatish yoki modifikatsiya qilish hattoki nosozliklar va shikastlanishlarga olib kelishi mumkin, ular avtomobilga bo'lgan kafolat bilan qoplanmaydi.

Ishlab chiqaruvchi-zavod tavsiyalarini buzib, yo'l yorig'ini o'zgartirish natijasida osma elementlarni shikastlanishi kafolatli holat hisoblanmaydi.

Modifikatsiyalarni kiritish, shuningdek GM kompaniyasi tomonidan sertifikatlanmagan detallarni o'rnatish yoki qo'llash, jumladan boshqarish yoki dasturiy ta'minot modullarini modifikatsiya qilish tufayli avtomobil qismlarini shikastlanishi avtomobilga bo'lgan kafolat ta'sirini to'xtatishga olib kelishi mumkin yoki qismlarga nisbatan kafolat majburiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ularni o'zgartirishi mumkin.

GM ning firmali qo'shimcha uskunasi avtomobilning boshqa tizimlarini funksional imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan. Avtomobilning uchun firmali qo'shimcha uskunani xarid qilish masalasi bo'yicha GM dileriga murojaat qilish lozim, uning mutaxassislari tanlangan uskunani malakali ravishda o'rnatib berishi mumkin.

Shuningdek, xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilda qo'shimcha uskunani o'rnatish ⇨ 2-21 bo'limini ko'ring.

### AVTOMOBILNI TEKSHIRISH

#### **Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarish**

##### **OGOHLANTIRISH**

Agar siz kerakli bilimlarga, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha hujjatlariga, instrumentlar va ehtiyot qismlarga ega bo'lmasangiz, avtomobilda qandaydir ishlarni mustaqil bajarish xavfli.

Xizmat ko'rsatish bo'yicha qandaydir operatsiyalarni o'tkazishdan oldin ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma va ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishib chiqish kerak.

Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarishda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli qo'llanmadan foydalaning.

U erda ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmaga nisbatan, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni qanday bajarish borasida ko'proq ma'lumotlar bor.

Mazkur avtomobil ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi bilan jihozlangan. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarishdan oldin Xavfsizlik yostiqlari tizimini tekshirish bo'limiga murojaat qiling ⇨ 2-21 ni ko'ring.

Barcha qismlarni olish bo'yicha, avtomobilni bosib o'tgan masofasini va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish sanalarini yozuv jurnalini yuringing.

**⚠️ DIQQAT**


Hattoki ahamiyatsiz ifloslanishlar ham avtomobilning tizimlariga zarar etkazishi mumkin. Ishchi suyuqliklariga, baklarning qopqoqlariga yoki moy o'lchash shchuplariga kir tushishiga yo'l qo'ymang.

**Kapot**


Kapotni ochish uchun:



1. Mana bunday belgisi bo'lgan kapotni ochish richagini torting. U pastda asbob-uskunalar panelining chap qismida eshik va rul chamberagi oralig'ida joylashgan.



2. Avtomobilning old qismida o'ting va kapotni ochishning yordamchi dastagini toping. Bu dastak kapotning old cheti ostida deyarli o'rtada joylashgan. Dastakni o'ng tomonga torting va kapotni ko'taring.



3. Radiator ustida joylashgan kapot tirgagini ushlagichdan chiqaring. Tirgakning yuqori uchini kapot qopqog'ining ichki tomonida joylashgan uyachasiga kiriting.

Kapotni yopish uchun:


1. Kapotni yopishdan avval, quyish bo'yinchalarining barcha qopqoqlari o'rnatilganligiga va zich burab qotirilganligiga ishonch hosil qilish kerak.

2. Tirgakni bo'shatish uchun kapot qopqog'ini biroz ko'taring. Kapot qopqog'ining ichki tomonidagi uyachadan tirgakni oling va uni joyiga joylashtiring. Tirgak o'rniga joylashganligini dalolat beruvchi o'ziga xos chertki bilan taxlanishi kerak.

3. Kapotni motor bo'linmasidan taxminan 30 sm (12 dyuym) yuqori bo'lgunga qadar tushiring va u to'liq yopilishi uchun uni qo'yib yuboring.

4. Kapot yopilganligiga ishonch hosil qiling. Agar bunday bo'lmasa, salondan kapot fiksatorini bo'shating va 1-3 qadamlarni takrorlang.

**Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi**



**2.0L LXH dvigateli**

1. Dvigatelning havo filtri ⇨ 9-10.
2. Dvigatelning moy quyish bo'ynining qopqog'i. Motor moyi ⇨ 9-6 ni ko'ring.
3. Motor moyining sathini nayzali ko'rsatkichi. Motor moyi ⇨ 9-6 ni ko'ring.
4. Dvigatelni sovutish ventilyatori. Sovutish tizimi ⇨ 9-11ni ko'ring.
5. Tormoz suyuqligining bachogi. Tormoz suyuqligi ⇨ 9-17.
6. Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki ⇨ 9-26.
7. Akkumulyatorli batareyaning chiqariluvchi musbat (+) klemmasi (qopqoq bilan yopilgan). Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 9-54 ni ko'ring.
8. Dvigatel sovutish suyuqligining kengaytiruvchi bachogi va saqlagichli klapanli qopqoq. Sovutish tizimi ⇨ 9-11ni ko'ring.
9. Akkumulyatorli batareya ⇨ 9-18.
10. Chiqarilgan manfiy (-) klemma. Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 9-54 ni ko'ring.
11. Yon oyna yuvgichining suyuqligi uchun bachok. Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-16 ni ko'ring.

### Motor moyi

Dvigatelni tegishli ishchi xarakteristikalarini va uning uzoq ishlashini ta'minlash uchun motor moyiga alohida e'tibor berish lozim. Sarmoyalaringizni himoya qilish uchun quyida keltirilgan oddiy, biroq muhim talablarga rioya qiling:

- Kerakli yopishqoqlikdagi, spetsifikatsiyaga muvofiq sertifikatlangan moylardan foydalaning. Ushbu bo'limda "Tegishli motor moyini tanlash" paragrafini ko'ring.
- Motor moyi darajasini muntazam tekshiring va uning tegishli darajasini ushlab turing. Ushbu bo'limda "Motor moyini tekshirish" va "Motor moyini qachon quyish kerak" paragraflarini ko'ring
- Motor moyini o'z vaqtida almashtirib turing. Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-8 ni ko'ring.
- Ishlab bo'lingan motor moyini har doim tegishli ravishda utilizatsiya qilish kerak. Ushbu bo'limda "Ishlab bo'lingan motor moylarini nima qilish kerak" paragrafini ko'ring

### Motor moyini tekshirish

Motor moyi darajasini muntazam ravishda, har 650 km da (400 milya), shuningdek olis yo'ldan oldin tekshirish zarur. Moy darajasini o'lchash uchun dvigatelning karteridagi shchup dastagi halqa ko'rinishida ishlangan. Uning joylashish joyi Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi bo'limida ko'rsatilgan ⇨ 9-5 ni ko'ring.



### OGOHLANTIRISH

Shchupning dastagi qaynoq bo'lishi mumkin, unga kuyib qolish mumkin. Shchupning dastagini faqat uning ustiga mato tashlab yoki qo'lqop kiyib ushlab mumkin.

Agar haydovchi axborot markazining displeyida (DIC) moyning past darajasi haqida xabar aks ettirilsa, uning darajasini qo'lda tekshirish zarur. Quyida keltirilgan tavsiyalarga rioya qiling:

- Natija aniq bo'lishi uchun avtomobilni tekis, qiyalik bo'lmagan joyda to'xtating. Moy darajasini dvigatel o'chirilganidan 2 soatdan keyin tekshirish lozim. Agar avtomobil qiya joyga qo'yilsa yoki dvigatel to'xtatilgandan keyin kerakli vaqt o'tmasdan tekshirilsa natijasi noto'g'ri bo'ladi. Dvigatelni ishga tushirishdan oldin uning sovuq holatidagi tekshiruv yanada aniqroq natijani beradi. Moy o'lchash shchupini chiqaring va moy darajasini tekshiring.
- Agar siz ikki soat kuta olmasangiz, agar dvigatel isigan bo'lsa hech bo'lmasa 15 daqiqa kuting, yoki dvigatel isimagan bo'lsa 30 daqiqa kuting. Shchupni chiqaring, uni toza latta bilan artib tashlang va joyiga soling.



Uchini pastga qaratib nayzali ko'rsatkichni yana chiqaring, va motor moyi darajasini tekshiring.

### Motor moyini qachon quyish kerak



### Turbopuflash bilan qatorli 4-tsilindrli 2.0 l hajmli dvigatel

Agar dvigatelni o'chirgandan keyin 15 daqiqa kutib o'lchash natijasi bo'yicha moy darajasi shchupning uchidagi kerti maydonidan past bo'lsa, tavsiya etilgan moydan bir litr (bir kvarta) quyung va tekshiruvni takrorlang. Shuningdek, ushbu bo'limda "Tegishli motor moyini tanlash" bandini ko'ring, u erda qanday turdagi motor moyidan foydalanish tushuntiriladi.

### ⚠️ DIQQAT

Juda ko'p moy quyish kerak emas. Moyni darajaning nayzali ko'rsatkichi bo'yicha yo'l qo'yiladigan ishchi diapazonidan yuqori yoki past quyilishi dvigatel uchun zararli.

Agar motor moyining darajasi ishchi diapazonidan yuqoriga ko'tarilgan bo'lsa (dvigatelda motor moyining ortiqcha miqdori mavjud, ya'ni uning darajasi motor moyi darajasining kerakli ishchi diapazonini ko'rsatuvchi kesuvchan shtrixlash zonasidan yuqori), dvigatel ishdan chiqishi mumkin. Ortiqcha moyini to'kib tashlang yoki avtomobilni harakatlanishini cheklang va ortiqcha moyini yo'qotish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-5 bo'limini ko'ring, u erda dvigatelning moy quyish bo'yni qopqog'ini joylashgan joyi ko'rsatilgan. Darajasi kerakli ishchi diapazonida bo'lishi uchun motor moyining yetarlicha miqdorini quyung. Tekshiruv tugagandan keyin nayzali ko'rsatkichni yana nayzaga oxirigacha soling.

### Tegishli motor moyini tanlash

Tegishli motor moyini tanlash kerakli texnik xarakteristikalar va moyning yopishqoqligi bilan belgilanadi.

### Texnik xarakteristikalari

dexos1 spetsifikatsiyasi talablariga muvofiq bo'lgan to'liq sintetik motor moyidan foydalaning.

GM kompaniyasining dexos1™ spetsifikatsiyasiga muvofiq motor moyining idishida dexos1 logotipi bo'lishi kerak. [www.gmdexos.com](http://www.gmdexos.com) ni ko'ring.



### ⚠️ DIQQAT

Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik dvigatelni shikastlanishiga yoki kafolatlarni buzilishiga olib kelishi mumkin.

### **Yopishqoqlik navi**

2.0 L dvigatellari uchun SAE 0W-20 dvigatel moyidan foydalaning.

Moy yopishqoqligi bo'yicha tanlayotganda, uning spetsifikatsiyaga muvofiqligini tekshirish tavsiya etiladi. Ushbu bo'limning boshida "Texnik xususiyatlar" qismiga qarang.

### **Motor moyiga qo'shimchalar/Moylash tizimini yuvish**

Motor moyiga nimadir qo'shish taqiqlanadi. Tegishli ishchi xarakteristikalarini ta'minlash va dvigatelni himoyalash uchun dexos spetsifikatsiyasiga mos keladigan motor moylaridan foydalanishning o'zi kifoya.

Moylash tizimini yuvish tavsiya etilmaydi, bu operatsiya dvigatelni ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin, bunga esa avtomobilga bo'lgan kafolat qo'llanilmaydi.

### **Ishlab bo'lingan motor moyini nima qilish kerak**

Ishlab bo'lingan motor moyida teriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, hattoki saratonni chaqirishi mumkin bo'lgan ayrim komponentlar mavjud.

Motor moyini inson terisi bilan uzoq aloqa qilishiga yo'l qo'ymang. Teri va tirnoqlarni sovun va suv bilan yoki qo'llar uchun yaxshi vosita bilan yuvib tashlang. Ishlab bo'lingan moy bilan

ifloslangan kiyimlarni yoki lattalarni yaxshilab yuving yoki tegishli ravishda utilitatsiya qiling. Naft mahsulotlaridan foydalanish va utilitatsiya qilishga nisbatan ishlab chiqaruvchining ogohlantirishlarini ko'ring.

Ishlab bo'lingan moy atrof muhit uchun xavf tug'dirishi mumkin. Agar siz motor moyini mustaqil almashtirayotgan bo'lsangiz, ishlab bo'lingan filtrni tashlab yuborishdan oldin undan hamma moyni to'kib tashlang.

Motor moyini maishiy chiqindilar uchun konteynerlarga yoki erga, kanalizatsiya kollektorlariga, shuningdek daryo va ko'llarga to'kish taqiqlanadi. Motor moyini ishlab bo'lingan motor moyini yig'ish joylariga qayta ishlashga topshirish kerak.

### **Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi**

#### **Motor moyini qachon almashtirish lozim**

Ushbu avtomobilning elektron tizimi moy yoki filtrni almashtirish kerakligi haqida o'z vaqtida ogohlantiradi. Bu dvigatelning aylanishi chastotasi, dvigatelning harorati va avtomobilning bosib o'tgan masofasi kabi omillarning majmuasiga bog'liq. Haydash sharoitlariga qarab, moy almashtirish zarurati bosib o'tilgan masofaning turli qiymatlarida vujudga kelishi mumkin. Tizimni me'yoriy ishlashi uchun har moy almashtirilgandan keyin uning ko'rsatkichlarini yangilash kerak.

Tizimning hisob-kitoblariga ko'ra moyning xizmat muddati tugayotganda, u haydovchiga moyni almashtirish zarurati haqida xabar beradi. "MOYNI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA" degan xabar paydo bo'ladi. Moyni iloji boricha tezroq almashtirish lozim, moy almashtirguncha yo'l qo'yiladigan masofa — 1 000 km (600 mil) dan ortiq emas. Ehtimol, qulay haydash sharoitlarida tizim bir yilgacha moy almashtirish zarurati haqida signal bermasligi mumkin. Motor moyi va filtrni yiliga kamida bir marta almashtirish kerak, bir vaqtning o'zida tizimni ko'rsatkichlarini yangilash lozim. Sizning dilingizda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'rgatilgan mutaxassislar bor, ular bu ishni bajarib, tizim ko'rsatkichlarini yangilab beradi. Bundan tashqari, moyni oqib ketmayotganligini muntazam tekshirish va kerakli darajasini ushlab turish muhim.

Agar tizimda ma'lumotlarning tasodifan yangilanishi sodir bo'lsa, moyni oxirgi almashtirish paytidan boshlab 5000 km (3000 milya) bosib o'tilgandan keyin almashtirish lozim. Moyni har almashtirishdan keyin tizim ma'lumotlarini yangilashni unutmang.

### **Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ma'lumotlarini yangilash**

Tizim moyini keyingi almashtirish vaqtini to'g'ri hisoblab chiqishi uchun, har moy almashtirilishida uning ko'rsatkichlarini yangilash zarur. Tizim ko'rsatkichlarini yangilash uchun:

1. REMAINING OIL LIFE (MOYNING QOLGAN XIZMAT MUDDATI) bandini haydovchining axborot markazi menyusiga chiqaring. Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-20 ni ko'ring.

2. "Moyning qolgan xizmat muddati" aks ettirilsa, moyning xizmat muddatini hisoblagichi ma'lumotlarini yangilash uchun ✓ bosib, bir necha soniya ushlab turing.

3. Moyning xizmat muddatini hisoblagichning ma'lumotlari yangilangandan keyin ekranda shunday xabar paydo bo'ladi REMAINING OIL LIFE 100% (MOYNING QOLGAN XIZMAT MUDDATI 100%).

Moyning xizmat muddatini hisoblagichning ma'lumotlarini boshqa yangilash usuli:

1. O't oldirgichni Servis rejimiga o'tkazing. Ishga tushiruvchi o'zgartirgichni holati ⇨ 8-11 ni ko'ring.

2. REMAINING OIL LIFE (MOYNING QOLGAN XIZMAT MUDDATI) bandini haydovchining axborot markazi menyusiga chiqaring. Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-20 ni ko'ring.

3. Besh soniya ichida akselerator pedalini uch marta to'liq bosib va qo'yib yuboring.

4. Agar ekrandagi raqam 100% ga almasha, tizim ma'lumotlari yangilangan.

Dvigatel ishga tushirilgandan keyin MOTOR MOYINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA degan xabar yana yonadi, demak, moy resursini o'lchagichining ma'lumotlari yangilanmagan. Mazkur muolajani takrorlang.

### **Avtomatik yuritmalar qutisi uchun suyuqlik**

#### **Avtomatik yuritmalar qutisida suyuqlik darajasini qanday tekshirish mumkin**

Yuritmalar qutisida suyuqlik darajasini tekshirish shart emas. Yuritmalar qutisidan suyuqlik kamayishining yagona sababi oqib ketishi hisoblanadi. Oqib ketish yuzaga kelganida dilerga murojaat qiling va avtomobilni iloji boricha tezroq ta'mirlang.

Avtomobil yuritmalar qutisi uchun suyuqlik darajasini nayzali ko'rsatmasi bilan jihazlanmagan.

Yuritmalar qutisi uchun suyuqlik darajasini tekshirish va almashtirish uchun maxsus muolaja mavjud.

Bu ish mashaqqatli bo'lganligi tufayli, uni TXKS da bajarish kerak.

### **⚠️ DIQQAT**

Mos kelmaydigan transmission suyuqlikdan foydalanilganda avtomobil shikastlanishi mumkin, va bunday shikastlanishi avtomobilga bo'lgan kafolatning ichiga kirmaydi. Avtomatik yuritmalar qutisi uchun har doim tegishli suyuqlikdan foydalaning. Avtomobilning ma'lumotlari ⇨ 10-8ni ko'ring.

Suyuqlik va filtrni "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" nomli bukletida ko'rsatilgan muntazam vaqt oralig'ida almashtirish lozim; ko'rsatilgan suyuqlikdan foydalanish kerak.

### **Dvigatelning havo filtri resurslari hisoblagichi**

Bu funktsiya (muvoqif butlanganlikda) dvigatelning havo filtrining qoldiq resurslari haqida va almashtirishning maqbul muddati haqida axborot beradi.

Dvigatelning havo filtri almashtirishning maqbul muddati haydash va atrof-muhitning sharoitlariga bog'liqdir.

### **Dvigatelnig havo filtrini qachon almashtirish kerak**

Haydovchining axborot markaziga (DIC) dvigatelnig havo filtrini almashtirish zarurati haqida xabar chiqarilgan vaqtda moyni keyingi almashtirilishida, almashtirishning ushbu muddatiga rioya qiling.




DICga yaqin vaqt davomida dvigatelnig havo filtrini almashtirish zarurati haqida xabar chiqarilgan vaqtda, birinchi imkoniyat tug'ilganida filtrni almashtiring.

Dvigatelnig havo filtri almashtirilganidan keyin tizimni tashlab yuborish kerak bo'ladi.


Agar DICda dvigatelnig havo filtri tizimini tekshirish zarurati haqida xabar chiqarilsa, o'z dilingizga murojaat qiling.

### **Dvigatelnig havo filtrini xizmat qilish muddatini nazorat qilish tizimini tashlab yuborilishini qanday bajariladi**

Tashlab yuborish uchun:

1. Avtomobilning YUO'Q selektorini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.
2. DICning displeyiga Air Filter Life (Havo filtrining xizmat muddati) parametrini chiqaring. Haydovchining axborot markazini (DIC) 4-20 da ko'ring.
3. Reset/Disable (Tashlab yuborish/Rad etish) displeyiga o'tish uchun, rul chambargida  ni bosing. Reset (Tashlab yuborish) tanlang, so'ngra  ni bosing.
4. Tashlab yuborishni tasdiqlash uchun  ni bosing.

### **Dvigatelnig havo filtri**


Havo filtri motor bo'linmasida old passajir tomonida joylashgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi  9-5 ni ko'ring.

### **Dvigatelnig havo filtrini qachon tekshirish kerak**

Havo filtrini tekshirish va almashtirish davriyligi haqidagi ma'lumot "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" bukletida keltirilgan.


### **Dvigatelnig havo filtrini qanday tekshirish kerak**

Havo filtri korpusi ochiq dvigatelni ishga tushirish va ekspluatatsiya qilish mumkin emas. Havo filtrini yechishdan avval uning atrofidagi maydonni kir va changlardan tozalang. Filtr va uning elementlarini suv yoki siqilgan havo bilan tozalash taqiqlanadi.



1. Vintlar
2. Havo chiqarish xomuti
3. Elektrik ulagich

Dvigatelnig havo filtrini tekshirish va almashtirish uchun:

1. Kapotni oching. Kapot  9-3 ni ko'ring.
2. Havo chiqarish xomutini vintini bo'shatig (2) va korpusdan havo chiqarish trubkasini chiqaring.
3. To'rtta vintni bo'shatib chiqaring (1) va datchikdan elektrik ulagichni elektr uzatgich (3) Jgutni uzmasdan, havo tozalagich/havo filtrni qopqog'ini yeching.
4. Qopqoqni yuqoriga torting va uni ushlab turib havo tozalagich/havo filtrni chiqaring.
5. Havo tozalagich/havo filtrni ko'rib chiqing yoki almashtiring.

### ⚠ OGOHLANTIRISH

Agar qaysidir qismni almashtirish zarur bo'lsa, almashtirish uchun huddi shunday raqamli yoki analog ehtiyot qismdan foydalanish kerak. o'rnatish o'lchamlari yoki shakli yoki funksiyalari turli xil bo'lgan ehtiyot qismlardan foydalanish odamlarga shikast yetkazishi yoki transport vositasiga shikast yetkazishi mumkin.

#### Havo tozalagich/ havo filtrini o'rnatish



1. Havo tozalagich/havo filtrini havo tozalagich/havo filtrining korpusi tagidagi belgiga qarab yo'naltiring va o'rnatng. Havo tozalagich/havo filtrining tashqi zichlagichi havo tozalagich/havo filtrining korpusiga to'g'ri tushishi kerak.

2. Havo tozalagich/havo filtri korpusini bo'rtiklarini havo tozalagich/havo filtri korpusi bilan birlashtiring.
3. Havo tozalagich/havo filtri korpusini qopqog'ini o'rnatng va uni to'rta vint bilan qotiring.
4. Havo chiqargichni qopqoqqa joylashtiring va havo chiqargich xomutini vintini qotiring.
5. Elektr uzatgich jgutining ulagichi havo tozalagich/havo filtrini korpusidagi datchikka to'liq ulanganligiga ishonch hosil qiling.
6. Dvigatelning havo filtrini almashtirgandan keyin filtrning xizmat muddati hisoblagichini (agar mavjud bo'lsa) tashlab yuboring. Dvigatelning havo filtri resursi hisoblagichi ↻ 9-9 ni ko'ring.

### ⚠ OGOHLANTIRISH


Havo filtrisiz dvigatelni ishlashi yaqinida turgan odamlarni kuydirishi mumkin. Dvigatelda ishlarni bajarganga ehtiyotkorlikka rioya qiling. Yechilgan havo filtrlri dvigatelni ishga tushirmang yoki avtomobilni ekspluatatsiya qilmang, chunki dvigatelni qayta chaqnashida alanga paydo bo'lishi mumkin.

### ⚠ DIQQAT

Yechilgan havo filtrida dvigatelga tez kir tushadi va uni ishdan chiqarishi mumkin. Avtomobilni havo filtrisiz ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

#### Sovutish tizimi

Sovutish tizimini dvigatelga kerakli ishchi haroratni ushlab turishni ta'minlaydi.



#### Dvigatel 2,0 ILSY

1. Dvigatelni sovutish ventilyatori (nazardan yiroq)

2. Dvigatel sovutish suyuqligining kengaytiruvchi bachogi va saqlagichli klapanli qopqoq

**▲ OGOHLANTIRISH**

Kapot ostidagi elektrik ventilyator ishlamayotgan dvigatelda ham ishga tushib, sizga jarohat etkazishi mumkin. Qo'llar, kiyim va instrumentlarni kapot ostidagi elektrik ventilyatordan yiroqda tutish lozim.

Agar sovutish suyuqligini kengaytiruvchi bachogidagi suyuqlik qaynayotgan bo'lsa, hech qanday harakatlarni amalga oshirmasdan, uni sovushini kutish kerak.

Avtomobil gorizontal yuzada turishi kerak.

Sovutish suyuqligining darajasi bakning o'rtasidagi yuqori qovurgada turishi kerak. Aks holda radiator shlanglaridan va isitgichdan, radiatorndan, suv nasosidan va sovutish tizimining boshqa joylaridan oqib ketishi mumkin.

**▲ OGOHLANTIRISH**

Isitgich yoki radiatorning shlanglariga, yoki dvigatelning boshqa detallariga teginmang. Ular qaynoq bo'lib, kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin. Oqib ketish mavjud bo'lganida dvigatelni ekspluatatsiya qilmang; butun sovutish suyuqligi chiqib ketishi mumkin. Bu dvigatelni yonishiga va kuyishlarni olishga olib kelishi mumkin. Avtomobil harakatini boshlashdan oldin barcha oqishlarni bartaraf qiling.

Agar ishga tushirilgan dvigatelda ko'zga ko'rinadigan oqib ketish aniqlanmagan bo'lsa, elektr dvigatelni sovutish ventilyatorini ishlayotganligini tekshiring. Agar dvigatel isib ketsa, ventilyator aylanishi kerak. Agar aylanmasa, avtomobil servis xizmatga muhtoj. Dvigatelni o'chiring.

**▲ DIQQAT**

Toza ichimlik suvi bilan GM GMW3420 standartiga muvofiq bo'lgan DEX-COOL sovutish suyuqligi aralashmasidan tashqari boshqa suyuqliklardan foydalanmang. Boshqa barcha suyuqliklar dvigatelni sovutish tizimini va avtomobilni shikastlashi mumkin, bu esa avtomobilga bo'lgan kafolatni ichiga kirmaydi.

**Dvigatelning sovutuvchi suyuqligi**

Avtomobilingizning dvigatelni sovutish tizimiga dexcool antifrizi asosidagi sovutish suyuqligi quyilgan.

Ma'lum darajalarga etganida sovutish suyuqligini tekshirish va almashtirish lozim. "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" bukletini ko'ring.

Quyida sovutish tizimining konstruksiyasi va sovutish suyuqligining darajasi pastlaganda tekshirish va quyish usuli tushuntirilgan. Agar dvigatel ortiqcha qizib ketsa, Dvigatelni isib ketishi ↻ 9-14 bo'limiga qarash kerak.

**Qanday suyuqlikdan foydalanish kerak**

**▲ OGOHLANTIRISH**

Toza suv yoki spirt kabi boshqa suyuqliklar, tegishli sovutish aralashmasining qaynashiga nisbatan ertaroq qaynab ketishi mumkin. Agar sovutish tizimiga toza suv yoki muvofiq bo'lmagan sovutish aralashmasi quyilsa, dvigatel isib ketishi mumkin, shu bilan birga ortiqcha qizib ketishi haqida xabar bo'lmaydi. Bu dvigatelni yonib ketishiga va haydovchi yoki yaqin atrofdagi odamlarning kuyishiga olib kelishi mumkin.

Toza suv va dexcool antifrizining 50/50 aralashmasidan foydalaning. Bunday aralashmadan foydalanganda sovutish tizimiga boshqa hech narsa qo'shmaslik kerak. Bunday aralashma:

- 37°C (-34°F) gacha havo haroratida muzlamaydi.
- 129°C (265°F) gacha isitilganda qaynab ketmaydi.
- Zang va korroziyadan himoya qiladi.
- Alyumin detallarni shikastlamaydi.
- Dvigatelni kerakli haroratini ushlab turishga yordam beradi.

**⚠️ DIQQAT**

Toza ichimlik suvi bilan GM GMW3420 standartiga muvofiq bo'lgan DEX-COOL sovutish suyuqligi aralashmasidan tashqari boshqa suyuqliklardan foydalanmang. Boshqa barcha suyuqliklar dvigatelni sovutish tizimini va avtomobilni shikastlashi mumkin, bu esa avtomobilga bo'lgan kafolatni ichiga kirmaydi.

Dvigatelni sovutish suyuqligini maishiy chiqindilar konteynerlariga, erga, kanalizatsiya kollektorlariga va suv havzalariga to'kish taqijlanadi. Sovutish suyuqligini ro'yxatdan o'tgan servis markazlarida almashtirish lozim, ularning mutaxassislari ishlab bo'lingan sovutish suyuqligini utilizatsiya qilish bo'yicha

qonunchilik talablarini biladi. Bu atrof muhitni va sizning sog'lig'ingizni himoya qilishga yordam beradi.

**Sovutish suyuqligini tekshirish**

Sovutish suyuqligi darajasini tekshirish vaqtida avtomobil gorizontal yuzada turishi kerak.



Kengaytirish bachogida sovutish suyuqligi borligini vizual tekshiring. Agar sovutish suyuqligining kengaytirish bachogi ichidagi suyuqlik qaynayotgan bo'lsa, hech qanday harakatlarni amalga oshirmasdan, uni sovushini kuting. Agar sovutish suyuqligi ko'rinsa, lekin sovutish suyuqligi darajasini belgisi ko'rinmasa, sovutish tizimi sovugandan keyin kengaytirish bachogiga ichimlik sifatidagi toza suv va dexcool antifrizini 50/50 aralashmasini bachok o'rtasidagi yuqori qovurg'asigacha quyung. Dvigatelning ortiqcha qizib ketishi ⇨ 9-14 ni ko'ring.

Sovutish suyuqligining kengaytirish bachogi avtomobilning motor bo'linmasida, haydovchi tarafda joylashgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-5 ni ko'ring.

**Sovutish suyuqligi uchun kengaytirish bachogiga sovutish suyuqligini qanday quyish kerak**

**⚠️ OGOHLANTIRISH**

Sovutish suyuqligini qaynoq detallarga to'kilishi kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin. Sovutish suyuqligining tarkibiga etilenglikol kiradi, agar dvigatelning detallari yetarlicha yuqori haroratga ega bo'lsa, u qaynab ketadi.

### ⚠ OGOHLANTIRISH

Qaynoq sovutish tizimida bug' va qaynayotgan suyuqliklar bosim ostida bo'ladi. Saqlovchi klapanli qopqoqni ozgina buralishi ham ularni yuqori tezlikda chiqishiga olib kelishi mumkin, bu esa kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin. Qaynoq sovutish tizimida qopqoqni burash taqiqlanadi, jumladan saqlovchi klapanli qopqoqni ham. Sovutish tizimi va saqlovchi klapanli qopqoq sovushini kutib turing.

### ⚠ DIQQAT

Sovutish suyuqligini quyishning maxsus muolajasiga rioya qilmaslik dvigatelnig ortiqcha qizib ketishiga olib kelishi mumkin va tizimni shikastlanishining sababi bo'lib qolishi mumkin. Agar kengaytirish bachogida sovutish suyuqligi ko'rinmasa, dilingiz bilan bog'laning.



Sovutish tizimi, kengaytirish bachogining saqlovchi klapanli qopqoqi va radiatorning yuqoridagi shlangi sovugandan keyingina kengaytirish bachogidan saqlovchi klapanli qopqoqni yechish mumkin.

### ⚠ DIQQAT

Agar saqlovchi klapanli qopqoq zich o'rnatilmagan bo'lsa, sovutish suyuqligi to'qilib, dvigatelni shikastlashi mumkin. Qopqoq tegishli ravishda va zich yopilganligiga ishonch hosil qiling.

Sovutish suyuqligini to'ldirish bo'yicha maxsus qoidalar mavjud bo'lganligi sababli, uni xizmat ko'rsatish markazida amalga oshirish kerak. Qo'shimcha ma'lumot uchun mahalliy dilingizga murojaat qiling.

### Dvigatelnig ortiqcha qizib ketishi

Dvigatelni sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi avtomobilning asbob-uskunalari va haydovchining axborot markazidagi (DIC) xabarlar bilan majmuada haydovchini dvigatelni ortiqcha qizib ketishi haqida ogohlantiradi. Dvigatelnig sovutish suyuqligining harorat indikatorini 4-10 ni ko'ring. Ortiqcha qizib ketishi haqidagi xabarlar ham haydovchining axborot markazida chiqariladi.

Dvigatelni sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi ortiqcha qizib ketish zonasida bo'lsa yoki haydovchining axborot markazi displeyida ortiqcha qizib ketish haqida xabar aks ettirilsa, imkonli yechimlardan biri shundan iboratki, kapotni ko'tarmasdan, darhol servis markaziga murojaat qilish kerak.

Agar ushbu ogohlantirish paydo bo'lganida haydovchi kapotni ko'tarish qaroriga kelgan bo'lsa, avtomobil gorizontal yuzaga to'xtatilganligiga ishonch hosil qiling. Keyin dvigatel ventilyatori aylanayotganligini ko'rish kerak.

Agar dvigatel ortiqcha qizib ketsa, ventilyator aylanishi kerak.

Agar bunday bo'lmasa, dvigatelni ekspluatatsiya qilishni to'xtating. Avtomobilni ta'mirga berib yuboring.



**▲ DIQQAT**

Dvigatelni sovutish tizimida oqib ketishlar bo'lsa dvigatelni ekspluatatsiya qilmang. Bu sovutish suyuqligini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin va tizim yoki avtomobilni ishdan chiqishining sababi bo'lishi mumkin. Paydo bo'lgan oqishlarni zudlik bilan bartaraf eting.

**Agar motor bo'linmasidan bug' chiqsa****▲ OGOHLANTIRISH**

Qaynoq sovutish tizimida bug' va qaynayotgan suyuqliklar bosim ostida bo'ladi. Saqlovchi klapanli qopqoqni ozgina buralishi ham ularni yuqori tezlikda chiqishiga olib kelishi mumkin, bu esa kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin. Qaynoq sovutish tizimida qopqoqni burash taqiqlanadi, jumladan saqlovchi klapanli qopqoqni ham. Sovutish tizimi va saqlovchi klapanli qopqoq sovushini kutib turing.

**Agar motor bo'linmasidan bug' chiqmasa**

Agar dvigatelni ortiqcha qizib ketishi haqida xabar paydo bo'lsa, lekin bug' ko'rinmasa va eshitilmasa, ehtimol, muammo uncha jiddiy emasdir. Ba'zan dvigatel quyidagi holatlarda biroz qizib ketishi mumkin:

- Issiq kunda tog'ga uzoq chiqishlarda.
- Yuqori tezlikda harakatlanishdan keyin to'xtashlar paytida.
- Avtomobil tirbandliklarida dvigatelni yuksiz yurishda uzoq ishlashida.
- Kajava shatakka olinganda.

Agar dvigatelni sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi ortiqcha qizib ketish zonasida tursa va haydovning axborot markazida ortiqcha qizib ketish haqidagi xabar paydo bo'lsa, lekin bug' belgilari ko'rinmasa:

1. Havo konditsionerini o'chiring.
2. Isitgichni maksimal haroratga, ventilyatorni esa aylanishning maksimal chastotasiga o'tkazing. Zarurat bo'lganda oynalarni oching.
3. Xavfsiz bo'lganda, yo'l chetiga to'xtang, yuritmalarni qutisini P (to'xtab turishga joylashtirish) yoki N (neytral) holatiga o'rnatish va dvigatelni yuksiz ishlashiga qo'yib bering.

Agar sovutish suyuqligi haroratini ko'rsatuvchi strelka endi ortiqcha qizib ketish zonasida bo'lmasa va displeyda ortiqcha qizib ketish haqidagi ogohlantirish aks ettirilmasa, avtomobilda harakatlanishni davom ettirish mumkin. Taxminan 10 daqiqa davomida avtomobilda sekin harakatlanishni davom ettiring.


Oldinda harakatlanayotgan transport vositasidan xavfsiz masofani ushlab turing. Agar dvigatelni sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi ortiqcha qizib ketish zonasiga qaytmasa va haydovchining axborot markazida ortiqcha qizib ketish haqidagi xabar endi paydo bo'lmasa, harakatni odatdagi rejimda davom ettiring va sovutish tizimini to'ldirilishini va ishlashini tekshirish uchun servis xizmatiga murojaat qiling. Agar sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi ortiqcha qizib ketish zonasida qolsa yoki haydovchining axborot markazida ortiqcha qizib ketish haqidagi xabar aks ettirilsa, harakatlanish qismidan darhol keting, avtomobilni to'xtating va joylashtirib quying. Agar ortiqcha qizib ketish haqidagi xabarlar muntazam paydo bo'lsa servis-markaziga murojaat qiling. Agar bug' ko'rinmasa, to'xtatib qo'ygandan keyin uch daqiqa davomida avtomobilga yuksiz ishlashga qo'yib bering. Agar sovutish suyuqligining haroratini ko'rsatgichi ortiqcha qizib ketish zonasida qolsa yoki haydovchining axborot markazida ortiqcha qizib ketish haqidagi xabar aks ettirilsa, dvigatelni o'chiring va uni sovushiga qo'yib bering.

### Yuvgich suyuqligi

#### Qanday suyuqlikdan foydalanish kerak

Agar old oynani yuvgichi uchun suyuqlik kerak bo'lsa, undan foydalanishdan oldin uni ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini albatta o'qib chiqing. Agar avtomobil suyuqlikni muzlash haroratidan past havo harorati sharoitlarida ekspluatatsiya qilinayotgan bo'lsa, unda muzlashdan yetarli darajada himoyalangan suyuqlikdan foydalanish kerak.

#### Yuvgichga suyuqlikni quyish



Yuvgich belgisi bo'lgan qopqoqni oching. Bachok to'lmaguncha yuvgich uchun suyuqlikni quying. Bachokni joylashish joyini "Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi" 9-5 da ko'ring.

#### ⚠️ DIQQAT

- Suv itaruvchi qo'shimchasi bo'lgan yuvgich suyuqligidan foydalanish taqiqlanadi. Bu cho'tkarni vibratsiyasiga yoki oynani bir tekisda yuvilmasligiga olib kelishi mumkin.
- Dvigatelni sovutish suyuqligini (antifrizni) old oynani yuvgichida ishlatish taqiqlanadi. Bu suyuqlik old oyna yuvgichi tizimini va avtomobilning lak-bo'yoq qoplamini shikastlashi mumkin.
- Yuvgich uchun foydalanishga tayyor suyuqlikka suv qo'shmaslik kerak. Suv eritmani muzlab qolishiga olib kelishi va yuvgich suyuqligi uchun bachokni va yuvgich tizimining boshqa detallarini ishdan chiqarishi mumkin.
- Yuvgich uchun kontsentratsiyalangan suyuqlikdan foydalanishda aralashtirish uchun suv miqdorini ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasidan ko'ring.
- Kuchli sovuqlarda suyuqlik uchun bachokni faqat to'rtidan uch qismiga to'ldiring. Bu muzlash paytida suyuqlikka kengayish imkonini beradi, aks holda oxirigacha to'ldirilgan bachok muzlagan suyuqlik tomonidan shikastlanishi mumkin.

### Tormozlash tizimi

Diskli tormozlarning kolodkalari yemirilishning qurilgan indikatorlariga ega, ular tormozli kolodkalar yemirilganda g'ichirlash tovushini chiqaradi, u yemirilganlarning o'rniga yangi tormoz kolodkalarini o'rnatish zarurati haqida ogohlantiradi. Tovush paydo bo'lib, yo'qolishi mumkin, yoki haydovchi tormozni kuchli bosgan holatidan tashqari, avtomobilning harakatida har doim eshitilib turishi mumkin.

#### ⚠️ OGOHLANTIRISH

Tormoz kolodkalarini emirilishi haqida ogohlantiruvchi tovush yaqin orada tormozlar nosoz ishlashni boshlashini bildiradi. Bu avariya olib kelishi mumkin. Agar tormoz kolodkalarini emirilishi haqida ogohlantiruvchi tovush paydo bo'lsa, avtomobilni texnik ko'rikdan o'tkazish zarur.

#### ⚠️ DIQQAT

Agar avtomobilda yemirilgan tormoz kolodkalari bilan harakatlanish davom ettirilsa, ehtimol, tormoz mexanizmlarini qimmat narxda ta'mirlash kerak bo'ladi.

Avtomobilning ayrim harakatlanish sharoitlari yoki iqlim sharoitlari tormoz kolodkalarini birinchi bosishda yoki kuchsiz bosishda tormozlarni g'ichirlashini chaqirishi mumkin. Bu tormoz mexanizmlarini nosozligini anglatmaydi.

G'ildirak gaykalarini tegishli tortish tormoz mexanizmlarini pulsatsiyasini bartaraf etish uchun zarur. G'ildiraklar joyi almashtirilganda tormoz kolodkalarini yemirilishini tekshiring va tegishli tartibda tortishning muvofiq davri bilan g'ildirak gaykalarini bir tekkisda tortib qo'ying. Tormoz kolodkalarini to'plami bilan almashtirish lozim.

### **Tormoz pedaling yo'li**

Agar tormoz pedali me'yordagi balandlikka qaytmasa yoki pedaling yo'li tez oshib borsa dilerga murojaat qiling.

Bu tormoz tizimini texnik ko'rikdan o'tkazish kerakligi zaruratini ko'rsatishi mumkin.

### **Tormoz tizimi detallarini almashtirish**

Tormoz tizimining eski detallarini faqat yangi firmali ehtiyot qismlariga almashtirish lozim. Aks holda tormoz tizimini soz ishlashi kafolatlanmaydi. Boshqa ehtiyot qismlardan foydalangan holatda yoki ular noto'g'ri o'rnatilganida tormozlash tavsiflari bilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketishi mumkin.

### **Tormoz suyuqligi**



Asosiy tormoz silindrining bachogiga, qopqog'ida ko'rsatilganidek, GM tomonidan sertifikatlangan DOT 4 tormoz suyuqligi quyilgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi  $\diamond$  9-5 bo'limiga qarang, u erda bachokning joylashgan joyi ko'rsatilgan.

### **Tormoz suyuqligini tekshirish**

Avtomobilni gorizontal yuzaga o'rnatib va yuritmalar qutisi selektorining richagini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing. Bachokda tormoz suyuqligining darajasi bachok devoridagi yuqori va pastki belgilar o'rtasida bo'lishi kerak.

Bachokda suyuqlik darajasi faqat ikkita sababga ko'ra pastlashi mumkin:

- Tormoz kolodkalarini tabiiy emirilishi natijasida. Yangi tormoz kolodkalari o'rnatilganida suyuqlik darajasi yana ko'tariladi.
- Tormoz tizimining gidrouzatmasidagi oqib ketish tufayli. Tormoz tizimi gidrouzatmasini ta'mirdan o'tkazing. Oqib ketish mavjud bo'lganida tormoz tizimi soz ishlamasligi mumkin.

Tormoz suyuqligi bo'lgan bachok qopqog'ini yechishdan oldin, har doim qopqoqni va uning atrofidagi zonani tozalash lozim.

Tormoz suyuqligini quyimaslik kerak. Suyuqlikni quyish oqib ketishni bartaraf etmaydi. Agar suyuqlik tormoz kolodkalarini yemirilgan holatida quyilsa, yangi tormoz kolodkalari o'rnatilganida tizimda o'ta ko'p suyuqlik bo'ladi. Tormoz tizimining gidrouzatmasi bilan ishlar o'tkazilgandan keyin zaruratga qarab suyuqlikni quyish yoki to'kib tashlash lozim.



### **OGOHLANTIRISH**

Suyuqlikning o'ta ko'p miqdori quyilganda u dvigatelga oqib ketishi va, agar dvigatel yetarlicha qaynoq bo'lsa, yonib ketishi mumkin.

Bu dvigatelni yonib ketishiga va haydovchi yoki yaqin atrofdagi odamlarning kuyishiga olib kelishi mumkin. Tormoz suyuqligini faqat gidravlik tormoz tizimi bilan ishlar yakunlangandan keyin quyish mumkin.

Agar tormoz suyuqligining darajasi minimal holatigacha tushib ketsa, tormoz tizimining signal chirog'i yonadi. Tormoz tizimining nazorat lampasi ⇨ 4-14 ni ko'ring. Vaqt o'tib tormoz suyuqligi suvga to'yinadi, natijada uning samaradorligi pasayadi. Tormoz yo'lini oshishiga yo'l qo'ymaslik uchun, tormoz suyuqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan davriylik bilan almashtirish lozim. O'z dileringizga murojaat qiling.

#### **Qanday suyuqlikni quyish kerak**

Faqat qadoqlangan idishdagi GM tomonidan sertifikatlangan DOT 4 suyuqligidan foydalaning.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH**

Tormoz suyuqligini noto'g'ri tanlovi yoki unda ifloslanishlarni borligi tormoz tizimini shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu uning ishlamay qolishligining sababi bo'lib, YTH natijasida odamlarni jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Faqat GM tomonidan sertifikatlangan tavsiya etilgan tormoz suyuqligidan foydalaning.

#### **⚠ DIQQAT**

Avtomobilning laklangan/bo'yalgan yuzalariga tormoz suyuqligini tushishi ularni shikastlashi mumkin. Lak bo'yoqli qoplaman suyuqlik izlarini darhol artib tashlash kerak.

#### **Akkumulyatorli batareya**

Firmali akkumulyatorli batareya texnik xizmatni talab qilmaydi. Probkani ochib, suv quymaslik kerak.

Agar yangi akkumulyatorli batareyani o'rnatish talab qilinsa, almashtirish uchun birinchi foydalanilgan batareyaning yopishtirgich yorlig'ida batareya raqamini toping. Akkumulyatorli batareyani joylashish joyini "Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi" ⇨ 9-5 da ko'ring.

Akkumulyatorli batareyani almashtirish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Avtomobil AGM turidagi 12 voltli akkumulyatorli batareya bilan jihozlangan. Standart 12 voltli akkumulyatorli batareyani o'rnatilishi 12 voltli akkumulyatorli batareyani xizmat muddatini qisqarishiga olib keladi.

12-voltli akkumulyatorli batareyalari bilan AGM texnologiyali 12-voltli akkumulyatorli batareyalar uchun quvvatlash qurilmasidan foydalanilganda, ayrim quvvatlash qurilmalarida AGM akkumulyatorli batareya

uchun sozlamalar mavjud. Agar mavjud bo'lsa, quvvatlash kuchlanishini 14,8 voltgacha cheklash uchun quvvatlash qurilmasida AGM sozlamasidan foydalaning. Quvvatlash tizimini ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qiling.

#### **Start-stop tizimi**

Avtomobil yoqilg'i sarfini pasaytiruvchi avtomatik to'xtatish/dvigatelni ishga tushirish tizimiga ega. Dvigatelni ishga tushirish ⇨ 8-13 ni ko'ring.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH**

Avtomobil akkumulyator batareyasi yonida gugurt yoki ochiq olovdan foydalanish taqiqlanadi. Yorug'lik kerak bo'lsa, chiroqdan foydalaning.

Avtomobil akkumulyatorli batareyasining yonida chekish taqiqlanadi. Avtomobil akkumulyatorli batareyasi yonida ishlarni bajarishda himoya ko'zoynaklarini taqish lozim.

Bolalarni avtomobil akkumulyatorli batareyasining yoniga yaqinlashtirmang.

**▲ OGOHLANTIRISH**

Akkumulyatorli batareyalarda kislotada mavjud, u kuydirishi mumkin, bundan tashqari, batareya portlovchi gaz chiqaradi. Ular bilan yehtiyotkorsizlik bilan ishlashda jiddiy jarohatlarni olish mumkin.

Akkumulyatorli batareyalar yonida ishlarni bajarishda yo'riqnomalarga to'liq rioya qilish lozim.

Akkumulyatorli batareyalarning klemmalari shtirida, klemmalar va tegishli asboblarda qo'rg'oshin yoki qo'rg'oshin birikmalari mavjud, ular saratonni chaqirishi va odamning reproduktiv funksiyasiga zarar etkazishi mumkin. Ishlar bajarilgandan keyin qo'llaringizni yuving.

**Avtomobilni saqlash**

Kamdan-kam foydalanish: Batareya quvvatini yo'qotmasligi uchun, akkumulyatorli batareyadan qora manfiy (-) simni yeching. Uzoq saqlash: Akkumulyatorli batareyadan qora manfiy (-) simni yeching yoki akkumulyatorli batareyani quvvatlash uchun kichik tokli uzluksiz quvvatlash qurilmasidan foydalaning.

**Doimiy to'liq yuritma tizimi****Tarqatma quti**

Avtomobilni ekspluatatsiya qilishning me'yordagi rejimida tarqatma qutining suyuqligi oqib ketish yoki noodatiy shovqin holatlaridan tashqari, ko'rikni talab qilmaydi. Agar zarurat paydo bo'lsa, tarqatma qutini ko'rikdan o'tkazish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

**Starterni o'zgartirgichini tekshirish****▲ OGOHLANTIRISH**

Ushbu tekshirishni bajarishda avtomobil to'satdan yurib ketishi mumkin. Shunda haydovchi va yaqin atrofda turgan odamlar jarohat olishi mumkin.

1. Tekshiruvdan oldin avtomobilning atrofida yetarlicha joy borligiga ishonch hosil qiling.
2. To'xtab turish tormozini yoqing va tormoz pedalini bosing. Akselerator pedalidan foydalanmang va dvigatel ishlab ketishida uni darhol o'chirishga tayyor turing.
3. Dvigatelni har bir uzatmada ishga tushirishga urinib ko'ring.

Avtomobilning dvigateli faqat P (to'xtab turishga joylashtirish) yoki N (neytral) holatida ishga tushishi kerak. Agar avtomobilning dvigateli boshqa holatda ham ishga tushsa, texnik ko'rikdan o'tkazish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

**Avtomatik yuritma qutisi uzatmalarini o'zgartirishni bloklash orqali boshqarish tizimi ishlashini tekshirish****▲ OGOHLANTIRISH**

Ushbu tekshirishni bajarishda avtomobil to'satdan yurib ketishi mumkin. Shunda haydovchi va yaqin atrofda turgan odamlar jarohat olishi mumkin.

1. Tekshirishni boshlashdan oldin avtomobilning atrofida yetarlicha bo'sh joy mavjudligiga ishonch hosil qiling. Avtomobil gorizontal yuzada turgan bo'lishi kerak.
2. To'xtab turish tormozini torting. Agar avtomobil harakatlanishni boshlasa, darhol tormoz pedalini bosishga tayyorlanib turing.
3. O'chirilgan dvigatelda o't oldirish tizimini yoqib qo'ying, lekin dvigatelni ishga tushirmang. Tormoz pedalini bosmasdan, odatdagi kuchni sarflab, uzatmalarni almashtirish richagini P

(to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarishga urinib ko'ring.

Agar uzatmalarni almashtirish richagi P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan siljisa, texnik ko'rikdan o'tkazish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

### To'xtab turish tormozi va to'xtab turishga joylashtirish P mexanizmini tekshirish

#### ▲ OGOHLANTIRISH

Ushbu tekshirishni bajarishda avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu haydovchi yoki atrofdagi odamlarni jarohat olishiga olib kelishi yoki mulkka zarar etkazishi mumkin. Agar avtomobil yurib ketsa, avtomobilni oldida yetarlicha joy borligiga ishonch hosil qiling. Agar avtomobil harakatlanishni boshlasa, tormoz pedalini bosishga tayyor bo'lib turing.

Yetarlicha qiya joyda to'xtang, avtomobilni qiyalikning pastiga qarab qo'ying. Oyog'ingizni tormoz pedalida ushlab, to'xtab turish tormozini tortib qo'ying.

• To'xtab turish tormozi qobiliyatini tekshirish uchun avtomobilni harakatsiz ushlab turish: Dvigatel ishlab turganida va yuritmalar qutisi N (neytral) holatiga keltirilganda tormoz pedalidan oyog'ingiz sekin oling. Bu harakatni

avtomobil to'xtab turish tormozida ushlab turilmaguncha bajaring.

• To'xtab turishga joylashtirish P mexanizmini qobiliyatini tekshirish uchun avtomobilni harakatsiz ushlab turish: Ishlab turgan dvigatelda P (to'xtab turishga joylashtirish) uzatmasini yoqing. Shundan keyin to'xtab turish tormozini bo'shating, keyin tormoz pedalini qo'yib yuboring.

Texnik ko'rik talab etilishini bilish uchun mahalliy dilerga murojaat qiling.

### Oyna yuvgichning cho'tkalarini almashtirish

Oyna yuvgichlarning cho'tkalarini muntazam almashtirib turish zarur. "Grafik texnik xizmat ko'rsatish" bukletini ko'ring.


Almashtiriluvchi cho'tkalar turli xil bo'ladi va turlicha almashtiriladi.

#### ▲ DIQQAT

Old oynaga oyna tozalagich richagi o'rnatilmagan cho'tkasiz teginrsa shikastlanishi mumkin. Buning natijasida vujudga kelgan har qanday shikastlanishlar kafolatli bo'lmaydi. Oyna tozalagich richagini cho'tkasiz old oynaga tushirish taqiqlanadi.

### Old oyna tozalagichlar cho'tkasini almashtirish.

Oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish uchun:  
1. Yig'imdagi oyna tozalagich cho'tkasini old oynadan boshlab yo'nalishda torting.



2. Cho'tkani oyna tozalagich richagiga mahkamlangan joyida joylashgan fiksatorni yuqoriga torting.

3. Fiksatorni ochib, cho'tkani richagning qayirilgan uchidan yechish uchun uni pastga oynaga qarab torting.

4. Oyna tozalagich cho'tkasini yeching.

5. Oyna tozalagich cho'tkasini qaytarib joyiga o'rnatish uchun 1-3 harakatlarni teskari tartibda bajaring.

### Orqa oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish


Orqa oyna tozalagich cho'tkasi va richagi himoya qobig'i bilan yopilgan. Qobiqni yechish uchun:



1. Qobiqni ajratish uchun, qobiqning tagiga plastmassa predmetni kiriting va uni yuqoriga bosing.
2. Cho'tkadan ajratish uchun qobiqni oyna tozalagich cho'tkasining uchiga qarab siljiting.
3. Qobiqni yeching.
4. Oyna tozalagichlar cho'tkasini almashtirgandan keyin qopqoqning qozig'i cho'tka uzelinig tirqishiga qirganligini ko'rib chiqing.
5. Mahkamlash uchun qopqoqni chertkigacha bosing.

Oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish uchun:

1. Oyna tozalagich richagini old oynadan chetlatang.



2. Ilgakni ajratish uchun ajratish richagini bosing (2) va oyna tozalagich richagini (1) yig'imdagi cho'tkadan (3) surib chiqaring.
3. Yangi cho'tkani ajratish richagini chertkisigacha joyiga kirgizib, uni oyna tozalagichning richagiga mahkam o'rnatang.

### Old oynani almashtirish

#### Haydovchiga yordam tizimlari

Agar old oynani almashtirish talab etilsa, avtomobil esa haydovchiga yordam tizimlari uchun old kamera sensori bilan jihozlangan bo'lsa, GM almashtirish old oynasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Almashtiriluvchi old oyna GM ning to'g'ri tekislash uchun texnik talablariga muvofiq o'rnatilishi kerak. Aks holda tizimning ma'lumotlari tegishli ravishda ishlamasligi mumkin, displeyga xabarlarini chiqarishi yoki umuman ishlamasligi mumkin. Old oynani to'g'ri almashtirish uchun o'zingizning dileringizga murojaat qiling.

#### Akustik old oyna

Avtomobil akustik old oyna bilan jihozlangan. Agar old oynani almashtirish talab qilinsa, yana akustik old oyna taqdim etadigan afzalliklardan foydalanish uchun, albatta akustik old oynaga buyurtma bering.

#### Gazli tayanchlar


Kapot/yukxona/orqa ko'tariladigan eshikni to'liq ochiq holatida ko'tarilishi va ushlab turilishini yengillashtirish uchun avtomobil gazli prujinalar bilan jihozlanishi mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH**

Kapot/yukxona/orqa ko'tariladigan eshikni to'liq ochiq holatida ko'tarilishi va ushlab turilishini yengillashtirish uchun gazli prujinalar ishdan chiqqanida, siz yoki uchinchi shaxslar jiddiy jarohatlarni olishingiz mumkin. Avtomobilni ko'rikdan o'tkazish uchun darhol dilingizga etkazib bering. Gaz tayanchlarini yemirilish, yoriqlar yoki boshqa shikastlanishlarni mavjudligiga vaqti-vaqti bilan vizual nazoratdan o'tkazib turing. Kapot/yukxona/orqa ko'tariladigan eshik to'liq ochiq holatida yetarlicha kuch bilan ushlab turilishiga ishonch hosil qiling. Agar tayanchlar kapot/yukxona/orqa ko'tariladigan eshikni ushlab turmasa ulardan foydalanmang. Avtomobilni ta'mirga yuboring.

**⚠ DIQQAT**

Gazli tayanchlarga lentalar va boshqa predmetlarni osmang. Shuningdek, gazli tayanchlarni bosmang va tortmang. Bu avtomobilni shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**Kapot****Orqa ko'tariladigan eshik****Yukxona**



## CHIROQLAR YORUG'LIGINI YO'NALTIRISHNI TO'G'RILASH

### Old chiroqlarning qiyalik burchagini sozlash

Chiroqlar yorug'ligini yo'naltirishni to'g'rilash ishlab chiqaruvchi tomonidan bajarilgan, uni keyinchalik to'g'rilash talab qilinmaydi.

Agar avtomobil YTH sababli zarar ko'rgan bo'lsa, chiroqlar yorug'ligini to'g'rilash buzilishi mumkin. Agar chiroqlarning yorug'lik tutamini to'g'rilash kerak bo'lsa, TXKS ga murojaat qilish lozim.

## CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH

### Cho'g'lanma lampani almashtirish

Ushbu bo'limda keltirilmagan almashtirish uchun mos keladigan lampa turini aniqlash yoki lampalarni almashtirish muolajasi bo'yicha dilingiz bilan bog'laning.

#### ⚠ *DIQQAT*


Cho'g'lanish lampalarini ikkilamchi bozorda taklif etilayotgan diod chiroqli lampalarga almashtirmang. Bu avtomobilning elektr uskunasi shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

### Galogenli lampalar


#### ⚠ *OGOHLANTIRISH*

Galogenli lampalarning ichidagi ishchi gaz bosim ostida bo'ladi, shuning uchun, agar bunday lampa tushirib yuborilsa yoki tirnalsa, u portlab ketishi mumkin. Bu odamlarni jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Lampaning qadog'idagi yo'riqnoma bilan albatta tanishib chiqing.

### Raqam belgisini yoritish



### Yig'imdagi chiroq



#### Yig'imdagi lampa

1. Cho'g'lanish lampasining patroni
2. Cho'g'lanish lampasi
3. Yig'imdagi chiroq

Ushbu chiroqning cho'g'lanish lampasidan birini almashtirish uchun:

1. Orqa ko'tarma eshikni to'liq bo'lmagan balandligiga oching. Orqa ko'tarma eshik ↻ 1-11 ni ko'ring.
2. Yig'imdagi chiroqni yechish uchun uni kuzovning yon tomoniga siljiting.
3. Yig'imdagi chiroqni orqa ko'tarma eshikdan chiqarish uchun uni pastga siljiting.
4. Lampa patronini (1) blok-chiroqdan (3) chiqarish uchun uni soat strelkasiga qarshi burang.
5. Lampani (2) patronidan tortib oling.
6. Yangi cho'g'lanish lampasini to'g'ri patronning o'ziga kirgizing va uni yig'imdagi chiroqqa o'rnatish uchun soat strelkasi bo'ylab burang.

7. Oldindan fiksatorli tomni kirgizib, yig'imdagi chiroqni orqa ko'tarma eshikka kirgizing.
8. Fonarga qarama-qarshi tomondan fiksatorni shunday bosinki, yig'imdagi chiroq chertki bilan oldingi joyiga tushishi kerak.

## ELEKTR TIZIMI

### Elektr tizimini ortiqcha yuklanishi

Elektr tizimini ortiqcha yuklanishdan himoya qilish uchun avtomobilda saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar o'rnatilgan.

Agar zanjirdagi tok juda yuqori bo'lsa, yuklama tokini me'yoriy holati tiklanguncha yoki nosozliklar bartaraf etilmaguncha elektr zanjirni himoya qilib, avtomatik o'chirgich ajraladi va birlashadi. Bu elektr tizimida nosozliklar bo'lganida elektr zanjirini ortiqcha yuklanishini va yong'in ehtimolini ahamiyatli tarzda pasaytiradi.

Kuyib qolgan saqlagichni xuddi shunday nominal parametrlari o'xshash o'lchamdagi yangi saqlagichga almashtiring.

Agar yo'lda nosozlik paydo bo'lsa va saqlagichni almashtirish kerak bo'lib qolsa, tokdan uzilish mumkin bo'lgan zanjirdagi saqlagichlar blokidan xuddi shunday nominal tokli saqlagichni olish kerak.

Buning uchun avtomobilning hozirgi paytda ishlatilishi zarur bo'lmagan funksiyasini tanlang, keyinchalik saqlagichni darhol joyiga qaytaring.

### Chiroqlarning elektr uzatmalari

Elektrik ortiqcha yuklanma lampalarni yonishi va o'chishiga, ayrim hollarda esa ularni to'liq o'chirilishiga olib kelishi mumkin. Agar lampalar yonib turib o'chib qolsa, yoki umuman yonmasa, darhol elektr uzatmasini tekshiring.

### Old oynaning oyna tozalagichlari

Agar oyna tozalagichlarining elektr dvigateli ko'p miqdordagi qor yoki muz sababli ortiqcha qizib ketsa, old oynani tozalagichlari to'xtab qoladi va elektr dvigatel sovugandan keyingina yana ishlashni boshlaydi.

Elektr zanjiri ortiqcha yuklanishdan himoyalangan bo'lsa ham, ko'p miqdorda qor va yomg'irning mavjudligi oyna tozalagichning richakli mexanizmini ishdan chiqarishi mumkin. Old oynaning oyna tozalagichlaridan foydalanishdan oldin har doim old oynadan imkon qadar qor va muzni olib tashlash lozim.

Agar ortiqcha yuklanish qor yoki muz sababli emas, elektrik nosozlik tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, ushbu nosozlikni bartaraf etish lozim.

### Saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar

Avtomobilida elektr uzatmalar zanjiri qisqa tutashuvdan saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar majmuasi yordamida himoyalangan. Bu elektrik tizimdagi nosozliklar tufayli shikastlanishlarning paydo bo'lish ehtimolini ahamiyatli tarzda pasaytiradi.

#### XAVFLI

Saqlagichlar va ajratuvchilarda ularning nominal toki belgilangan. Saqlagichlar va ajratuvchilarni almashtirishda ko'rsatilgan nominal tokni oshirmang. Katta nominal toki bo'lgan saqlagich yoki ajratuvchidan foydalanish avtomobilni yonib ketishiga olib kelishi mumkin. Siz yoki boshqa shaxslar jiddiy jarohatlarni olishingiz yoki o'lishingiz mumkin.



#### OGOHLANTIRISH

GMning asl saqlagichlarining texnik xarakteristikalariga muvofiq kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki qo'llash xavflidir. Saqlagichlar ishlamasligi mumkin, bu yong'in kelib chiqishiga olib keladi. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki ularning o'limiga olib kelishi mumkin, avtomobil ham shuningdek shikastlanishi mumkin.

Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalar va modifikatsiyalari ↻9-2 va Umumiy ma'lumot ↻9-2 bo'limlarini ko'ring.

Saqlagichni tekshirish uchun saqlagichning ichidagi kumushrang lentali o'tkazgichga nazar tashlash lozim. Agar ushbu lentali sim uzilgan yoki erib ketgan bo'lsa, saqlagichni almashtiring. Kuyib qolgan saqlagichni xuddi o'sha nominal parametrlil shu o'lchamdagi yangi saqlagichga almashtiring.


Agar saqlagich kuyib qolgan bo'lsa, hozirgi vaqtda kerak bo'lmagan elektr zanjiridan olingan xuddi o'sha nominal tokli saqlagichga almashtirish mumkin. Saqlagichni iloji boricha tezroq almashtiring.

Motor bo'linmasidagi saqlagichlar blokida saqlagichlar uchun qisqichlar mavjud. Ulardan saqlagichlarni saqlagichlar blokidan oson chiqarish uchun foydalanish mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH**

Asl GM saqlagichlarining texnik xususiyatlariga mos kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki ishlatish xavflidir. Saqlagichlar ishlamay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'limiga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.


**Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki**



Saqlagichlar bloki qopqog'ini yechish uchun qopqoqning lo'kidonlarini siqing va ularni to'g'ri harakat bilan ko'taring. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-5 ni ko'ring.

**⚠ DIQQAT**

Avtomobilning elektr detaliga oqib ketgan suyuqlik uni ishdan chiqarishi mumkin.  
Har qanday elektr detallarning qopqoqlarini har doim yopish lozim



Avtomobil barcha ko'rsatilgan saqlagichlarga va relaelarga ega bo'lmasligi mumkin.

Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F01	Starter 1
F02	Starter 2
F03	Lyambda-datchik 1
F04	Dvigatelni boshqarish bloki
F05	Yonilg'i aralashmasi datchigi/ havo to'sgichi
F06	Yuritmalar qutisini boshqarish bloki
F07	-
F08	-
F09	Konditsioner kompressorining muftasi
F10	Adsorberning elektr magnitli ventilyatsiyasi
F11	Yoqilg'i tizimi
F12	Isitiladigan old o'rindiqlar
F13	-
F14	-
F15	Lyambda-datchik 2
F16	O't oldirish g'altaklari
F17	Dvigatelni boshqarish bloki

Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F18	Dvigatelni boshqarish bloki
F19	Starter-generator
F20	Doimiy tok o'zgartirgichi 2
F21	Uzatmalarni almashtirgichi
F22	ABT nasosi
F23	Old/orqa yuvgichning nasosi
F24	–
F25	–
F26	–
F27	ABT klapanlari
F28	LD tirkamasi
F29	Orqa oyna isitgichi
F30	Toshoyna isitgichi
F31	–
F32	Turli funktsiyalari
F33	–

Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F34	Ovozli signal
F35	–
F36	O'ng faralarning kunduzgi yurish chiroqlari lampalari
F37	–
F38	Chiroqlar yorug'ligini avtomatik tuzatish
F39	–
F40	–
F41	Yuritmalar qutisini boshqarish bloki /starter-generator/qo'shimcha asbob-uskunalarini oziqlantirish moduli va ventilator moduli/AKB
F42	Elektr uzatmali chiroq
F43	–
F44	Ichki orqa ko'rinishi toshoynasi
F45	Passajir tomonidagi ventilyatsiya qilinadigan o'rindiq
F46	Haydovchi tomonidagi ventilyatsiya qilinadigan o'rindiq
F47	Rul kolonkasi qulfining uzeli


Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F48	Orqa oyna tozalagichi
F49	–
F50	Isitiladigan rul chambaragi
F51	–
F52	Dvigatelni boshqarish moduli/ YUO'Qni boshqarish moduli
F53	–
F54	–
F55	Oldingi oyna tozalagichni boshqarish
F56	–
F57	Chap faralarning kunduzgi yurish chiroqlari lampalari

Rele	Mo'ljallanganligi
K01	Starterning elektr magnitli klapani
K02	Konditsionerni boshqarish
K03	Dvigatelni boshqarish bloki
K04	Old oyna tozalagichni boshqarish
K05	Starterning elektr magnit klapani 2
K06	–
K07	–
K08	–
K09	Old oyna tozalagichning tezligi
K10	–
K11	–
K12	O'ng faralarning kunduzgi yurish chiroqlari lampalari
K13	Chap faralarning kunduzgi yurish chiroqlari lampalari
K14	O't oldirish yoqilgan, ishga tushirish
K15	Orqa oyna isitgichi
*K16	Ovozli signal
*K17	–

Rele	Mo'ljallanganligi
*K18	–
*K19	Sovituvchi suyuqlik nasosi
*K20	–
*K21	Orqa yuvgichning nasosi
*K22	Old yuvgichning nasosi
*K23	Orqa oyna yuvgichini boshqarish

\* Bosma platadagi relega xizmat ko'rsatilmaydi.

#### Asbob-uskunalar panelidagi saqlagichlar bloki



Saqlagichlar bloki haydovchi tomondagi asbob-uskunalar panelining tagida joylashgan. Eruvchan saqlagichlarga kirish uchun o'rtadagi yuqori kvadrat yonidagi fiksatorni bosing va qo'yib yuboring.

Asbob-uskunalar panelining chetlarini bo'shatish uchun qopqoning yonlaridagi ikkita mahkamlovchi pochalarni oching.

Ishga halaqit bermasligi uchun panelni pastga qo'yib yuboring.

Qopqoqni joyiga joylashtirish uchun qadamlar teskari tartibda bajaring.

Avtomobil barcha ko'rsatilgan saqlagichlarga va relelarga ega bo'lmasligi mumkin.



Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F01	Invertor
F02	Old oynalar
F03	Kajava tormozi
F04	Isitish, ventilyatsiya va konditsionerlar tizimi ventilyatori
F05	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 2
F06	Markaziy shlyuz moduli
F07	–
F08	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 3
F09	Kuchaytirgich
F10	–
F11	–
F12	–
F13	–
F14	–
F15	Yuritmalar qutisini boshqarish bloki
F16	Oldingi isitiluvchi o'rindiqlar

Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F17	Ma'lumotlarni uzatish kanalining chap
F18	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 7
F19	Tashqi toshoyna
F20	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 1
F21	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 4
F22	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 6
F23	Rul kolonkasining elektr mexanik qulfi
F24	Datchiklar va diagnostika moduli
F25	O'rindiqlar bandligi datchiki
F26	–
F27	O'rindiqlarni elektr to'g'rilash
F28	Orqa oynalar
F29	–
F30	–
F31	Rul chambaragi boshqaruv organlari




Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
F32	Kuzov uskunalarini boshqarish bloki 8
F33	Isitish, ventilyatsiya va konditsionerlar tizimi
F34	Passive entry/Passive start tizimi
F35	Orqa ko'tariluvchi eshik lo'kidoni
F36	Simsiz quvvatlash moduli/USB-aksessuar
F37	Chektirgich
F38	OnStar
F39	Asbob-uskunalar panelida USB port
F40	Kamera/orqa ko'tariluvchi eshik moduli
F41	Avtomobilni joylash yordami tizimini boshqarish bloki / Markaziy konsol displeyi / HVAC displeyi / Garaj eshiklarini boshqarish universal tizimi / Shiftdagi konsolning almashlab ulagichlari bloki
F42	Radiopriyomnik


Rele	Mo'ljallanganligi
K01	Zulfin
K02	Qo'shimcha uskunalarni oziqlanishini o'chirilishini tutilishi
K03	Orqa ko'tariladigan eshik
K04	–
K05	Logistika

Avtomatik o'chirgichlar	Mo'ljallanganligi
CB1	–
Cb2	Konsolda oziqlantirishning qo'shimcha ulagichi


### Orqa yukxonadagi saqlagichlar bloki



Yukxona bo'linmasidagi saqlagichlar bloki haydovchi tomonidagi dekorativ panel ostida joylashgan.



Saqlagichlar blokiga kirish uchun dekorativ panelni yechib oling.  
Avtomobil barcha ko'rsatilgan saqlagichlarga va relelarga ega bo'lmagligi mumkin.



Eruvchan saqlagich-lar	Mo'ljallanganligi
F1	–
F2	Orqa ko'tariladigan eshik
F3	Tirkamaning yordamchi elektr oziqlanishi
F4	Oldingi yo'lovchini o'rindig'i holatini sozlash elektr uzatmasi
F5	O'rindiq sozlamalari xotirasi moduli
F6	Tomning ventilyatsion lyuki
F7	Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi
F8	Tirkamaning orqaga yurish chiroqlari
F9	Isitiladigan orqa o'rindiq 1
F10	To'xtab turish chiroqlari
F11	Isitiladigan orqa o'rindiq 2
F12	–
F13	Tirkamaning to'xtab turish chirog'i
F14	O'ng stop-signal/ tirkamaning burilish ko'rsatkichi

**G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR**

<b>Eruvchan saqlagichlar</b>	<b>Mo'ljallanganligi</b>
F15	Chap to'xtab turish chirog'i
F16	O'ng to'xtab turish chirog'i
F17	Vidoga ishlov berish moduli
F18	Chap stop-signal/tirkama burilishi ko'rsatkichi
F19	Doimiy to'liq yuritma tizimi
F20	Bel tirgovuchi
F21	Yordamchi oziqlanishning orqa ulagichi
F22	Orqa uzatma moduli

<b>Rele</b>	<b>Mo'ljallanganligi</b>
K1	O'ng stop-signal/tirkama burilishi ko'rsatkichi
K2	Tirkamaning orqaga yurish chiroqlari
K3	Chap stop-signal/tirkama burilishi ko'rsatkichi
K4	To'xtab turish chiroqlari
K5	–

**Shinalar**

GMning har bir yangi avtomobili shinalarning yetakchi ishlab chiqaruvchisidan yuqori sifatli shinalar bilan jihozlanadi.

Shinalarga kafolat haqidagi ma'lumot va ularga xizmat ko'rsatish joylari haqidagi ma'lumotlarni kafolat bukletida ko'ring. Qo'shimcha ma'lumot shinalar ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etiladi.

 **OGOHLANTIRISH**

- Yomon xizmat ko'rsatiluvchi va noto'g'ri qo'llaniluvchi shinalar xavfli.
- Shinalarga ortiqcha yuklama berilishi haddan ziyod deformatsiya oqibatida ortiqcha qizib ketishga olib kelishi mumkin. Shinalarning yirtilib ketishi va jiddiy avariya ehtimoli bor.
- Havo bosimi yetarli bo'lmagan shinalar ham ortiqcha yuklangan shinalar kabi shunday xavfli. Ushbu sabab bo'yicha sodir bo'lgan avariya jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin. Barcha shinalarni vaqti-vaqti bilan tekshiring va ularda tavsiya etiladigan havo bosimini qo'llab turing. Havo bosimini sovuq shinalarda tekshirish lozim.
- Ortiqcha havo bosimli shinalar keskin zarbalar, masalan, yo'ldagi o'yiq joyga urilish oqibatida kesilishlarga, teshilishlarga yoki yirtilib ketishlarga moyil.

### **OGOHLANTIRISH**

Shinalarda tavsiya etilgan havo bosimini qo'llab turish lozim.

- Yedirilgan yoki eskirgan shinalar avariya olib kelishi mumkin. Yedirilish holatida shinalarning protektorinini almashtirish lozim.
- Shinalarning noto'g'ri ta'mirlanishi avariya olib kelishi mumkin. Shinalarni ta'mirlanishini, almashtirilishini, yechilishini va montajini faqat dilerda yoki ro'yxatdan o'tgan shinalar servis markazida bajarilishi kerak.
- Qor, loy, muz va hokazo kabi sirpanchiq yuzalarda 56 km/soat (35 mil/soat)dan yuqori tezlikda shinalarning haddan ziyod joyida aylanishiga yo'l qo'ymang. Haddan ziyod joyida aylanish shinalarning yorilib ketishiga olib kelishi mumkin.

### **Hamma mavsumga shinalar**

Sizning avtomobilingizda hamma mavsumga shinalar o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Shinalar konstruksiyasi turli ob-havo sharoitlarida ko'pchilik har xil yo'l qoplamalarida avtomobilning yaxshi tortish-tezlashish xarakteristikalarini ta'minlaydi. Ishlab-chiqaruvchi zavod tomonidan o'rnatiluvchi va GM tasniflanishiga muvofiq ishlab chiqilgan shinalarning biqinlariga TPC belgilash kodi tushiriladi. Yig'ish zavodida avtomobil jamlanadigan barcha mavsumiy shinalarning TPC kodining oxirida "MS" harflari turadi.

Agar qor va muz bilan qoplangan yo'llar bo'ylab tez-tez safar qilish taxmin qilinayotgan bo'lsa, avtomobilga qishki shinalar o'rnatish tavsiya qilinadi.

Barcha mavsumiy shinalar ko'pchilik holatlarda qishda yetarlicha ilakishishni ta'minlaydi, biroq muzlagan yoki qor bilan qoplangan qoplamalarda ular qishki shinalarni qo'llashdagidek, tezlashish dinamikasini va yo'l bilan ilakishishni olish imkonini bermaydi. Qishki shinalar ⇨ 9-34 ni ko'ring.

### **Qishki shinalar**

Qishki shinalar avtomobilning standart jamlanmasiga kirmaydi. Qishki shinalar qop bilan qoplangan yoki muzlagan qoplamalarda ilakishishni yaxshilash uchun mo'ljallangan. Agar muz va qor bilan qoplangan yo'llar bo'ylab tez-tez safar qilish taxmin qilinayotgan bo'lsa, avtomobilga qishki shinalar o'rnatish tavsiya qilinadi. Qishki shinalarning mavjudligi va ularni to'g'ri tanlovi haqidagi batafsil ma'lumotni olish uchun dilerga murojaat qiling. Shu bilan birga Yangi shinalarni xarid qilish ⇨ 9-42 bo'limni ko'ring.

Qishki shinalarni o'rnatishda quruq yo'l bilan ilakishish pasayishi, yo'l shovqinining oshishi va protektorlarning xizmat muddatining qisqarishi mumkin. Avtomobilga qishki shinalarni o'rnatishdan so'ng avtomobilning boshqaruvi va tormozlanish xarakteristikalarining o'zgarishiga e'tiborli bo'ling.

Qishki shinalarni qo'llash holatida:

- Avtomobilning barcha to'rtta g'ildiraklari uchun bir xil belgili va protektorlar turi bir xil bo'lgan shinalarni qo'llang.
- Dastlab o'rnatilgandek, faqat xuddi o'sha o'lchamdagi, xuddi o'sha yuklama oraligi va xuddi o'sha tezlanish toifasidagi radial shinalarni qo'llang.

Dastlabki o'rnatilgandek xuddi shunday tezlanish toifasi bilan H, V, W, Y va ZR qishki shinalar bozorda mavjud bo'lmasligi mumkin. Agar pasaytirilgan tezlanish toifali qishki shinalar tanlangan bo'lsa, ushbu shinalar uchun maksimal tezlikni oshirish taqiqlanadi.

### **Yozgi shinalar**

Sizning avtomobilingizda sport yozgi shinalar o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Ushbu shinalarning proyektor tasviri va tarkibi quruq va nam qoplamalarda maksimal ilakishishni ta'minlash uchun shunday tarzda tanlangan. Sovuq ob-havoda, qor bilan qoplangan yoki muzlab qolgan qoplamalarda bunday shinalar o'zlarining ilakishish xususiyatlarini pasaytiradi. Agar siz 5 °C (40 °F)dan past haroratda, qor bilan qoplangan yoki muzlab qolgan yo'llarda avtomobilni tez-tez qo'llashni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, qishki shinalarni o'rnatishni tavsiya qilamiz. Qishki shinalar ⇨ 9-34 ni ko'ring.

### **DIQQAT**

Sport yozgi shinalar rezina aralashmasidan tayyorlanadi, ular  $-7^{\circ}\text{C}$  ( $20^{\circ}\text{F}$ ) dan past haroratda o'z elastikligini yo'qotadi, buning natijasida protektorda yoriqlar hosil bo'lishi mumkin. Qo'llanilmayotgan yozgi sport shinalarini  $-7^{\circ}\text{C}$  ( $20^{\circ}\text{F}$ ) dan yuqori haroratli xonalarda saqlash zarur. Agar shinalar  $-7^{\circ}\text{C}$  ( $20^{\circ}\text{F}$ ) yoki undan past harorat ta'siriga uchratilgan bo'lsa, ularni avtomobilga o'rnatishdan va safar qilishdan avval ularni 24 soat va undan ko'proq vaqt davomida  $5^{\circ}\text{C}$  ( $40^{\circ}\text{F}$ ) dan past haroratgacha isitiluvchi xonada qizdirish zarur. Issiqlik yostig'idan iliq yoki issiq havoni shinalarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishiga yo'l qo'yilmaydi. Qo'llashdan avval majburiy tarzda shinalarni tekshirish zarur. Shinalar ko'rigi ↻ 9-40 ni ko'ring.

### **Shinalardagi havo bosimi**

Shinalarning samarali ishi uchun ularda havoning o'rnatilgan tarzda bosimini qo'llab turish talab etiladi.

### **OGOHLANTIRISH**

Havo bosimining yetarlicha bo'lmagani va ortiqchasi shinalar uchun bir xil salbiy. Yetarlicha ishirilmagan shinalar va yetarlicha havo bosimiga ega bo'lmagan shinalar quyidagilarga olib keladi:

- Shinaning ortiqcha yuklanishi va qizib ketishi uning yorilib ketishiga olib kelishi mumkin.
  - Muddatidan avval va muntazam bo'lmagan shinalarning yemirilishiga.
  - Avtomobilning yomon boshqariluvchanligi.
  - Yonilg'ining yomonlashtirilgan tejamlorligi.
- Ortiqcha ishirib yuborilgan shinalar yoki havo bosimi ortiqcha bo'lgan shinalar quyidagilarga olib keladi:
- Shinalarning yuqori emirilishi.
  - Avtomobilning yomon boshqariluvchanligi.
  - Yo'ldagi notekisliklar kuzovga uzatiladi.
  - Yo'l qoplamasining nuqsoni sababli shinalarning shikastlanish ehtimoli bor.

Shinalar turi va ularning yuklanishi haqidagi ma'lumotli avtomobil yopishtirma yorlig'ida dastlab o'rnatilgan shinalarning ma'lumoti va sovuq shinalarda havoning o'rnatilgan tarzda bosimi ko'rsatilgan.

Tavsiya etiluvchi havo bosimi - bu avtomobilning maksimal yuk ko'tarishini ta'minlovchi minimal havo bosimi. Avtomobilni yuklash usuli uning boshqaruviga va harakatlanish vaqtida qulaylikka ta'sir qiladi. Yukni tashishda ushbu avtomobil uchun konstruktiv ruxsat etilgan yuk og'irligini oshirish taqiqlanadi.

### **Tekshiruvlarni qachon bajarish lozim**

Shinalarni oyda bir yoki tez-tez tekshiring. Avtomobil jamlanishi mumkin bo'lgan o'lchami kichraytirilgan ehtiyot g'ildiragini tekshirishni unutmang. Sovuq holatda o'lchami kichraytirilgan ehtiyot g'ildiragi shinasidagi havo bosimi 420 kPa (60 funt/kv. dyuym)ni tashkil qilishi kerak. Kompakt ehtiyot g'ildiragi ↻ 9-53 ni ko'ring.

### **Tekshiruvlarni qanday o'tkazish lozim**

Shinalarda havo bosimini tekshirish uchun yuqori sifatli cho'ntak manometrini qo'llang. Shinaning o'rnatilgan tarzda havo bosimini uning tashqi ko'rinishi bo'yicha aniqlashtirish imkonsiz. Sovuq shinalardagi havo bosimini tekshiring, ya'ni avtomobil harakatsiz kamida uch soat turishi yoki 1,6 km (1 mil)dan ortiq bo'lmagan masofaga safar qilishi kerak.

Shina nippeli qalpoqchasini bo'shating. Shinadagi havo bosimini o'lchash uchun, shina manometrini zich qilib nippelga bosing. Agar sovuq shinalardagi havo bosimi shinalar turi va ularning yuklamasi haqidagi ma'lumotli yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan tavsiya etilganlarga muvofiq bo'lsa, hech qanday qo'shimcha sozlamalar talab etilmaydi. Agar shinadagi havo bosimi pasaygan bo'lsa, tavsiya etilgan havo bosimiga yorishgunga qadar shinalardagi havo bosimini oshirish zarur. Agar shinada havo bosimi ortiqcha bo'lsa, havoni chiqarib yuborish uchun shina nippeli o'rtasidagi metal sterjenni bosish lozim.

Shinalardagi havo bosimini qayta manometrdagi tekshiring.

Nippellarni namlik va kirlar tushib qolishidan himoyalash va havoning chiqib ketishini oldini olish uchun, ularga qalpoqchalarni burab qo'ying.

Ushbu avtomobil uchun mo'ljallangan faqat GM firma qalpoqchalarini qo'llang. Aks holda havo bosimi datchiklari shikastlanishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatlari bo'lmagligi mumkin.

### Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi



Biron bir shaxs tomonidan, vakolatlangan servis tashkilotidan tashqari, shinalarda havo bosimini nazorat tizimiga (TPMS) kiritilgan o'zgartirishlar, tizimni ishlatishga ruxsatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Shinalarda havo bosimini nazorati tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimi darajasini tekshirish uchun radiotexnologiyani va datchiklarni qo'llaydi. TPMS tizimi datchiklari sizning avtomobilingizning shinalarida havo bosimini nazorat qiladi va avtomobilda joylashtirilgan qabul qilgichga shinalardagi havo bosimi qiymatlarini yuboradi.

Har bir shinani, jumladan ehtiyot g'ildiragini (agar u mavjud bo'lsa), sovuq sharoitlarda oyda bir marta tekshirish lozim, shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan avtomobil jadvalchasida yoki yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan avtomobil ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilgan havo bosimigacha shinalar ishirlan bo'lishi kerak (agar sizning avtomobilingizda shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan avtomobil jadvalchasi yoki yopishtirma yorlig'ida ko'rsatilgan qiymatlardan farq qiladigan o'lchamdagi

shinalar o'rnatilgan bo'lsa, bunday shinalar uchun o'rnatilgan tarzdagi bosimni aniqlashtirish zarur).

Sizning avtomobil xavfsizlikni ta'minlash qo'shimcha funktsiya bilan jihozlangan, u shinalarda havo bosimini nazorat tizimi (TPMS) yordamida amalga oshirilgan. Ushbu tizim agar sizning avtomobilingizning bir yoki bir nechta shinalari juda past havo bosimiga ega bo'lsa, shinalarda pasaygan havo bosimi nazorat lampasini yoqadi.

Binobarin, shinalarda havo bosimining pasayishi nazorat lampasi yorishganida avtomobilda harakatlanishni bekor qilish, to'xtash va darhol shinalarni tekshirish va ularni havoning ma'lum bosimigacha ishirish lozim. Juda past havo bosimiga ega bo'lgan shinalar bilan avtomobilda harakatlanish shinalarning ortiqcha qizishiga olib keladi, buning oqibatida shinalarning shikastlanish ehtimoli bor.

Shinada havo bosimining pastligi shu bilan birga yonilg'i sarfini oshiradi, shinalarning protektorini xizmat muddatini qisqartiradi va avtomobilning boshqaruviga va tormozlanish samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shinalarda havo bosimi nazorati tizimi (TPMS) o'rnatilgan tarzdagi texnik xizmat ko'rsatishni o'rnini almashtirmasligini ko'rsatib o'tish lozim; shinalarda o'rnatilgan tarzdagi havo bosimini qo'llab turish uchun javobgarlik, hattoki agar TPMSdan shinalarda pasaytirilgan havo bosimi nazorat lampasi yorishishi uchun yetarli bo'lmagan darajaga havo bosimi pasayganda ham, haydovchi zimmasiga yuklatiladi.

Sizning avtomobilingiz shu bilan birga TPMS tizimi nosozligi indikatorini bilan jihozlangan, u ushbu tizimning noto'g'ri ishlashiga ko'rsatadi. TPMS tizimi nosozligi indikatorini shinalarda pasaygan havo bosimi nazorat lampasi bilan birlashtirilgan. Agar tizim nosozlikni aniqlasa, bu nazorat lampasi taxminan bir minut davomida miltillab turadi, so'ngra esa doimo yonib turishni davom ettiradi. Signallarning bunday ketma-ketligi avtomobil dvigatelini ishga tushirishning keyingi tsikllarida ham - toki nosozlik bartaraf etilmaguncha takrorlanib turadi. Agar nosozlik indikatorini yorishsa, tizim shinalardagi past bosimni aniqlay olmaydi yoki muvofiq signal qanday berilishi kerak bo'lsa, shunday berilmaydi. TPMS tizimidagi nosozliklar har xil sabablar bo'yicha, jumladan TPMS tizimini to'g'ri faoliyat yuritishiga yo'l qo'ymaydigan almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalar yoki g'ildiraklarning avtomobilga o'rnatilishi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Avtomobilga bir yoki bir nechta shinalarni yoki g'ildiraklarni almashtirishdan so'ng, almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalar yoki g'ildiraklar TPMS tizimiga to'g'ri faoliyat yuritishiga imkon berayotganligiga ishonch hosil qilib, har doim TPMS tizimining nosozliklari nazorat lampasini tekshirib turing.

Qo'shimcha ma'lumot Shinalarda havo bosimini nazorat tizimi faoliyati ⇨ 9-37 bo'limda taqdim etilgan.

### **Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimining faoliyati**

Ushbu avtomobilga shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) o'rnatilgan bo'lishi mumkin. TPMS tizimi shinalarda havo bosimini pasayishi haqida haydovchini ogohlantirish uchun mo'ljallangan.

TPMS datchiklari shina bilan yig'mada har bir g'ildirakda, shina bilan yig'mada ehtiyot g'ildirakdan tashqari, o'rnatilgan. TPMS tizimi datchiklari shinalarda havo bosimini nazorat qiladi va avtomobilga joylashgan qabulqilgichga shinalardagi havo bosimi qiymatlarini uzatadi.



Shinalarda havo bosimini pasayishi aniqlanishida TPMS tizimi shinalarda havo bosimini pasayishi signal lampasini yoqadi, u asbob-uskunalar majmuasida joylashtirilgan. Agar nazorat lampasi yoqilsa, darhol to'xtash va shinalar turo'lchami va ruxsat etilgan yuklama

haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan tavsiya etilgan shinalardagi havo bosimini oshirish zarur.

Aniq shinadagi havo bosimini tekshirish zarurati haqidagi xabar haydovchining axborot markazida (DIC) aks ettiriladi. Shinalarda pasaygan havo bosimi signal lampaning yoqilishi va DIC ogohlantiruvchi xabarining aks ettirilishi, toki shinalardagi havo bosimi talab etiluvchi qiymatgacha yetmaguncha o't oldirishning har bir tsiklida amalga oshiriladi.

DIC axborot markazining displeyida shinalardagi havo bosimining darajasini ko'rish mumkin. DIC axborot markazining va displeylarning ishi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-20 bo'limida ko'ring.

Shinalarda havo bosimining pasayishi signal lampasi avtomobil dvigatelini birinchi dastlabki ishga tushirilishida sovuq ob-havoda yorishishi mumkin, ammo so'ngra u avtomobil harakatlanishni boshlashi bilan o'chadi. Bu shinalarda havo bosimining pasayishi va uning talab etiluvchigacha oshirilish zaruratining erta indikatsiyasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Avtomobilga mahkamlangan shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada dastlabki o'rnatilgan shinalar va sovuq shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan. Shinalardagi havo bosimietiluvchi

havo bosimi ko'rsatilgan. Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-35.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimini pasayganligi haqida haydovchini ogohlantirishi mumkin, ammo u shinalarga odatiy texnik xizmat ko'rsatishni almashtirmaydi. Shinalarni ko'zdan kechirish ⇨ 9-40, Shinalarni joyini almashtirish ⇨ 9-41 va Shinalar ⇨ 9-33 bo'limlarni ko'ring.

#### **DIQQAT**

Shinalar uchun germetiklarning materiallari bir xil emas. Qo'llash uchun ruxsat etilmagan shinalar uchun germetik TPMS tizimi datchiklarini ishdan chiqarishi mumkin. Mos kelmaydigan shinalar uchun germetikning qo'llanilishi bilan chaqirilgan TPMS datchigining shikastlanishiga kafolat shartlari tarqalmaydi. Faqat GM kompaniyasi tomonidan qo'llash uchun ruxsat etilgan shinalar uchun germetikni har doim qo'llang, u dilerda mavjud yoki avtomobil jamlanmasiga kiradi.

#### **Signal lampasi va TPMS tizimi nosozligi haqida xabar**

Agar bir yoki bir nechta TPMS datchiklari mavjud bo'lmasa yoki ish qobiliyatiga ega bo'lmasa, TPMS tizimi to'g'ri ishlamaydi. Agar tizim nosozlikni aniqlasa, shinalarda havo bosimining pasayganligi signal lampasi taxminan bir minut davomida miltillashni boshlaydi, so'ngra esa o't oldirish tsiklining qolgan qismi davomida doimo yorishib turishni davom ettiradi.

Bundan tashqari, haydovchining axborot markaziga (DIC) ogohlantiruvchi xabar chiqariladi.

Nosozlik signal lampasining yoqilishi va DIC ogohlantiruvchi xabarning aks ettirilishi nosozlik bartaraf etilgunga qadar har bir o't oldirish siklda sodir bo'ladi. Nosozlik lampasining yoqilishiga va ogohlantiruvchi xabarning paydo bo'lishiga olib keluvchi sharoitlardan ba'zilarini sanab o'tamiz:

- Avtomobilning shtat g'ildiraklaridan biri ehtiyot g'ildiragiga almashtirilgan. Ehtiyot g'ildiragi TPMS datchigi bilan jihatlanmagan. Shtat g'ildiragi o'z joyiga o'rnatilishi va tizim datchiklarining qayd qilinish muolajasi to'g'ri bajarilishi bilanoq, nosozlik signalizatori o'chishi, haydovchining axborot markazi displeyida esa xabar g'oyib bo'lishi kerak. Keyinchalik ushbu bo'limda "TPMS datchiklarini bog'lash muolajasi" bandini ko'ring.

- Shinalar joyi almashtirilgandan so'ng TPMS datchigining muvofiqligini tekshirish jarayoni bajarilmagan yoki muvaffaqiyatli yakunlanmagan. Datchikning muvofiqligini tekshirish jarayoni muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng nosozlik signal lampasi o'chadi, DICning ogohlantiruvchi xabari esa g'oyib bo'ladi. Keyinchalik ushbu bo'limda "TPMS datchiklarini bog'lash muolajasi" bandini ko'ring.
- TPMS datchiklaridan biri yoki bir nechta mavjud emas yoki shikastlangan. TPMS datchiklarining o'rnatilishi va datchiklar muvofiqligini tekshirish jarayonini muvaffaqiyatli yakunlashdan so'ng nosozlik signal lampasi o'chadi, DICning ogohlantiruvchi xabari esa g'oyib bo'ladi. Texnik xizmat ko'rsatishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling
- Almashtiriluvchi shinalar yoki g'ildiraklar birinchi dastlabki o'rnatilgan shinalarga yoki g'ildiraklarga muvofiq emas. Tavsiya etilganlardan farqlanuvchi shinalar va g'ildiraklar TPMS tizimining to'g'ri ishiga halaqit berishi mumkin. Yangi shinalarni xarid qilish ⇨ 9-42 ni ko'ring.
- Elektron qurilmalarning ishi yoki TPMS tizimi tomonidan nurlantiruvchi o'xshash nurlanishdagi radiochastotalar nurlantiruvchi asbob-uskunalarning yaqinida mavjudligi, TPMS datchigining ishida buzilishga olib kelishi mumkin. Agar TPMS noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, u shinada havo bosimining



pasayish holatini aniqlashtirish va/yoki u haqda signal berish imkoniga ega bo'lmaydi. Agar TPMS tizimining nosozligi signal lampasi doimo yorishib turgan bo'lsa va DIC displeyida ogohlantiruvchi xabar g'oyib bo'lmaganida, u holda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qiling.

### **Shinani qo'shimcha ishirish zarurati haqida ogohlantirish (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)**

Ushbu funksiya sovuq shinaning tavsiya etilgan bosimgacha yetarlicha ishirilmagan shinasini qo'shimcha ishirish zaruratida avtomobil tashqarisida vizual va ovoqli ogohlantirishni beradi.

Shinada past bosim signal lampasi yoqilganida: Avtomobilni xavfsiz joyda tekis yuzaga to'xtab turishga joylashtiring.

2. To'xtab turish tormozini qattiq tortib qo'ying.
3. Avtomobilning YUO'Q selektorini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.
4. Yetarlicha ishirilmagan shinani qo'shimcha ishiring. Buriilish ko'rsatkichi millitlashni boshlaydi.

Tavsiya etilgan bosimga erishish bo'yicha bitta ovoqli signal uzatiladi, buriilish ko'rsatkichi esa millitlashni to'xtatadi va qisqa vaqtga doimiy chiroq yoqiladi.

Ushbu qadamlarni shinada past bosim signal lampasi yorishgan yetarlicha ishirilmagan barcha shinalar uchun takrorlang.

### **▲ OGOHLANTIRISH**

Shinada ortiqcha havo bosimini hosil qilish uning yorilib ketishiga olib kelishi mumkin, buning natijasida haydovchi yoki boshqa odamlar jarohat olishlari mumkin. Shinaning biqinida ko'rsatilgan maksimal bosimni oshirmang.

Agar shina 35 kPa (5 funt/kv.dyuum)dan ortiqqa ortiqcha ishirilgan bo'lsa, ovoqli signal bir necha marta jaranglaydi, buriilish ko'rsatkichi esa qo'shimcha ishirishdan so'ng bir necha soniyaga millitlashda davom etadi. Buriilish ko'rsatkichi millitlab turganiga qadar, bosimni tashlab yuborish va tuzatish kiritish uchun, nippel markaziga qisqa muddat bosing. Tavsiya etilgan qiymatga erishilish bo'yicha bir marta ovoqli signal jaranglaydi.

Agar buriilish ko'rsatkichi shinalarni qo'shimcha ishirish boshlanganidan so'ng 15 soniya davomida millitlab turmasa, shinalarni qo'shimcha ishirish zarurati haqidagi ogohlantirish faollashtirilgan yoki faoliyat yuritmayapti.

Agar avariya nurlu signalizatsiya yoqilgan bo'lsa, shinalarni qo'shimcha ishirish zarurati haqida ogohlantirish funksiyasining vizual qayta aloqasi o'rnatilgan tarzda ishlamaydi.

TPMS funksiya quyidagi sharoitlar mavjudligida shinani qo'shimcha ishirish zarurati haqida ogohlantirish o'rnatilgan tarzda faollashtirilmaydi:

- Tashqi qurilma yoki uzatgichdan to'siqlar mavjud.
- Ishirish uchun qurilma tomonidan yaratiluvchi havo bosimi shinalarni ishirish uchun yetarlicha hisoblanmaydi.
- TPMS funksiyasining nosozligi.
- Ovoqli signal yoki buriilish ko'rsatkichlarini nosozligi.
- TPMS datchigining identifikatsion kodi tizimda ro'yxatdan o'tkazilmagan.
- TPMS datchigining batareya quvvatining past darajasi.

Agar shinani qo'shimcha ishirish zarurati haqida ogohlantirish TPMS to'sig'i sababi bo'yicha ishlamayotgan bo'lsa, avtomobilni taxminan 1 m (3 fut) ga oldinga yoki orqaga siljiting va urinishni takrorlang. Agar shinani qo'shimcha ishirish zarurati haqidagi ogohlantirish funksiyasi ishlamayotgan bo'lsa, manometrda foydalaning.

### **TPMS datchiklarini bog'lash muolajasi**

TPMSning har bir datchigi noyob identifikatsion kodga ega. Identifikatsion kodni g'ildiraklarni joyini o'zgartirish yoki bir yoki undan ortiq TPMS datchiklarining almashtirilishidan so'ng shinaning/g'ildirakning yangi holatiga muvofiq o'rnatilishi zarur. Bosim datchiklarining bog'lash muolajasini shu bilan birga ehtiyot g'ildiragining bosim datchigi bilan jamlangan odatiy g'ildirakka almashtirishdan so'ng bajarish lozim. O't oldirishning keyingi tsiklda TPMS tizimining nosozlik signal lampasi o'chishi va

DIC displeyida ogohlantirish xabari g'oyib bo'lishi kerak.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimini dasturlash uchun maxsus instrument yordamida g'ildiraklarga datchiklarni bog'lanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: haydovchi tomonida oldingi g'ildirak, yo'lovchi tomonida oldingi g'ildirak, yo'lovchi tomonidan orqa g'ildirak, haydovchi tomonidan orqa g'ildirak. Ushbu muolajani dilerda bajarish yoki qayta dasturlash uchun qurilmani xarid qilish mumkin. Birinchi shina/g'ildirakni holatini bog'lashga ikki minut ajratilgan, barcha to'rtta shinalar/g'ildiraklarni bog'lanishiga esa jami besh minut ajratilgan. Agar bajarish ko'proq davom etayotgan bo'lsa, u holda muolaja to'xtatiladi va uni qayta boshlash lozim. TPMS datchiklarini bog'lash muolajasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

1. To'xtab turish tormozini yoqing.
2. Avtomobilni Servis tartibiga o'tkazing. Ishga tushiruvchi o'zgartirgichni holati ↷ 8-11 ni ko'ring.
3. Shinalardagi havo bosimi haqidagi ma'lumotli Sahifaning aks ettirilishini yoqing. Haydovchining axborot markazi displeyida alohida axborot sahifalarini aks ettirilishini yoqilishini opsiyalar menyusida qilish mumkin. Haydovchining axborot markazini (DIC) ↷ 4-20 ni ko'ring.

4. Rul chambaragining o'ng spitsasidagi varroqlash uchun tugmani qo'llab, havo bosimi haqidagi ma'lumotli sahifaga o'ting.

5. Haydovchi axborot markazining (DIC) boshqaruv tugmalari blokidagi ✓ markaziy tugmani bosing va ushlab turing. Tasdiqlashga so'rov bilan xabar aks ettirilishi mumkin.

Qabulqilgich dasturlash tartibida bo'lganligiga ko'rsatib ovoqli uskuna signali ikki marta jaranglaydi, va DIC displeyida SHINALARDA BOSIM DATCHIKLARINING BOG'LANISHI BAJARILMOQDA xabari paydo bo'ladi.

6. Dasturlash muolajasi haydovchi tomonidagi oldingi g'ildirakdan boshlanadi.

7. Qayta dasturlash uchun qurilmani nippel yaqinida, shinaning biqiniga joylashtiring. So'ngra TPMS datchigini faollashtirish uchun, tugmaga bosing. Ovoqli signal datchigining identifikatsion kodi shinaning va g'ildirakning ushbu holatiga muvofiq qo'yilganligini tasdiqlaydi.

8. Yo'lovchi tomonidagi oldingi g'ildirakka o'ting va 7-bandda tavsiflangan harakatlarni bajaring.

9. Yo'lovchi tomonidagi orqa g'ildirakka o'ting va 7-banddagi harakatlarni bajaring.

10. Haydovchi tomonidagi orqa g'ildirakka o'ting va 7-bandda tavsiflangan harakatlarni bajaring. Datchikning identifikatsion kodi chap orqa g'ildirakka qayd etilganligi va shinalarda havo bosimi nazorat tizimi datchiklarni bog'lash muolajasi yakunlanganligini xabar berib, ikki marta ovoqli signal jaranglaydi.

SHINALARDA BOSIM DATCHIKLARINING BOG'LANISHI BAJARILMOQDA xabari DIC displeyida g'oyib bo'ladi.

11. Avtomobilni o'chiring.

12. Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan tavsuya etilgan bosimgacha barcha to'rttala shinalarni ishiring.

### Shinalar ko'rigi

Oyda kamida bir marta shinalarning, jumladan ehtiyot g'ildirakning, agar avtomobil u bilan jihozlangan bo'lsa, yedirilish yoki shikastlanishni alomatlarini tekshirish tavsuya etiladi.

Shinani quyidagi holatlarda almashtirish lozim:

- Shinalar aylanasi bo'yicha uch yoki undan ortiq joylarda yedirilish alomatlar mavjud.
- Agar shinaning rezina materiali orqali kord yoki mato ko'rinish turgan bo'lsa.
- Agar protektorda yoki shinaning biqinida kord yoki mato ko'rinish turgan yoriqlar, kesilishlar yoki yetarlicha chuqurlikdagi deformatsiyalar mavjud bo'lsa.
- Shinada shishish, bo'rtma yoki yirtilish mavjud bo'lsa.

- Shina teshilishga, kesilishga yoki boshqa shikastlanishga ega bo'lsa, uni ushbu nuqsonning o'lchami va joylashgan joyi natijasida ta'mirlash imkoni yo'q bo'lsa.


### Shinalarning joyini almashtirish

Shinalarning joyini almashtirishni "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" bukletida ko'rsatilgan davriylikda bajarish lozim. G'ildiraklarning joyini almashtirish barcha shinalarning bir tekis edirilishini ta'minlash uchun bajariladi.

Eng muhim joy almashtirish - birinchisi.

Notekis yedirilish paydo bo'lishida g'ildiraklarni iloji boricha tezroq joyini almashtirish, havo bosimini, hamda shinalar yoki disklarning shikastlanish izlarini mavjudligini tekshirish lozim bo'ladi.

Agar shinalarning joyini almashtirishdan so'ng ular notekis yedirilayotgan bo'lsa, g'ildiraklarning o'rnatilish burchagini tekshiring. Eski shinalarni yangisiga qachon almashtirish lozim ⇨ 9-41 va G'ildirak disklarini almashtirish ⇨ 9-44 bo'limlarini ko'ring.



G'ildiraklarning joyini almashtirilishini ko'rsatilgan tartibda bajaring.

G'ildiraklarning joyini almashtirilishiga kompakt ehtiyot shinani kiritish lozim emas.

G'ildiraklarni joyini almashtirilganidan so'ng oldingi va orqa shinalarning havo bosimini shinalar va yuklamalar haqidagi jadvalchada ko'rsatilgan tavsiya etilgan qiymatlarga etkazing.

Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-35 ni ko'ring.

Shinalarda havo bosimi nazorat tizimini dastlabki holatga qaytaring. Shinalarda havo bosimi nazorat tizimining faoliyati ⇨ 9-37 ni ko'ring.

Barcha g'ildirak gaykalari to'g'ri qotirilganligiga ishonch hosil qiling.


### ⚠ OGOHLANTIRISH

G'ildirakdagi yoki u mahkamlanadigan detallardagi zanglash yoki iflosliklar vaqt o'tishi bilan g'ildirak gaykalarining bo'shab qolishiga olib kelishi mumkin. G'ildirak yo'qotilishi mumkin, bu esa avariya sababi bo'lib qolishi mumkin. G'ildirakni almashtirishda avtomobilga g'ildirakni mahkamlash joyidan har qanday zanglanishni yoki iflosni olib tashlang. Shoshilinch holatlarda mato yoki qog'oz sochiqlarni qo'llash mumkin, ammo barcha korroziyani va kirlarni olib tashlash uchun keyinchalik qirg'ich yoki simli cho'tkadan foydalanish zarur.

G'ildirakni almashtirish yoki shinalarni joyini almashtirishdan so'ng korroziya/zanglanishni oldini olish uchun g'ildirakning stupitsasining o'rtasiga g'ildirak podshipniklari uchun moyni ingichka qatlamda surting. Moyni g'ildirakning montaj yuzasiga va g'ildirak gaykalari va boltlariga surtmang.

### Eski shinalarni yangisiga qachon almashtirish kerak

Shinalarning yedirilish tezligiga texnik xizmat ko'rsatish, harorat, avtomobilning harakatlanish tezligi, avtomobilning yuklanganligi va yo'l sharoitlari kabi bunday omillar ta'sir ko'rsatadi.



Eski shinalarni yangisiga almashtirish zarurati faqat shinalarning yedirilish bo'yicha alomatlar bilan aniqlanadi.

Yedirilish alomatlari 1,6 mm (1/16 dyuym) yoki kamroq protektorning qoldiq chuqurligi shinalarda paydo bo'ladi. Shinalar ko'rigi ↻ 9-40 va Shinalarni joyini almashtirish ↻ 9-41 bo'limlarni ko'ring.

Shinalarning rezina materiali vaqt o'tishi bilan eskiradi. Bu shu bilan birga sizning avtomobil jamlangan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtiyot g'ildiragi shinasi uchun ham, hattoki agar ushbu g'ildirakdan hech qachon foydalanmagan bo'lsangiz ham, haqqoniy bo'ladi. Rezina eskirishining tezligiga ko'pgina omillar, jumladan, harorat, yuklanganlik va shinalarda tavsiya etilgan havo haroratini qo'llab turish ta'sir qiladi.

GM kompaniyasi shinalarni, jumladan ehtiyot g'ildiragidagi (agar jamlanmada ko'zda tutilgan bo'lsa), almashtirilishini protektorning yedirilish darajasiga bog'liq bo'lmagan holda kamida olti yilda amalga oshirishni tavsiya qiladi.

Shinaning ishlab chiqarilish sanasi uning birini biqiniga tushirilgan identifikatsion koddagi (AQSH transport vazirligi standarti) oxirgi to'rtta raqamlarda shifrlangan. Birinchi ikki raqam haftani (01-52), oxirgi ikki raqam esa - yilni anglatadi.

Masalan, AQSH transport vazirligi standarti bo'yicha 2010 yilning uchinchi haftasi 0310 kodi bilan belgilanadi.

#### **Avtomobilni saqlash**

Shinalar hattoki avtomobil to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lgan vaqtda ham oddiy saqlashda eskiradi. Shinalarning eskirishini sekinlashtirish uchun avtomobilni to'g'ri quyosh nurlaridan uzoqroqda sovuq, quruq, toza joyga to'xtab turishga va saqlashga kamida bir oyga joylashtiring. Ushbu joyda moy, benzin yoki rezinani ishdan chiqarishga qodir boshqa moddalar bo'lmasligi kerak.

Agar avtomobil to'xtab turish joyida uzoq vaqt davomida joylashtirilgan bo'lsa, shinalarda pachoqlangan yuzalar vujudga kelishi mumkin, ular so'ngra harakatlanish vaqtida vibratsiyani hosil qilishi mumkin.

Agar avtomobil bir oydan kam vaqt turishi kerak bo'lsa, uning og'irligi shinalarga ta'sirini pasaytirish uchun shinalarni yechib qo'yish yoki avtomobilni ko'tarib qo'yish kerak.

#### **Yangi shinalarni xarid qilish**

GM kompaniyasi ushbu model uchun ma'lum shinalarni ishlab chiqdi va tanlab berdi. Sizning avtomobilingizga yig'ish zavodida o'rnatilgan shinalar General Motors Tire Performance Criteria Specification (TPC) firma tasniflanishi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'rnatilganlar o'rniga shinalarni xarid qilishda GM kompaniyasi TPC markirlanishining xuddi o'sha kodi bilan shina tanlashni qat'iy tavsiya qiladi.

GM kompaniyasining TPC Spec tasniflanishlarning maxsus tizimi bo'yicha sizning avtomobilingizning umumiy tortish-ilakishish xarakteristikalariga, jumladan tormoz, harakatlanish va boshqaruv tizimlarining, tortish kuchini sozlash ishchi xarakteristikalariga va shinalarda havo bosimini nazorati xarakteristikalariga ta'sir qiluvchi o'ndan ortiq muhim texnik parametrlarni baholaydi.

GM kompaniyasining TPC Spec tasniflanish raqami shinaning o'lchami bilan yonma-yon shinaning biqiniga bosilgan. Agar shinalar barcha mavsumiy tasvirli protektorga ega bo'lsa, u holda TPC sinfi raqamidan keyin bu barcha mavsumiy shina ekanligiga ko'rsatib,

MS (Mud and Snow - loy va qor) belgilanishi turadi.

GM barcha to'rtta shinalarni bitta jamlanma bilan almashtirishni tavsiya etadi. Barcha shinalarda protektor chuqurligi bir xil bo'lishi avtomobilning ishchi xarakteristikalarini qo'llab turishga yordam beradi. Agar barcha shinalarni bir vaqtda almashtirilmasa, u holda bu avtomobilning tormoz xarakteristikalariga va boshqaruviga nomaqbul ta'sir qilishi mumkin. G'ildiraklarning o'z vaqtida va to'g'ri joy almashtirilishida va ularga xizmat ko'rsatilishida barcha to'rtta shinalarning yedirilishi bir tekis amalga oshadi. G'ildiraklarni joyini almashtirish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Shinalarni joyini almashtirish ⇨ 9-41 bo'limda ko'ring. Shunga qaramay, agar faqat bitta ko'priknig shinalarini almashtirish zarur bo'lsa, yangi shinalarni orqa g'ildiraklarga o'rnatish kerak. Dastlabki o'rnatilgandek xuddi shunday tezlanish toifasi bilan H, V, W, Y va ZR qishki shinalar bozorda mavjud bo'lmasligi mumkin. Qishki shinalarni qo'llashda shinalar tezligi indeksi bilan cheklangan maksimal tezlikni oshirish lozim bo'lmaydi.

 **OGOHLANTIRISH**

Shinalarni nomuvofiq texnik xizmat ko'rsatilishida ularning yirtilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Shinani montaji yoki demontajiga urinish jarohatga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Shinalarni montaji yoki demontajini faqat dilerda yoki ro'yxatdan shina servis markazida bajarish lozim.

 **OGOHLANTIRISH**

Turli o'lchamdagi bir nechat shinalarni yoki turli savdo belgilari yoki turlardagi shinalarini o'rnatilishi avtomobil boshqaruvining yo'qotilishiga, natijada esa avariya yoki boshqa avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning barcha g'ildiraklari uchun bir xil o'lchamdagi, bir xil markadagi va turdagi shinalarni qo'llang.

 **OGOHLANTIRISH**

Avtomobilda diagonal shinalarning qo'llanilishi avtomobilda katta masofani bosib o'tishdan so'ng g'ildirak gardishi flanetslarida darzlarni hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shina va/yoki g'ildirak kutilmaganda ishdan chiqishi mumkin, bu avariya olib keladi. Ushbu avtomobilning g'ildiraklarida faqat radial shinalarni o'rnatish kerak.

Agar almashtirishda TPC sinfi ko'rsatilmagan shinalarni o'rnatish kerak bo'lsa, u holda ular xuddi o'sha o'lchamlarga va konstruksiyaga (radial) ega ekanligiga va asl shinalar kabi, xuddi o'sha yuklamalar va tezliklar oralig'iga mo'ljallanganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Shinalarda havo bosimini nazorat tizimi bilan jihozlangan avtomobillar, agar avtomobilda TPC texnik talablariga muvofiq bo'lmagan shinalar o'rnatilgan bo'lsa, shinalarda havo bosimining pasayganligi haqida noto'g'ri ogohlantirishlar berishi mumkin. Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-36 ni ko'ring.

Shinalar va yuklamalar haqida ma'lumotlar jadvalida dastlab avtomobilga o'rnatilgan shinalar ko'rsatilgan.

### Boshqa o'lchamdagi shinalar va g'ildirak diskleri

Agar avtomobilga avtomobilda birlamchi o'rnatilgan g'ildirak diskleri va shinalarning o'lchamlari farq qiladigan o'lchamli g'ildirak diskleri yoki shinalar o'rnatilgan bo'lsa, u holda buning oqibatida avtomobilning tortish-dinamik xarakteristikalari, jumladan, tormozlash, harakatlanish va borshqaruv, turg'unlik va ag'darilishga qarshilik xarakteristikalariga ziyon yetkazilishi mumkin. Agar avtomobilda tormozlarni antibloklash tizimi, ag'darilishdan himoyalovchi ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari, tortish kuchini sozlash tizimi, dinamik stabilashtirishning elektron tizimi yoki doimiy to'liq yuritma tizimi kabi elektron tizimlar mavjud bo'lsa, u holda shu bilan birga ushbu tizimlarning ishchi xarakteristikalari ham shikastlanishi mumkin.



#### OGOHLANTIRISH

Agar avtomobilga ushbu model uchun tavsiya etilmagan o'lchamdagi shinalar o'rnatilgan bo'lsa, avtomobilning tortish tezlashish va ishlatish xavfsizligi xarakteristikalarining yomonlashish ehtimoli bor. Bu YTH yoki odamlarning jiddiy jarohatlanish xavfini oshiradi. Faqat ushbu model uchun ishlab chiqilgan GM firma diskleri va shinalarini qo'llang. G'ildiraklarni o'rnatish va shinalarni montajini faqat GMning malakali avtomexaniklariga ishonib topshirish kerak.

Yangi shinalarni xarid qilish ⇨ 9-42 va Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalar va modifikatsiyalari ⇨ 9-2 bo'limlarni ko'ring.

#### G'ildiraklarning razval sxodini muvozanatlash va sozlash

G'ildiraklarni o'rnatilish burchagini sozlash va shinalarni muvozanatlanishi shinalarning maksimal xizmat muddatini va eng yaxshi umumiy tortish-ilakishish xarakteristikalarini ta'minlash uchun ishlab chiqaruvchi-zavodda bajariladi. G'ildiraklarning o'rnatilish burchagini davriy qayta sozlash va shinalarning muvozanatlanishi talab etilmaydi. Shinalarning noodatiy yedirilishida yoki avtomobilning bir yoki boshqa tomonga sezilarli olib qochilishida g'ildiraklarning o'rnatilish burchagini

sozlanishini tekshirilishini bajarish tavsiya etiladi. Chapga yoki o'ngga katta bo'lmagan olib qochish, yo'l qatlamining profili va boshqa xususiyatlarning mavjudligiga bog'liq holda, me'yordagi holat hisoblanadi. Agar silliq yo'l bo'ylab harakatlanishda avtomobilda vibratsiya hosil bo'ladi, shinalarni va g'ildiraklarni takroran muvozanatlash zarur bo'lishi ehtimoli bor. O'rnatilgan tarzda tekshirishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling.

#### G'ildirak disklerini almashtirish

Har qanday qiyshaygan, yoriqlarga ega bo'lgan, kuchli zanglagan yoki korroziya bilan yemirilib ketgan g'ildirak diskleri almashtirilishi lozim.

Agar g'ildirak gaykalari bo'shab qolsa, g'ildirak diskini, g'ildirak boltlarini va g'ildirak gaykalarini almashtirish zarur. Agar g'ildirakdan havo sizib chiqayotgan bo'lsa, uni almashtirish kerak. Ba'zi alyumin g'ildirak disklerini ta'mirlash mumkin. Ushbu holatlardan biron biri mavjudligida dilerga murojaat qilish kerak. Sizning dileringiz, sizga g'ildirak diskining qanday turi kerakligini biladi.

Har bir yangi g'ildirak diski xuddi o'shanday yuk ko'tarishiga, diametrga, kenglikka, chiqib ketishga ega bo'lishi va o'rniga o'rnatilayotgan g'ildirak diski kabi xuddi shunday tartibda o'rnatilishi kerak.

G'ildirak diskleri, g'ildirak boltlari, g'ildirak gaykalari yoki shinalardagi havo bosimi nazorati tizimi (TPMS) datchiklarini GM ning yangi firma detallariga almashtiring.

#### OGOHLANTIRISH

To'g'ri kelmaydigan almashtiriluvchi g'ildirak disklarining, g'ildirak boltlarining yoki g'ildirak gaykalarining qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Bu avtomobilning tormozlanishiga va boshqaruviga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shinalardan havo sizib chiqishi mumkin, bu avtomobilni boshqaruvining yo'qotilishiga va avariyalarga olib keladi. Har doim to'g'ri keladigan g'ildirak disklarini, g'ildirak boltlari va g'ildirak gaykalarini qo'llash zarur.

#### DIQQAT

To'g'ri kelmaydigan g'ildirak diski g'ildirak podshipnigining xizmat muddatini qisqartirishi, tormoz mexanizmini sovutilishini yomonlashtirishi, spidometr va/yoki odometrnig kalibratlanishini buzishi, chiroqlar nurining yo'nalishini, avtomobilning yo'l tirqishini va shinalar yoki sirpanishga qarshi zanjirlar va kuzov yoki shassi orasidagi oralik masofani o'zgartirishi mumkin.

### Avval qo'llanilgan almashtiriluvchi g'ildirak diskleri

#### OGOHLANTIRISH

G'ildirak diskini avval qo'llanishda bo'lgan g'ildirak diskiga almashtirish xavfli. U qanday ishlatilganligi va uning bosib o'tgan masofasi qanchalik yuqori ekanligi haqida ma'lumotlar yo'q. U kutilmaganda buzilishi mumkin, bu avariya olib kelishi mumkin. G'ildirak disklarini almashtirishda GM ning yangi firma g'ildirak disklarini qo'llang.

### Sirpanishga qarshi zanjirlar

#### OGOHLANTIRISH

Sirpanishga qarshi zanjirlarni qo'llamang. Buning uchun klirens yetarlicha yuqori emas. O'rnatilgan tarzdagi klirensiz avtomobilda sirpanishga qarshi zanjirlarning qo'llanilishi tormozlarning, osmalarning yoki avtomobilning boshqa detallarini ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Zanjirlar bilan yetkazilgan shikastlanishlar avtomobilni boshqaruvini yo'qotilishiga va avariya olib kelishi mumkin.

Boshqa turdagi sirpanishga qarshi qurilmani, faqat agar ishlab chiqaruvchi ushbu o'lchamdagi shinalar bilan avtomobilda uning qo'llanilishini va yo'l sharoitlarining holatlarini hisobga olinishini tavsiya qilgandagina qo'llang. Ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalarini bajaring. Avtomobilga ziyon etkazmaslik uchun, past tezlikda harakatlaning.

Agar sirpanishga qarshi qurilma avtomobilning biron bir qismiga teginayotgan bo'lsa, ularni tekshiring. G'ildiraklarning yuklamasiz aylanishiga yo'l qo'ymang. Sirpanishga qarshi qurilmani oldingi g'ildiraklarga o'rming.

**Agar g'ildirakning havosi chiqib ketsa**

Harakatlanish vaqtida shinaning yorilib ketishi - g'ayriodatiy voqea, ayniqsa, agar shinalarga o'rnatilgan tarzda xizmat ko'rsatilyotgan bo'lsa. Shinalar ⇨ 9-33ni ko'ring. Agar shinadan havo sizib chiqayotgan bo'lsa, ancha katta ehtimol bilan sizib ketish sekin bo'ladi. Ammo shina yorilishi holatiga nimani kutish va nima qilish kerakligi haqida ba'zi tavsiyalar mavjud:

Oldingi shinaning yorilishi holatida bunday havosi chiqarib yuborilgan shina avtomobilni sekinlashtiradi, bu avtomobilning ushbu g'ildirak tomonga olib qochilishiga olib keladi. Oyog'ingizni akselerator tepkisidan oling va rul chamberagini mahkam ushlab oling. Rulni shunday aylantiringki, u o'z qatorida harakatlanishni davom ettirsin, so'ngra asta-sekin yo'ldan tashqari tomonda iloji boricha to'liq to'xtaguncha tormozlaning.

Orqa shinaning yorilishi, ayniqsa burilishda, olib qochish kabi namoyon bo'ladi va avtomobil harakatlanishiga tuzatish kiritilishiga olib qochishdagi kabi harakat qilish talab etilishi mumkin. Akselerator tepkisiga bosishni to'xtating va avtomobil to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanishini davom ettirishi uchun uni shunday tarzda boshqaring.

Harakatlanish kuchli silkinish va shovqin bilan kuzatib borilishi mumkin. Asta-sekin to'liq to'xtagunga qadar tormozlaning, iloji boricha yo'ldan chetda to'xtang.

**OGOHLANTIRISH**

Havosi chiqib ketgan g'ildirak bilan safar qilish shinaning bartaraf qilib bo'lmaydigan shikastlanishiga olib keladi. Avtomobil bir qancha vaqtda harakatlangan havosi chiqib ketgan yoki kuchli yetarlicha havo urilmagan shinani takroran havo bilan to'ldirilishi, uning yorilib ketishiga va jiddiy avariya olib kelishi mumkin. Avtomobil bir qancha vaqt harakatlangan havosi chiqib ketgan yoki kuchli yetarlicha havo urilmagan shinani takroran havo bilan to'ldirilishiga urinmang. Havosi chiqib ketgan shinani iloji boricha tezroq dilerda yoki ro'yxatdan o'tgan shina servis markazida ta'mirlang yoki almashtiring.

**OGOHLANTIRISH**

Avtomobilni ko'tarish va uning ostiga texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashni bajarish uchun kirish, agar muvofiq himoyalash uskunasi qo'llanilmayotgan va haydovchi o'quvdan o'tmagan bo'lsa, xavf tug'diradi. Agar avtomobil domkrat bilan jamlangan bo'lsa, u holda u faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun mo'ljallangan. Uning boshqa maqsadlarda qo'llanilishida domkratdan avtomobilning tushib ketish holatida jiddiy jarohat olish va hattoki nobud bo'lish mumkin. Agar avtomobil domkrat bilan jamlangan bo'lsa, u holda uni faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun qo'llang.

Havosi chiqib ketgan g'ildirakda g'ildirak va shinaning shikastlanishini og'irlashtirmang, iloji boricha yo'ldan tashqari tomonga tekis joyga asta-sekin o'ting. Avariya yorug'lik signalizatsiyani yoqing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi ⇨ 5-5 ni ko'ring.




### ▲ OGOHLANTIRISH

G'ildirakni almashtirish xavfli bo'lishi mumkin. Avtomobil jarohat etkazib yoki hatto o'limga olib kelib, domkratdan sirpanib ketishi, yurib ketishi yoki tushib ketishi mumkin. G'ildirakni almashtirish uchun tekis joyni toping. Avtomobilning mustaqil harakatlanishini oldini olish uchun:

1. To'xtab turish tormozini qattiq tortib qo'ying.
2. Avtomatik yuritmalar qutisi tutqichini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnatish yoki mexanik yuritmalar qutisini o'zgartirish tutqichini 1 (birinchi yuritma) yoki R (orqaga yurish) holatiga o'rnatish.
3. Dvigatelni o'chiring va toki avtomobil domkrat bilan ko'tarib qo'yilgan holatda bo'lgunicha uning qayta ishga tushirilishini bajarmang.
4. Bunda yo'lovchilarga avtomobil qolish taqiqlanadi.
5. Siz almashtirishni rejalashtirayotgan o'sha g'ildirakdan diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirakning ikki tomonida yurib ketishga qarshi tirgaklarni (mavjud bo'lganida) o'rnatish.


Bir g'ildirakning teshilishi holatida (2) yurib ketishga qarshi tirgaklarni (1) (mavjud bo'lganida) quyida taqdim etilgan sxema bo'yicha o'rnatish lozim.



1. Yurib ketishga qarshi tirgak (muvofiq jamlanmada)
2. G'ildirakning havosi chiqib ketdi  
Quyida g'ildirakni ta'mirlash va almashtirish muolajalari tushuntiriladi.

### G'ildirakni almashtirish

#### Ehtiyot g'ildiragini va instrumentlarni chiqarib olish





1. Shataklovchi zo'g'ota (muvofiq jamlanmada)
2. Yonilg'i baki quyish bo'yinchasi qopqog'isiz yonilg'i quyish tizimi uchun voronka adapteri (agar mavjud bo'lsa)
3. G'ildirakli gayka kaliti
4. Makhamlash kamari
5. Domkrat
6. Buragich (agar bor bo'lsa)

Ehtiyot g'ildirakka va instrumentlarga kirish uchun:

1. Yukxona bo'linmasining orqa eshigini oching. Orqa ko'tarma eshik ↻ 1-11 ni ko'ring.
2. Yukxona polining orqa qismini taxlang, fiksatorlarni bo'shatish uchun uni orqaga torting, so'ngra yechib olish uchun tepaga torting.
3. Ehtiyot g'ildiragi chuqurchasi qopqog'ini oldinga va tepaga tortib, yechib oling.
4. Mahkamlash gaykasini soat strelkasiga qarshi burang va ehtiyot g'ildiragini yechib oling. Ehtiyot g'ildiragini almashtirilishi zarur bo'lgan xuddi o'sha g'ildirak bilan yonma-yon qo'ying.
5. Domkrat va haydovchining instrumentlari ehtiyot g'ildiragi ostida saqlanadi. Ularni chiqarib oling va almashtirilishi zarur bo'lgan g'ildirak yoniga qo'ying.

#### Havosi chiqib ketgan g'ildirakni olib tashlash va ehtiyot g'ildirakni o'rnatish

1. Keyingi harakatlarni bajarishdan avval xavfsizlikni tekshirishni bajaring. Qo'shimcha ma'lumot Agar g'ildirak havosi chiqib ketgan bo'lsa ↻ 9-46 da taqdim etilgan.
2. Agar g'ildirak qalpog'i yoki stupitsaning qopqog'i mavjud bo'lsa, ularni g'ildirakdan yechib oling. Toki havosi chiqib ketgan g'ildirak ta'mirlanmaguni yoki almashtirilmaguniga qadar g'ildirak qalpog'ini yukxona bo'linmasida saqlang.




3. G'ildirak kalitini soat strelkasiga qarshi aylantirib, barcha g'ildirak gaykalarini bo'shatib, ammo ularni hozircha yechib olmag.

#### ⚠️ DIQQAT

Domkrat boshchasi to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, aks holda siz zarar etkazishingiz mumkin. Bu holatda ta'mirlash kafolati hisoblanmaydi.

#### Orqa g'ildirak ko'rsatilgan, oldingi g'ildirak o'xshash

4. Domkrat lapasini havosi chiqib ketgan g'ildirakka yaqin domkratni o'rnatish uchun mo'ljallangan joyga o'rnatib.



Metal listning payvandlangan chetida kesik joyni toping.  
Tirgak boshchani o'rtasi kesik joyning markazi bo'yicha joylashgan holda domkratni o'rnatg.  
Domratni biron bir boshqa joylarga o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

**⚠ OGOHLANTIRISH**

Domkrat yordamida osilgan avtomobil ostida ishlash xavfli. Agar avtomobil domkratdan sirpanib ketsa, siz jiddiy jarohat olishingiz yoki hattoki o'lim topishingiz mumkin. Domkrat bilan ko'tarilgan va faqat domkratga tiralayotgan avtomobil ostiga kirish taqiqlanadi.


**⚠ OGOHLANTIRISH**

Noto'g'ri o'rnatilgan domkrat bilan avtomobilni ko'tarish avtomobilni shikastlashi va hattoki uning tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Jarohat olish va avtomobilni jarohatlashdan saqlanish uchun, avtomobilni ko'tarishdan avval domkratning ko'tarish boshchasini kuzovdagi muvofiq joyga o'rnatg.


**⚠ OGOHLANTIRISH**

Avtomobilni ko'tarish va uning ostiga texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashni bajarish uchun kirish, agar muvofiq himoyalash uskunasi qo'llanilmayotgan va haydovchi o'quvdan o'tmagan bo'lsa, xavf tug'diradi. Agar avtomobil domkrat bilan jamlangan bo'lsa, u holda u faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun mo'ljallangan. Uning boshqa maqsadlarda qo'llanilishida domkratdan avtomobilning tushib ketish holatida jiddiy jarohat olish va hattoki nobud bo'lish mumkin. Agar avtomobil domkrat bilan jamlangan bo'lsa, u holda uni faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun qo'llang.

5. G'ildirak kalitini uchlarini bog'lab, domkratga ulang.




6. G'ildirak gayka kalitini soat strelkasi bo'ylab aylantirib, avtomobilni ko'taring. Toki g'ildiraklar erdan uzilmaguniga qadar avtomobilni ko'taring.



7. Barcha g'ildirak gaykalarini bo'shating.  
8. Shinasi teshilgan g'ildirakni yechib oling.

**⚠ OGOHLANTIRISH**

G'ildirakdagi yoki u mahkamlanadigan detallardagi zanglash yoki iflosliklar vaqt o'tishi bilan g'ildirak gaykalarining bo'shab qolishiga olib kelishi mumkin. G'ildirak yo'qotilishi mumkin, bu esa avariya sababi bo'lib qolishi mumkin. G'ildirakni almashtirishda avtomobilga g'ildirakni mahkamlash joyidan har qanday zanglanishni yoki iflosni olib tashlang. Shoshilinch holatlarda mato yoki qog'oz sochiqlarni qo'llash mumkin, ammo barcha korroziyani va kirlarni olib tashlash uchun keyinchalik qirg'ich yoki simli cho'tkadan foydalanish zarur.



9. G'ildirak boltlaridan, montaj yuzalardan va ehtiyot g'ildiragidan har qanday zangni yoki ifloslarni olib tashlang.

10. O'lchami kamaytirilgan ehtiyot g'ildiragini stupitsaga o'rnatish.

#### **▲ OGOHLANTIRISH**

Boltlarni yoki gaykalarni moy bilan moylash taqiqlanadi, chunki gaykalar bo'shab qolishi mumkin. Bunda g'ildirak tushib ketishi mumkin, bu avariya olib kelishi mumkin.

11. G'ildirak gaykalarini burab qo'ying.

G'ildirakni stupitsaga mahkamlash uchun, har bir gaykani qo'lda tortib qotiring.


12. Domkrat tutqichini soat strelkasiga qarshi aylantirib, avtomobilni tushiring.

#### **▲ OGOHLANTIRISH**

Noto'g'ri qotirilgan g'ildirak gaykalari g'ildirak mahkamlagichlarini bo'shab ketishiga yoki uning uzilib ketishiga olib kelishi mumkin. G'ildirak almashtirilganidan so'ng g'ildirak gaykalarini tasniflashga muvofiq qotirishning o'rnatilgan tarzidagi payti bilan g'ildirak gayka kaliti bilan g'ildirak gaykalarini tortib qotirish zarur. Avtomobil sotilganidan so'ng unga qo'shimcha o'rnatiladigan g'ildirak gaykalari-sekretkalarning qo'llanilishida, ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan ushbu gaykalarning tortish payti tasniflanishiga rioya qiling.

#### **▲ DIQQAT**

Noto'g'ri burab qotirilgan g'ildirak gaykalari tormoz mexanizmlarining pulsatsiyasiga va tormoz disklarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Tormoz tizimining qimmatbaho ta'mirlanishini bajarilishidan saqlanish uchun mahkamlashning tortish tasniflanishiga muvofiq o'rnatilgan tartibda g'ildirak gaykalarini bir tekis tortib qotiring.



13. Ko'rsatilgan kesishuvchan ketma-ketlikda g'ildirak gaykalarini ishonchli tortib qotiring.

14. Domkratni to'liq tushiring va uni avtomobil ostidan olib qo'ying.

15. G'ildirak gaykalarini g'ildirak kaliti bilan ishonchli qotiring.

To'liq o'lchamdagi g'ildirakka g'ildirak qalpog'ini yoki markaziy qopqoqni o'z joyiga o'rnatib, uzaytirgichni qo'llamasdan g'ildirak kaliti bilan barcha beshta plastmass qopqoqlarni tortib qotiring, so'ngra esa ularni g'ildirak kaliti bilan yana to'rtadan bir aylanishga burang.

**⚠️ DIQQAT**


G'ildirak qalpoqlari kompakt ehtiyot g'ildirakka to'g'ri kelmaydi. Agar siz g'ildirak qalpog'ini kompakt ehtiyot g'ildirakka o'rnatishga urinsangiz, u holda bu qalpoqning yoki ehtiyot g'ildirakning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**Bo'shashgan yoki ehtiyot g'ildiragini va instrumentlarni saqlash****⚠️ OGOHLANTIRISH**


Domkrat, g'ildirak va boshqa asbob-uskunalar avtomobil salonida saqlanishi odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning keskin to'xtashi yoki avariya vaqtida mahkamlanmagan asbob-uskunalar joyidan siljib ketib biron bir odamga zarba berishi mumkin. Barcha ushbu asbob-uskunalar o'rnatilgan joyda saqlang.

Nosoz g'ildirakni olib qo'ying:

1. Domkrat va instrumentlarni ularga mo'ljallangan joyga qaytaring.
2. Ehtiyot g'ildiragining chuqurchasi qopqog'ini joyiga o'rnatib.
3. Pol panelini joyiga o'rnatib.
4. Nosoz g'ildirakni yotqizilgan holatda orqa yukxona bo'linmasiga soling.



5. Avtomobilning orqa qismida joylashtirilgan yuk uchun tortgichdan biriga mahkamlash kamarining uchidagi sirtmoqqa kiydiring. Ilgakni sirtmoq orqali o'tkazing va kamarni torting.
6. Mahkamlash kamarining ilgagi bilan uchlikni g'ildirak orasidan o'tkazing.
7. Mahkamlash kamarining uchini avtomobilning orqa qismidagi yukxona tortgichiga mahkamlang.



8. Tasvirda ko'rsatilgani kabi g'ildirak orqali mahkamlash kamarini o'tkazing.
  9. Mahkamlash kamarining boshqa uchini avtomobilning orqa qismidagi yukxonaning boshqa tortgichiga mahkamlang.
  10. Mahkamlash kamarini torting.
- O'lchami kamaytirilgan ehtiyot g'ildiragi faqat vaqtinchalik qo'llash uchun mo'ljallangan. O'lchami kamaytirilgan ehtiyot g'ildiragini birinchi imkoniyat tug'ilganida to'liq o'lchamdagi g'ildirakka almashtiring.

### Kompakt ehtiyot g'ildiragi

#### OGOHLANTIRISH

Avtomobilga bir vaqtda o'rnatilgan ikki yoki undan ortiq kompakt ehtiyot g'ildiraklar bilan avtomobilda harakatlanish tormozlanishning va boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu avariya olib kelishi, uning oqibatida haydovchi yoki boshqa odamlar jarohat olishlari mumkin. Bir vaqtda avtomobilga faqat bitta kompakt g'ildirakni o'rnatish mumkin.

Agar avtomobil o'lchami kamaytirilgan ehtiyot g'ildiragi bilan jamlangan bo'lsa, undagi bosim sotishdan avvalgi tayyorgarlik vaqtida me'yorgacha keltirilgan bo'lsa, biroq vaqt o'tishi bilan undagi bosim pasayishi mumkin. Ehtiyot g'ildiragidagi havo bosimini muntazam tekshiring. U 420 kPa (60 bar)ni tashkil qilishi kerak.

Iloji boricha tezroq to'xtang va o'rnatilgan ehtiyot g'ildiragidagi bosim zaruriy darajada ekanligiga ishonch hosil qiling. O'lchami kamaytirilgan ehtiyot g'ildiragi faqat vaqtinchalik qo'llash uchun mo'ljallangan. O'rnatilgan ehtiyot g'ildiragi bilan avtomobilning boshqaruvi va uning tortish-tezlashish xarakteristikalarini o'zgaradi, shuning uchun 80 k/soat (50 mil/soat)dan yuqori bo'lmagan tezlik bilan harakatlanish tavsiya etiladi. Ehtiyot

g'ildiragining protektorining yedirib yubormaslik uchun, iloji boricha tezroq shtatdagi g'ildirakning teshilishini ta'mirlang yoki shikastlangan shinani yangisiga almashtiring va ehtiyot g'ildiragini o'z joyiga qaytaring. O'lchami kichraytirilgan ehtiyot g'ildiragining qo'llanilish holatida to'liq yuritma (muvofig jamlanmada), ABS va tortish kuchi nazorati tizimi ehtiyot g'ildiragi o'rnatilishi avtomobil tomonidan aniqlashtirilishi bilanoq, ayniqsa sirpanchiq yo'lda, ishlab ketishi mumkin. G'ildiraklarning yuksiz aylanib ketishidan saqlanish uchun, haydash maqomini muvofig tarzda tanlang.

#### DIQQAT

Avtomobilga kompakt ehtiyot g'ildirakni o'rnatishda g'ildiraklar uchun yo'naltiruvchi relslar bo'lgan yuvish joyiga kirish lozim bo'lmaydi. Kompakt ehtiyot g'ildirak shinaga, g'ildirakka yoki avtomobilning boshqa qismlariga shikast etkazishi mumkin bo'lgan relslarda tiqilib qolishi mumkin.

O'lchami kichraytirilgan zaxira g'ildiragini boshqa avtomobillarda qo'llash kerak emas. Kompakt zaxira g'ildiragidan shinani boshqa g'ildirakka o'rnatish va aksincha, yoki kompakt zaxira g'ildiragi diskini boshqa g'ildirakning diskiga almashtirish kerak emas. Ularning o'lchamlari bir xil emas. Zaxira shinani montajlangan holda zaxira g'ildiragining diskida saqlang.

#### DIQQAT

Sirpanishga qarshi zanjirlar kompakt zaxira g'ildiragiga to'g'ri kelmaydi. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanish avtomobilni yoki zanjirlarning o'zini shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Sirpanishga qarshi zanjirlarni kompakt zaxira g'ildiragiga kiydirmang.

**QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH**

Avtomobil akkumulyatorli batareyasi haqidagi yanada batafsil ma'lumotni Akkumulyatorli batareya ⇨ 9-18 bo'limidan ko'ring.

Agar avtomobilingizning akkumulyatorli batareyasi quvvatsizlangan bo'lsa, boshqa avtomobilning akkumulyatorli batareyasi bilan birlashtirib, dvigatelni boshqa avtomobil yordamida ishga tushirishga urinib ko'ring. Avtomobilni xavfsiz ishga tushirish uchun quyida keltirilgan ehtiyotkorlik choralariga rioya qiling.

**⚠ OGOHLANTIRISH**


Akkumulyatorli batareyalar jarohatga olib kelishi mumkin. Xavf quyidagi sabablar bilan paydo bo'ladi:

- Akkumulyatorli batareyalarda kislota mavjud, u kuydirishi mumkin.
- Akkumulyatorli batareyalarda gaz mavjud, u portlashi yoki yonib ketishi mumkin.
- Akkumulyatorli batareyalarda ahamiyatli tarzda elektr quvvati mavjud, u kuydirishi mumkin.

Agar ushbu ehtiyot choralariga rioya qilinmasa, siz ko'rsatilgan sabablarning biriga yoki barchasiga ko'ra jarohat olishingiz mumkin.

**⚠ DIQQAT**

Ko'rsatilmagan ehtiyotkorlik choralariga rioya qilmaslik avtomobilni qimmat narxga tushadigan shikastlanishiga olib kelishi mumkin, unga nisbatan avtomobilning kafolati rioya qilmaydi. Avtomobilni itarish yoki shatakka olish bilan ishga tushirish natijasiz yakunlanadi, biroq bunda avtomobilga shikast etkazish mumkin.



1. Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyada ishga tushirish uchun manfiy klemma (massa).
2. Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyada ishga tushirish uchun musbat klemma.

3. Quvvatlangan akkumulyatorli batareyaning manfiy klemmasi.

4. Quvvatlangan akkumulyatorli batareyaning musbat klemmasi.

Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyada tashqi manbadan ishga tushirish uchun manfiy klemma (massa) (1) old oyna yuvgich bachogining chap tomonida joylashgan.

Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyada tashqi manbadan ishga tushirish uchun musbat klemma (massa) (2) motor bo'linmasida haydovchi tomonida joylashgan.

Musbat klemma (3) va manfiy klemma (4) avtomobil ishga tushiriladigan akkumulyatorli batareyasida joylashgan.

Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyada tashqi manbadan ishga tushirish uchun musbat klemma dekorativ qopqoq bilan yopilgan. Klemmaga kirish uchun qopqoqni yeching.

1. Boshqa avtomobilni tekshiring. Unda minusi kuzovga ulangan 12-voltli akkumulyatorli batareya o'rnatilgan bo'lishi kerak.



**⚠️ DIQQAT**

Agar boshqa avtomobilda minusi kuzovga ulangan 12-voltli akkumulyatorli batareya o'rnatilmagan bo'lsa ikkala avtomobilga ham zarar yetkazilishi mumkin. Avtomobilingiz dvigatelini ishga tushirish uchun boshqa avtomobildan foydalaning, biroq faqat boshqa avtomobilda minusi kuzovga ulangan 12-voltli akkumulyatorli batareya o'rnatilgan bo'lishi kerak.

2. Avtomobillarni shunday joylashtiringki, ular bir-biriga tegmasligi kerak.  
3. To'xtab turish tormozini yoqing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ↻ 8-15 ni ko'ring.

**⚠️ DIQQAT**

Agar dvigatelni tashqi akkumulatoridan ishga tushirish paytida quvvatlanish rozetkasiga boshqa qo'shimcha uskuna ulangan bo'lsa, bu uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday ta'mirlashlarga kafolat shartlari tarqalmaydi. Qo'shimcha AKB dan ishga tushirishda ikkala avtomobilda ham imkon qadar barcha qo'shimcha uskunalarni o'chirib qo'yish lozim.

4. O't oldirgichni o'chiring.  
Ikkala avtomobilda ham avariya chiroqlaridan tashqari, agar zarur bo'lsa, barcha yorug'lik moslamalarini va qo'shimcha uskunalarni o'chirib qo'ying.

**⚠️ OGOHLANTIRISH**

Elektr ventilyator ishlamaydigan dvigatelda ham ishga tushib ketishi va sizga jarohat etkazishi mumkin. Qo'llar, kiyimlar va instrumentlarni kapot tagidagi elektr ventilyatordan uzoqda tutish lozim.

**⚠️ OGOHLANTIRISH**

Akkumulyatorli batareyani oldida gugurtdan foydalanish elektrolit bug'larini portlashiga olib kelishi mumkin. Bu haqda unutib, ko'pgina odamlar jarohat olgan, ayrimlari esa ko'rish qobiliyatini yo'qotgan. Agar ko'proq yorug'lik kerak bo'lsa, chiroqlardan foydalaning. Akkumulyatorli batareyaning elektrolitida kuydirishi mumkin bo'lgan kislota mavjud. Elektrolitni o'zingizga to'kib yubormang. Agar elektrolit to'satdan ko'zlarga yoki teriga tushsa darhol ularni suv bilan yuvib tashlang va shifokorga murojaat qiling.

**⚠️ OGOHLANTIRISH**

Ventilyatorlar va dvigatelning boshqa harakatlanuvchi detallari jiddiy jarohat etkazishi mumkin. Agar avtomobilning dvigateli ishlayotgan bo'lsa, qo'lingizni harakatlanayotgan detallardan yiroqda tuting.

5. Qizil musbat (+) simning bir uchini quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyaning musbat (+) klemmasiga ulang.
6. Qizil musbat (+) simning boshqa uchini tashqi quvvatlash manbasi sifatida foydalanilayotgan akkumulyatorli batareyaning musbat (+) chiqishiga ulang.
7. Qora manfiy (-) simning bitta uchini quvvatlangan akkumulyatorli batareyaning manfiy (-) polyus chiqishiga ulang.
8. Qora manfiy (-) simning boshqa uchini quvvatsizlangan AKB massasining manfiy (-) klemmasiga ulang.
9. Quvvatlangan akkumulyatorli batareyali avtomobil dvigatelini ishga tushiring va unga yuklamasiz yurishda to'rt daqiqa ishlashga qo'yib bering.
10. Quvvatsizlangan avtomobil batareyasi bo'lgan avtomobilning dvigatelini ishga tushirishga urinib ko'ring. Agar bir nechta urinishlar omadsiz kechsa, ehtimol, texnik ko'rik talab qilinishi mumkin.

 **DIQQAT**

Agar birlashuvchi simlar noto'g'ri tartibda ulansa yoki ajratilsa elektr zanjirda qisqa tutashuv bo'lishi va avtomobilga shikast yetkazilishi mumkin. Bunday ta'mirlarga kaoflat shartlari qo'llanilmaydi. Har doim simlar bir-biriga va metall yuzalarga tegmayotganligiga ishonch hosil qilib, birlashuvchi simlarni tegishli tartibda ulang va ajrating.

**Birlashuvchi simlarni ajratish**

Simlarni ajratish teskari tartibda amalga oshiriladi. Quvvatsizlangan AKB li avtomobilda dvigatel ishga tushirilib, simlar ajratilgandan keyin, dvigatelga yuklamasiz holatda bir necha daqiqa ishlashga qo'yib bering.

**AVTOMOBILNI SHATAKLASH**

 **DIQQAT**

Avtomobilni noto'g'ri shatakka olish qoidalarini buzish turli xil avtomobil tizimlariga zarar yetkazishi mumkin. Avtomobilni maxsus kamarlar bilan g'ildiraklarning orqasida evakuator platformasida o'rnatilishi kerak. Avtomobilni kamar yoki ilgaklar bilan quyidagi ramkaga, pastki qismga yoki osma elementlariga mahkamlash taqiqlanadi. Agar oldi yetakchi g'ildirak erda bo'lsa, avtomobilni ko'chirish taqiqlanadi. Bunday holda zarar kafolatlanmaydi.

 **DIQQAT**

Avtomobil elektromexanik to'xtash tormozi va / yoki mexanik uzatmalarni tanlash moslamasi bilan jihozlanishi mumkin. 12 voltli akkumulyator zo'riqishida elektromexanik to'xtash tormozi o'chadi va neytral holatga o'tish mumkin bo'lmaydi. Avtoullovni yuklash jarayonida, shikastlanmasligi uchun, qulflangan g'ildiraklar ostiga maxsus aravachalarni o'rnatish kerak. Avtomobilni tortib olish natijasida yuzaga kelgan zararni ta'mirlash kafolatlanmaydi.

**⚠️ DIQQAT**

Avtomobil shatak qozig'i bilan jihozlanishi mumkin. Shatakka olish qozig'ini ishlatish qoidalarini buzish avtomobilga zarar etkazishi mumkin va bu holda ta'mirlash kafolatlanmaydi. Agar sizning transport vositangiz shatakka olish qozig'i bilan jihozlangan bo'lsa, transport vositangizni evakuatorga yuklash yoki piyodalar tezligida qisqa masofaga tortish uchun foydalaning. Shatak qozig'i notekis yo'l sharoitlarida foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Shatakda foydalanganda neytral uzatishni ulang va elektromexanik to'xtash tormozini o'chiring.


Agar sizga ishdan chiqqan transport vositasini tashish kerak bo'lsa, yordam uchun ixtisoslashgan transport kompaniyasiga murojaat qiling. GM shikastlangan transport vositasini tashish uchun evakuatordan foydalanishni tavsiya qiladi. Agar kerak bo'lsa, yaqinlashish burchagini kamaytirish uchun panduslardan foydalaning.

Shatakka olish qozig'i (agar jihoz tomonidan taqdim etilgan bo'lsa) ehtiyot g'ildirak yoki domkrat yonida saqlanadi. Qor, loy, qum yoki zovurga tiqilib qolgan transport vositasini tortib olish uchun shatak qozig'ini ishlatmang. Shatakda o'ng yoki chap qo'l tomonida rezba bo'lishi mumkin.


Shatak qozig'ini o'rnatish yoki olib tashlashda ehtiyot bo'ling.

Avtotransport vositasini evakuatorga yuklashda neytral holatga keltiring va elektromexanik to'xtash tormozini o'chiring.

- Agar 12 voltli akkumulyator zaryadsizlangan bo'lsa yoki elektromexanik to'xtash tormozi ushlamayotgan bo'lsa, transport vositasi harakatlana olmaydi. Avtotransport vositasini yaxshi ekanligi ma'lum bo'lgan tashqi 12 voltli akkumulyator bilan ishga tushirishga harakat qiling, neytral uzatishga o'tqazing va elektromexanik to'xtash tormozini o'chiring.
- Agar bu vaziyatda ham ishlamasa, avtomobilni ko'chirish mumkin bo'lmaydi. Agar avtomobilning g'ildiragi aylanmasa, shikastlanishga yo'l qo'ymaslik uchun g'ildiraklar ostida maxsus g'ildirakli aravalardan foydalaning.

**Shatakli old zo'g'ota**

Mavjud bo'lgan o'yiqdan foydalanib, old shatak zo'g'otasini yopib turuvchi qopqoqni ehtiyot qilib oching.




## AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISHLASH

Shatak zo'g'otasini iniga joylashtiring va uni oxirigacha burab mahkamlang  
Old shatak zo'g'otasini yechgandan keyin o'yiqli qopqoqni joyiga o'rnatang.

### Orqa shataklash zo'g'otasi

Tortish-ilakishish qurilmali avtomobillarning orqasida shataklash zo'g'otasini qotirish uchun joy ko'zda tutilmagan.

Evakuatorga avtomobilni yuklash uchun tortish-ilakishish qurilmasini qo'llash mumkin.



Mavjud bo'lgan o'yiqni qo'llab, orqa shataklash zo'g'otasini qotirish uchun tirqish joylashgan qopqoqni (agar butlanganlik bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) avaylab ilib oling.

### Qulflar

Qulflar zavodda moylangan.

Muzdan tushirish vositasidan faqat o'ta zaruratda foydalaning; bunday vositalarni qo'llagandan keyin qulfni konsistentli moy bilan moylang.

### Avtomobilni yuvish

Avtomobilni lak bo'yoqli qoplamasini yaxshi holatda saqlab qolish uchun, uni muntazam ravishda yopiq xonada yoki soyada yuving.

### ⚠️ DIQQAT

Neft mahsulotlari asosidagi tozalash vositalaridan, shuningdek o'tkir yoki abraziv vositalardan foydalanmang, chunki bu lak bo'yoqli qoplamaning, metall va plastmassa detallarni shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilga shikast yetkazilganida ularga nisbatan kafolat qo'llanilmaydi.


Ruxsat etilgan tozalash vositalarini dilingizdan olishingiz mumkin.

Mahsulotdan tegishli ravishda foydalanishga, zarur ehtiyot choralariga va avtomobilni parvarishlash bo'yicha har qanday vositani utilizatsiya qilishga nisbatan ishlab chiqaruvchining barcha ko'rsatmalariga rioya qiling.

### ⚠️ DIQQAT

Yuvish forsunkalari avtomobil kuzovi yuzasidan 30 sm (12 dyuym) dan yaqin joylashgan avtomobil yuvish shaxobchalaridan foydalanmang. 8 274 kPa (1200 funt/kv. dyuym) dan yuqori bosimda ishlaydigan uskunadan foydalanish lak bo'yoq qoplamaning shikastlanishiga yoki yorilishiga yoki nakleykalarni ko'chib ketishiga olib kelishi mumkin.

### ⚠️ DIQQAT

Motor bo'linmasida  belgisi bo'lgan komponentlarni tozalashda yuqori bosimdagi yuvish uskunasiidan foydalanish mumkin emas.

Bu shikastlanishga olib kelishi mumkin, unga kafolat shartlari tarqalmaydi.

Avtomatik yuvishdan foydalanishda avtomobilni yuvish yo'riqnomasiga rioya qiling. Old oyna tozalagichini va, jamlanmada mavjud bo'lsa, orqa oyna tozalagichini echish zarur. Shikastlanishi mumkin bo'lgan yoki avtomobilni yuvish uskunasi qo'ldan beradigan barcha aksessuarlarni yechib oling.

Avtomobilni yuvishdan oldin va barcha tozalash vositalarini bartaraf etish uchun yuvishdan keyin yaxshilab yuvib tashlang. Agar tozalash vositalari quriyidigan yuzada qolsa, ular dog'larni hosil qilishi mumkin. Yuzada timalishlar va suv dog'lari qolishini oldini olish uchun qoplama yuzasini yumshoq toza zamsha yoki paxta tolali sochiqcha bilan quruq qilib artib tashlang.

### Lak bo'yoq qoplamaning parvarishlash

Qandaydir qo'shimcha himoya qoplamalarini surtish yoki kuzovga mum bilan ishlov berish tavsiya etilmaydi. Lak bo'yoq yuzasida shikastlanish topilganda shikastlanishni baholash va uni bartaraf etish uchun dilerga murojaat qilish zarur. Kaltsiy xloridi va boshqa tuzlar, muz erituvchi vositalar, yo'l moyi va bitum, daraxt shirasi, qushlar go'ngi, sanoat tutun trubalaridan chiqadigan ximikatlar va boshqalar kabi o'zga materiallar bo'yalgan yuzalarda uzoq vaqt qolganida avtomobil kuzovining lak bo'yoqli qoplamasini shikastlashi mumkin.

Avtomobilni imkon qadar tezroq yuvish lozim. Zarurat bo'lganida qadog'ida bo'yalgan yuzalar uchun xavfsiz va o'zga moddalarni bartaraf etishi ko'rsatilgan noabraziv yuvish vositalaridan foydalaning.

Ayrim hollarda lak bo'yoqli qoplama yuzasidan qurimni bartaraf etish uchun mumni qo'lda surtish mumkin yoki polirotka qilish mumkin.

Tavsiya etilgan tozalash vositalari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

Plastmassa, sun'iy teri yoki rezinadan tayyorlangan himoyalangan yuzalarda, nakleykalarda, daraxtni imitatsiyalovchi bezak elementlarida, shuningdek bo'yalgan yuzalarda mum yoki polirotadan foydalanmang, chunki bu ularni shikastlanishga olib kelishi mumkin.

### ⚠️ DIQQAT

Asos bo'yoq/shaffof lakga avtomatik ishlov berish yoki agressiv polirotka qilish lak bo'yoqli yuzani shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobil qoplamasining asosiy bo'yog'i/shaffof laki uchun mo'ljallangan faqat noabraziv mum yoki polirotadan foydalaning.

Bezak bo'yoqli qoplama yangidek ko'rinishi uchun avtomobilni garajda yoki, imkon qadar, g'ilofda saqlang.

### Tashqi yaltiroq metall moldinglarni himoya qilish

#### ⚠️ DIQQAT

Tashqi yaltiroq moldinglarni o'z vaqtida tozalamaslik va himoya qilmaslik oq dog'larni yoki nuqtali korroziyani paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishga kafolat shartlari amal qilmaydi.

Avtomobildagi yaltiroq metall nakladkalar alyuminiy, xrom yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan. Shikastlanishlarni bartaraf etish uchun tozalash bo'yicha qo'yidagi yo'riqlarga qat'iy rioya qilish zarur:

- Yuvish eritmasini surtishdan oldin teginganda molding sovuqligiga ishonch hosil qiling.
- Alyuminiy, xrom yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan moldinglarni tozalash uchun faqat tavsiya etilgan yuvish vositalaridan foydalaning. Ayrim yuvish vositalarining tarkibida kislotalar yoki ishqorlar bo'lishi mumkin va moldinglarni shikastlashi mumkin.
- Kontsentratsiyalangan yuvish vositalarini ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalariga qat'iy rioya qilib aralashtirish lozim.
- Avtomobilni parvarishlash uchun mo'ljallanmagan yuvish vositalaridan foydalanmang.

- Yuvishdan keyin avtomobilga moldingni yakuniy qoplamasini himoya qilish va xizmat muddatini uzaytirish uchun noabraziv mumni surting.

### Tashqi yorug'lik texnikasini, naqshlarni va moldinglarni tozalash

Tashqi yorug'lik jihozlarni, sochg'ichlarni, naqsh elementlarini, nakleykalar va moldinglarni tozalash uchun faqat iliq yoki sovuq suvdan, yumshoq latta va maxsus avtomobil shampunidan foydalaning. Ushbu bo'limning yuqoridagi "Avtomobilni yuvish" paragrafida keltirilgan yo'riqnomasiga rioya qiling.

Chiroqlarning plafoni plastikdan tayyorlangan va ularning ayrimlarida ultrabinafshadan himoyalovchi qoplama mavjud. Ularni quruq holatida tozalamang va artmang.

Chiroqlar plafoniga quyidagilarni qo'llamang:

- Abraziv yoki tarkibida ishqorlar bo'lgan vositalar.
- Ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan konsentratsiyadan yuqori konsentratsiyada bo'lgan yuvgich suyuqliklari yoki boshqa yuvish vositalari.
- Eritmalar, spirtlar, yoqilg'i yoki boshqa dag'al yuvish vositalari.
- Muz ko'chirgichlari yoki boshqa qattiq predmetlar.
- Ortiqcha qizib ketishi sababli, bozorda taklif etilayotgan chiroqlarni yoqish paytida ishlatiladigan nakladkalar yoki qalpoqlar.

#### ▲ DIQQAT

Chiroqlarni tegishli ravishda tozalash bo'yicha talablarga rioya qilmaslik chiroq plafonini shikastlanishiga olib kelishi mumkin, unga avtomobilga bo'lgan kafolat shartlari qo'llanilmaydi.

#### ▲ DIQQAT

Chiziqlarning qora xira bezagida mumni qo'llash yuzaga jilo berishi mumkin va qoplamaning notekisligiga olib kelishi mumkin. Xira chiziqlarni faqat sovuq eritmasi bilan tozalash lozim.

### Havoto'plagich

Avtomobilni yuvish paytida kapot va old oyna o'rtasida joylashgan havoto'plagichdan kirlarni tozalab tashlang.

### Radiator jalyuzisi



Avtomobil yoqilg'ini tejashga imkon beruvchi radiator jalyuzilari bilan jihozlanishi mumkin. Jalyuzilarni ishchi holatida ushlab turish uchun ularni muntazam tozalab turish lozim.

### Old va orqa oyna tozalagichlarining cho'tkalari

Old oynani tashqarisidan oynalar uchun tozalash vositasi bilan tozalab tashlang. Oyna tozalagichlarining rezina cho'tkalarini old oyna yuvgichi uchun suyuqlikda yoki yumshoq yuvish vositasida namlangan tola qoldirmaydigan latta yoki qog'ozli sochiqcha bilan tozalab tashlang.

Oyna tozalagich cho'tkalari tozalangandan keyin old oynani yaxshilab yuvib tashlang. Hasharotlarning izi, yo'l qurimi, o'simliklarning shirasi va ximikatlarning cho'kindisi avtomobilni yuvishdan/mum bilan ishlov berishdan so'ng oyna tozalagich cho'tkalarini g'ichirlashiga olib kelishi mumkin.

Agar oyna tozalagichlarning cho'tkalari yemirilgan yoki shikastlangan bo'lsa, ularni almashtiring. Shikastlanishlar avtomobilni yuqori changlik sharoitida, qum, tuz, yuqori harorat, quyosh nuri, qor ta'siri ostida ekspluatatsiya qilishda va muzlash natijasida paydo bo'lishi mumkin.

### Rezina zichlagichlar

Agar eshik yoriqlarini rezina zichlagichlari zichlagichlar uchun moy bilan moylab turilsa, ular uzoqroq xizmat qiladi, yanada ishonchli germetizatsiyani ta'minlaydi, yopishmaydi va g'ichirlamaydi. Rezina zichlagichlarini yiliga kamida 1 marta moylab turing. Issiq, quruq iqlim sharoitlarida yanada ko'proq moylab turish talab qilinishi mumkin. Lak bo'yoqli qoplamali yuzalardan zichlagichlardan qoldirilgan qora izlarni bu joyni toza latta bilan artib yo'qotish mumkin.

### Shinalar

Shinalarni tozalashda shinalar uchun yuvish vositasi bilan dag'al cho'tkadan foydalaning.

#### DIQQAT

Neft asosidagi shinalarga ishlov berish mahsulotidan foydalanish lak bo'yoq yuzasini va/yoki shinalarni shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Shinalarga ishlov berish vositasi surtilgandan keyin avtomobilning bo'yalgan kuzovi ustidan har doim uning ustiga tushgan aerazol vositasining qatralari/tomchilarini o'chirib tashlang.

### G'ildiraklarning diskleri va qalpoqlari

G'ildiraklarni tozalash uchun yumshoq toza mato va kuchsiz sovun eritmasidan foydalaning. Toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlangandan keyin diskleri yumshoq toza sochiq bilan quruq qilib artib tashlang. Shundan keyin mumni surtish mumkin.

#### DIQQAT

Agar avtomobil xloridli magniy, xlorid yoki xloridli kalsiy sepilgan yo'ldan yurgandan keyin yuvilmasa, xromlangan g'ildirak diskleri va xromlangan qalpoqlar shikastlanishi mumkin. Mazkur reagentlar chang va muz bilan qoplangan yo'llarda qo'llaniladi. Ifloslanishlar ta'siridan keyin har doim xromlangan qoplamalarni sovunli suvda yuving.

 **DIQQAT**

Disklar va g'ildiraklarning qalpoqlarini shikastlanishini oldini olish uchun kontsentratsiyalangan sovunli suvlardan, ximikatlar, polirotovka uchun abraziv vositalar, tozalash vositalari va cho'tkalardan foydalanmang. Faqat GM tomonidan tavsiya etilgan tozalash vositalaridan foydalaning. Avtomobilni shinalar/disklarni yuvishda kremniy karbidli cho'tkalar ishlatiladigan avto yuvish shahobchalarida yuvmang. Bu diskarni shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatda ta'mirlash kafolati hisoblanmaydi.

**Tormozlash tizimi**

Tormoz tizimi gidrouzatmasining shlang va trubalarini ko'zdan kechiring. Ular ishonchli mahkamlangan va ulangan bo'lishi kerak, ularda bukilgan joy, oqib ketishlar, yoriqlar, ishqalanmalar va boshqa nuqsonlar bo'lmashligi kerak.

Tormoz kolodkalarini yemirilish belgilari mavjudligiga tekshirib chiqing, disklar yuzasining holatini tekshiring. Barabanli tormoz mexanizmlari kolodkalarini yemirilish yoki yoriqlar mavjudligiga tekshirib chiqing. Tormoz tizimining boshqa elementlarini ko'zdan kechiring.

**Rul boshqaruvining detallari, osmalar va shassi**

Yiliga kamida bir marta rul boshqaruvin, osmalarni va yurish qismini shikastlanishlar, bo'shab qolgan qotirmalar, detallarning yo'qligi yoki yuqori yemirilish belgilari mavjudligiga nisbatan ko'rib chiqing.

Rul boshqaruvi magistrali va kuchaytirish shlangini qotirma va birikmalarning ishonchililigiga, bukilishlar, razgermetizatsiya, yoriqlar, yemirilishlar va boshqa nuqsonlar mavjudligiga nisbatan ko'rib chiqing.

Teng burchakli tezliklar sharnirlarining himoya rezina g'illoflarini tekshirib chiqing va yarim o'qlar salniklarini razgermetizatsiya belgilarini mavjudligiga tekshirib chiqing.

**Kuzov detallarini moylash**

Plastmassadan ishlangan detallardan tashqari quflarning barcha silindrlarini, kapot ilgaklarini, ko'tarma eshik ilgaklarini, yoqilg'i quyish bo'yni po'lat qopqog'ining ilgaklarini va elektr uzatmali oyoq ostilarini moylab turing. Agar eshik yoriqlarining rezinali zichlagichlari toza latta bilan surtib silikonli vazelin bilan moylansa, ular uzoq xizmat qiladi, yanada ishonchli germetizatsiyani ta'minlaydi, yopishmaydi va g'ichirlamaydi.

**Kuzov tubiga texnik xizmat ko'rsatish**

Kuzov tubini korroziyali ifloslanishlardan yiliga kamida ikki marta tozalang (bahor va kuzda).

Buning uchun uni tozalash vositalarini qo'shmasdan oddiy suv bilan yuvib tashlang. Kir yig'ilish joylarini yaxshilab yuvib tashlang.

Bosim ostidagi suv oqimini tarqatma qutining salniklariga va (yoki) old va orqa ko'priklarning reduktorlariga yo'naltirmang. Bosim ostidagi suv salniklar orqali kirib moy bilan aralashib ketishi mumkin. Moydagi suv tarqatma quti va (yoki) ko'priklar resursini pasayishiga olib kelishi mumkin. Suv tushgan moyni almashtirish lozim.

**Listlangan metallni shikastlanishi**

Agar avtomobil shikastlangan bo'lsa va ta'mir yoki listlangan metallni almashtirishni talab qilsa, kuzovni ta'mirlash ustaxonasida ta'mirlangan yoki almashtirilgan detallarga korroziyadan himoyasini tiklash uchun korroziyaga qarshi modda surtilishiga ishonch hosil qiling.

Firmali almashtiriladigan detallar avtomobilga bo'lgan kafolati saqlab qolish uchun korroziyadan saqlanadi.



### **Lak bo'yoqli qoplamani shikastlanishi**

Korroziya rivojlanishini oldini olish maqsadida mayda yoriqlar va tirnamalarni maxsus niqoblovchi vositalar bilan operativ tarzda bartaraf etish lozim, ularni dilerdan xarid qilish mumkin. Lak bo'yoqli qoplamaning katta shikastlangan sohaslarini kuzov ustaxonasida va dilerning bo'yash sexida ta'mirlash mumkin.

### **Lak bo'yoqli qoplamalarda ximikatlardan qolgan dog'lar**

Havoda mavjud bo'lgan agressiv moddalar kuzov paneliga cho'kishi va lak bo'yoq qoplama bilan reaksiyaga kirishib, uning yuzasida dumaloq va rangi o'chgan va notekis taqsimlangan to'q dog'larni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mazkur bo'limning yuqorisidagi "Lak bo'yoq qoplamani parvarishlash" qismiga qarang.

### **Avtomobil salonini parvarishlash**

Kir va chang mayda zarrachalarining abraziv ta'siridan tirnamalarni oldini olish uchun avtomobil salonini muntazam tozalab turish zarur. Barcha ifloslanishlarni darhol tozalab turish lozim. Gazeta va to'q kiyimlarning bo'yoqlari salon qoplamasining elementlarini kir qilishi mumkin.

Dastak va asbob-uskunalar panelidagi chuqurchalarni tozalash uchun yumshoq tukli cho'tkadan foydalaning. Salon qoplamasini elementlariga tushgan qo'llar uchun kremlar, qu'yoshdan himoyalovchi kremlar va hasharotlarga qarshi vositalarni (repellentlarni) darhol kuchsiz sovunli eritma bilan artib tashlash kerak, aks holda ular qoplamaga zarar etkazishi mumkin.

Qoplama materiallarini shikastlamalik maqsadida tozalanadigan materialning turiga qarab tozalash vositalarini tanlash lozim. Tozalash vositasini bevosita siz tozalash uchun ishlatadigan lattaga purkang.

Tozalash vositasini o'zgartirgichlarning dastak va klavishalariga purkamang. Surtilgan tozalash vositalarini iloji boricha tezroq yo'qotish kerak.

Tozalash vositalaridan foydalanishdan oldin nakleykaning qadog'ida keltirilgan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha barcha yo'riqnomalarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.

Kerakli ventilyatsiyani ta'minlash maqsadida salonn tozalash vaqtida eshik va oynalarni ochib qo'ying.

Shikastlanishlarni oldini olish maqsadida avtomobil salonini pastda sanab o'tilgan tozalash vositalari bilan tozalash va quyida keltirilgan tozalash usullaridan foydalanish taqiqlanadi:

- Salonning har qanday yuzalaridan ifloslanishlarni yo'qotish uchun tig' va boshqa o'tkir predmetlardan foydalanish taqiqlanadi.
- Dag'al tukli cho'tkalardan foydalanmang.
- Tozalanadigan yuzalarni juda jadal artmang va ortiqcha kuch sarflamang.
- Tarkibida yog'sizlantiruvchi ingredientlar bo'lgan kir yuvish kukuni yoki idish yuvish mashinalari uchun vositalardan foydalanmaslik kerak. Suyuq tozalash vositalarini 3,8 l (1 gallon) suvga taxminan 20 tomchi vosita qo'shib aralashtirish kerak. Kuchli sovunli eritma yuzalarda chang tortuvchi dog'larni qoldiradi. Kuchli ta'sir ko'rsatuvchi yoki natriyli sovun eritmalaridan foydalanmaslik kerak.
- Tozalash paytida salon qoplamasini suyuqlik bilan o'ta shimdirish kerak emas.
- Eritmalardan va tarkibida eritmalar bo'lgan tozalash vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

### Oynalar

Tozalash uchun suvda namlangan maxer mato bo'lagidan foydalanish zarur. Yuzalarda qolgan tomchilarni quruq mato bilan arting. Zarurat bo'lganida oddiy suv bilan yuvgandan keyin yanada yaxshiroq tozalash uchun oynani tozalash uchun maxsus vositalardan foydalanish mumkin.

#### DIQQAT

Tirnamalar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun avtomobil oynasini abraziv tozalash vositalari bilan yuvmaslik kerak. Abraziv va agressiv tozalash vositalari orqa oynadagi isitish elementlarini shikastlashi mumkin.

Ekspluatatsiya qilishning dastlabki uch-olti oyi mobaynida terlashga moyilligini kamaytirish uchun old oynani suv bilan yuving.

### Dinamik qoplamasi

Dinamikka zarar etkazmaslik uchun dinamik qoplamasi atrofini changyutgich bilan ehtiyotkorlik bilan tozalang. Dog'larni yo'qotish uchun kuchsiz sovunli eritmadan foydalaning.

### Dekorativ moldinglar

Ifloslangan dekorativ moldinglarni tozalash lozim.

- Agar ifloslanish kuchli bo'lmasa, bu joyni suvda namlangan gubka yoki junsiz yumshoq mato bilan artib tashlang.
- Agar ifloslanish kuchli bo'lsa tozalash uchun iliq suvdagi sovun eritmasidan foydalaning.

### Mato, gilamchalar, zamsha

Avvalombor salonnii yumshoq junli cho'tkali nasadka bilan changyutgichda tozalab chiqing. Aylanuvchi cho'tkali nasadkani pol gilamchalarini tozalashda qo'llash lozim.

Tozalashdan oldin imkon qadar kirlarni ko'proq qo'lda tozalab tashlashga harakat qiling:

- To'kilgan suyuqlikni ehtiyotkorlik bilan qog'oz salftkaga shimitib yo'qotish zarur. Ifloslanish yo'qolayotganida shimitishni davom ettiring.
- Qattiq ifloslanishlarni changyutgichdan foydalanishdan oldin imkon qadar qo'lda tozalash zarur.

Tozalash uchun:

1. Oddiy suvda junsiz, bo'yalmaydigan matoni namlang. Qoplama matolarini yoki gilamchalarni jun bilan ifloslanishini oldini olish maqsadida mikrotolali mato bo'lagidan foydalanish tavsiya etiladi.
2. Lattani yaxshilab siqing.
3. Tozalashni ifloslanishning tashqi chetidan boshlang va uni ehtiyotkorlik bilan o'rtaga artib

boring. Kir surtilishini oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan lattani taxlang va toza tomonini tozalanadigan yuzaga qarating.

4. Latta kir bo'lmaydigan holatgacha tozalanadigan yuzani artishni davom ettiravering.

5. Agar kir to'liq yo'qolmagan bo'lsa, kuchsiz sovunli eritmadan foydalaning, uni keyin faqat oddiy suv bilan yuvib tashlash kerak.

Agar kir to'liq yo'qolmagan bo'lsa, maxsus tozalash vositalaridan yoki dog' yo'qotuvchilardan foydalanishga to'g'ri keladi. Savdoda mavjud bo'lgan qoplama uchun yuvish vositasidan yoki dog' yo'qotuvchidan foydalanishdan oldin kichik yashirin sohada uning rangini turg'unligini tekshirib ko'ring. Izlar paydo bo'lsa qoplama yoki gilamlarning butun yuzasini tozalash lozim.

Tozalash yakunlangan keyin namni yo'qotish uchun qog'oz salftkalardan foydalanish mumkin.

### Axborot ko'ngilochar tizimning polirovka qilingan detallari va displeylarini tozalash

Axborot ko'ngilochar tizimning polirovka qilingan detallari va displeylarini tozalash uchun mikrofibrali salftkalardan foydalaning. Avval yumshoq tukli cho'tka bilan yuzani tirnashi mumkin bo'lgan kirlarni yo'qoting.

Keyin mikrofibrali salftetka bilan yuzani artib tashlang. Shu maqsadlarda oynalarni tozalash uchun vositalarni yoki eritmalarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Vaqti-vaqti bilan mikrofibrali salftetkani kuchsiz sovunli eritmada boshqa narsalardan alohida yuving. Oqartirgichlar va konditsionerlardan foydalanish taqiqlanadi. Foydalanishdan oldin salftetkani yaxshilab chayish va quritish zarur.

**▲ DIQQAT**

Displayga so'rg'ich yordamida hech qanday predmetlarni mahkamlamang. Bu shikastlanishga olib kelishi mumkin, unga kafolat shartlari tarqalmaydi.

**Asbob-uskunalar paneli, terili, vinilli, boshqa plastik yuzalar, xira bo'yalgan yuzalar va tabiiy daraxtli ochiq-g'ovakli ishlov berilgan yuzalar**

Chang va kirlarni tozalashda mikrotolali mato bo'lagidan foydalaning.

Agar yanada sinchkov tozalash kerak bo'lsa, mikrotolali mato bo'lagini kuchsiz sovun eritmasida namlang.

**▲ DIQQAT**

Ortiqcha namlash teriga, ayniqsa perforatsiyalangan teriga, shuningdek qoplamaning boshqa materialariga shikast etkazishi mumkin.

Tozalash yakunlangandan keyin ortiqcha suvni bartaraf etish uchun bunday materiallarning yuzalarini artib tashlang va, ularning o'zi qurimaguncha, kutib turing. Isitish, bug'dan yoki dog'larni yo'qotuvchilardan foydalanish mumkin emas. Tarkibida silikon yoki mum bo'lgan tozalash vositalaridan foydalanish mumkin emas. Tarkibida ko'rsatilgan moddalar bo'lgan tozalash vositalari terini va qoplamaning boshqa yumshoq materiallarini tashqi ko'rinishini va fakturasini qaytmas darajada o'zgartirib yuborishi mumkin, shuning uchun ularidan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Ortiqcha yaltiratadigan yuvish vositalaridan foydalanish kerak emas, ayniqsa asbob-uskunalar panelini tozalashda. Panel qoplamasining aks ettirish qobiliyatini oshishi muayyan holatda yon oyna orqali obzorni yomonlashtirishi mumkin.

**▲ DIQQAT**

Havo soflagichlardan foydalanish plastmassa va bo'yalgan yuzalarni shikastlashi mumkin. Havo soflagich plastmassa yoki bo'yalgan yuzaga tushganida uni darhol kuchsiz sovun eritmasida namlangan tuksiz yumshoq mato bo'lafi bilan tozalab tashlash kerak. Havo soflagichlari tomonidan keltirilgan shikastlarga kafolat shartlari qo'llanilmaydi.

**Yukxona qopqog'i va to'ri**

Tegishli jamlanma mavjudligida uni kuchsiz tozalash vositasi qo'shilgan iliq suvda yuving. Tarkibida xlor mavjud bo'lgan oqartiruvchilardan foydalanish mumkin emas. Sovuq suvda chayib tashlang va quritib oling.

**Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash**

Xavfsizlik kamarlarini toza va quruq holda tuting.

### ⚠ OGOHLANTIRISH

Xavfsizlik kamari lentasini oqartirmang va bo'yamang. Bu to'qima tasmani sezilarli tarzda zaiflashtirishi mumkin. Avariya holatida kamarlar tegishli himoyani ta'minlamasligi mumkin. Xavfsizlik kamarlarini tozalash va yuvishda faqat yumshoq sovun va iliq suvdan foydalaning. To'qilgan tasmani quriting.

### Pol gilamchalari

### ⚠ OGOHLANTIRISH

Agar pol gilamchasi noto'g'ri o'lchamda yoki noto'g'ri yotqizilgan bo'lsa, u pedallarni bosishga halaqit berishi mumkin. Pedallarga etishni cheklovchi to'siqlar to'satdan tezlikni oshishiga va/yoki tormoz berish masofasini oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa avariya yoki jarohatga olib kelishi mumkin. Gilamcha pedallarni bosishga halaqit qilmayotganligiga ishonch hosil qiling.


Pol gilamchalaridan tegishli ravishda foydalanish uchun quyidagi ko'rsatmalarga rioya qiling.

- Sizning avtomobilingizda faqat firmali pol gilamchalari ishlatilishi kerak. Agar pol gilamchalarini almashtirish kerak bo'lsa, GM

kompaniyasi tomonidan sertifikatlangan pol gilamchalarini xarid qilish tavsiya etiladi. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning pol gilamchalari sizning avtomobilingizga aniq tushmasligi mumkin va akselerator va/yoki tormoz pedaliga halaqit berishi mumkin. Pol gilamchalari pedallarni harakatlanishiga halaqit bermasligiga albatta ishonch hosil qiling.

- Agar uni mahkamlash imkoniyati nazarda tutilmagan bo'lsa, gilamchani haydovchining oyog'i ostiga to'shash kerak emas.
- Pol gilamchalarini tegishli tomonini yuqoriga qaratib to'shang. Gilamchalarni ag'darmang.
- Haydovchi tomonidan pol gilamchasining ustiga hech narsa qo'ymang.
- Haydovchi tomonidan faqat bitta pol gilamchasi bo'lishi kerak.
- Pol gilamchalarini ustma-ust to'shamang.

### Pol gilamchasini yechish va almashtirish



Haydovchi tomonida joylashgan pol gilamchasi joyida ikkita fiksator yordamida mahkamlanadi.

- Fiksatoridan ajratish va yechish uchun pol gilamchasining orqa tarafidan yuqoriga qaratib ko'taring.
- Gilamchani joyiga o'rnatish uchun teshiklarini fiksatorlar bilan birlashtirib yotqizing va mahkamlang.
- Pol gilamchasi joyida tegishli ravishda mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Gilamcha pedallarni bosishga halaqit qilmayotganligiga ishonch hosil qiling.

**Rezina tagliklarni tozalash (barcha mavsumdagi tagliklar va pol qoplamalar)**

 **OGOHLANTIRISH**

Tarkibida silikon bo'lgan tozalagichlardan, mumga asoslangan mahsulotlardan yoki rezinali pol tagliklari/qoplamalariga sayqal beruvchi vositalardan foydalanish ta'qiqlanadi. Ushbu tozalagichlar rezinaning ko'rinishini va sifatini tuzatib bo'lmaydigan darajada o'zgartirishi mumkin va pol tagliklari/qoplamalarini sirpanchiq qilib qo'yishi mumkin. Haydash paytida oyog'ingiz toyib ketishi, boshqaruvni yo'qotishingiz mumkin, natijada transport hodisasi sodir bo'lishi mumkin. Bu odamlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Chang va quruq kirni tozalash uchun yumshoq, nam mato va/yoki suv bilan namlangan cho'tkadan foydalaning. Yaxshilab tozalash uchun yengil sovun eritmasidan foydalaning.



# 10

## TEXNIK MA'LUMOTLAR

---

- UMUMIY MA'LUMOT ..... 10-2
- AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSION  
MA'LUMOTLARI ..... 10-3
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNING  
ISH TARTIBI ..... 10-4
- AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI .....10-8
- IZOHLAR ..... 10-10

## UMUMIY MA'LUMOT

### Maxsus ma'lumot

Avtomobilni tejamkor va xavfsiz ishlatish va uni yaxshi holatda tutib turish uchun o'rnatilgan davriylik bilan avtomobilning texnik xizmat ko'rsatilishini bajarish zarur.

### Tasdiqlash ishlatish bo'yicha

Qo'llanmaga yozib qo'yilgan servis haqidagi ro'yxatdan o'tish ma'lumoti. Sana va bosib o'tilgan masofa texnik xizmat ko'rsatish stansiya muhri va Chevrolet dileri vakili imzosi bilan tasdiqlanadi.

Servis kitobchasi majburiy tartibda qayd etilishi kerak bo'lgan ish tartibidagi TXK dan o'tish haqidagi belgilar bilan to'g'ri to'ldirilayotgani ustidan nazorat qilib boring. Bu kafolat e'tirozlarini taqdim etish uchun majburiy sharoit hisoblanadi.

### Qo'shimcha texnik xizmat ko'rsatish

#### Ishlatishning og'ir sharoitlari

Quyidagilar ishlatishning og'ir sharoitlariga taalluqli bo'ladi:

- 10 km/dan kam bo'lgan qisqa masofalarga tez-tez qatnash;
- Avtomobilning uzoq vaqt davomida turib qolishi va/yoki avtomobilning tez-tez to'xtashlar tartibida past tezlikda harakatlanishi;
- Changlangan hududlarda avtomobilni boshqarish;

- Avtomobilni tepaliklar va tog'larda boshqarish;
- Tirkamani shatakka olish;
- Avtomobilni atrof-muhit harorati 32°C yoki undan yuqori shahar sharoitlarida boshqarish;
- Avtomobildan taksi yoki yuk tashuvchi sifatida ishlatish.
- 0°C dan past atrof-muhit haroratida dvigatelni tez-tez ishga tushirish;
- Avtomobilning tegishli bo'lmagan xarakteristikali yonilg'i, yomon sifatli yonilg'i va/yoki past oktan sonli yonilg'larda ishlatish. Ishlatish bo'yicha Qo'llanmada "TAVSIYA ETILUVCHI YONILG'I" ni ko'ring.

Ekstremal sharoitlarda ishlashda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ba'zi rejadagi ishlar rejalashtirilgan oraliqlarga qaraganda ancha qisqa oraliqlarda talab etilishi mumkin.

Zaruriy davriylikni va texnik xizmat ko'rsatish tartibini aniqlashtirish uchun texnik maslahatchiga murojaat qiling.

### Murakkab (ekstremal) sharoitlarda ishlatishda

xizmat ko'rsatilishini tez-tez o'tkazilishi talab etiladi

- Jamoat transporti, harbiy mo'ljallangan yoki tijoratda qo'llaniladigan avtomobillar, jumladan:
  - Shoshilinch yordam, politsiya va avariya-qutqaruv xizmati avtomobillari.
  - Fuqarolik mo'ljallangan avtomobillar,

masalan, kam tonnali yuk avtomobillari, harbiy maqsadlarda qo'llaniladigan vnedorojniklar va engil avtomobillar.

- Texnik yordam avtomobillari, masalan, shatakchi va bitta avtomobil evakuatsiyachisi yoki tirkamalarni yoki boshqa yuklarni shataklash uchun doimiy ishlatiladigan har qanday avtomobillar.
- Tijorat maqsadlarida jadal ishlatiladigan avtomobillar, masalan, kuryerlik xizmati avtomobillari, xususiy qo'riqlash xizmatlari avtomobillari yoki tunu-kun ishlaydigan har qanday boshqa avtomobillar.
- Havoda qum va chang yuqori darajada mavjud bo'lgan zonalarda doimiy ishlatiluvchi har qanday avtomobillar, masalan neft quvurlarida va shunga o'xshash joylarda.
- 6 kmgacha masofalarga qisqa yurishlar uchun muntazam ishlatiluvchi avtomobillar.



**AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSION  
MA'LUMOTLARI**

**Avtomobilning identifikatsion raqami  
(VIN)**

Avtomobil identifikatsiya raqami quyidagi joylarda qo'llaniladi:

- Haydovchi tomonida old oyna ostida.
- O'ng old eshik ostidagi ustunga biriktirilgan identifikatsiya jadvalchasida.
- Old yo'lovchi tomonida pol tagida.

**Pasport jadvalchasi**

Identifikatsiya jadvalcha o'ng old eshik ostidagi ustunga biriktirilgan.

## TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNING ISH TARTIBI

Avtomobilning davriy texnik xizmat ko'rsatilishining o'tkazilishi uchun mas'uliyat va muvofiq hujjatlarni yuritish avtomobil egasining zimmasida bo'ladi. Siz ishlab chiqaruvchining ish tartibiga to'liq muvofiqlikda avtomobil o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishdan o'tganligini hujjat bilan tasdiqlanishga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatishning davriyligi avtomobilning bosib o'tgan masofasiga yoki xizmat ko'rsatish muddati bilan, qaysi biri avval boshlanishiga bog'liq holda, aniqlanadi.	O'tilgan masofa, km (x 1000)	7,5	15	22,5	30	37,5	45	52,5	60	67,5	75	82,5	90	97,5	105
	Xizmat muddati, oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60	66	72	78	84
O't oldirish svechalari	(4)		I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I
Dvigatel va YUO'Q: sizib chiqishlar mavjudligini va ishlatish suyuqliklarining darajasini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Osmo agregatlar uzatmasi kamari: taranglikni tekshirish va zarurat tug'ilganda uni tortish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Osmo agregatlar uzatmasi kamari: almashtirish.		Har 240 000 km													
Shlangni tekshirish va zarurat tug'ilganida uni almashtirish.			I		I		I		I		I		I		I
IYOD havo filtri: filtrlovchi elementni almashtirish.	(5)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
Benzinli dvigatelni yonilg'i filtri (tashqi): almashtirish.	(1) (2)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Dvigatel osmasi: Shikastlanishlar va o'tirib qolishlarni mavjudligini tekshirish.				I			I			I			I		
Chiqarish tizimi osmasi: Shikastlanishlar va o'tirib qolishlarni mavjudligini		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yonilg'i shlangi: tekshirish.		I			I			I			I			I	

**Belgilanishlar:**

I - nazorat qilish va zarurat tug'ilganida sozlash, tozalash, tortib mahkamlash, moylash, ishlatish suyuqligini qo'shimcha quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va bu ishlarni avtomobil egasi to'laydi;

R - almashtirish;

**(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda ishlatilayotgan bo'lsa, ancha tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: Ishlatish sharoitlarini servis kitobchasining 38-betida yoki ishlatish bo'yicha Qo'llanmada ko'ring;**

(2) Ishlatish bo'yicha Qo'llanmaning "ISHLATISH MATERIALLARI" bo'limida ko'ring;

(4) Tavsiya etilgan sifatga nomuvofiq yonilg'ini ishlatishda, har bir texnik Xizmat ko'rsatishda ko'rik va odatiy TXKga qaraganda ikki marta tez-tez almashtirish talab etilishi mumkin. Ushbu ishlar TXK o'tkazilishida qo'shimcha hisoblanadi. Yonilg'iga talablar ishlatish bo'yicha Qo'llanmada tavsiflangan;

(5) Agar avtomobil tuproq yo'llarda ishlatilayotgan bo'lsa, uni har 7500 km yoki 6 oy ishlatishdan so'ng tekshirish kerak. Zarurat tug'ilganida ta'mirlashni, tozalashni yoki almashtirishni amalga oshiring.

**TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNING ISH TARTIBI (davomi)**

Avtomobilning davriy texnik xizmat ko'rsatilishining o'tkazilishi uchun mas'uliyat va muvofiq hujjatlarni yuritish avtomobil egasining zimmasida bo'ladi. Siz ishlab chiqaruvchining ish tartibiga to'liq muvofqlikda avtomobil o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishdan o'tganligini hujjat bilan tasdiqlanishga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	7,5	15	22,5	30	37,5	45	52,5	60	67,5	75	82,5	90	97,5	105
	Xizmat qilish muddati, oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60	66	72	78	84
Motor moyini almashtirish	(1) (2) (9)	<b>5000 km yoki 6 oyda almashtiring</b>													
Motor moyi filtrini almashtirish	(1)	Har motor moyi almashganda. Og'ir (ekstremal) sharoitlarda foydalanganda har 5 000 km.													
Ko'mir adsorberni tozalash shlangi: to'lib qolishini tekshiring.															
Ko'mir adsorberi: almashtirish.		Og'ir sharoitlarda doimiy foydalanishda (notekis, changli yo'llar). Har 10 000 km.													
Sovutish tizimidagi suyuqlik sathini va sizishlarning mavjudligini tekshirish.															
Sovutish suyuqligini almashtirish va sizishini tekshiring.	(2) (3)														
Shlanglar, shtutser, radiator va sovutish suvi nasosi: sathini va oqishini tekshiring.															
Konditsioner tizimining ishlashini tekshirish.	(*)														
Salonning havo filtri (konditsioner): almashtirish	(7)				R				R				R		
Konditsioner havo yo'li matoli himoyasi: to'lib qolishni tekshiring.															
Tarqatuvchi qutini germetiklikka tekshirish.															
Agar to'liq yuritma (4x4) doimiy ishlatilsa, uzatmalar qutisi moyini almashtiring.	(2)	<b>Har 3 yil yoki 70 000 km yo'l o'tganda</b>													

**Belgilanishlar:**

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(3) 150 000 km yoki 5 yil dan keyin almashtirish;

(7) Tuproq yo'llarida foydalaniladigan avtomobillar uchun tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi;

(9) Agar dvigatel moyining qoldiq umrining ko'rsatkichi mavjud bo'lsa, uning haqiqiy ko'rsatkichlarga foydalanish sharoitlariga qarab rioya qilish kerak. Dvigatel moyini o'zgartirish intervallari qisqartirilishi mumkin;

(\*) Qabul qilgich-quritgich har besh yilda almashtiriladi.

### TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNING ISH TARTIBI (davomi)

Avtomobilning davriy texnik xizmat ko'rsatilishining o'tkazilishi uchun mas'uliyat va muvofiq hujjatlarni yuritish avtomobil egasining zimmasida bo'ladi. Siz ishlab chiqaruvchining ish tartibiga to'liq muvofiqlikda avtomobil o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishdan o'tganligini hujjat bilan tasdiqlanishga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	7,5	15	22,5	30	37,5	45	52,5	60	67,5	75	82,5	90	97,5	105
	Xizmat qilish muddati, oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60	66	72	78	84
Uzatmalar qutisi (barcha modifikatsiyalar): moy sathini tekshiring va agar kerak bo'lsa, to'ldiring.	(2)														
Avtomatik uzatmalar qutisining transmission moyi	(2)	Quyidagi izohga (8) qarang.													
Old va orqa most: moy darajasini tekshirish.															
Old va orqa most: moyni almashtirish.	(1) (2)	Har 120 000 km.													
Tormoz kolodkalari va diskleri: shikastlanishini tekshirish.	(5)														
Nakladka: shikastlanishini tekshirish.	(5)														
Tormoz yo'llari (quvurlar va shlanglar): germetikligini tekshiring															
Tormoz suyuqligi: sathini tekshirib ko'ring, agar u minimal darajadan past bo'lsa - sizishni bartaraf qiling va tormoz suyuqligini almashtiring.	(1) (2) (4)				R				R				R		
To'xtab turish tormoz tizimi: tekshirish va sozlash. Sharnir va tros'larni moylash.															
Sharh oporalar va podveska dastagi: zazorlar va zararni baholash.															

#### Belgilanishlar:

**I** - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

**R** - almashtirish;

**(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;**

**(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;**

**(4) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yildan s'ong foydalanish materiallarini almashtirish kerak bo'ladi:**

- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki

- tirkama bilan tez-tez yurish;

**(5) Og'ir sharoitlarda foydalanilganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigatelni salt ishlash rejimida yurgizish, tez-tez yo'lda tirbandlikda tiqilib qolish sharoitida past tezlikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.**

**(8) Avtomatik uzatmalar qutisida moyni almashtirish quyidagi sharoitlarda foydalanishda:**

- me'yordagi sharoitlarda har bir 140 000 km dan keyin;

- og'ir sharoitlarda har bir 70 000 km dan keyin talab etiladi;

**TEKNIK XIZMAT KO'RSATISHNING ISH TARTIBI (davomi)**

Avtomobilning davriy texnik xizmat ko'rsatilishining o'tkazilishi uchun mas'uliyat va muvofiq hujjatlarni yuritish avtomobil egasining zimmasida bo'ladi. Siz ishlab chiqaruvchining ish tartibiga to'liq muvofqlikda avtomobil o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishdan o'tganligini hujjat bilan tasdiqlanishga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatishning davriyligi avtomobilning bosib o'tgan masofasiga yoki xizmat ko'rsatish muddati bilan, qaysi biri avval boshlanishiga bog'liq holda, aniqlanadi.	O'tilgan masofa, km (x 1000)	7,5	15	22,5	30	37,5	45	52,5	60	67,5	75	82,5	90	97,5	105
	Xizmat muddati, oylar	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60	66	72	78	84
Oldingi va orqa amortizatorlar: detallarni mahkamlanishini va moyning oqib ketishini tekshirish.															
Shinalar: havo bosimini, edirilishini va shikastlanishini tekshirish, zarurat tug'ilganda o'zgartirish. G'ildirak boltlarini tortish maqomini tekshirish. (6) Agar me'yordan og'ish kuzatilayotgan bo'lsa, g'ildiraklarni o'rnatish burchaklari															
Kuzov va tub: lak bo'yoq qoplamaning butunligini va korroziya izlari mavjudligini tekshirish.															
Xavfsizlik kamarlari: kamarlarni, qulflarni va mahkamlagichlarni, ularning ishini va bog'lanishlarning burab qotirilishi maqomini tekshirish.															
Oldi yon tomon eshigining oynasini zichlagichi: Oyna sirpanadigan zichlagichning ichki va pastki manjetlarga aerazol ballonchadan GM firma silikonli moyni surting. Silikonli moyni oynaning zichlagichining vertikal oldingi va orqa qismlariga surtish kerak.															
Elektr asbob-uskunalar: tekshirish qurilmasi yordamida nosozliklarning kodlarini tekshirish.															
Yoritiluvchi uskunalar va ovozi signal: tekshirish.															
Old oynaning tozalagichlari va yuvgichi: cho'tkalarining holatini tekshirish va zarurat bo'lganida ularni yuvish.															
Blok-faralarni sozlash: yorug'lik tutamlarining yo'nalishini tekshirish.															
Yonilg'i bakining sapuni: o'tkazuvchanlikni tekshirish.															

**Belgilanishlar:**

**I** - nazorat qilish va zarurat tug'ilganida sozlash, tozalash, tortib mahkamlash, moylash, ishlatish suyuqligini qo'shimcha quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va bu ishlarni avtomobil egasi to'laydi;

**R** - almashtirish;

(6) Shinalar holatini dvigatel ishga tushirilgunicha, shinalardagi havo bosimini esa - yonilg'i bakini har bir to'ldirilganida yoki, hech bo'lmaganida, oyda bir marta (manometrdan foydalanish bilan) tekshirish kerak.

**AVTOMOBILNING MA'LUMOTLARI****Moy-suyuqlik hajmlari**

<b>Qo'llaniladi</b>	<b>Suyuqlik</b>	<b>Hajmi (L)</b>
Motor moyi (zavoddan yetkazib berishdagi)	DEXOS1 0W20	5,7
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi (zavoddan yetkazib berishdagi)	DEX-COOL/Caltex ELC	9,1
AYUO'Q uchun suyuqlik (zavoddan yetkazib berishdagi)	Dexron VI	9,8
Tormoz suyuqligi (zavoddan yetkazib berishdagi)	DOT4	0,877

**Tavsiya etiladigan suyuqliklar va moylash materiallari**

<b>Bog'lam yoki agregat</b>	<b>Moylash materiallari/suyuqliklar</b>
Avtomatik yuritmalar qutisi	Dexron VI moyi
Motor moyi	Motor moyining keraklik yopishqoqlik darajasi SAE, Dexos 1 gen 3 xususiyatiga ga mos ravishda sertifikatlangan.
Tormoz tizimi	Tormoz suyuqligi DOT 4
Old oyna tozalagichlarining suyuqligi	Old oyna tozalagichlarinig suyuqligi, maxalliy joylardagi muzlash darajasi talablariga javob beruvch
Motorning sovutuvchi suyuqligi	Ichimlik suvi va sovutish suyuqligi DEX-COOL dan hosil bolgan 50/50 aralashmasini ishlatish

